

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 4 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 4 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

ИСАНОВА ФЕРУЗА ТУЛҚИНОВНА

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Гайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Gadoyev Dadaxon Hayrulloevich
“ХО‘ЖА PESHKO” MASJIDI TARIXI 9-14

Raxmatulloev Murodjon Xikmatulloevich
MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJLANISHIDA SO‘Z ERKINLIGINING
MINTAQAVIY-HUQUQIY ASOSLARI..... 15-20

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Курпаяниди Константин Иванович
НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТОДОЛОГИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ
СРЕДЫ МАЛЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ 21-34

Камбаров Жамолдин Хикматиллаевич
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ БОЗОР ҚОНУНЛАРИГА ТАЪСИРИ ТАДҚИҚИ 35-45

Паязов Мурод Максудович
“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ХИЗМАТЛАР БОЗОРИДАГИ БОШҚАРУВ
СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ..... 46-59

Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич
ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШНИ
БАҲОЛАШ ХАЛҚАРО АМАЛИЁТИ 60-74

Хожаев Азизхон Саидалохонович
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА
БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ, ЎРНИ ВА УЛАРНИНГ
ТАҲЛИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ 75-87

Хўжанова Гулшода Отамуродовна
САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА КЛАСТЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 88-93

Хатраева Сайуора Nasimovna, Pirimqulov Жаҳонгир
АНОЛИ OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA O‘SIMLIKCHILIK TARMOG‘INI
RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI 94-99

Пардаева Шаҳноза Абдинабиевна
МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАРНИНГ СТРАТЕГИК БОШҚАРУВ ҲИСОБИ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ..... 100-105

Очилова Наргиза Акрамовна
ЗНАЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ДЕХКАНСКИХ И ПОДСОБНЫХ
ХОЗЯЙСТВ 106-112

Alimardonova Zebuniso

SURXONDARYO VILOYATINING MAMLAKATIMIZ TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI
O'RNINI VA ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINING TAHLILI113-118

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Khakimov Nazar, Amridinova Dilrabo, Kurbanova Sevara

TEACHING SOCIAL HUMANITARIAN SUBJECTS IN UNIVERSITY: NAVIGATING COMPLEXITIES
AND CONTROVERSIES IN THE CLASSROOM TO EMPOWER STUDENTS119-125

Bayaliev Djaxongir Kaynarbekovich

GLOBALSHUV JARAYONIDA DINIY VA DINYOVIY G'OYALARNING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI126-132

Raurova Ra'no Soyibovna

XOJA ISMAT BUXORIY MANAVIY BARKAMOLLIKKA ERISHISH HAQIDA133-137

Yusubov Jaloliddin Kadamovich

JAHON ILM-FANIDA ABU NASR FOROBIY ILMIY-MADANIY MEROSINING TUTGAN O'RNINI VA
AHAMIYATI138-145

Xolmirzaev Nodirjon Низомжонович

ШАХАРЛАР ЭКОЛОГИЯСИНИ САҚЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ146-151

Қиличев Абдор

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДА БОШҚАРУВ ИНСТИТУТЛАРИ152-162

Мамасалиев Мирзоулуф Мирсаидович

АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ - АХЛОҚИЙ ЖИХАТЛАР163-169

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

JADIDLAR MA'NAVIY MEROSIDA XOTIN-QIZLAR TARBIYASI170-175

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Жумаева Феруза Рузикуловна

ТРАНСПОЗИЦИЯ ВНУТРИ КАЧЕСТВЕННЫХ И НЕКАЧЕСТВЕННЫХ
АДЪЕКТИВОВ176-181

Fayziyeva Aziza Anvarovna

KONSEPTUAL METAFORIK MODELLARNING O'ZBEK TILIGA
TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK182-187

Кадиров Камол Намазович

ИЗУЧЕНИЕ ВОЛШЕБНЫХ СКАЗОК В МИРОВОЙ ФОЛЬКЛОРИСТИКЕ188-194

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li
LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK VA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING O'ZARO ALOQASI VA
ULARDA KONSEPTNING AHAMIYATI195-202

Камилова Дурдона Козимджановна
ТИЛЛАРДА “БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК” ТЕРМИНЛАРИНИНГ СТРУКТУРАЛ
ШАКЛЛАНИШИ203-209

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Ismatullayev Otabek Taxirovich, Maxmudov Bahodir Hakimjon o'g'li
ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK JINOYATLARNI
TERGOV QILISHDA XORIY TAJRIBASI210-215

Икромов Шерзод Рахимджанович
ЕТИМ БОЛАЛАР ВА ОТА-ОНА ҚАРМОҒИДАН МАҲРУМ БЎЛГАН БОЛАЛАРГА ДОИР
МАЪЛУМОТЛАРНИ СИР САҚЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУАММОЛАРИ216-221

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Jurayev Bobomurod Tojiyevich
SOMONIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK TA'LIMOTLARIDA
VATANPARVARLIK TARBIYASI MASALALARI222-226

Хакимова Мақсадхон Дилшодбековна
ЎТКУР ЮРАК КИРЛАРИНИ ЮВАДУРҒОН ТОЗА МАЪРИФАТ СУВИ227-233

Abdullayev Madiyar Daniyar o'g'li
XORIJIY MAMLAKATLARDA GEOGRAFIYA TA'LIMI MUAMMOLARI234-240

Nasritdinova Madina Nurullayevna
ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING
IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI241-246

Botirova Sevara Mamurovna
PEDAGOGIKADA ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA MODELLARI247-253

Sarvarova Gulshan Israfilovna
THE ROLE OF ASSESSMENT LITERACY IN EFL254-258

Хамидова Зайнура Рамазоновна
УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ
БАҲОЛАШДА КОНЦЕПТУАЛ ЁНДАШУВЛАР259-264

Jumayev Sohijon Botirboyevich
O'QUV-MASHG'ULOT GURUHLARIDA SHUG'ULLANUVCHI 11 YOSHLI KURASHCHILARNING
UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGI DINAMIKASI265-271

<i>Tursunova Mukhabbat Ikromovna</i> THE POWER OF PERSONALIZATION: UNLOCKING SUCCESS WITH AN INDIVIDUAL STRATEGY FOR ENGLISH TEACHERS	272-277
<i>Samadova Sarvinoz Samad qizi</i> BAG'RIKENGLIK TARBIYASI – DAVR TALABI	278-283
<i>Ismailova Guzal Fayzullayevna</i> PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURTI CHET TILI YO'NALISHI TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA TIZIMLI YONDASHUVLAR	284-289
<i>Землянкина Юлианна Искандаровна</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	290-298
<i>Samadova Marg'uba Kuchkarovna, Ziyayeva Muhayyo Usmanjonovna</i> COMPULSORY METHODS IN TEACHING ESP	299-303

07.00.00-Тарих фанлари

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich
Buxoro Davlat Universiteti
tayanch doktoranti

“ХО‘JA PESHKO” MASJIDI TARIXI

Annotatsiya. Maskur maqolada besh asrlik tarixga ega Xo‘ja Peshko‘ masjidi haqida so‘z yuritiladi. Masjid kim tomonidan qachon qurilgani haqida ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari sovet hukumati yillarida masjidga bo‘lgan munosabat atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Peshko, Afshona, Qutayba ibn Muslim, Xo‘ja Islom, Xoja Sad, Tojiddin Hasan, Fayzulla Xo‘jayev, Zandane.

Гадоев Дадахон Хайруллоевич
Базовый докторант Бухарского
государственного университета

ИСТОРИЯ МЕЧЕТИ “ХОДЖА ПЕШКУ”

Аннотация. В этой статье рассказывается о мечети Ходжа Пешко, история которой насчитывает пять веков. Дается информация о том, кто и когда построил мечеть. Кроме того, подробно освещается отношение к мечети в годы советской власти

Ключевые слова: Пешку, Афшона, Кутайба ибн Муслим, Ходжа Ислам, Ходжа Сад, Тожиддин Хасан, Файзулла Ходжаев, Зандане.

Gadoev Dadakhon Khairulloevich
Research fellow of Bukhara State University

HISTORY OF THE MOSQUE “KHOJA PESHKU”

Annotation. This article tells about the Khoja Peshko mosque, the history of which goes back five centuries. Information is given about who and when built the mosque. In addition, the attitude to the mosque during the years of Soviet power is covered in detail.

Key words: Peshku, Afshona, Kutayba ibn Muslim, Khoja Islam, Khoja Sad, Tojiddin Khasan, Faizulla Khodjaev, Zandane.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N01>

Kirish

Xo‘ja Peshko‘ masjidi Buxoro viloyati Peshko‘ tumani Xo‘ja Peshko‘ qishlog‘ida joylashgan. Bu qishloqda qadimiy masjid bo‘lib, taxminan XVI asrlarda Shayboniyxonlar shayxlari tomonidan qurilgan. Masjid shu qishloq nomi bilan ataladi. Masjid tarixi haqida

gapirishdan oldin “Peshko” so‘ziga to‘xtalib o‘tsak. Tuman nomi ham Peshko‘ deb atalib, Buxoroning qadimiy tumanlaridan biri.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xo‘ja Peshko‘ masjidi tarixi masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar sohasida tarixshunos va sharqshunos olimlardan R.L.Gafurova, N.Yo‘ldoshev, R.V.Almyev, P.Sh.Zaxidov, E.V.Rtveladze, Ye.G.Nekrasova, Sadridin Salim Buxoriy, H.H.To‘rayev, A.H.Hamroyev, T.B.Xudoyqulovlar ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovor.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiylik, tizimlilik, muammoviy-xronologik, muammoviy-maqsadli, mantiqiy yondashuv, sotsiologik kuzatuv va suhbat, qiyosiy tahlil hamda og‘zaki tarix (intervyu) usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

XVI asr boshlarida hozirgi Peshko‘ hududi Zandane deb atalgan to XX asrning 50 yillarigacha Peshko‘ tumani Zandane (hozirgi kunda tumanda shu nomdagi qishloq bor) nomi bilan yuritilgan. Zandane nomi juda qadimiy bo‘lib, Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” kitobida yozishicha Afshonada Qutayba ibn Muslim masjid qurdirgan. Muhammad ibn Vose (xalq orasida Xo‘ja Zafaron nomi bilan mashhur) Zandaneda masjid qurganligi haqida ma‘lumot bor[1].

Bundan tashqari Zandane ilk o‘rta asrlarda o‘zining “Zandanacha” matosi bilan mashhur bo‘lgan. Hukumdorlar va ulug‘ kishilar bu matodan kiyim tiktirganlar va uni kiyishni o‘zlariga sharaf deb bilganlar. Tarixiy manbalarda aytilishicha, Sohibqiron Amir Temur hokimyatni egallagunga qadar opasi va boshqa yaqinlarini Zandanada qoldrib ketgan. XX asr boshlarida Buxoro viloyati tarkibida 11 ta tuman bo‘lib Xutfar tumani markazi Zandane bo‘lgan. 1920 yilga qadar Zandane istiqloqlilik harakatining markazlaridan bo‘lgan. Xutfar yerlari hozirgi Peshko‘ tumani hududini tashkil etadi[4].

Tarixni diqqat bilan kuzatsak, XX asrning o‘rtalariga qadar hech qayerda Peshko‘ so‘zi ishlatilmaydi. Xo‘sh, tarixda Peshko‘ so‘zi ishlatilmagan bo‘lsa, qanday qilib XVI asrda Xo‘ja Peshko‘ masjidi qurildi. Tarixda bu masjid “Zandane” masjidi, xonaqosi, madrasasi deb yuritilgan.

Xo‘ja Peshko‘ masjidi shayboniylar davlatining shayxul-islomi Xo‘ja Islom o‘g‘li Xoja Sadning o‘g‘li Tojiddin Hasan tomonidan qurilgan. Jo‘ybor xojalarining yirik vakillaridan Xoja Tojiddin (1574-1646) Xoja Sa‘dning katta o‘g‘li va unga tegishli mol-mulkning qonuniy merosxo‘rlaridan biri sanalgan. U nafaqat xonadon doirasida, balki Buxoro xonligida katta mavqega ega edi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining aksariyat qismi Ashtarxoniyalar davriga to‘g‘ri keladi. Uning mavqeini Imomqulixon o‘z singlisi Poyanda sultxonimni Xoja Tojiddinga nikohlab berganidan bilsa ham bo‘ladi.

Xoja Sa'd o'zining butun kuch-g'ayratini to'ng'ich farzandi Xoja Tojiddin ma'naviy-ruhiy va moddiy kamolotiga bag'ishladi. Xoja Tojiddin o'n yetti yoshida (1591 yil) xoja masnadiga o'tirdi. Shu davrdan boshlab Xoja Tojiddinning ijtimoiy hayotdagi mavqei orta boshladi. Shayboniy Abdullaxonning Jo'ybor xojalari xonadonining nufuzli vakillaridan biri Xoja Tojiddinga bo'lgan e'tibori yuksala bordi.



Xoja Tojiddinga ota-bobolaridan katta mulk meros qoladi. Mulq geografiyasi juda keng bo'lib, u Movarounnahr va Xurosonning turli shahar va qishloqlarida mavjud edi. Chunonchi, Buxoro, Samarqand, Balx, Toshkent, Andijon, Hisor, G'uzor, Shahrisabz, Qorako'l, Miyonkol, Chorjo'y viloyatlarida Xoja Tojiddinga tegishli bo'lgan mulklar joylashgan "Matlab at-tolibin" muallifining xabar berishicha, xojazodaning ellik to'rt bog'i, g'ishtli saroylari, tim va bozorlari bo'lgan. Ulardan ba'zilar Buxoro, Toshkent, Qorako'l, G'ijduvon atroflarida, Zandanada joylashgan edi. Shuningdek, Balxda ham Xoja Tojiddinga tegishli saroy, bozor va timlar bo'lgan. Shubhasiz, bular katta daromad manbai bo'lib, xonadonga katta foyda keltirib turgan. Xojazoda daromadi mavjud chorva mollari hisobidan ham ko'payib borgan. 20 ming yilqi va qo'y, 20 qator tuya Xoja

Tojiddin chorvasini tashkil etgan. To'pxona, oshxona kabi imoratlar ham Xoja Tojiddin mulki hisoblangan.

Masjid joylashgan yer Tojiddin Hasanning Zandanada joylashgan bog' maydoni bo'lgan. Shu yerda tabiiyki bir savol tug'iladi! Xo'ja Peshko' kim nima uchun Tojiddin Hasan uning nomiga atab masjid barpo etgan?

Hozirgi badiiy adabiyotlarda aytilishicha, Xo'ja Peshko'ning asl ismi Abu Ahmad Nabixon ibn Ishoq Muhammad al Paskoxiriy deb bo'lgan. Qachon tug'ilgani aniq emas, lekin vafot etgan yili 937 yil deb berilgan. Bu adabiyotlarda Xo'ja Peshko' muhadis deb ko'rsatilgan. Xalq orasidagi rivoyatlarga ko'ra, xalq tomoniga dushman hujum qilib, yurtga katta talofat yetkazayotgan paytda odamlar qattiq qo'rquvga va vaximaga tushadi. Shunda ular Xo'ja Peshko'dan yordam berishlarini so'rab murojat qilishadi. Shunda Xo'ja Peshko' bosh kiyimlarini yechib dushman tomonga uloqtiradi[6].



Ana shunda sallaning o'rniga katta tog' paydo bo'lgan ekan. Tog'ni ko'rgan dushmanlar esa qaytib ketadi. Chunki PESH KO'X deb sado berishadi. PESH KO'X degani forsiy tildan olingan bo'lib, Oldi Tog' degan ma'noni anglatadi. Shundan keyin Peshko' so'zi kelib chiqqan. Bu albatta rivoyat chunki Peshko' tumanida birorta tog' yo'q.

Bizning fikrimizcha, Xo'ja Peshko' qishlog'iga nisbatan ishlatilgan. Chunki, Xo'ja Peshko' qishlog'ida asosan xo'jalar toifasiga mansub aholi asosan o'zbeklar -80,27%, tojiklar-16,19%, qozoqlar-2,33%, turkmanlar 0,28% yashaydi. XX asrning oxirlaridan boshlab

tuman nomi ham ushbu qishloqqa nisbatan Peshko' deb ataldi. Biz xuddi shunday nisbatni Peshko' tuman markazi Yangibozor qo'rg'onning avvalgi nomi Chiqirch (Chiqirchi) bo'lib, qishloq ahli chig'r orqali dalaga chiqariladigan suvdan foydalanib kelgan. Shu bois aholi o'z qishlog'ini Chiqirchi deb atagan[5].

Masjid XVI asr memorchiligiga xos tarzda qurilgan. Masjidning katta gumbazi bo'lib, uning diametri 32 metr, balandligi esa 8 metr. Masjidning umumiy balandligi jami 20 metrdan iborat xonaqo bo'lgan. Bu masjid xonaqosi 16 ta hujradan iborat. Shu bilan birga 2 ta chillaxonasi ham bor. Hujralarning pastki qismida, o'sha paytlarda diniy va dunyoviy bilimlar o'rgatiladigan joy bo'lgan. Hujralarning yuqori qismi esa yotoqxona vazifasini bajargan. Keyinchalik XVIII asrlarda masjidda qo'shimcha ayvon qurilgan. Bu ayvon yozgi masjid vazifasini bajargan. Masjidning janubiy-sharqiy tomonida XIX asrga kelib minora qurilgan. Minoraning yettita darichasi bo'lib, munqarnasi ikki qator habzakli sharafa bilan bezatilgan. Minoraning pillapoyasi sariq xarsang toshdan qo'yilgan. Ostonasi Buxoroning gujum yog'ochidan qilingan. Eshigi yerdan boshlanadi. Minora ba'zi minoralarga o'xshab masjid bilan payvasta qilib qurilmagan. Minoraning balandligi 16 metr, belgidagi aylanalar soni 15 ta, tiri juda mustahkam. G'ishtlari obi g'isht bo'lib, maxsus xumdonlarda pishirilgan. Shuncha vaqt o'tgan bo'lsa ham zax, tuz, zilzila unga salbiy ta'sir qilmagan[2].

Minorasining munqarnasida bir halqa pastda nastaliq xatida. Minora qurilishi Abduyunusboy degan kishi tomonidan boshlangan. Ba'zi sabablarga ko'ra oxirigacha qurib bitkazilmagan. Minorani qurib bitirgan kishi minoraga shunday ikki misra bitik bitgan:

Abduyunusboy sar kardast minor, partoftast,

Raftas Minoraro bud kardast Kulol.

Minora qurib bitkazilgandan keyin, u xonaqo ko'rkiga ko'rk baxsh etgan. Keyinchalik Sobiq sho'rolar davriga kelib, "Xo'ja Peshko'" xonaqosi xarobaga aylantirildi. Masjiddan

omborxonaga, mineral o'g'it saqlaydigan joy sifatida foydalanilgan, keyinchalik uni muzeyga aylantirilgan.

O'zbekiston Xalq Kommissarlar Soveti raisi Fayzulla Xo'jayev 1930 yilda Xo'ja Peshko' qishlog'ida usti ochiq mashida kelib shu masjid yonida mahalliy aholi bilan yig'ilish o'tkazadi. Yig'ilishning asosiy sababi dehqon va batraklarni kolxozga ishga kirishga da'vat etish edi. Bu uchrashuvni keyinchalik Zayni Baqoyev o'z xotiralarida eslab o'tadi[3].



Sovet hukumati yillarida "Xo'ja Peshko'" masjidi mahalliy xalq tomonidan bir necha marta ta'mirlangan. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin 1993 yilda birinchi marta O'zbekiston musulmonlari idorasi ro'yxatidan o'tgan va musulmonlar bemalol ibodat qila boshlaganlar.

Xulosa va takliflar

Hozirgi kunda musulmonlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan bo'lib, 5 mahal

namoz va Juma namozlari o'qiladi. Qolaversa, hayit namozlari bayramona tarzda o'qiladi. Hozirgi kunda "Xo'ja Peshko'" jome' masjidi Buxoro viloyat Yodgorliklarni, madaniy me'ros ob'ektlarini saqlash va ta'mirlash idorasi qaramog'ida.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: "Sharq mash'ali" jurnaliga ilova "Sharq bayozi", 1993. – B.47.
2. Husenov S., Rajabova I. Chor Bakr. – Toshkent: "Sharq. 2001. –B. 31.
3. Murodov X., Valiyev Yu. Navqiron Peshko'. – Toshkent: "Kamalak", 1994. – B. 89.
4. Rajabov Q. Qandov B. Peshko' tumani tarixi. "Tafakkur", 2015. – B.17.
5. O'tayeva F. Peshko' tumani tarixi va e'timalogiyasi xususida // Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro: 2019. – B.148.
6. Ko'hna Buxoro mo'jizalari. – Toshkent: "Tamaddun", 2022. –B.96.
7. Xayrulloevich G. D. History of Construction of Primary Bukhara Mosques //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 14-21.
8. Khairulloevich G. D. The History of Kalon Mosque //International Journal on Integrated Education. – T. 4. – №. 4. – C. 158-163.
9. Гадоев Д. Х. ПЕТЕРБУРГДАГИ ЖОМЕ МАСЖИДИ: ҚУРИЛИШИ ВА ТАҚДИРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2019. – №. 15.
10. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 6. – C. 229-233.

11. Turdiyev B. Spiritual Renewal: THE new decree and the strategy of life-inspiring reforms //Центр Научных Публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
12. Turdiyev B. Bukhara-center of islamic spiritual and culture //Центр Научных Публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
13. Sobirovich T. B. New Uzbekistan: Socio-Philosophical Analysis of the Strategy of Human Indicators //Available at SSRN 3949264. – 2021.
14. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 197-202.
15. Sobirovich T. B. The national and universal principles of democracy in the Central Asian context //International Journal of Advanced Research and Review. – 2021. – Т. 6. – №. 1. – С. 30-34.
16. Turdiyev B. S. Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 443-451.

07.00.00 – Тарих фанлари

Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJLANISHIDA SO‘Z
ERKINLIGINING MINTAQAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mustaqillikning dastlabki yillaridan hozirgi kungacha davlatimiz tomonidan ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati, shuningdek bu borada qabul qilingan qaror va qonunlarda OAVlarga berilgan huquq va majburiyatlar haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ommaviy axborot vositalari, so‘z erkinligi, axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklari, e’tiqod erkinligi, senzura, axborot sohasida qulay imkoniyatlar, so‘z va axborot erkinligini ta’minlash.

Рахматуллоев Муроджон Хикматуллоевич
Независимый научный сотрудник
Бухарского государственного университета

**РЕГИОНАЛЬНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА СВОБОДЫ
СЛОВА В РАЗВИТИИ ПРЕССЫ И СМИ**

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание и сущность реформ, проведенных нашим государством в области либерализации СМИ с первых лет независимости, а также права и обязанности, предоставленные средствам массовой информации в решениях и законах, принятых в этой связи.

Ключевые слова: средства массовой информации, свобода слова, свобода информации, права и свободы человека, цензура, благоприятные возможности в сфере информации, обеспечение свободы слова и информации.

Rakhmatulloev Murodjon Hikmatulloevich
Research Fellow of Bukhara State University

**REGIONAL-LEGAL BASIS OF FREEDOM OF SPEECH IN THE DEVELOPMENT OF THE PRESS
AND MEDIA**

Annotation. This article discusses the content and essence of the reforms carried out by our country regarding the liberalization of the mass media from the first years of independence to the present, as well as the rights and obligations given to the mass media in the decisions and laws adopted in this regard.

Key words: mass media, freedom of speech, freedom of information, human rights and freedoms, freedom of belief, censorship, favorable opportunities in the field of information, ensuring freedom of speech and information.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N02>

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2022 yil 27 iyun kuni OAV xodimlariga tabrigida Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari soni 2016 yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetganini ta'kidlab, ayniqsa xususiy media vositalari jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda, tub islohotlarni amalga oshirishda, joylarda yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolarni dadil ko'tarib chiqishda muhim omil bo'layotganini e'tirof etdi. Shuningdek, milliy axborot makonida internet nashrlarining soni so'nggi 6 yilda salkam ikki barobarga ko'payib, 677 taga yetgani alohida ta'kidlandi [1].

Har qanday davlatda insonparvar, adolatparvar va odil fuqarolik jamiyat barpo etish ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalari va so'z erkinligiga berilgan e'tibor va imkoniyat darajasiga bog'liq. Bu borada keyingi yillarda yurtimizda ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, matbaa faoliyatini rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnikaviy bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, so'z va axborot erkinligini ta'minlash borasida qator qonun va qarorlar qabul qilinib, sohada mustahkam huquqiy baza yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni 1991-yilda qabul qilingan. Ushbu qonun bir necha bor yangilandi va 1998-yilda sezilarli o'zgarishlar, jumladan 2002-yilda Qonunga "Monopollashtirishga yo'l qo'ymaslik" qo'shimcha moddasi kiritildi. Ushbu qonunning so'nggi tahriri 2007-yilda tasdiqlangan. 2018-yilda mazkur qonunga yangi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi [2]. Shuningdek, bu borada "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" (1997), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997), "Jurnalistlik faoliyatini himoya kilish to'g'risida" (1997), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" (1996), "Noshirlik faoliyati to'g'risida" (1996), "Reklama to'g'risida" (1998), "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" (2002) qonunlar qabul qilingan. Ushbu qonunlarning asosiy maqsadi O'zbekistonda so'z erkinligini ta'minlash kafolatlariga, har kimning axborotni erkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foydalanish va saqlash huquqlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgandir. Bu borada

Qonunga ko'ra ommaviy axborot vositalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Muassisning ommaviy axborot vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi arizasi ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan o'n besh kunlik muddatda ko'rib chiqilishi kerakligi belgilandi.

Dastlab so'z va axborot erkinligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida belgilab berildi. Asosiy Qomus inson huquq va erkinliklarining kafolati sifatida har kimning fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanishini mustahkamlab qo'ydi. Jumladan, unda: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida OAVlarning mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlab berildi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l

qo'yilmaydi". Darhaqiqat, fuqarolik jamiyatini qurishda OAVlarning davlat senzurasidan xoli qilish, ular faoliyatida davlat aralashuvini minimallashtirish jamiyatda erkin fikrlash, axborot makonini kengayishiga olib keladi. Fuqarolar ommaviy axborot vositalarida, jumladan, televideniye va radio, matbuotda o'z fikrlarini erkin bayon qilishi, so'zlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan bu moddalar xalqaro huquq normalariga to'g'ri keladi. BMT tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 19-moddasida "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi". Har bir fuqaro erkin axborot olish va tarqatish huquqiga ega. Ammo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga ko'ra amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin. Bu haqida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning 6 moddasiga asosan:

1. O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish;
2. urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalarini targ'ib qilish;
3. davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish;
4. milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborot tarqatish;
5. agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ'ib qilish;
6. pornografiyani targ'ib etish;
7. qonunga muvofiq jinoiy va o'zga javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadida foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.
8. Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlash, shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi.
9. Prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsatisiz surishtiruv yoki dastlabki tergov materiallarini e'lon qilish, muayyan ish bo'yicha sud qarori chiqmasdan turib yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirmay turib, uning natijalarini taxmin qilish yoxud sudga boshqacha yo'l bilan ta'sir ko'rsatish taqiqlanadi [3].

O'z navbatida davlat ham ommaviy axborot vositalarini qo'llab quvvatlaydi. Bu haqida qonunning 5-moddasiga asosan: "Davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini, davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilinishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanadi". Shuningdek, 2018-yilgi qonunga kiritilgan o'zgartishga asosan davlatning OAVni qo'llab quvvatlashiga doir faoliyat doirasi kengaytirildi. Bular quyidagilar:

- soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar va tariflar bo'yicha imtiyozlar hamda preferensiyalar berish;

- davlat subsidiyalari, davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari tizimi orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash;
- moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tahririyatlar xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari faoliyatini tashkil etish;
- tahririyatlar xodimlarini tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish.

Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan ommaviy axborot vositalarining mustaqil kasbiy faoliyatini cheklab qo'yish uchun foydalanilishi mumkin emas.

Yuqorida ta'kidlangan qonunda ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolar bilan munosabatlari, ular faoliyatiga doir ma'lumotlarni qo'lga kiritishi, uni yoritishga doir jarayonlar ham tartibga solinib, huquqiy asoslab qo'yildi. Jumladan, ommaviy axborot vositasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rov bilan ularga og'zaki yoki yozma shaklda (shu jumladan elektron hujjat shaklida) murojaat etish huquqiga ega.

Ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot olishga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to'g'risidagi so'rovi ko'pi bilan yetti kun muddatda ko'rib chiqiladi.

Agar ommaviy axborot vositasining so'rovini ko'rib chiqish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari jumlasiga kirmasa, so'rov so'ralayotgan axborotni taqdim etish o'zining vakolatiga kiritilgan organga ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yuboriladi, ommaviy axborot vositasi esa bu haqda xabardor qilinadi.

So'rov rad etilgan taqdirda, ommaviy axborot vositasiga asoslantirilgan javob yuboriladi[3].

So'z erkinligini ta'minlash-fuqarolik jamiyatini qurishning muhim omili ekanligi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari BMTning 75-sessiyasida so'zlagan nutqida jamiyatimiz va davlatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, chora-tadbirlar natijasida yangi O'zbekiston shakllanayotganligini alohida ta'kidladi. Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus olganligini qayd qildi. Oxirgi Parlamentga o'tkazilgan saylovlar aholi va partiyalarning siyosiy faolligi, fuqarolik jamiyati institutlarining roli, ommaviy axborot vositalarining ta'siri oshgannini namoyish etganligiga alohida to'xtalib o'tdi [4]. Darhaqiqat, davlat rahbarining OAVlarni jamiyat dardini aytadigan minbarga aylantirish borasidagi olib borayotgan islohotlari markazida so'z erkinligi masalasi turadi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Jonajon O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining yangi va muhim bosqichiga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda media sohasi vakillari — jurnalist va muharrirlar, rejissyor va operatorlar, blogerlar, teleradio kanallar, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxona xodimlari Vatanimizning demokratik qiyofasini shakllantirish, uni dunyoga tarannum etishga beqiyos hissa qo'shib kelayotganini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi" [1].

O'zbekistonning odil fuqarolik jamiyatini qurish kabi asosiy strategik maqsadlarini ro'yobga chiqishi bevosita jamoatchilik nazoratining qanchalik rivojlanganligi darajasi bilan belgilanadi. Jamoatchilik nazoratining eng ta'sirchan vositasi bu OAVlar faoliyatining erkinligi amaliy hayotda to'la aks etishi jarayoni bilan chambars bog'liq.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev erkin fuqarolik jamiyati fuqarolari uchun axborot va so'z erkinligi sohasida qulay shart-sharoit, imkoniyatlar yaratish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli va ta'sirini kuchaytirishni muhim ustuvor vazifa ekanligini qayd qilib o'tadi: "Eng muhimi, barcha darajadagi rahbar mutasaddilar zamon talablari bilan hisoblashgan holda ishlashiga to'g'ri keladi. O'zining bilim va salohiyatiga, ishchanlik fazilatlariga ishongan rahbar, tanqiddan qo'rqmay, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni xalq bilan muloqotning samarali vositasi deb biladi. Aslida bunday muloqot, taraqqiyotimizni ta'minlaydigan eng asosiy omillardan biridir" [1]. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan keyingi paytlarda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining hayotimizda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar haqida tahliliy faoliyati oshib borayotganligi, bunday tendensiya islohotlarimiz samarasini oshirishga, jamoatchilik nazoratini, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilayotgan, ochiqlik va oshkoralik, so'z va fikr erkinligi hayotimiz mezoniga aylanib borayotgan hozirgi paytda bu mas'uliyat yanada kuchaymoqda. Prezidentimizning soha xodimlariga yo'llagan bayram tabrigidan kelib chiqib, OAVlar oldida eng muhim vazifalar turibdi:

1. Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarimoqda. Aholiga tezkor va ishonchli axborot yetkazib berish soha xodimlariga alohida mas'uliyat yuklaydi.

2. Barcha sohalarda axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish zarurati. Ommaviy axborot vositalari xalq bilan muloqotning samarali vositasiga aylanishi lozim.

3. Axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun doirasida bo'lishi, shaxsiy xusumatga, soxta obro' orttirish vositasiga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha'nini tahqirlashdan yiroq bo'lishi, bunday salbiy holatlarga bizning mediamaydonimizda o'rin bo'lmasligi kerak.

4. OAV lar faoliyatida ochiqlik va oshkoralik, so'z va fikr erkinligi ular ishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yangi O'zbekistonda matbuot va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun so'z erkinligining huquqiy asoslari yaratilgan. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligi va so'z erkinligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yangi O'zbekistonda yangi tizim yaratildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning OAV xodimlariga tabrigi.
<https://xs.uz/uz/post/prezident-tabrigi>
2. "OAV to'g'risida"gi qonunning evolyutsiyasi // <https://legalclinic.uz/>

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2018-yil aprelda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonuni. <https://lex.uz/docs/-1106870>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>
5. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 6. – C. 229-233.
6. Sobirovich T. B., Sharipovna A. F. New Uzbekistan–New Strategy of Administrative Reforms //researchgate. net.
7. Sobirovich T. B. New Uzbekistan: Socio-Philosophical Analysis of the Strategy of Human Indicators //Available at SSRN 3949264. – 2021.
8. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 9. – C. 197-202.
9. Sobirovich T. B. The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2020. – T. 6. – №. 8. – C. 509-511.
10. Sobirovich T. B. National Principles of Democracy in Uzbekistan //Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS). – 2021. – T. 5. – №. 3. – C. 131-135.
11. Sobirovich T. B. A study of national and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 417-421.

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Курпаяниди Константин Иванович

профессор кафедры «Экономика»,
Член-корреспондент Международной академии
теоретических и прикладных наук (США),
Ферганский политехнический институт
E-mail: antinari@gmail.com

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТОДОЛОГИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ МАЛЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Аннотация. Трендом научных исследований последних лет является актуализация необходимости преобразования институтов в Узбекистане. Отечественная институциональная школа пока не выработала адекватного специфике национальных малых промышленных предприятий методологического инструментария, на который можно было бы опереться в процессах исследования, оценки и внедрения институциональных преобразований в этом секторе промышленности. Целью исследования является анализ современных теорий и методологии исследования институциональной среды малых промышленных предприятий.

Ключевые слова: институциональная теория, институциональная среда, институт, предпринимательство, малые промышленные предприятия, методология.

Kurpayanidi Konstantin Ivanovich

"Iqtisodiyot" kafedrasida professori, Xalqaro nazariy va amaliy
fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (AQSh),
Farg'ona Politehnika Instituti, O'zbekiston
Elektron pochta: antinari@gmail.com

KICHIK SANOAT KORXONALARINING INSTITUTSIONAL MUHITINING TADQIQOT METODOLOGIYASINING AYRIM XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar tendentsiyasi O'zbekistonda institutlarni o'zgartirish zaruriyatining dolzarbligi hisoblanadi. Mahalliy institutsional maktab hali sanoatning ushbu sohasida institutsional o'zgarishlarni tadqiq qilish, baholash va amalga oshirish jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan milliy kichik sanoat korxonalarining o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan uslubiy vositalarni ishlab chiqmagan. Tadqiqotning maqsadi kichik sanoat korxonalarining institutsional muhitini tadqiq qilishning zamonaviy nazariyalari va metodologiyasini tahlil qilishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: institutsional nazariya, institutsional muhit, institut, tadbirkorlik, kichik sanoat korxonalari, metodologiya.

Kurpayanidi Konstantin Ivanovich

Professor of the Department of Economics,
Corresponding Member of the International
Academy of Theoretical and Applied Sciences (USA),
Fergana Polytechnic Institute, Republic of Uzbekistan

SOME FEATURES OF THE METHODOLOGY OF RESEARCH OF THE INSTITUTIONAL ENVIRONMENT OF SMALL INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abstract. The trend of scientific research in recent years is the actualization of the need to transform institutions in Uzbekistan. The domestic institutional school has not yet developed methodological tools adequate to the specifics of national small industrial enterprises, which could be used in the processes of research, evaluation and implementation of institutional transformations in this sector of industry. The purpose of the study is to analyze modern theories and methodology of research of the institutional environment of small industrial enterprises.

Keywords: institutional theory, institutional environment, institute, entrepreneurship, small industrial enterprises, methodology.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N03>

Введение

С первых лет независимости в Республике Узбекистан развитие малого бизнеса и частного предпринимательства рассматривалось в качестве приоритетного направления социально-экономического развития национальной экономики. Отмечая ключевые принципы, на которых строится институциональное развитие малого бизнеса в Узбекистане, следует признать, что он базируется на сформированной мощной законодательной и правовой базе, постоянном ее совершенствовании, системной государственной помощи в вопросах предоставления бизнесу льгот и преференций, техническом и технологическом переоснащении и модернизации производства.

Государством были реализованы систематические меры по регулированию малого бизнеса, в частности, направленные на повышение его доли в производстве валового внутреннего продукта и в обеспечении занятости населения, совершенствование технологической структуры малого бизнеса, удовлетворение потребностей в кредитных ресурсах и создание благоприятной предпринимательской среды [1].

В результате успешного регулирования развития деятельности малого бизнеса и частного предпринимательства, основные результаты реформ, осуществленных в сфере предпринимательства Узбекистана в 2017-2023 годах можно охарактеризовать следующими показателями.

За последние шесть лет в республике принято около 2 тысяч законов, Указов и Постановлений Президента, постановлений Кабинета министров и других нормативно-правовых актов, направленных на развитие предпринимательской деятельности в Узбекистане.

В результате этого:

- отменены 114 видов лицензий и разрешений, необходимых для ведения предпринимательской деятельности;
- вместо 33 видов лицензий и разрешений введен порядок уведомления;
- с 13 до 9 уменьшено количество налогов;
- с 13 до 3 сокращены виды налоговых проверок;
- ставка налога на добавленную стоимость была снижена с 20% до 12%;
- с 25% до 12% снижена ставка социального налога;

- на 3,5 тыс. наименований товаров отменены импортные пошлины, а также акцизный налог - на 1,1 тыс. товаров;

- на более 3 тыс. видов товаров значительно снижены импортные пошлины.

Согласно данным статистического Агентства при Президенте Узбекистана, в 2022 году от общего количества субъектов предпринимательства, действующих в республике, 000 составляет 54,2%, фермерские хозяйства - 18,1%, частные предприятия - 15,3%, семейный бизнес - 9,4%, дехканские хозяйства - 1,9% и другие формы предпринимательства - 1,1%.

По итогам 2022 года объем валового регионального продукта в Ферганской области составил 55 972,1 млрд сум, темп роста составил 4,6% по сравнению 2021 года. Доля Ферганской области в формировании ВВП республики составила 6,3%.

В 2022 году количество вновь созданных субъектов малого предпринимательства уменьшилось на 2,5% по сравнению с 2021 годом и составило 8 828 единиц. Доля малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП составила 69,8% в 2021 году и 68,9% в 2022 году.

Доля промышленного малого предпринимательства валовом региональном продукте составила в 2022 году 44,1%.

В 2017 году число субъектов предпринимательства составляло более 283 тысяч единиц. В результате реализованных за последние 6 лет реформ в части развития и поддержки предпринимательства этот показатель к концу 2022 года превысил 523 тысячи единиц, или в 1,8 раза больше, чем в 2017 году.

К концу 2022 года в Узбекистане на 1 000 человек среднее число предпринимателей составляло 15, в частности самый высокий показатель отмечен в Ташкенте - 36,8, в Навоийской - 21,9 и в Сырдарьинской областях -18,1. В тоже время низкий показатель наблюдается в таких областях как Сурхандарьинская -10,3 и Кашкадарьинская - 10,6.

К концу 2022 года доля малого и частного предпринимательства в ВВП республики достигла уровня 54,9%, в строительстве она составила - 72,4%, в общей численности занятых - 74,4%.

Сегодня существует широкая доказательная база того, что одной из ключевых причин слабого темпа развития малого предпринимательства в промышленности является низкое качество институциональной среды (ИС) [2]. Эмпирические замеры показывают, что значимость институционального фактора в системе развития малых промышленных предприятий особенно возрастает в периоды спада и рецессии экономики.

Выявленное противоречие между стратегической целью развития малых промышленных предприятий, с одной стороны, и ограничениями ее реализации, имеющими как экзогенный, так и эндогенный характер, включая недостаточно полное научно-методологическое осмысление проблемы, – с другой, служит обоснованием высокой степени актуальности задач исследования и оценки институциональной среды как ключевого фактора развития малых предприятий промышленности.

Наличие указанных обстоятельств предопределили актуальность темы исследования и направления научного поиска его автора.

Рақамлашмаган жамиятни рақамлашган жамиятга трансформацияси бозор қонунларининг амал қилиш механизмларига таъсир кўрсатмоқда. Буни бозор

тизимларини ва бир неча 100 йиллардан буён ўзгармай келаётган классик қонунларнинг ўзгаришидан кузатиш мумкин. Тўғри қонуниятлар ҳали амалда ва бозор тизимида ишлаб келмоқда. Лекин, уларнинг ишлаш механизмлари, бозор иштирокчиларига таъсири ҳамда таҳлиллардан олинган натижалари ўзгармоқда. Мазкур жараёнга тезкорлик билан мослашиб бориш ҳамда бу шароитда корхона фаолиятига таъсир қилаётган рискларни тўғри бошқариш учун рақамли трансформацияни иқтисодий таъсирини тўғри етказиш, ишбилармон доираларда унинг таъсири бўйича муҳокамалар ташкил этиш лозим.

Корхоналарнинг маркетинг стратегиясини ишлаб чиқишда, сотиш каналлари ва мақсадли бозорни танлашда ҳам рақамли иқтисодий трендларини эътиборга олиш ҳамда мазкур жараёнларга мос бозор сиёсатларини ишлаб чиқиш талаб этилади. Иқтисодий мазкур жараёнлардан ортда қолиб кетмаслиги учун эса рақамли технологияларни ривожлантиришга ажратилаётган инвестициялар кўламини ошириш лозим. Шунингдек, рақамли бизнес билан шуғулланаётган корхоналарга солиқ ва бошқа тўловлардан преференциялар ажратиш уларнинг сонини кўпайишига ва ЯИМ таркибидаги улушини ортишига олиб келади. Акс ҳолда глобал иқтисодийдаги технология соҳасидаги корхоналар ўртасидаги табақаланиш жаҳон бозорида рақобатбардошликни пасайишига олиб келади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Kambarov, J. X., & Kuchkarov, D. (2019). Influence of brand on the company's trade policy. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (73), 277-280. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-73-39> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2019.05.73.39>
2. А.Г. Скoвиков. Цифровая экономика. Электронный бизнес и электронная коммерция: учебное пособие для вузов / А.Г. Скoвиков. – 3-е изд., стер. – Санкт Петербург: Лань, 2022. – С. 11-12.
3. А.Г. Скoвиков. Цифровая экономика. Электронный бизнес и электронная коммерция : учебное пособие для вузов / А. Г. Скoвиков. — 3-е изд., стер. — Санкт_Петербург : Лань, 2022. — 260 с. : ил. — Текст : непосредственный.
4. Ж.Х. Камбаров, Н.Ж. Махмудова. Задачи управления рисками на предприятии // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2016. № 5. С. 88-89 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=26240779>
5. Ж.Х. Камбаров. Ишлаб чиқариш рискларининг бошқаришнинг саноат ривожланишига таъсири масалалари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ishlab-chi-arish-risklarining-bosh-arishning-sanoat-rivozhlanishiga-tasiri-masalalari>.
6. Ж.Х. Камбаров, Н.Ж. Махмудова. Инқирозга қарши инновацион механизмни такомиллаштириш // Экономика и финансы (Узбекистан). 2016. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/in-irozga-arshi-innovatsion-mehanizmni-takomillashtirish>.
7. М.Бўтабоев, Ж.Камбаров. Рақамли иқтисодий. Дарслик. Фарғона, “Poligraf super servis”; 2022. 685 бет.

8. М.К. Черняков, М.М. Чернякова, Ш.И. Сулейманов. Управления рисками цифровой экономики. Учебник. Курск, 2022. 246 с.
9. М.Ф. Меняев. Цифровая экономика на предприятии : учебное пособие / М. Ф. Меняев. — Москва: Издательство МГТУ им. Н. Э. Баумана, 2020. — 394, [2] с. : ил.
10. <https://www.tadviser.ru/index.php/%D0%A1%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D1%8F:%D0%A2%D0%B5%D0%BD%D0%B4%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D0%B8%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%BE%D0%B3%D0%BE%D0%98%D0%A2-%D1%80%D1%8B%D0%BD%D0%BA%D0%B0> // 11.12.2022.
11. <https://visasam.ru/emigration/rabota/zarplaty-programmistov-v-mire.html> // 11.12.2022
12. <https://lindeal.com/trends/samye-dorogie-brendy-mira> // 05.12.2022
13. <https://take-profit.org/statistics/wages/russia/> // 11.12.2022
14. <https://visasam.ru/emigration/rabota/zarplaty-programmistov-v-mire.html> // 11.12.2022

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Паязов Мурод Максудович
Иқтисод фанлари номзоди, доцент,
Фарғона политехника институти докторанти (DSc)

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДа ХИЗМАТЛАР БОЗОРИДАГИ БОШҚАРУВ СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Аннотация. Ушбу мақолада темир йўл хизматларининг транспорт хизматлари бозоридаги ҳақиқий ҳолати Ўзбекистон Республикаси статистикаси маълумотлари ҳамда тегиши сайтлардаги интернет маълумотлари асосида таҳлил қилинди. Таҳлилда хизматларнинг ҳудудлар кесимида тақсимланиши, хизматлар бозорида транспорт хизматларининг ўрни, йиллар мобайнида транспорт хизматларида темир йўл хизматларининг ўсиш кўрсаткичлари, темир йўл хизматларининг транспорт хизматлари бозорида юк ташиш, транзит, юк экспорти ва импортида ҳажмига, киртилган инвестициялар, транзит юкларнинг ташилиши каби нисбат кўрсаткичлари асосида темир йўл хизматларига баҳо берилди.

Калит сўзлар: тенг пропорционал, темир йўл коридорлари, геостратегик жойлашув, хизматлар бозори, бошқарув стратегияси, хизматларни бошқариш, менежмент усуллари.

Паязов Мурод Максудович
Кандидат экономических наук, доцент
Докторант (DSc) Ферганского политехнического института

РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ НА РЫНКЕ УСЛУГ В АО «УЗБЕКИСТАНСКИЕ ЖЕЛЕЗНЫЕ ДОРОГИ»

Аннотация. В данной статье было проанализировано реальное положение железнодорожных услуг на рынке транспортных услуг на основе статистических данных Республики Узбекистан и интернет-данных на соответствующих сайтах. При анализе учитывалось региональное распределение услуг, место транспортных услуг на рынке услуг, показатели роста железнодорожных услуг в транспортных услугах по годам, относительные показатели железнодорожных услуг на рынке транспортных услуг, такие как объем грузоперевозок, транзита, экспорта и импорта грузов, инвестиций, перевозки транзитных грузов и др.

Ключевые слова: равнопропорциональность, железнодорожные коридоры, геостратегическое положение, рынок услуг, стратегия управления, управление услугами, методы управления

Payazov Murod Maksudovich
Associate professor, PhD Doctoral Student (DSc) of the
Fergana Polytechnic Institute

SOME ISSUES OF SUPPORTING AGRICULTURAL ENTERPRISES

Abstract. In this article, the real situation of railway services in the transport services market was analyzed on the basis of statistical data of the Republic of Uzbekistan and Internet data on the relevant sites. The analysis took into account the regional distribution of services, the place of transport services in the services market, growth rates of railway services in transport services by years, relative indicators of railway services in the

transport services market, such as the volume of freight traffic, transit, export and import of goods, investments, transportation of transit goods and others.

Key words: equal proportion, railway corridors, geostrategic location, services market, management strategy, service management, management methods



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N05>

Кириш

2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси 36-мақсадида: Барча транспорт турларини узвий боғлаган ҳолда ягона транспорт тизимини ривожлантириш, йирик шаҳарлар ўртасида кунлик транспорт қатновлари асосида манзилга етиб бориш ва қайтиб келиш имкониятини яратиш.

Тошкент шаҳри ва ҳудудларда жамоат транспорти тизимини такомиллаштириш ва унинг инфратузилмасини ривожлантириш.

Шаҳарлараро ва шаҳар атрофи темир йўл қатновлари жозибadorлигини ошириш.

Транспорт ва логистика хизматлари бозори ва инфратузилмасини ривожлантириш, темир йўл инфратузилмасини электрлаштириш даражасини 60 фоизга етказиш ва автомобиль йўллари тармоғини жадал ривожлантириш.

Транспорт соҳасида ташқи савдо учун «яшил коридорлар» ҳамда транзит имкониятларини кенгайтириш ва транзит юк ҳажмини 15 миллион тоннага етказиш масалаларига эътибор қаратилган.

Ушбу мақсад мамлакат темир йўл хизматларининг янада ривожлантиришга қонуний асос бўлиб хизмат қилади. Шу нуқтаи назардан Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида берилган мақсадларни амалга ошириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Адабиётлар таҳлили ва методологияси

Узоқ муддатли мақсад ва вазифаларни амалга ошириш механизми сифатида темир йўл тармоғини стратегик бошқариш зарурлигини белгилайди, бу эса ўз навбатида умумий иқтисодий кўрсаткичларга нисбатан юқори ривожланиш суръатларига эришиш имконини беради [2, 3, 4].

Темир йўл транспортидаги туб иқтисодий ислохотлар уни ривожлантиришнинг янги концепциясини ишлаб чиқишни тақозо этади. Шунга мувофиқ темир йўл транспортини иқтисодий ривожлантириш бўйича янги қарашлар тизимини ишлаб чиқиш зарурати пайдо бўлади [5; 133б]. Компания учун мақбул бўлган рақобатбардош стратегия ишлаб чиқишда... сиёсий ((politics), иқтисодий (economics), технологик (technology), ижтимоий-маданий (socio – culture) омилларни таъсир этади [6; 39]. Стратегик бошқарувнинг асосий марказида иттифоқчилар билан ресурслар ва имкониятларни бирлаштириш шаклидаги ҳамкорлик асосида охирги истеъмолчининг эҳтиёжини қондиришдир. Ўзаро ҳамкорлик ва истиқболли рақобатлар билан мақсадли бозор сегментини тақсимлашдир[7; 22]. Долзарб муаммоларни ҳал этишда транспорт соҳасининг илмий-маърифий базасини шакллантирмасдан туриб ҳал этиш мумкин эмас [8;527]. Транспорт соҳасини ривожлантиришнинг стратегик йўналиши миллий иқтисодиётни барқарор ва жадал ривожлантиришни, унинг рақобатбардошлигини оширишни, аҳоли фаровонлиги ва яшаш сифатини оширишни тامينлайдиган ягона миллий транспорт тизимини шакллантириш ва илғор ривожланишга қаратилиши

керак [9; 24] Темир йўл хизматларининг тегишли сифатини таъминлашда темир йўл инфратузилмаси жуда муҳим рол ўйнайди: инфратузилмани сақлаш сифати, тартибга солиш, темир йўл ҳаракати, йўл ўтказувчанлиги, тезлиги ҳаракатни ривожлантириш, хавфсизлик, ишни ташкил этиш, темир йўл станциялари, рухсат этилган йўл юки ва темир йўл инфратузилмасининг бошқа параметрлари[10;106]. Хорижий ва миллий олимларимиз темир йўл хизматларини ташкил этиш ва рақобатбардош стратегияни ишлаб чиқиш ҳамда инфратузилмаларга эътибор қаратган бўлсаларда темир йўл хизматларини ривожлантиришга менежмент тадқиқот ҳамда бошқарув усулларини қўллаган ҳолда илмий-методологик ёндашув етарли даржада эмаслигини кўрсатмоқда.

Тадқиқот методологияси

Темир йўл хизматларини транспорт хизматлари ҳамда хизматлар бозоридаги ривожлантириш муаммоларини таҳлил этиш билан шуғулланган миллий ва хорижлик олимларнинг илмий изланишлари натижалари мазкур тадқиқотнинг назарий-услубий базаси сифатида хизмат қилди. Мақолани тайёрлашда абстракт ва аналитик мушоҳада, менежмент тадқиқот усуллари, қиёсий ва омилли таҳлил, индикатив, танланма кузатув, таққослаш ва бошқа усуллардан фойдаланилди.

Муҳокама

2022-йил якунларига кўра, хизматлар соҳасининг Ўзбекистон Республикаси ЯИМдаги улуши 41,5 % ни ташкил этди.

Ўзбекистонда хизматлар бозорининг ҳудудларда кесимида (1-жадвал) кўриб чиқамиз.


1-жадвал

2022 йилда хизматларнинг ҳудудлар бўйича тақсимланиши

№ т/р	Ҳудудлар	Кўрсатилган хизматлар (млрд.сўм)	Умумий Кўрсатилган хизматлар нисбатан (%)	Хизматлардаги рейтинг	Рейтинги хизмат кўрсатиш даражаси бўйича
1	Қорақалпоғистон Республикаси	2830,1	5,4	Тошкент.ш	1
2	Андижон	3460,6	6,7	Тошкент	2
3	Бухоро	3310,8	6,4	Самарқанд	3
4	Жиззах	1644,7	3,2	Фарғона	4
5	Қашқадарё	3401,7	6,5	Андижон	5
6	Навоий	1497,9	2,9	Қашқадарё	6
7	Наманган	2504,5	4,8	Бухоро	7
8	Самарқанд	5333,6	10,3	Қорақалпоғистон Республикаси	8
9	Сурхондарё	1926,9	3,7	Наманган	9
10	Сирдарё	666,2	1,3	Хоразм	10
11	Тошкент	5946,4	11,4	Сурхондарё	11
12	Фарғона	3990,8	7,7	Жиззах	12
13	Хоразм	2354,1	4,5	Навоий	13
14	Тошкент.ш	19112,7	25,2	Сирдарё	14
	Ўзбекистон Республикаси	51984,0	100		

Манбаа: Ўзбекистон Давлат статистика маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Хизматлар соҳасининг ЯҲМ таркибидаги улуши бўйича энг юқори кўрсаткич Тошкент шаҳрида (25,24%), энг кичик кўрсаткич эса Сирдарё (1,3%), Навоий (2,9 %) ва Жиззах (3,2%) вилоятларида кузатилди. Ушбу ҳолатда вилоятларнинг хизмат кўрсатиш юзасидан рейтинги ҳам аниқланди (1-расм).



Демак хизматлар бозорини ҳудудлар бўйича солиштирганимизда ҳудудлар тенг пропорционал ривожланмаганлигини кўришимиз мумкин. Ушбу ҳолатга янада аниқлик киритиш мақсадида айнан транспорт соҳасининг хизматлар бозоридаги улушини аниқлаб оламиз (2-жадвал).

2-жадвал

2022 йилда кўрсатилган барча хизматлар

№ т/р	Номланиши	Кўрсатилган хизматларнинг ҳажми (трлн.сўм)	Кўрсатилган хизматларнинг ҳажми (%)
1	Савдо хизматлари	88,7	24,8
2	Транспорт хизматлари	81,2	22,7
3	Молиявий хизматлар	80,5	22,5
4	Алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари	22,9	6,4
5	Таълим хизматлари	15,4	4,3
6	Бошқа хизматлар	69,0	19,3
	жами		


Манба: Ўзбекистон Давлат статистика маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Маълумотлардан кўришиб турибдики, транспорт хизматлари Ўзбекистон иқтисодиётида салмоқли улушга эга бўлиб, 2022 йилда 81,2 трлн.сўмлик хизматларни бажарган. Умумий хизматлар улушида савдо хизматларидан сўнг 2-ўринни эгаллаган. Бу албатта ижобий ҳолатдир. Охириги беш йилликдаги транспорт хизматларига (2-расм) назар солганимизда ўсиш суръатларига эга эканлигини кўришимиз мумкин.



2-расм. Ўзбекистон Республикасида 2018-2022 йиллардаги бажарилган транспорт хизматлари ҳажми.

Масалага чуқурроқ кириб борамиз. Ушбу транспорт хизматларининг транспорт турлари буйича тақсимланишини кўриб чиқамиз (3-расм).



3-Расм. Транспорт турлари буйича хизматларнинг улуши.

Хизматлар бозорида темир йўл транспорти улуши автомобил, ҳаво ҳамда қувурлар транспортига нисбатан пастлиги маълум бўлди. Ушбу ҳолат темир йўл хизматларининг, маслан, автотранспорт хизматлари 51 фоизни, темир йўл хизматлари 11,4 фоиз улушга эга эканлиги автотранспорт хизматининг темир йўл хизматларига нисбатан 39,6 фоизга баландлигини кузатишимиз мумкин. Жорий ҳолатда темир йўл хизматлари автомобил хизматларига нисбатан камроқ улушга эга эканлигидан кескин хулоса чиқармай йиллар давомида ўзгаришларни кўриб чиқамиз (3-жадвал).

3-жадвал

Ўзбекистон Республткасида 2018-2022 йилларда ташилган юклари ва юк айламаси

№	Кўрсаткичлар	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил	2018 йилга нисбатан 2022 йилда ўсиш суръати (%)
	Ташилган юklar.млн.т.	1243,0	1319,8	1366,7	1420,2	1398,9	+12,5
1	Темир йўл	68,4	70,1	70,6	72,0	73,6	+7,6
2	Автомобил	1102,2	1177,7	1238,2	1282,0	1261,7	+14,5
3	Қувур йўли	72,4	72,0	57,9	66,2	63,5	-12,3
4	Ҳаво йўли, минг	13,1	10,4	5,3	9,1	10,0	-23,7
	Юк айланмаси. млрд. т-км	71,3	72,6	66,9	74,8	75,2	+5,5
1	Темир йўл	22,9	23,4	23,6	24,6	24,9	+8,7
2	Автомобил	14,6	15,9	16,2	19,1	20,2	+38,4
3	Қувур йўли	33,6	33,2	26,8	30,8	29,7	-11,6
4	Ҳаво йўли, млн. т-км	123,5	119,0	219,0	303,5	322,7	+163,3

Манбаа: Ўзбекистон Давлат статистика маълумотлари асосида тайёрланди.

Ушбу ҳолатда темир йўл хизматларида юклар ташиш энг юқори ўсишга эга. Темир йўлларда юк ташиш ишлари ижобий томонга силжиётганлигидан далолат берса, лекин юк айланмасида ўсиш кузатилган бўлсада буни ижобий деб баҳолай олмаймиз. Сабаби ҳаво транспортида юк ташиш 163,3 фоизга ўсиб хизматлар бозорида энг юқори кўрсаткични қайд этмоқда. Ўзбекистонга импорт бўлаётган ҳамда экспорт бўлаётган юкларнинг аксарият қисми ташқи муҳит билан боғловчи темир йўл хизматларининг етарли даражада ривожланмаганлиги сабабли асосий улуш ҳаво транспортига тўғри келмоқда. Ушбу ҳолатдан хулоса қилиш мумкинки хориж билан боғловчи темир йўллар Ўзбекистонда етарли даражада ривожланмаган. Ўзбекистонда аксарият четга экспорт юўлаётган юклар Транссибирь йўлаги орқали ташилаётганлиги транспорт харажатларини бир неча баробарга ошириб юборган. Демак, Ўзбекистонда Европа ва бошқа қўшни давлатларга тўғридан-тўғри чиқиш имокниятига эга бўлган темир йўл йўлакларига муҳтожлиги бор. Шу ўринда темир йўл йўлакларининг бугунги ҳолатига назар ташласак, қуйидаги ҳолатни кузатишимиз мумкин.

2017 йилнинг ноябрь ойида Самарқандда бўлиб ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда худудимизнинг транспорт-транзит салоҳияти унинг тарихан Шарқ ва Ғарб, Шимол ва Жануб ўртасида кўприк вазифасини ўтаган Буюк ипак йўлининг марказидаги геостратегик жойлашуви билан белгиланиши таъкидлаб ўтилди. Бу борада Ўзбекистонда кам харажатли, дунё бўйича энг арзон юк ташиш таърифларига эга бўлган темир йўл йўлакларини Ўзбекистонда ривожлантириш юзасидан қатор ишлар бажарилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг фаол чора-тадбирлари ва жалб қилинган тузилмавий ташкилотларнинг мувофиқлаштирилган фаолияти халқаро транспорт йўлакларининг кенг тармоғини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этмоқда. (4-расм)



4- Расм Марказий Осиё-Кавказ-Европа транспорт йўлаги.

Айтиш жоизки, ҳозирги вақтда Ўзбекистоннинг транзит юклари қуйидаги асосий транспорт йўлаклари бўйлаб амалга оширилмоқда:

1-йўлак – Болтиқбўйи давлатларининг портлари (Қозоғистон ва Россия орқали транзитда) – Клайпеда (Литва), Рига, Лиепажа, Венцилс (Латвия), Таллин (Эстония) йўналишида;

2-йўлак – Европа Иттифоқи мамлакатлари йўналишида, Беларус ва Украина орқали (Қозоғистон ва Россия орқали транзитда) – Чоп (Украина) ва Брест (Беларус) чегара ўтиш жойлари;

3- йўлак - Украинанинг Илйичевск портига (Қозоғистон ва Россия орқали транзитда), Қора денгизга чиқиш имконияти билан;

4- йўлак – ТРАСЭКА йўлаги деб номланувчи Қора денгизга чиқиш билан (Туркманистон, Қозоғистон ва Озарбайжон орқали транзитда) Транскавказ коридори йўналишида;


5- йўлак – Форс кўрфазига чиқиш билан Эроннинг Бандар Аббос портига (Туркманистон орқали транзитда);

6- йўлак – шарқий йўналишда Қозоғистон-Хитой чегараси орқали Хитойнинг шарқий портларига, шунингдек Узоқ Шарқнинг Находка, Владивосток ва бошқалар портларига;

7- йўлак - Хитой портларига (Қирғизистон орқали транзитда) Сарик, Шарқий Хитой ва Жанубий Хитой денгизларига чиқиш.

8- йўлак – Афғонистон муаммосини ҳал қилиш муносабати билан Эрон ва Покистоннинг Бандар Аббос, Чахбахар (ИРИ), Гвадар ва Карачи (ИРИ) портлари орқали транзит ўтадиган жанубий муқобил транспорт йўлакларини ривожлантириш учун янги истиқболлар очилмоқда¹.

Ўзбекистон темир йўлларида транзит хизматларини кўрсатиш ҳам (5-расм) йилдан йилга ўсиб бормоқда. 2022 йилда 9500 минг тонна юк Ўзбекистон темир йўлларида транзит бўлиб ўтган. Хитой-Қирғизистон-Ўзбекистон темир йўл коридори ишга тушса, ушбу кўрсаткичлар бир неча баробарга кўтарилиши кўзда тутилган.



5-Расм. Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали темир йўл транспортида ўтган транзит юклар

Ушбу маълумотлар шуни кўрсатмоқдаки темир йўл йўлакларининг ривожланишига устуворлик бериш, Ўзбекистон иқтисодиётини дунё бозорини кириш имкониятини, дунё давлатлари билан ўзаро маҳсулотлар олди-сотдиси ва бошқа турли соҳаларда интеграциялашига сабаб бўлади. Келгусида ушбу йўлакларнинг тўлиқ қувватда ишлашини таъминлаш Ўзбекистонда қадимий буюк ипак йўлини тиклаш билан Марказий Осиёда, қолаверса дунё иқтисодиётида Ренессанс мамлакат сифатида ривожланишини таъминлайди. Бугунги кунда темир йўллар маълум даражада темир йўл йўлакларидан фойдаланмоқда. Бу борада транспорт хизматлари бозорида

¹Официальный сайт Министерства инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан www.mfer.uz

транспорт хизматларини экспорти кўрсатилган хизматларга назар ташлаймиз (4-жадвал).

4-жадвал**2021-2022 йилда транспорт хизматлари экспорти**

№ т/р	Транспорт турлари	2021 йил		2022 йил		2021 йилга нисбатан 2022 йилда ўсиш суръатлари (%)
		Кўрсатилган хизматлар (минг. АҚШ доллари)	Солиш-тирма оғирлиги (%)	Кўрсатилган хизматлар (минг. АҚШ доллари)	Солиш-тирма оғирлиги (%)	
1	Автотранспорт	31334,9	1,9	45266,3	2,7	+44,45
2	Темир йўл	571691,2	33,9	508900,4	29,9	-11
3	Ҳаво транспорти	385576,2	22,9	466110,2	27,4	+20,88
4	Қувур транспорти	695562,3	41,3	682659,1	40,1	-1,9
	Жами:	1684165	100	1702936	100	

Манба: Ўзбекистон Давлат статистика маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Темир йўл хизматларининг транспорт хизматлари бозоридага улуши 2021 йилда 33,9 фоизни ташкил этган бўлса, 2022 йилда 29,9 фоизни ташкил этиб, ўсиш суръатлари 11 фоизга пасайганини кўришимиз мумкин.

Ўринли ҳолда яна бир савол пайдо бўлади: темир йўл линияларидан самарали фойдаланилмоқдами? Ушбу саволга жавоб топиш учун учун қуйидаги (5жадвал) га муурожаат қиламиз.

5-жадвал**Ўзбекистон темир йўл линиялардан фойдаланиш ҳолати**


№ т/р	Кўрсаткичлар	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил
1	Умумий фойдаланадиган темир йўллар улуши (минг.км)	4,7	4,7	4,7	4,7	4,8
2	Умумий фойдаланилмаётган темир йўллар улуши (минг.км)	1,5	1,4	1,5	1,4	1,5
3	Ҳақиқатда фойдаланилаётган темир йўллар (%)	68	70	68	70	70

Манба: Ўзбекистон Давлат статистика маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Темир йўл хизмати темир йўл тармоқларидан ўртача 69 фоизи фойдаланмоқда. Шу билан бирга ўтган йиллар давомида темир йўл тармоқларида ўзгариш бўлмаган.

Ўзбекистонни денгизга тўғридан-тўғри чиқиш имконияти йўқ бўлган давлатлар қаторига киришини инобатга олган ҳолда ушбу тармоқни транспорт хизматлари бозоридаги устувор тармоқ сифатида ривожлантириши бир томондан мамлакат иқтисодийётида таркибий ўзгаришлар учун локомотив вазифасини бажарса, иккинчи

томондан саноат ва ишлаб чиқариш тармоқларининг экспорт ҳамда турли транспорт харажатларини камайтиришириб маҳсулотлар таннархида кескин камайтирувчи аҳамиятга эга бўлади. Албатта ушбу мақсадлар соҳага йўналтирилган инвестициялар билан ҳам боғлиқдир (6-расм). Темир йўл хизматларига инвестиция киритиш ҳолати йиллар давомида пасайиб бораётганлигини кўришимиз мумкин.



6-Расм. Ўзбекистон Республикаси темир йўлларида киритилган инвестициялар.

Темир йўл тармоқларини инновацион жозибадорлигини ошириш ҳисобига инвестиция миқдорини кўпайтириш чора-тадбирлари ишлаб чиқилмас экан, молия билан боғлиқ бўлган бошқарув масалалари ўз ечимини топиши қийин кечади.

Демак, шу ерда яна ўринли савол пайдо бўлади. Қайси бир йўналишни олманг муаммо борлиги кузатилмоқда. Шу ўринда темир йўл хизматларида кадрлар масаласига қандай эътибор қаратилмоқда.

“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ тасарруфида 22 та касб бўйича ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда Дуал таълим тизими жорий этилган. 2021/2022 ўқув йили учун таълимнинг кундузги шакли бўйича 1175 нафар (шундан 278 нафари давлат гранти), таълимнинг сиртқи шакли бўйича 875 нафар ҳамда дуал таълим тизими бўйича 1100 нафар ёшларни ўқитиш ва қайта тайёрлаш Ўзбекистон Республикаси таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича давлат комиссиясининг тегишли баёни билан қабул параметрлари тасдиқланган. Жамиятнинг 2020 йил 17 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сонли фармони ижросини жадаллаштириш тўғрисида”ги 289-Н-сонли буйруғи билан ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизими учун меъёрий ҳужжатларни ишлаб чиқиш бўйича Мувофиқлаштирувчи ҳамда Ишчи гуруҳ таркиби тасдиқланган. Алоқадор бошқарма ва корхоналар билан биргаликда темир йўл транспорти соҳаси бўйича тегишли профессионал стандартлар ишлаб чиқиладиган касблар ва лавозимлар рўйхати шакллантирилган. Жамият томонидан темир йўл тизими учун таълимнинг халқаро стандарт таснифлагичи даражалари билан уйғунлашган тармоқ квалификация рамкаси, 28 (йигирма саккиз) номдаги касб ва мутахассисликлар бўйича профессионал стандартлар ишлаб чиқилиб, жамиятнинг 2020 йил 20 майдаги 01/1873-20-сонли хатига биноан келиши ҳамда рўйхатдан ўтказиш учун Бандлик ва меҳнат

муносабатлари вазирлигига тақдим этилиб ўрнатилган тартибда рўйхатдан ўтказилган. Мутахассислик ва касбларнинг поездлар ҳаракат хавфсизлиги билан боғлиқлигини инобатга олган ҳолда халқаро тажрибалар ўрганилиб, ўқитиш давомийлиги белгиланган. Тошкент давлат транспорт университетининг тегишли кафедралари, тасарруфдаги Тошкент ҳамда Самарқанд темир йўл транспорти касб-хунар коллежи педагог жамоаси томонидан Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг Педагогик инновациялар, касб-хунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти билан ҳамкорликда 25 номдаги касб ва мутахассисликлар бўйича малака талаблари, намунавий ўқув режалар ишлаб чиқилган. Ҳозирда мазкур малака талаблари ва намунавий ўқув режаларга асосан 10 та умумтаълим, 9 та умумкасбий, 94 та махсус фанлар, 86 та ўқув, 82 та технологик, 41 та квалификация амалиётлар бўйича жами 322 та ўқув дастурларини ишлаб чиқиш жараёни давом этмоқда. Таълим муассасалари кесимида Халқаро таснифлагичнинг камида 3- ёки 4- даражасига мос таълим дастурларини тамомлаган ёшлар ҳисобидан ўқувчилар қабулига оид таклифлар шакллантирилган, жумладан кундузги таълим шаклига: Тошкент темир йўл техникуми – 600 нафар шундан, 92 нафари бюджет; Самарқанд темир йўл техникуми – 600 нафар шундан 94 нафари бюджет; Қўқон темир йўл транспорти коллежи – 325 нафар шундан, 75 нафари бюджет шакллантирилган. Албатта ушбу кадрлар уч йил давомида ўқиб, малакасини ошиб қайтадилар. Замонавий кадрларга эътибор 2021 йилдан бошланган бўлса, уларнинг етук, малакали мутахассис ҳамда бошқарув бўғинларида ишлари учун вақт талаб қилинади. Замон эса шиддат билан ривожланмоқда.

Натижалар. Ҳар қандай соҳа бошқарилгани каби, темир йўл хизматларини ривожлантиришда бошқарувнинг илмий-методологияси, бошқарув механизмлари самарали ва мақсадли ишлатилиши мақсадга мувофиқдир (6-жадвал).

6-жадвал

**“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖНИНГ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИДАГИ
БОШҚАРУВ СТРАТЕГИЯСИНИ ТАЪМИНЛАШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН БОШҚАРУВ
УСУЛЛАРИ**

№ т/р	Қўлланиладиган менежмент	Амалга ошириладиган ишлар	Амалга ошириш усули	Кутилаётган натижа
1	Ташкилий менежмент	Тизимда хизматларнинг функционал вазифанинг нечоғлиқ зарурлигини аниқлаш	Бошқарув структурасидаги хизматларни ташкил этиш бўлимида бажариладиган функционал вазифаларини таҳлил этиш	Ҳар бир лавозим юзасидан ички стандартлар ва қоидалар ишлаб чиқилади

2	Стратегик менежмент	Айнан хизматлар бозоридаги темир йўл хизматларнинг асосий элементларига устуворлик бериш асосида тизим фаолиятини шакллантириш	Фаолиятнинг асосий мақсади ва вазифаларидан келиб чиқиб амалга ошириладиган дастур ишлаб чиқиш	Тизим бошқарувида хизматлар механизмини ягона стратегик мақсадга йўналтиради
3	Тактик менежмент	Дастур асосида хизматларни жойларда амалга ошириш жараёнларини пухта ишлаб чиқиш	Ўрта бўғин менежерлари томонидан жараёнли, вазиятли ёндошув асосида топшириқларни бажарилишини таъминлаш	Стратегик режани ўз муддатидан кечикмасдан бажаришни таъминлайди
4	Оператив менежмент	Тизим олдида турган долзарб муаммоларни ҳал қилиш	Ваколатларни тақсимлаш ва вазифаларнинг бажарилишини назорат қилиш	Муаммолар вақтида ва ўз муддатида ҳал этилади
5	Инновацион менежмент	Корхона фаолиятига илмий-тадқиқот натижалари, янги кашфиётлар, технолгиялар, фан-техниканинг замонавий ютуқларини жорий этиш	Илмий-тадқиқот ва инновацияларни жорий этиш маркази фаолиятини самарали ташкил этиш асосида стартап ва ташаббусли лойиҳаларни излаб топиш	Корхона фаолияти, имиджи янада ортади, хизматлар замонавий жаҳон стандартларига чиқади
6	Инвестицион менежмент	Ташкилот қўйилмасини шакллантириш, капитал жалб этиш, инвестицион жозибдорлигини ошириш, инвестицияларни назоратини таъминалаш	инвестиция оқимини қўпайтириш юзасидан бизнес режалар ишлаб чиқиш, стартап ва ташаббусли инновацион лойиҳаларга инвесторларни жалб этиш	Корхонанинг молиявий манбалари ҳамда мабалағлари таъминланади
	Адаптив менежмент	Хизматларни хизматлар бозоридаги ташқи ўзгаришларга мослашиш тизимини ишлаб чиқиш. Рискларни минималаштириш ҳисобига қўшимча фойда олиш	Ишлаб чиқилган лойиҳаларнинг ташқи ўзгаришларга мослиги текширилади, лойиҳалар назоратга олинади ва бажарилиш жараёни ўрганиб борилади, лойиҳа вақти ва муддати бўйича бажарилишида муаммоларни бартараф қилиш чораларни ишлаб чиқади	стартап ва ташаббусли инновацион лойиҳаларнинг рақобатбардошлиги таъминланади
	Маркетинг менежмент	Хизматлар бозорида рақобат-бардош нарх сиёсатини ишлаб чиқиш	Мижозлар талабини асосида нарх сиёсатини, бенчмаркинг асосида корхона сиёсатини ишлаб чиқиш	Хизматларнинг бозордаги мавқейини таъминлайди

	Ишлаб чиқариш менежмент	Темир йўл хизматларини ташкил этиш учун зарур бўлган барча асосий техника, контейнер, вагон, зарурий эҳтиёт қисмларни ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва назорат қилиш	Темир йўл фаолиятида ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш учун зарур чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқиш	Темир йўл саноати ривожланади, хизматларнинг ривожланиши темир йўл саноатини ривожланиши билан боғланган
	Коммуникацион менежмент	ташкilotнинг имиджи ва жамоатчилик фикрини шакллантириш билан ички ва ташқи ижтимоий алоқаларда ўзаро ҳамкорликка эришиш	GR (давлат сектори билан алоқалар), HR (ички алоқалар), PR (ташқи алоқалар), IR (инвесторлар билан алоқалар), CR (истеъмомчилар билан алоқалар ёки марткетинг) LR (логистика ёки инфратузилма алоқалари), TR (ishonchli aloqalar)	Хизматлар бозорида керак бўлган асосий хизмат турларига бўлган таълим шаклланиши ҳамда талабни қондирилишида ижтимоий коммуникацион муносабатлар ўрнатилади
	HR менежмент	Кадрлар захирасини шакллантириш, иш юкини меъерий тақсимлаш ва ишчи ходимлардан самарали фойдаланишни таъминлаш, назорат қилиш	Хизмат турлари бўйича мутахассислар малакасини ошириш, замонавий кадрларни (IT-соҳасида, тил билиш, муомла маданияти, этикет в.х.казо) тайёрлаб бориш	Замонавий кадрлар тизими шаклланади
	Молиявий менежмент	молиявий рискларни баҳолаш; солиқларни режалаш; молиявий харажатларни хизмат турларига мутаносиб оптималлаш-тириш ва назоратини таъминлаш	Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлаш ҳамда ривожлантириш учун мақсадли лойиҳаларни молиялаштирилади ва доимий мониторингни олиб боради	Молиявий маблағларни мақсадли ишлаши таъминланади
	Эккаунтинг менежмент	Бухгалтерия, аудитор, тегишли бўлим ҳисоботлари, режа кўрсаткичлар ҳамда факт бўйича бажарилиши чуқур таҳлилдан ўтказилади, Замонавий корхоналардаги молиявий иқтисодий фаолият билан солиштириш, таҳлил қилинади	Олик, чораклик, йиллик ҳисоботларни тўлиқ аудитдан ўтказилади. Муаммо ва йўл қуйилган камчиликлар, имкониятлар ўрганилади, таққосланади.	Корхона фаолиятида, хизматлар соҳасидаги муаммоли бўлишлар илмий асосда ўз вақтида аниқланади

	Антикризис менежмент	Кохонани молиявий соғломлаштириш	Банкротликни олдини олиш; корхонанинг кучсиз томонларини таҳлилар асосида аниқлаш; корхона фаолиятига таъсир этувчи ички ва ташқи факторларни таҳлил қилиб бориш	Хизматлар соҳасидаги ҳақиқий ҳолат ўрганилиб, хизмат турларининг фаолияти бўйича рейтингни таъминлайди
	Лойиҳа менежменти	Вақт ва бюджет доирасида маълум бир мақсадни режалаштириш, ташкил этиш ва амлга оширишдир	Давлат дастурларидан, кенг жамоатчилик фикридан, ҳудуддаги аҳоли ва корхоналарнинг ижтимоий инфратузилмаган бўган талаби ҳамда эҳтиёжи асосида лойиҳа ишлаб чиқилади	Давлат ҳамда ҳудуднинг темир йўл хизматларига бўлган эҳтиёжи қондирилади.

Бошқарувда менежмент усуллариининг самарали қўлланилиши олдимизда қўйилган мақсадларга эришишда, функционал йўналиш юзасидан бошқарув стратегиясини қўллашимизда ва ниҳоят натижалар самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳмиятга эга.

Хулоса

Мақолада баён этилган Ўзбекистон темир йўллариининг хизматлар бозорига тааллуқли бўлган айрим кўрсаткичларни таҳлил этиш асосида Ўзбекистон темир йўллариининг бугунги ҳолатини кўриб чиқишимиз бизга куйидаги стратегик йўналишни белгилаб берди.

I.Транспорт хизматлари бозорининг глобаллашуви шароитида темир йўл хизматлари бошқарув тизимини тубдан ислоҳ қилиш асосида такомиллаштириш.

II.Темир йўл хизматларидаги асосий фондларидан самарали фойдаланиш мақсадида тизимли модернизациялаш.

III.Темир йўл хизматларини технологик трансформациясини жадаллаштириш асосида бошқарув тизимини техник жиҳатдан тўлиқ модификациялаш.

IV.Темир йўл хизматлари рақобатбарошлигини оширишга таъсир этувчи ижтимоий-иқтисодий омилларни чуқур таҳлил этиш асосида зарур чора-тадбирлар режасини амалга ошириш.

V.Темир йўл хизматларига жаҳон давлатларининг энг илғор тажрибаларини жорий этишда доимий фаолият юритувчи илмий-тадқиқот, тажриба конструкторлик, инновация маракази фаолиятини давлат хусусий шерикчилиги ҳамда хорижий инвестларларни жалб этиш асосида ташкил этиш.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 февралдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.// www.lex.uz.

2. М.О.Сураева. Теория и методология инновационного развития железнодорожного транспорта России: Автореферат дис. доктора экономических наук/ М.О.Сураева- Санкт-Петербург, Санкт-Петербургский государственный университет аэрокосмического приборостроения, 2012.
3. В.И.Янунин. Железные дороги России и государство. Монография.-М.: Научные эксперт, 2010.-462 с 4.
4. Б.М.Лapidус. Экономические проблемы транспорта. -М.:Желдориздат. 2002. -112 с.
5. Ж.С.Файзуллаев. Темир йўл транспорт тизимининг ташкилий-иқтисодий асосларини ривожлантириш. Ж.: “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali № 2. Март-апрел (00058). 2022. 131-140 б.
6. М.Паязов. Темир йўл транспорт хизматларининг хизматлар бозоридаги бошқарув самарадорлигини баҳолаш услубиёти. Ж.: “Иқтисод ва молия” №7(155). 2022. 36-44б.
7. М.Н.Ирисбаев. М.М.Махмудов. Стратегические приоритеты международной инфраструктуры логистики. Хорижий олимлар иштирокидаги республика илмий-техника анжумани маъюлалари тшплари. 2018 йил 18-19 декабрь. 21-27 б.
8. В.К.Ярашова. Прспективы и приоритеты развития интеграционных процессов транспортной системы Республики Узбекистан. Ж.: Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество № 2-2.2019. 524-527 с.
9. К.У.Ульджабаев. В.К.Ярашова. Приоритеты и направления стратегического развития транспорта Узбекистана на долговременную перспективу. Ж.: Транспорт Шёлкогвого пути. №1-2.2019. 15-25 с.
10. G. Stojić, S. Vesковиć, I. Tanackov, S. Milinković: Model for Railway Infrastructure Management Organization. *Promet – Traffic&Transportation*, Vol. 24, 2012, No. 2, 99-107.

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби,
иқтисодиёт фанлари номзоди

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШ ХАЛҚАРО АМАЛИЁТИ

Аннотация. Мақолада миллий иқтисодиётларни рақамлаштириш даражасини баҳолашнинг амалда бўлган асосий индекслари ёритилган ва таққосланган, уларнинг услубий ўхшашлик ва фарқлари, шунингдек, амалий қўллаш муаммолари очиб берилган. Мамлакатларнинг инновацион ривожланишини баҳолаш методологияси глобал инновация индекси ва унинг таркибий қисмлари, инновациялар индекси элементларини ҳисобга олган ҳолда Ўзбекистоннинг рейтинг ўринларини баҳолаш натижалари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: рақамли иқтисодиёт, рақамли технологиялар, рақамлаштириш индекслари, инновациялар глобал индекси.

Рузиев Абдумалик Артиғалиевич
Высшая школа бизнеса и предпринимательства,
кандидат экономических наук

МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА ОЦЕНКИ ЦИФРОВИЗАЦИИ В РАЗВИТИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В статье выделяются и сравниваются существующие основные показатели оценки степени цифровизации национальных экономик, выявляются их методологические сходства и различия, а также проблемы практического применения. Проанализирована методика оценки инновационного развития стран с учетом глобального инновационного индекса и его компонентов, результатов оценки рейтинговых позиции Узбекистана с учетом элементов инновационного индекса.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, индексы цифровизации, глобальный индекс инноваций.

Ruziev Abdumalik Artigalievich
Graduate School of Business and Entrepreneurship,
PhD in Economics

INTERNATIONAL PRACTICE FOR ASSESSING DIGITALIZATION IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ECONOMY

Abstract. The article highlights and compares the existing main indicators for assessing the degree of digitalization of national economies, reveals their methodological similarities and differences, as well as problems of practical application. The methodology for assessing the innovative development of countries is analyzed, taking into account the global innovation index and its components, the results of assessing the ranking places of Uzbekistan, taking into account the elements of the innovation index.

Keywords: digital economy, digital technologies, digitalization indices, global innovation index.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N06>

Кириш

Бугунги кунда рақамлаштириш иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг глобал парадигмаларидан бири ҳисобланади. Бу ҳолат хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида юзага келадиган муносабатлар ва фаолиятнинг деярли барча жабҳаларини қамраб олган ҳолда трансформациялашув жараёнларини тезлаштиради, бу эса ўз-ўзидан иқтисодиётда ва умуман жамиятда инновацион жараёнларнинг тез суръатларда ўсишига олиб келади.

Замонавий воқеликда рақамли ахборотлар ривожланишнинг энг муҳим ресурсига айланмоқдаки, буни рақамли технологиялардан ўзаро ҳамкорлик шакли сифатида фаол фойдаланаётган юридик ва жисмоний шахслар оқимининг ҳар дақиқада ортиб бораётгани билан изоҳлаш мумкин. Ўз навбатида, рақамли трансформация жараёнларининг ижобий динамикаси жаҳон иқтисодиётининг инновацион ривожланиши соҳасидаги тараққиётни белгилловчи муносабатлар занжирини келтириб чиқаради.

Сўнгги вақтларда мамлакатнинг глобал дунёдаги обрўсини объектив баҳолайдиган турли халқаро рейтингларда таҳлил қилинаётган дунё мамлакатлари замонавий иқтисодий ҳолатининг аниқ бир жиҳатлари тўғрисидаги бундай ахборотлар алоҳида мамлакатларнинг ривожланиши ва унинг жаҳон иқтисодиётида тутган ўрнини ҳам тўлиқ тавсифлаб беради.

Халқаро рейтинглар алоҳида мамлакатларнинг салоҳияти ва ривожланиш динамикаси тўғрисидаги ахборотларга эга бўлишнинг ўта муҳим манбасига айланиб бормоқда. Мамлакатларнинг глобал ўлчовлар тизимидаги ўрнини ўрганиш ҳозирги куннинг долзарб масаласи бўлиб, бу халқаро рейтинглар мавжуд камчиликларни бартараф этиш ва рақобатдош устунликларини ошириш учун имкониятлар яратишга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш зарурлигини аниқлаб берувчи кўрсаткичлар эканлиги билан изоҳланади.

Шу муносабат билан рақамлаштиришни иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг омили сифатида халқаро баҳолаш амалиётини ўрганиш ҳозирги даврнинг долзарб вазифаси ҳисобланади. Шу билан бирга, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш даражасини баҳолаш учун қўлланиладиган услубий ёндашувлар етарли даражада ишлаб чиқилганига қарамай, илмий манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, ҳозирги вақтда иқтисодий тизимларнинг рақамлаштириш ва инновационлигини комплекс ўзаро боғлиқликда баҳолашнинг индексли усуллари етарли даражада ишлаб чиқилган бўлсада, уларни қўллашнинг назарий, услубий ва амалий масалалари етарли даражада тадқиқ этилмаган.

Мамлакатларни иқтисодий ривожланаётганлигини баҳолаш халқаро рейтингининг долзарб индексли усуллари, шунингдек улар асосида шакллантирилган жаҳон иқтисодиёти ривожланишининг рақамли ва инновацион компонентлари рейтингини аниқлаш, илмий жиҳатдан асосланган ҳолда таққослаш ва шу асосда назарий-услубий қоидалар ва илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқиш имконини беради.

Индекс усули асосида мамлакатларнинг рақамлаштириш ва инновацион ривожланиш даражасини иқтисодий таҳлил қилишнинг замонавий халқаро амалиётини комплекс тадқиқ этиш ўзига хос жиҳатларга эга бўлиб, бу муайян бир мамлакатдаги рақамли иқтисодиёт ривожланишини баҳолашда услубий ёндашувлар ва амалий натижаларни ўзаро алоқадорлик ҳамда боғлиқлигини илмий жиҳатдан изоҳлаш, шунингдек уларни такомиллаштириш бўйича илмий ва амалий тавсиялар киритишга имкон беради.

Бугунги кунда умумий рақамлаштириш, хусусан, рақамли иқтисодиёт жараёнлари дунё ҳамжамияти олимлари ва бу соҳадаги етакчи ташкилотлар томонидан муҳокама қилинмоқда. Уларнинг катта қисми бу жараён табиий ва жамиятга беқиёс фойда келтиради деган фикрни билдирса, баъзилари умумий рақамлаштириш ва глобаллашув жараёнларини кейинги ривожланиш учун хавф ва таҳдид сифатида кўради, қолганлари эса жараён давом этаётганини қайд этиб, уни ижтимоий-иқтисодий ривожланишга қандай таъсир қилишини таҳлил қилишга ҳаракат қилади. Шунга қарамай, барча олимлар рақамлаштириш ҳаётнинг барча соҳаларига бирон-бир тарзда таъсир қилганини ва натижада сўнги ўн йил ичида катта ўзгаришлар содир бўлганини таъкидлайди. Шу сабабли, рақамли иқтисодиётнинг умумий хусусиятлари, қонуниятлари ва усулларини ҳамда бутун рақамлаштириш жараёнини аниқлаш имконини берувчи тадқиқотлар олиб бориш долзарб ҳисобланади.

Иқтисодиёт ва жамият ҳаётининг барча жабҳаларида рақамли технологиялар тўлиқ кириб бораётган бир шароитда рақамлаштириш унинг тузилишини ўзгартирган ва янги сифат ҳолатига ўтказган ҳолда жаҳон иқтисодиёти ривожланишининг асосий тенденциясига айланмоқда. Иқтисодий ўсиш тобора кўпроқ технология ва билимга асосланиб, уларни асосий ишлаб чиқарувчи кучга айлантирмоқда. Шундай қилиб, рақамли иқтисодиёт ва унинг ютуқлари истиқболда жаҳон хўжалик субъектлари фаровонлигини таъминлашнинг асосий манбасига айланади [10, 553-564 -б.].

Рақамли иқтисодиёт илмий йўналиш сифатида реал иқтисодиёт рақамли трансформациясининг фундаментал сабаблари ва оқибатларини ўрганиш, ундаги рақамли маҳсулот ва хизматлар улушини, шунингдек, рақамли технологияларга асосланган бизнеснинг янги шаклларини ўрганишга йўналтирилган [4, 5-19 -б.].

“Рақамли иқтисодиёт” тушунчаси кўлами жаҳон иқтисодиёти кўламида, хусусан ривожланган давлатларда йиллик ўсиш суръатлари катта сонларда ифодаланадиган нисбатан янги ва ўта муҳим ҳодисаларни ифодалайди [14].

Бу жараён кун сайин ортиб бораётган қурилмаларга (“Интернет буюмлар”) рақамли бошқаришни жорий этиш, янги шахсий қурилмалар (мобил телефонлар, смартфонлар, планшетлар, нетбуклар, ноутбуклар, 3D босмалаш қурилмалари) ва янги рақамли моделларни (булутли ишлов бериш, рақамли платформалар, рақамли хизматлар) яратиш, “катта маълумотлар” (big data) технологиясидан фойдаланган ҳолда маълумотлар массивларидан фойдаланишнинг интенсив ўсиб бориши, маълумотларни таҳлил қилиш ва қарор қабул қилиш алгоритмларининг янги усуллари, автоматлаштириш ва роботлаштиришнинг янги технологиялари билан бирга ривожланиб боради [9].

Бу технологиялар рақамли соҳада янги имкониятлар яратади: тадбиркор ёки компания фаолият соҳасида ўз хоҳишига кўра рақамли тизимдан фойдаланиши мумкин

[13]. Бу жараён самарали маълумотлаштириш (катта ҳажмдаги маълумотларни сақлаш технологияларини жорий этиш), рақамлаштириш (қиймат занжирининг барча ахборотли қисмларини рақамли форматга ўтказиш), виртуаллаштириш (жараёнларни физик жиҳатдан ўзгариши), шунингдек генеративликни (дастурлаш ва қайта шакллантириш йўли билан маълумот ҳамда технологиялардан дастлабки мақсаддан фарқли равишда янгича фойдаланиш) ўз ичига олиши мумкин [12]. Ҳар қандай технологиянинг таъсир даражасини унинг қанчалик тарқалганлиги ва жорий этилганлик натижасида кўриш мумкин [11]. Юқори даражада тарқалиш суръатлари ва шу пайтгача эришиб бўлмаган имкониятларни тақдим этиш самарасини ўсиб бориши билан рақамли технологияларнинг иқтисодий ривожланишга таъсири ҳам ортиб бормоқда.

Материал ва метод

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиб бориши нафақат ташқи ва ички бизнес муҳитга, балки сиёсий ҳукумат функцияларига ҳам таъсир кўрсатади. Интернет ҳар қандай компанияга ўз маҳсулотини бутун дунё бўйлаб, шу жумладан кичик капитал қўйилмалар билан сотишга ёрдам беради; харажатларни қисқартиради; фаолиятнинг маҳсулдорлиги ва самарадорлигини сезиларли даражада оширади [5, 61-64 -б.]. Рақамли иқтисодиёт ҳозирги кунда ўсишнинг асосий манбаи ҳисобланади. Рақобат, инвестиция ва инновацияларни рағбатлантиради, бу эса хизмат кўрсатиш сифатини яхшиланиши, истеъмолчилар учун кенг танлов ва янги иш ўринларини яратиш имконини беради [15].

Рақамли иқтисодиёт инсонлар, корхоналар, қурилмалар, маълумотлар ва жараёнлар ўртасидаги кўплаб тармоқли ўзаро ҳамкорликдан келиб чиқадиган иқтисодий фаолият шакли бўлиб, унинг асосини Интернет, мобил технологиялар ва буюмлар интернетини асосида шаклланиб бораётган инсонлар, ташкилотлар ва машиналарнинг ўзаро боғлиқлигини ортиб бориши, яъни гипербоғланганлик ташкил этади [16].

Шунингдек, таниқли иқтисодчи Кейт Маскус рақамли иқтисодиётни билим иқтисодиёти сифатида қабул қилиш позициясини қўллаб-қувватлайди: “Биз глобал билимлар иқтисодиётида яшаймиз, унда билим ва илмий кашфиётларни маҳсулотга айлантира оладиганларнигина келажаги бўлади. Инновациялар, мослашиш ва янги технологиялардан фойдаланиш ҳам миллий, ҳам жаҳон иқтисодиёти учун ўсишнинг асосий омиллари ҳисобланади” [6]. Рақамли технологияларнинг таъсирини мавжуд иқтисодий жараёнлар, тизимлар ва тармоқларнинг ташкилий тузилмасига таъсир кўрсатиши, жорий истеъмол модели, бизнеснинг ўзаро ҳамкорлиги ва бизнес моделларининг ўзгаришида кўриш мумкин. Рақамли иқтисодиёт ривожланаётган мамлакатлар учун муҳим салоҳиятга эга бўлиб, унинг самарасидан фойдаланиш иқтисодий ўсиш, капитал ва меҳнат унумдорлигини ошириш, транзакция харажатларини камайтириш ва глобал бозорларга киришни кенгайтиришга шароит яратади [3].

Юқорида кўрсатилган фикрлардан кўриш мумкинки, рақамли иқтисодиётнинг ҳозирги кундаги жадал ривожланишига қарамай уни таърифлаш, таснифлаш ва ўлчаш жараёнлари билан боғлиқ бир қатор муаммолар мавжуд. Бу тадқиқотлардан рақамли иқтисодиётнинг таърифлари жуда хилма-хил ва баъзан қисман ҳам бир-бирига мос келмайди деб хулоса қилиш мумкин. Анъанавий ва рақамли иқтисодиёт ўртасидаги

аниқ фарқларни кўрсатиб бера олмайдиган таърифларни мавжудлиги ўз-ўзидан рақамли иқтисодиётни таққослаш ва таҳлил қилишда, ривожланишини баҳолаш жараёнларида мураккабликларга олиб келади [7]. Жумладан, агарда рақамли иқтисодиёт фақат компанияларда фойдаланилаётган технологияларга асосланган ҳолда таърифланиши умумдавлат иқтисодиётининг катта қисмини қамраб оладиган рақамли технологияларни эътиборга олмаслиги мумкин [17]. Табиийки, рақамли иқтисодиёт ёки рақамли секторнинг умумэтироф этилган таърифнинг мавжуд эмаслиги, шунингдек, интернет-платформалар ва улар билан боғлиқ хизматлар учун иқтисодий тармоқлар ва маҳсулотлар таснифининг ишлаб чиқилмаганлиги рақамли иқтисодиётни тўлақонли баҳолашга тўсқинлик қилади [8]. Рақамли технологиялар туфайли амалга оширилаётган иқтисодий фаолият турлари сонининг ортиб бораётганлиги ва бунинг натижасида уларнинг иқтисодий аҳамияти ортиб бораётганини эътиборга олган ҳолда, рақамли иқтисодиётни ўлчаш асосий масала ҳисобланади [1].

Тадқиқотда қўйилган масалаларни ечиш учун илмий билишнинг диалектик усули, шунингдек, умумий илмий ва маҳсус тадқиқот усуллари: комплекс таҳлил ва синтез, тизимли ёндашув, шунингдек, жадвал ва график воситалар ёрдамида таққослаш усулларидан фойдаланилди. Тадқиқот гипотезаси рақамлаштириш даражасини баҳолаш индекслари ва иқтисодиётнинг инновацион ривожланиш кўрсаткичлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлиги ҳамда ўзаро боғлиқлигини таҳлил қилишдан иборат.

Натижа

Мавжуд халқаро индекслар ва рейтинглар кўрсаткичлари, улардан микро индекслар, субиндекс ва композит индексларни шакллантириш методологияси, афзаллик ва камчиликлари, умумийлиги ва фарқларини таҳлил қилиш истиқболда мамлакатларнинг рақамли иқтисодиётга тайёрлик даражаси ва рақамли глобаллашув даражасини акс эттирувчи янги муаллифлик индексларини шакллантиришда фойдаланиш имконини беради.

Ҳозирги вақтда халқаро амалиётда рақамли сегментни баҳолаш учун иқтисодиётни рақамлаштириш бўйича дунёнинг энг ривожланган давлатлари рейтингини тузишда бир нечта асосий индекслардан фойдаланиш усуллари ишлаб чиқилган (1-жадвал).

1-жадвал. Дунё мамлакатлари иқтисодиётини рақамлаштириш даражасини баҳолаш индекслари ва уларни қўллаш соҳаси

Кўрсаткич	Ишлаб чиқилган йили	Яратувчи (ишлаб чиқувчи)	Давлат	Кўрсаткичлар сони (асосий гуруҳ/қуйи гуруҳ)	Жорий этилган методологияси ва қўллаш соҳаси
ICT Development Index — IDI (АКТни ривожлантириш индекси)	2007	Халқаро электр алоқа иттифоқи	Швецария	3/14	Мамлакатларни АКТни ривожлантирилиши нуқтаи назаридан параметрларини таҳлил қилиш ва таққослаш

Digital Economy and Society Index — DESI (рақамли иқтисодиёт ва жамият индекси)	2015	Европа комиссияси	Бельгия	5/30	Рақамли рақобатбардошлик шароитида Европа Иттифоқига аъзо давлатларнинг рақамли кўрсаткичлари тенденциялари таҳлили ва таққослаш
World Digital Competiveness Index — WDCI (Жаҳон рақамли рақобатбардошлик индекси)	2017	Бошқарувни ривожлантириш институти	Швецария	9/50	Рақамли таркиб дунё мамлакатлари рейтингини тузиш билан иқтисодий рақобатбардошлик даражасини тадқиқ этиш
Digital Evolution Index — DEI (Рақамли эволюция индекси)	2015	Mastercard ва Тафтса Университети қошидаги Флетчера номидаги ҳуқуқ ва дипломатия мактаби	АҚШ	5/170	Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида мамлакатларнинг эволюцион ривожланишини баҳолаш
e-Intensuty (Иқтисодиётни ривожлантириш Boston Consulting Group индекси)	2015	Boston Consulting Group	Бостон	3/28	Рақамли ечимларнинг жамият ва бизнесга таъсир даражасини аниқлаш
Networked Readness Index - NRI (Тармоқ тайёргарлиги индекси)	2002	INSEAD	Франция	4/20	АКТни инсонга йўналтирилган ёндашув
The UN Global E-Government Development Index - EGDI (Электрон ҳукуматни ривожланиш индекси)	2000	Иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш департаменти	БМТ	3/13	Мамлакатларда электрон ҳукумат ривожлантирилишини баҳолаш
E-Participation Index - EPART (Электрон иштирок индекси)	2000	Иқтисодий ва ижтимоий ривожлантириш департаменти	БМТ	Электрон ҳукумат сўровига кўшимча индекс	Ҳукумат ва фуқаролар иштирокидаги жараёнларда АКТ иштироки. Онлайн-хизматлар қанчалик фойдали эканлиги ва фуқароларга қанчалик тез-тез тақдим этилишини баҳолайди

(Global Connectivity Index — GCI (Глобал уланиш Индекси))	2014	Huawei компанияси	Хитой	40	Дунёнинг йirik давлатлари рақамли технологиялар соҳасидаги тараққиёт даражасининг динамикасини таҳлил қилиш
The Global Innovation Index — GII (Глобал инновация индекси))	2007	INSEAD, WIPO	Франция, АҚШ	80	Мамлакатларнинг инновацион муваффақиятлари индикатори
Digital Readiness Index - DRI (Рақамли тайёргарлик Индекси))	2018	Cisco	АҚШ	7/25	Мамлакатларнинг рақамли тайёргарлигини баҳолаш
Enabling Digitalization Index - EDI (Рақамлаштириш учун имкониятларни яратиш индекси))	м/й	Euler Hermes	Франция	5	Бизнесни тартибга солувчи муҳит, билимлар экотизими, уланиш сифати, инфратузилма ва бозор ҳажми таҳлил қилинади
Давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ҳамда ҳудудларни рақамли трансформация ҳолатини рейтинг баҳолаш	2021		Ўзбекистон	4/26	Ўзбекистонда очиқлик ва электрон иштирок, электрон хизматлар, ахборот хавфсизлиги, ахборот тизимлари ва ташкилий қисмини таҳлил қилади

Манба: Муаллиф томонидан тузилган

1-жадвалда келтирилган халқаро рейтингларда кўриб чиқилган рақамли иқтисодий ривожлантириш кўрсаткичларининг алоҳида гуруҳлари таҳлили шуни кўрсатадики, мамлакатнинг телекоммуникация инфратузилмасини ривожлантирилганлиги юқоридаги барча индексларда эътиборга олинади. Институционал база ва инновацион муҳит даражасини (рақамлаштириш жараёнларини рағбатлантирадиган сиёсий ва ишбилармонлик муҳити) баҳолаш фақат WDCI, DEI, NRI ва GCI индексларида амалга оширилади. Нархлари бўйича ахборот-коммуникация хизматларидан фойдаланиш имконияти фақат учта DESI, e-Intensity ва NRI индексига киритилган. Аҳолининг билим даражаси ва АКТдан фойдаланиш бўйича амалий кўникмаларни ривожлантириш ҳам учта - WDCI, IDI, EDGI индексларида эътиборга олинади. Аҳоли томонидан интернетдан фойдаланиш ва бизнесда рақамли технологиялардан фойдаланиш йўналишлари WDCI, DEI, DESI, e-Intensity ва NRI томонидан баҳоланади. Давлат электрон хизматларининг ривожланиши IDIdан ташқари деярли барча индексларда таҳлил қилинади. АКТ соҳасининг ривожланиши фақат GCIда тақдим этилган. АКТнинг иқтисодий ва жамиятга таъсири фақат NRI томонидан таҳлил қилинади, етакчи рақамли технологиялар ривожланиши натижасидаги оқибатлари ҳам GCI томонидан таҳлил қилинади. Аммо, таъкидлаш

жоизки АКТ бўйича умумий харажатлардаги хорижий инвестицияларнинг улуши, АКТ-тармоғидаги халқаро шартномалар улуши, АКТ секторидаги хорижий ташкилотларнинг улуши каби халқаро ҳамкорлик кўрсаткичлари ҳеч бир рейтингда ҳисобга олинмаган.

WDCR, DEI, NRI ва GCI индекслари кўп даражада меъерий-ҳуқуқий ва илмий-тадқиқот базасининг ривожланганлиги, бизнесда АКТдан фойдаланиш ва ахборот хавфсизлигини акс эттирувчи институционал, иқтисодий ва технологик кўрсаткичларни бирлаштиради. DESI, e-Intensity, IDI, EGDI ва EPART индекслари кўпроқ ахборотлашган жамиятнинг ривожланиш даражасини баҳолашга мўлжалланган ижтимоий йўналишга эга бўлиб, ижтимоий-иқтисодий интеграцияни акс эттиради, бу индекслар бизнес ва саноатни рақамлаштириш, электрон савдони ривожланганлигини ҳисобга олмайди.

Ўзбекистон Республикаси 2021 йил 15 июнда вазирлар маҳкамасининг 373-сонли “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматнинг ривожланиш ҳолатини рейтинг баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарорига асосан “Давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ҳамда ҳудудларни рақамли трансформация ҳолатини рейтинг баҳолаш тартиби тўғрисида”ги Низоми қабул қилинди. Бу низомга асосан рейтинг баҳолашга оид 23 элементдан ташкил топган асосий индикатор кўрсатиб берилган.

Ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва ривожлантириш самарадорлиги даражаси аниқланган индикаторларнинг миқдорига қараб, 0 баллдан 100 баллгача рейтингда баҳоланиб, индикаторларни рейтинг баҳолаш натижаларига мувофиқ ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва ривожлантириш самарадорлиги даражаси рейтинг бали бўйича:

71 баллдан 100 баллгача бўлган ташкилот — «яшил»;

55 баллдан 71 баллгача бўлган ташкилот — «сариқ»;

55 баллдан паст бўлган ташкилот — «қизил» деб топилади.

Ҳудудларнинг рақамли ривожланиш даражасини рейтинг баҳолаш кўрсаткичлари Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳри, туманлар ва шаҳарлар бўйича алоҳида ҳисоблаб чиқилиб, 4 гуруҳдаги 26 баҳолаш кўрстакчилари белгиланган.

Мамлакатларда рақамли иқтисодиёт ривожлантирилишини баҳоловчи халқаро индексларнинг камчиликлари қаторига ҳар бир давлатнинг ўзига хос хусусиятларини эътиборга олинмаслиги, мамлакат кўрсаткичларини халқаро индексларнинг ҳисоблаш талабларига мослаштириш амалга оширилишини киритиш мумкин. Мавжуд усуллар, бизнинг фикримизча, мамлакатда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш даражасини ҳар томонлама баҳолашга имкон бермайди. Кўриб чиқилган усуллар умумий ҳолда асосан рақамли ривожланишнинг техник жиҳатларини баҳолаб, рақамли иқтисодиётнинг технологик жиҳатдан ривожланиши, АКТ инфратузилмаси ва аҳолининг тайёргарлиги даражасини аниқлайди. Аммо рақамли иқтисодиёт жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий институтларини микро ва макро даражада трансформацияси жараёни билан боғлиқ бўлган мураккаб ҳодиса ҳисобланади. Хулоса қилиб айтганда, рақамли иқтисодиётни турли даражаларда кенг қўламли таҳлил қилиш имконини берувчи кўплаб кўрсаткичлар асосида баҳолаш зарур.

1-жадвални таҳлил қилиш натижасида келтирилган индексли кўрсаткичларнинг таркибий қисмларининг тузилиши ва асосий гуруҳлари ҳамда кичик гуруҳлари сони, шунингдек рақамли параметрларнинг қийматларини ҳисоблаш методологияси бўйича бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга эканлиги тўғрисида хулоса қилиш мумкин. Шу билан бирга, барча индекслар рақамли иқтисодий ривожлантириш билан боғлиқ жиҳатларни акс эттиради. Бундан ташқари, уларнинг барчаси қандайдир тарзда ахборот-телекоммуникация технологияларининг ривожланишини ҳисобга олади. Яъни, бир томондан, бу индекслар ўртасида ўзаро боғлиқлик мавжуд бўлса, бошқа томондан, уларда “рақамлаштириш” тушунчасини талқин қилишда турли ёндашувлар мавжуд.

Кўриб чиқиладиган индексларнинг фойдаланиш методологияси ва амалиёти билан боғлиқ муаммоли ва ноаниқ жиҳатларини ажратиш кўрсатамиз ва тўлдираемиз. Биринчидан, иқтисодийнинг рақамли трансформацияси соҳасида Америка ва Европа ташкилотлари вакиллари томонидан таклиф этилган ҳамда ҳисоблаб чиқилган кўрсаткичлар кўп ҳолларда реал ҳолатни кенг масштабда кўриб чиқади ва ҳар бир алоҳида олинган давлатнинг ўзига хос хусусиятларини эътиборга олмайди.

Иккинчидан, бир ҳодисанинг бошқасидан кечикиш вақтини тавсифловчи вақт оралиғи мавжудлигини таъкидлаш лозим. Кўриб чиқиладиган индексларга келсак, таъкидлаш мумкинки, ахборот-статистик манбалар томонидан тўпланадиган, таҳлил қилинадиган ва нашр этиладиган маълумотларнинг долзарблиги аслида динамик равишда аниқ бир вақт оралиғида (бир йилдан икки йилгача ва ундан кўпроқ) ўзгариб туради. Натижада, биринчи навбатда, маълумотларнинг кечикиши ва АКТ соҳасининг юқори суръатда ўзгариб бораётганлиги туфайли тақдим этиладиган индикаторларнинг амалий аҳамиятида долзарблилик хусусияти камайиб боради.

Учинчидан, эндоген омиллар таъсири остида шаклланиб афзал кўриладиган кўрсаткичлар тўпланиши танлаш муаммоси ечилмаган бўлиб, бундай кўрсаткичларни таҳлил қилиш очик манбаларда кенг тарқалган экзоген ўзгарувчилардан фарқли равишда, ҳисоблаш тизимини ортиқча маълумотлар билан юкламаган ҳолда рақамлаштириш даражасини тўлиқлик, етарлилик ва ишончлилиқ тамойилларига риоя этган ҳолда баҳолаш имконини беради.

Муҳокама

Бошланғич статистик маълумотларга кириб бўлмаслиги ёки тақдим этиладиган маълумотларни рейтинг ташкилотчиларининг мақсадларига мос келмаслиги билан боғлиқ саволларни пайдо бўлиши натижасида рақамлаштиришнинг халқаро рейтингларида айрим мамлакатларнинг иштирок этмаслиги яна бир муаммо ҳисобланади. Бизнинг фикримизча, бу омиллар бутун жаҳон иқтисодий миқёсида рақамлаштириш даражасини тўлақонли баҳолаш натижаларига ўз таъсирини кўрсатади.

Инновацион ва рақамли иқтисодийнинг терминологик боғлиқлиги дунё олимлари томонидан илгари олиб борган назарий ва услубий тадқиқотлар натижаларида келтирилган хулосаларга таяниб юқоридаги тушунчалар ўртасида маълум бир боғлиқлик, шунингдек, уларнинг когнитив мувофиқлиги ва ўзаро тўлдирувчан хусусиятга эгаллиги тўғрисида хулоса қилиш мумкин.

Шу йўналишда, бизнинг фикримизча, бу соҳаларда индексли баҳолаш усулини қўллашнинг назарий-услубий ва амалий асосларини таққослаш муҳимдир. Айни пайтда

мамлакатнинг инновацион ривожланиш даражаси 2007 йилдан бошлаб Франциянинг INSEAD Халқаро бизнес-мактаби, Корнел университети ва Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилоти (World Intellectual Property Organization, WIPO) қўшма лойиҳаси доирасида ишлаб чиқилган Глобал инновация индекси (Global Innovation Index GII) ёрдамида баҳолашга асосланади. Мамлакатларнинг иқтисодий ривожланиш даражасини ҳам тавсифловчи 82 турдаги ўзгарувчидан ташкил топган бу кўрсаткичдан фойдаланган ҳолда тадқиқот ўтказиш мумкин бўлиб, унда дунё мамлакатлари рейтинги глобал инновацион ривожланиш даражаси нуқтаи назаридан шакллантирилади. Индексни ҳисоблаш методологияси икки гуруҳга бирлаштирилган етти блокдан ташкил топган кўрсаткичларга асосланади (1-расм).

Шундай қилиб, якуний индекс - аниқ бир мамлакатда инновацияларни ривожлантиришга қаратилган саъй-ҳаракатлар самарадорлигини объектив баҳолаш имконини берадиган харажат ва самара муносабатларини ифода этади.

Индексни шакллантириш методологияси ва у бўйича маълумотлар манбаларининг батафсил тавсифи навбатдаги таққослама тадқиқот натижалари бўйича ҳар йиллик ҳисоботда келтирилади. Тадқиқот билан қамраб олинган ҳар бир иқтисодиёт учун ҳисоботда мамлакат ва миллий иқтисодиётнинг рейтингдаги умумий тутган ўрни ва индексни ҳисоблаш учун фойдаланилган таҳлиллар асосида аниқланган энг муҳим инновацион устунлик ва камчилик томонларининг батафсил натижалари келтирилади.



1-расм. Глобал инновациялар индексини ҳисоблашда икки гуруҳ кўрсаткичларини баҳолаш

Манба: муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Юқорида қайд этилганларга асосланиб, 1-жадвалда келтирилган рақамлаштириш ва илғор технологияларни тавсифловчи кўрсаткичлар асосий таркибий қисмлари 1-расмда кўрсатилган глобал инновациялар индексида ҳам бевосита ҳисобга олинган деб хулоса қилиш мумкин. Бу эса рақамлаштириш даражасини баҳолаш параметрлари ва инновацион ривожланиш ўлчовлари ўртасида ўзаро боғлиқлик борлигини яна бир бор тасдиқлайди.

2-жадвал.

Глобал инновациялар индекси бўйича мамлакатларнинг рейтинг ўринлари

Давлатлар	Йиллар бўйича эгаллаган ўрни			Индекс (2022 й.)
	2020	2021	2022	
Швецария	1	1	1	64,6
АҚШ	3	3	2	61,83
Швеция	2	2	3	61,66
Корея Республикаси	10	5	6	57,8
Туркия	51	41	37	38,1
Россия Федерацияси	47	45	47	34,3
Украина	45	49	57	31,0
Беларус	64	62	77	27,5
Ўзбекистон	93	86	82	25,3
Қозоғистон	77	79	83	24,7
Озарбайжон	82	80	93	21,5
Қирғизистон	94	98	94	21,1
Тожикистон	109	103	104	1,8

Манба: [2] маълумотлари асосида асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди

Глобал инновациялар индекси (I) бўйича мамлакатларнинг рейтинг ўринларида, 2022 йил ҳолатига кўра, 132 давлат ичида Швейцария етакчи давлат ҳисобланади ($I=64,6$). Рейтингда АҚШ ($I=61,83$), Швеция ($I=61,66$) давлатлари етакчи “учлик”га киритилган. Ўзбекистон глобал инновацион ривожланиш индексида 82-ўринни эгаллаб ($I=25,3$), бу 2021 йилга нисбатан тўрт поғона ўсишга эришилганлигини кўрсатади (2-жадвал).

Глобал Инновациялар Индекси жаҳон иқтисодиётини инновацион салоҳиятига мос ҳолда таснифлайди. Инновациялар киритиш ва натижалари бўйича гуруҳланган 80 га яқин кўрсаткичлардан ташкил топган GII инновацияларнинг кўп ўлчовли жиҳатларини қамраб олади.

Қуйидаги жадвалда Ўзбекистоннинг сўнгги уч йилдаги рейтинг кўрсаткичлари келтирилган бўлиб, GII модели тузилмасидаги маълумотларнинг мавжудлиги ва ундаги ўзгаришлар GII рейтингини йиллик таққослашга таъсир этишини қайд этиш зарур. Ўзбекистоннинг GII 2022 ҳисоботдаги рейтинг ишончли интервал оралиғи 68-91 оралиқдаги рангни ташкил этади (3-жадвал).

3-жадвал. 2020-2022 йилларда Ўзбекистоннинг глобал инновация индексида тутган ўрни динамикаси

Йиллар	Глобал инновацион индекс (GII)	Инновация ресурслари	Инновация амалий натижалари
--------	--------------------------------	----------------------	-----------------------------


		(Innovation inputs)	(Innovation outputs)
2020	93	81	118
2021	86	75	100
2022	82	68	91

Манба: [2] маълумотлари асосида асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди

Таъкидлаш жоизки, глобал инновациялар индексининг 1-расмдаги таркибий қисмлари бўйича қуйидаги ҳолат кузатилади: Ўзбекистоннинг мавжуд ресурслар бўйича 2022 йилдаги эришган мавқеи бу борада 2020-2021 йилларда эришилган натижаларга нисбатан юқори. Бу шуни кўрсатадики, инновацион фаолиятни амалга ошириш учун ресурслар ва шароитлар захираси инновацияларни амалга оширишнинг амалий воситаларига нисбатан юқори. 3-жадвалдан кўриш мумкинки, 2022-йилда Ўзбекистон инновацияларга инвестициялар киритиш бўйича уларнинг амалий натижаларига нисбатан юқори кўрсаткичларни намойиш этган: жорий йилда Ўзбекистон инновацияларга қўшган ҳиссаси бўйича глобал ҳамжамиятдаги 132 давлат орасида 68-ўринни эгаллаб, 2021 ва 2020 йиллардагига нисбатан ижобий динамикага, инновацион маҳсулотлар бўйича 91-ўринни эгаллаган ҳамда бу позиция 2021 ва 2020 йилларга нисбатан сезиларли даражада самарага эришганлигини кўрсатади.

Юқоридагиларга қўшимча равишда, 2020–2022 йиллар учун инновациялар индекси элементлари бўйича Ўзбекистоннинг кучли ва заиф томонларини таҳлил қиламиз (2-расм).

2-расмда келтирилган маълумотларга асосланиб, шуни таъкидлаш мумкинки, 2022 йилдаги глобал инновациялар индексининг Институтлар элементи Ўзбекистоннинг энг кучли томони бўлиб, 2021 йилдаги 72-ўриндан 2022 йилда 63-ўринга кўтарилган. Бу албатта, Ўзбекистонда инновацион фаолият самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади ва биринчи навбатда иқтисодиётнинг инновацион ривожланиш жараёнларини тартибга солиш сифатининг ортиб бораётганлиги ва қонун устуворлигининг кучайиб бораётганлиги билан боғлиқ. Аммо энг йирик ўсишга бизнеснинг ривожланганлик даражасида эришилган деб таъкидлаш мумкин, чунки айнан шу элементда 2021 йилга (123-ўрин) нисбатан катта ўзгариш бўлиб, қисқа муддатда 49 фарқ билан 74-ўринга кўтарилган.



2-расм. 2020–2022 йиллар учун инновациялар индекси элементлари бўйича Ўзбекистоннинг позицияси

Манба: [2] маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди

Аксинча, энг хавотирли ҳолат инновациялар индексининг мавжуд ресурслар кўрсаткичлари гуруҳига кирувчи бозорнинг ривожланганлик даражаси (60-ўрин) кўрсаткичи 2021 йилга (24-ўрин) нисбатан 36 ўринга салбий кўрсаткич (60-ўрин) билан тушиб кетган ва Ўзбекистоннинг бу индексдаги позицияси сезиларли даражада ёмонлашган.

Умумлашган ҳолда эса Глобал Инновациялар Индекси рейтингида 2021 йилдаги 86-ўриндан 2022 йилда 82-ўринга кўтарилган ижобий муносабатни кўриш мумкин.

Шундай қилиб, Ўзбекистоннинг рақамли ва инновацион ривожланиш индекслари бўйича тутган позицияларини рейтинг баҳолашнинг жорий натижалари бўйича олиб борилган танлама таҳлил ҳам рақамлаштириш ва инновациялар ўртасида ўзаро муносабат ҳамда ўзаро боғлиқлик мавжудлиги тўғрисидаги фаразни тасдиқлайди.

Юқорида келтирилган фикрларни умумлаштирган ҳолда, индекс усули асосида иқтисодий рақамлаштириш даражаси ва инновациялар даражасини баҳолаш методологияси ва амалиёти, фикримизча, янада долзарблаштириш, бирлаштириш ва ривожлантириш заруриятини талаб этади. Хусусан, иқтисодий рақамлаштиришни баҳолашнинг индексли усуллари нафақат телекоммуникациялар соҳасида инфратузилмани ривожлантиришга энг сўнгги ютуқларни жорий этиш амалиёти, балки инновацион ривожланиш даражасини белгиловчи асосий омиллар - мамлакатнинг сунъий интеллект технологиялари, буюмлар интернет, блокчейн ва бошқа АКТни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ҳам эътиборга олиниши зарур.

Хулоса

Инновацияларсиз рақамлаштиришни тўлиқ амалга ошириб бўлмагани каби рақамлаштиришсиз ҳам замонавий иқтисодий инновацион ривожлантиришни амалга ошириб бўлмайди. Бу эса иқтисодий тизимларнинг рақамли ва инновацион ривожланиш даражасини баҳолашнинг услубий жиҳатларини комплекс тадқиқ этиш мақсадга мувофиқлигини белгилаб беради.

Рақамлаштириш даражасини баҳолашнинг халқаро амалиёти асосан индекс усулидан фойдаланишга асосланади. Бу мақсадлар учун кенг қўлланиладиган индекслар методологиясини таҳлил қилиш уларнинг умумлашган хусусиятга эга эканлиги билан бир вақтда рақамлаштириш моҳиятини аниқлашга ёндашувларнинг фарқланиши туфайли бу усуллар ўртасида аниқ фарқлар мавжудлиги тўғрисида хулоса чиқаришга имкон беради. Жумладан, рақамли индексларни қўллашда миллий ўзига хосликларни ҳисобга олмаслик, вақт омили, эндоген кўрсаткичлар тўпламининг турли қийматга эгаллиги кабиларни ҳисобга олиш билан боғлиқ баъзи услубий ва амалий муаммолар мавжуд.

Рақамли иқтисодий ривожланишини баҳолашнинг халқаро усуллари ҳам камчиликлардан ҳоли эмас, улар асосан АКТ инфратузилмаси ва аҳолининг интернет тармоғига жалб этилганлик даражасини баҳолашни қамраб олади. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикасида рақамлаштириш жараёнининг муаммоли соҳаларини аниқлаш, мавжуд муаммоларни бартараф этиш ва шу билан турли глобал рақамли рейтинглардаги ўрнини яхшилаш имконини берувчи рақамли иқтисодий ривожланиш индексини ишлаб чиқиш зарурати мавжуд.

Глобал инновация индекснинг тузилмаси ва таркибий қисмларини таҳлил қилиш орқали глобал инновациялар индексида рақамлаштиришнинг асосий параметрлари эътиборга олинганлиги тўғрисидаги хулосага олиб келди. Рақамлаштириш ва инновацион ривожланиш даражаси бўйича дунё давлатлари рейтингларининг жорий натижаларини танлаб олиш асосида таҳлил қилиш рақамлаштириш ва инновацион ривожланиш ўртасидаги ўзаро алоқа ва боғлиқлик мавжудлигини кўрсатди. Кейинги тадқиқотларнинг йўналиши рақамлаштириш индекси ва инновациялар индексига киритиш учун тавсия этилган кўрсаткичларни батафсил ўрганиш, шунингдек, ташкилий баҳолаш тартиб-қоидаларини такомиллаштириш йўналишида тадқиқотлар олиб бориш долзарблилик касб этади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Bukht R., Heeks R. Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy // International Organisations Research Journal. – 2018.
2. Global Innovation Index 2022. What is the future of innovationdriven growth? <https://www.globalinnovationindex.org/analysis-economy>.
3. Dahlman C., Mealy S., Wermelinger M. (2016) Harnessing the Digital Economy for Developing Countries. Paris: OECD. Available at: <http://www.oecd-ilibrary.org/docserver/download/4adffb24-en.pdf>
4. Козырев А. Н. Цифровая экономика и цифровизация в исторической ретроспективе / А. Н. Козырев // Цифровая экономика. - 2018. - № 1 (1). - С. 5-19.
5. Кулик А. М. Цифровая экономика в роли экономики нового поколения / А. М. Кулик, А. Г. Рожанская, Д. П. Коряков // Сборник статей по итогам Мировой научно-практической конференции, 2017 год. - Уфа : ООО «Агентство мировых исследований», 2017. - С. 61-64.
6. Maskus, K. Private Rights and Public Problems: The Global Economics of Intellectual Property in the 21st Century / K. Maskus. -Peterson Inst. for Intern. Economics, 2012. -P.1.
7. Measuring the Digital Economy: A New Perspective. – Paris : OECD Publishing, 2014.
8. Measuring the Digital Economy. www.imf.org/en/Publications/Policy-Papers/Issues/2018/04/03/022818-measuring-the-digital-economy.
9. OECD Digital Economy Outlook 2015, Paris. Available at: <http://www.oecd.org/sti/oecd-digital-economy-outlook-2015-9789264232440-en.htm>.
10. Смирнов, Е. Н. Эволюция инновационного развития и предпосылки цифровизации и цифровых трансформаций мировой экономики / Е. Н. Смирнов // Вопросы инновационной экономики. - 2018. - Т. 8. - № 4. -С. 553-564.
11. Heeks R. Indian IT/software Sector Statistics: 1980–2015 time Series Data, ICTs for Development blog, 28 April. <https://ict4dblog.wordpress.com/2015/04/28/indian-itsoftware-sector-statistics1980-2015-time-series-data/>
12. Heeks R. Examining “Digital Development”, Development Informatics Working Paper 64, University of Manchester, UK, 2016. <http://www.gdi.manchester.ac.uk/research/publications/di/>

13. Heeks R. Information and Communication Technology for Development. Abingdon: Routledge. House of Commons, 2017. The Digital Economy. London: House of Commons Business, Innovation and Skills Committee. <https://www.publications.parliament.uk/pa/cm201617/cmselect/cmbis/87/87.pdf>
14. Экономика Рунета 2018 / Цифровая экономика России 2018. www.raec.ru/upload/files/ru-ec_booklet.pdf
15. The Economist. Technology Isn't Working. 2014.
16. What is Digital Economy? / Deloitte. - 2019. - URL: <https://www2.deloitte.com/mt/en/pages/technology/articles/mt-what-is-digital-economy.html>.
17. WEF Expanding Participation and Boosting Growth: The Infrastructure Needs of the Digital Economy, Geneva, 2015. Available at: www3.weforum.org/docs/WEFUSA_DigitalInfrastructure_Report2015.pdf

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Хожаев Азизхон Саидалохонович
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Фарғона политехника институти,
E-mail: a.xojayev@ferpi.uz, imf_azizi83@mail.ru

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ, ЎРНИ ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Annotatsiya. Мақолада олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлиги, уни таъминлашда бюджетдан ташқари маблағларнинг шаклланиши, тутган ўрни ва уларни таркиби баён қилинган. Бунда давлат, хорижий ва нодавлат олий таълим муассасаларининг мулкчилик шаклига кўра таркиби фарқли жиҳатлари, таълим муассасаларидаги бюджетдан ташқари маблағларининг таркибий тузилиши, молиявий барқарорликни аниқлаш бўйича молиявий таҳлилни ташкил этиш йўллари тадқиқ қилинган.

Kalit so'zlar: молиявий барқарорлик, таълим хизматлари, жаҳон таълим бозори, олий таълим муассасаси, бюджетдан ташқари маблағлари, ташкилий-ҳуқуқий, мулкчилик шакли, давлат, хорижий, нодавлат олий таълим муассасалари

Хожаев Азизхон Саидалохонович,
доктор философии по экономическим
наукам (PhD), и.о.доцент Ферганский
политехнический институт

ФОРМИРОВАНИЕ ВНЕБЮДЖЕТНЫХ ФОНДОВ, РОЛЬ И ИХ АНАЛИТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ВУЗА

Аннотация. В статье рассмотрена финансовая устойчивость высших учебных заведений, формирование внебюджетных фондов при ее обеспечении, их роль и структура. Исследованы различные аспекты состава государственных, иностранных и негосударственных высших учебных заведений по формам собственности, структурная структура внебюджетных средств в образовательных учреждениях, способы организации финансового анализа для определения финансовой устойчивости.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, образовательные услуги, мировой рынок образования, вуз, внебюджетные средства, организационно-правовая форма собственности, государственные, иностранные, негосударственные вузы.

Khojaev Azizxon Saidaloxonovich,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics,
docent, Fergana Polytechnic Institute

FORMATION OF EXTRA-BUDGET FUNDS, ROLE AND THEIR ANALYTICAL ASPECTS IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. The article describes the financial stability of higher education institutions, the formation of extra-budgetary funds in its provision, their role and their structure. Different aspects of the composition of state,

foreign and non-state higher education institutions according to the form of ownership, structural structure of extra-budgetary funds in educational institutions, ways of organizing financial analysis to determine financial stability were researched.

Keywords: financial stability, educational services, world education market, higher education institution, non-budgetary funds, organizational-legal, form of ownership, state, foreign, non-state higher education institutions



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N07>

Кириш

Олий таълим соҳаси мамлакат ижтимоий иқтисодий тараққиётида муҳим ўринни эгаллаб, юқори малакали кадрларни тайёрлаш, иқтисодиётни ривожлантиришда алоҳида ўрин тутди. Ушбу соҳанинг ривожини келгусида иқтисодиёт тармоқларининг тараққий этишига, корхона ва ташкилотларнинг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи назардан олий таълим муассасаларида таълим олиш истаги борларга фақат юқори талабга эга бўлган таълим йўналишларини таклиф этиб қолмасдан, балки ижтимоий соҳага зарур бўлган кадрларни, шунингдек, реал иқтисодиёт тармоқларидаги хўжалик юритувчи субъектларини ҳам малакали мутахассислар билан таъминлаши зарур бўлади. Бу ишларни 4-5 йил аввал асосан давлат олий таълим муассасаларининг зиммасида бўлган бўлса, бугунги кунга келиб давлат олий таълим муассасалари билан бир қаторда хорижий олий таълим муассасалари ёки уларнинг филиаллари ва нодавлат олий таълим муассасаларида ҳам самарали ташкил этилмоқда. Улар ҳам бозорнинг фаол бўлган хўжалик субъектлари сифатида намоён бўлиб, таълим соҳасидаги рақобат муҳитини шаклланишига ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Бизга маълумки собиқ СССР даврида давлатнинг монопол бошқарувига асосланганлиги ва бошқарувнинг марказлаштирилганлиги натижасида олий таълимнинг асосий буюртмачиси – давлат бўлиб ҳисобланар эди. Бунда давлат кадрлар тайёрлашнинг ягона буюртмачиси, олий таълимни молиялаштиришнинг ягона манбаи ҳамда тайёрланган малакали мутахассисларнинг ягона истеъмолчиси ҳисобланарди. Битирувчиларга ҳам давлат дастлаб таълим олиши учун тўловни амалга оширарди, кейин уларни иш билан таъминлаб, бажарилган иш учун ҳам ҳақ тўлар эди.

Ҳозирги кунда эса олий таълим тизими юқоридаги давлатчиликнинг айрим хусусиятларини сақлаб қолган бўлса-да, яъни давлат гранти асосида талабаларни “давлат буюртмаси” доирасида тегишли нисбатларда (иқтисодий йўналишларда 10 га 90, техник йўналишларда 40 га 60) кадрларни тайёрлашни молиялаштиришни давом эттираётганлиги билан бир қаторда олий таълим тизимида миқдор ва сифат жиҳатидан ўзига хос янги тараққиёт босқичига ўтди. Хусусан, олий таълим соҳасида хусусий мулкчилик шакллари пайдо бўлиши, жумладан хорижий олий таълим муассасалари ёки уларнинг филиаллари ҳамда нодавлат олий таълим муассасаларининг вужудга келиши орқали олий таълимда рақобат муҳитини ривожланиши оқибатида давлат олий таълим муассасалари ўз фаолиятларини қайта кўриб чиқишлари, янги мақсадларни кўзлаган ҳолда ўрта муддатли келгуси йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегиясини ишлаб чиқишлари, шу асосида самарали фаолият юритишлари учун

барча имкониятларини ишга солишга эътибор қаратилаётганликларида яққол намоён бўлмоқда.

Давлат олий таълим муассасалари давлат гранти ва тўлов-шартнома асосида таълим бериш билан бир қаторда, юқори ташкилот томонидан тасдиқланган уставлари асосида тадбиркорлик фаолиятлари билан шуғулланишлари, таълим хизматлари кўламини кенгайтиришлари, илмий тадқиқот ишлари ва инновацияларни реал иқтисодиёт тармоқларига жорий этишлари, халқаро ҳамкорлик асосида талабаларни жалб қилиш, таржиба алмашиш ҳамда миллий ва халқаро рейтинг кўрсаткичларидаги ўринларини мустаҳкамлашлари мумкин. Лекин бу берилган имкониятлар билан бирга олий таълим муассасаларининг масъулияти ҳам ошиб, фаолиятларининг натижадорлигига ҳам алоҳида эътибор қаратилади.

Ҳозирги кунда жаҳонда кузатилаётган беқарорликлар ўз навбатида барча хўжалик субъектлари сингари олий таълим муассасалари фаолиятига ҳам таъсир кўрсатади. Бу ўз навбатида олий таълим муассасаларининг таълим хизматлари бозорининг ҳолатини доимий равишда кузатишлари, ушбу бозордаги ўринларини баҳолаш, фаолиятлари натижадорлиги ва молиявий барқарорликларини таҳлил қилиб боришлари керак бўлади. Чунки мамлакатда халқаро олий таълим муассасалари, уларнинг филиаллари ва нодавлат олий таълим муассасаларининг пайдо бўлиши таълимни ҳам бизнесга айлантирди, бу эса олий таълим муассасаларининг ўртасида кучли рақобат муҳитини шаклланишига ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Бугунги кунда олий таълим тизими трансформация жараёнини бошдан кечириб, жаҳон меҳнат бозорида ўзига хос ўринни эгаллаб бормоқда. Ўтган давр мобайнида таълим хизматлари бозорида таълим олувчилар ва олийгоҳлар ўртасида билим олиш кўникмалари, компитенциялари, таълим методлари, илғор технологиялардан фойдаланган ҳолда янгича кўринишга эга бўлиб бормоқда. Бу жараёнлар айниқса, олий таълим ва олий таълимдан кейинги таълимда яққол намоён бўлмоқда.

Ҳозирги кунда 200 млн.дан ортиқ талабалар 36 мингдан ортиқ олий таълим муассасаларида таълим олмоқда. Бу кўрсаткич кейинги 10 йилликда Осиё ва Европа давлатларидаги олий таълим муассасаларида таълим олиш истаги борлар ҳисобидан янада ошиши башорат қилинмоқда. Жаҳон таълим бозордаги айланма ўртача 100 млрд.долларни, бунда олий таълим муассасаларининг улуши 50-70 млрд.долларни ташкил этмоқда. Талабаларнинг халқаро мобиллиги ҳам товар сифатида эътироф этилиб, бу кўрсаткич 2025 йилга келиб ҳар йили ўртача 7,2 миллионга ошиши, шунингдек, мамлакатдан ташқарисида олий маълумот оладиган талабалар сони ҳам мос равишда 4,9 миллион нафарга кўпайиши башорат қилинмоқда. Шунинг учун Жаҳон Савдо Ташкилоти (ЖСТ) таълимни – хизмат сифатида тан олиб, ушбу ташкилотнинг Бош келишуви (ГАТС) қоидалари билан тартибга солинадиган хизматлар рўйхатига киритди [1]. Бу ўз навбатида таълим олувчиларнинг олий таълим муассасалари танланишида сифатли таълим берилиши, халқаро рейтинг кўрсаткичларидаги эгаллаган юқори ўрнига, таълим муассасасининг имиджига ҳамда битирувчиларнинг нуфузли ташкилотларда ишлашлари билан белгиланади.

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги республикадаги 69 та давлат олий таълим муассасаларининг 2022 йилдаги даромадлари ва харажатлари тўғрисидаги маълумотларни берди. Бунда ҳисоботда келтирилган олий таълим муассасаларининг

ўтган йилдаги умумий даромади – 8 трлн 770 млрд 728 млн сўмни, харажатлари эса 8 трлн 102 млрд 825 млн сўмни ташкил этган [2]. Олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, 2022 йилда маълумотлари берилган 69 та давлат олий таълим муассасаларининг 49 таси ўз фаолиятларини фойда билан, 20 таси эса зарар билан якунлаган. Бу ўз навбатида давлат олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилишини, келгусида ошиши кутилаётган таълим олувчиларнинг жалб қилиш йўллари топишлари, кучайиб бораётган рақобат курашида муносиб иштирок этишлари, юқори малакали кадрлар тайёрлаш, илм-фан, ишлаб чиқариш, бизнес ва жамиятнинг муҳим бўғини сифатида – тадбиркорлик фаолиятлари асосида бюджетдан ташқари маблағларни жалб қилишлари зарур бўлади. Бу эса тадқиқ этилаётган мавзунинг долзарблигини билдиради.

Илмий тадқиқотнинг методологик асослари ва усуллари

Тадқиқот ишининг илмий-амалий методологик асослари бўлиб Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг маълумотномалари ва бошқа тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳисобланади.

Олиб борилган тадқиқот жараёнида тизимли ёндашув, қиёсий таҳлил, гуруҳлаш, таққослаш, иқтисодий таҳлил каби усулларидан кенг фойдаланилган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Хорижлик бир қатор олимлар томонидан ҳам “барқарорлик”, “молиявий барқарорлик” ва “молиявий-иқтисодий барқарорлик” каби тушунчаларнинг мазмун моҳияти, атамаларнинг илмий жиҳатлари ўрганилган. Хусусан, олий таълим муассасалари ва коллежларнинг молиявий барқарорлиги юзасидан тадқиқотлар олиб берилган.

Хорижлик олим А.Н.Нғанғаннинг тадқиқотларида “Кўплаб хусусий ўрта даражадаги коллежларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш бўйича тадқиқотлар олиб борилган. Кениянинг Накуру округидаги хусусий ўрта даражадаги коллежларда молиявий барқарорликни белгиловчи омилларни баҳолаш, уларнинг таркиби тадқиқ қилинган. Хусусий ўрта даражадаги коллежларнинг капитал тузилмаси асосан кредит ташкилотларининг қарзлари, мулкдорларнинг ўз капитали ва тақсимланмаган фойдадан иборат эканлиги, шунингдек, ресурсларнинг тизимли тақсимлаш молиявий барқарорликни оширишда муҳим аҳамиятга эга эканлиги тадқиқ қилинган” [3].

Оксфорд университети Цент-Антони коллежининг қиёсий ижтимоий сиёсат ўқитувчиси Паола Маттеининг тадқиқотларида “Молиявий барқарорлик бугунги кунда Европа университетлари олдида турган асосий муаммолардан бири эканлиги, университетлар ўзлари иқтисодий ўсишнинг асосий двигателлари сифатида кўриладиган янги билимлар яратиши ва ривожлантириш марказида бўлишига қарамай, аксарият мамлакатларда олий таълимни давлат томонидан молиялаштириш кўпаймаётганлиги тўғрисида баён қилинган. Олий таълим ва илмий тадқиқотларга сарфланадиган харажатларни кўпайтириш зарурлигини тақлиф этилган. Олий таълим муассасаларини янги молиялаштириш схемалари ва рағбатлантириш йўллари кўплаб Европа олий таълим тизимлари мисолида муҳокама қилинган. “Мукамаллик” сиёсати

номи остида тадқиқот юзасидан рақобатбардош молиялаштириш схемалари тавсия этилган” [4].

Правеен Моҳадеб тадқиқотларида “Маврикияда ҳукумат олий таълим муассасаларининг асосий молиялаштириш билан шуғуллансада, талабалар, давлат (жамият), иш берувчилар ва институтларнинг келгуси йиллардаги молиявий барқарорликни таъминлаш бўйича тавсия ва таклифлари ишлаб чиқилган. Олий таълим муассасаларини тўлов-шартнома асосида ташкил этиш, бюджетдан ташқари маблағларни топиш йўллари, келажакда олий таълим муассасаларига бўладиган талабни ўрганиш, режалаштириш ва бюджетлаштириш, ресурсларни тақсимлаш ва улардан фойдаланиш асосида олий таълимни молиялаштиришнинг янги модели таклиф этилган” [5].

Занна Серностана тадқиқотларида “хусусий олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлиги ва самарадорлиги муаммоларини тадқиқ қилинган. Шу нуқтаи назардан тадқиқотда молиявий барқарорликни миқдорий баҳолаш ва у билан боғлиқ кўрсаткичларни аниқлаш юзасидан тадқиқотлар олиб борилган” [6].

Акеел Алмагтомеа, Амир Шакерб, Қайссар Ал-Фатлавиш ва Хайдер Бехитдларнинг тадқиқотларида университет автономияси остида молиявий барқарорлик ва жавобгарлик функцияси ўртасидаги муносабатларни ўрганиш амалга оширилган. Ироқдаги давлат олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлиги даражаси эмпирик жиҳатдан баҳоланган. Намунавий университетларнинг молиявий баҳолаш масалалари тадқиқ қилинган [7].

Хорижий олимларнинг тадқиқотларда олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш – асосий масалаларини бири бўлиб ҳисобланади. Уларнинг тадқиқотларида мустаҳкам молиявий тузилмаларга ва барқарор даромадга эга бўлган олий таълим муассасалари ўз вазифаларини бажара оладиган ва динамик ўсишга бўйича мавжуд муаммоларга ҳар томонлама тўла жавоб бера оладиган муассаса саналади. Олий таълим муассасасининг молиявий барқарорлиги - таълим муассасасининг ўз фаолиятини самарали амалга ошириши, ҳукумат ва бошқа давлатнинг ташқи молиялаштириш манбаларига таянмасдан ўзининг таълим хизматлари, илмий тадқиқот фаолиятидан етарли даромад олиши таъминланганлиги билан ҳам аҳамиятли ҳисобланади. Таъкидланишича, олий таълим муассасалари молиявий барқарорликни таъминлаш учун учта асосий унсурни кўриб чиқишлари керак: барча тадбирлар ва лойиҳаларнинг харажатларини аниқлаш ва энг самаралисини танлаб олиш, оқилона диверсификацияланган даромадлар тузилмасини сақлаб қолиш, ишончли ва адекват жавобгарлик чоралари билан барқарор давлат молиялаштиришни амалга ошириш ҳисобланади [8].

“Молиявий барқарорлик – бу молиявий тизимнинг, яъни молия муассасалари, бозорлар ва бозор инфратузилмаларининг эҳтимолий шоклар ва номутаносибликларга бардош бера олиши, шу билан бирга молиявий воситачилик функцияларини бажара олмаслик эҳтимолини пасайтириш қобилиятидир. Молиявий барқарорлик мақсади алоҳида молия муассасаси эмас, балки бутун молия тизими барқарорлигини таъминлашдан иборат. Молиявий барқарорлик иқтисодийнинг барқарор ривожланиш асоси ҳисобланади” [9]. Ушбу келтирилган таъриф макроиқтисодий нуқтаи назардан берилган.

Ҳозирги вақтда маҳаллий амалиётда корхонанинг “молиявий барқарорлиги” атамасининг бўйича кўплаб илмий талқинлар мавжуд. Қуйидаги келтирилган 1-жадвал асосида Россия Федерациясидаги олимлар томонидан “молиявий барқарорлик” тушунчаси бўйича қарашлари келтириб ўтилган (1-жадвал).

1-жавдал

Молиявий барқарорлик концепциясининг моҳияти бўйича иқтисодчи олимларнинг қарашлари

Муаллиф	“Молиявий барқарорлик” тушунчасининг талқини
Л.Г. Скамай [10]	Молиявий барқарорлик - бу даромадларнинг харажатлардан барқарор устунлиги саналиб, бу ташкилотнинг молиявий ресурсларини тўсқинсиз бошқариш имкониятини кафолатлайди ва улардан тўғри фойдаланиш орқали маҳсулот ишлаб чиқариш ҳамда сотишнинг узлуксиз жараёнига ёрдам беради. Бошқача қилиб айтганда “корхонанинг молиявий барқарорлиги - бу унинг молиявий ресурслари, уларни тақсимлаш ва самарали ишлатиш ҳолати бўлиб, у корхонанинг мақбул даражадаги тўлов қобилиятини сақлаб қолган ҳолда фойда ва капиталнинг ўсишига асосланган ривожланишини таъминлаши тушунилади.
В.В. Бочаров [11]	Компаниянинг молиявий барқарорлиги – бу ташкилот фаолиятининг асосан ўз маблағлари ҳисобидан кенгайтиришни кафолатлайдиган, тадбиркорлик хавфи энг кам миқдоридаги тўловга лаёқатлилиқ ва кредит лаёқатлилиқни таъминлайдиган маблағларнинг мавжудлиги тушунилади.
В.В. Ковалев [12]	Хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий барқарорлиги моҳияти – бу ташкилотнинг узоқ муддатли молиявий мажбуриятларига мос бўлган тўлов қобилиятини баҳолаш билан аниқланади.
М.А. Вахрушина [13]	Молиявий барқарорлик деганда тўлов қобилиятини таъминлаш, таваккалчиликнинг мақбул даражаси доирасида инвестицион жозибадорлик даражасини ошириш билан бирга эришилган иш фаоллиги ва бизнес самарадорлигини ошириш қобилияти тушунилади.
А.А. Бабич [14]	Молиявий барқарорлик тизимнинг доимий ташқи ва ички таъсирлари шароитида ўзининг қонунчилик фаолиятини амалга ошириш қобилиятидир. Корхона ташқи шароитларнинг қаршилигини енгиб, узлуксиз фаолият юритиши учун у қуйидаги вазифаларни ҳал қилиши керак: биринчидан, истеъмолчилар ва етказиб берувчилар билан жорий иқтисодий алоқалари самарадорлигини таъминлаш; иккинчидан, уларнинг истеъмолчилар ва мол етказиб берувчилар билан муносабатларини рақобатчилардан ҳимоя қилиш; учинчидан, уларнинг келажакда иқтисодий фаолиятини давом эттириш қобилиятига эга бўлиши тушунилади.

Юқоридаги тадқиқотларда олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигига етарлича аҳамият берилмаганлиги сабабли ушбу бўйича таърифни бериб ўтдик. Бизнинг фикримизча, олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлиги – бу унинг мавжуд молиявий ресурсларининг ҳолати, шунингдек уларни шакллантириш, тақсимлаш ва фойдаланиш жараёни орқали муассасанинг узлуксиз фаолиятини амалга ошириши, мавжуд иқтисодий салоҳиятини амалга ошириш асосида олинган фойда даражаси, тўловга лаёқатлилиқ даражаси, кредитга лаёқатлилиқ ва ликвидлилиқ кўрсаткичларининг мақбул даражасида эканлиги билан тавсифланади.

Олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлиги ва самарадорлигини аниқлаш мақсадида тегишли тадқиқотлар ўтказилди. Тадқиқотлар асосида қуйидаги расмда келтирилган олий таълим муассасаларида молиявий барқарорликни таъминлашнинг асосий мезонлари тавсия этилди (1-расм).



1-расм. Олий таълим муассасаларида молиявий барқарорликни таъминлашнинг асосий мезонлари

Таҳлил ва натижалар

Олий таълим муассасаси давлат ташкилоти сифатида фаолият юритиши, унинг асосий мақсади ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий аҳамиятга эга бўлган таълим фаолиятини ташкил этиш ҳисобланади. Олий таълим тизими олий таълим муассасасининг иқтисодий барқарорлиги асосида нафақат динамик ўзгаришларга эга бўлиши, ташқи ва ички омилларни инобатга олган ҳолда сифатли таълимни таъминлашга аниқ мақсадга мос ривожланишини таъминлаши зарур бўлади.

Бизга маълумки, жамият тараққиёти илм ва янги билимлар асосида инсон капиталини қай даражада ривожланиши билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, мамлакатнинг ижтимоий иқтисодий тараққиёти таълим тизимининг қай даражада тараққий этганлиги билан боғлиқ ҳисобланади. Ислол оламининг муқаддас китоби ҳисобланган Қуръони Каримнинг биринчи сўзи “Иқроъ” – яъни “Ўқи” хитоби билан бошланганлиги ҳам ўқишга ва илмга даъват саналиб, Ислол ўзининг биринчи лаҳзаларидан бошлаб илм тарқатиш, жаҳолатни йўқотиш учун келганидан нишонандир [15]. Пайғамбаримиз Расулulloҳ (соллаллоҳу алайҳи ва саллам): “Илм талаб қилиш ҳар бир мусулмонга фарздир”, деб марҳамат қилганлар [16]. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, ҳар бир киши илм олиши, ўз устида ишлаши ва жамиятда ўзига хос ўрин топиши зарур бўлади. Шу нуқтаи назардан илм олиш учун аввалги замонларда масжид ва мадрасаларда ташкил этилган бўлса, ҳозирги кунда жараёнлар мактабгача таълим муассаси, умумтаълим ва касб ҳунар мактаблари ҳамда олий таълим муассасаларида ташкил этилмоқда.

Олий таълимда бакалавр таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларини тайёрланиб, жамиятимиз учун зарур бўлган кадрларни етказиб беришни таъминлайди. Шу нуқтаи назардан таълим сифатини таъминлаш, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ва инновацион тараққиётида фаол иштирок учун ҳам олий таълим муассасалари самарали ва барқарор фаолиятига асосланади.

Бугунги кунда давлат, ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтган, молиявий мустақилликни қўлга киритган, хорижий олий таълим муассасалари ва уларнинг филиаллари, нодавлат олий таълим муассасалари мавжуд.

Ўзини-ўзи молиялаштириш тизимига ўтган олий таълим муассасалари эса ушбу ҳолатда Васийлик кенгаши орқали олий таълим муассасининг даромад ва харажатлари параметрларини тасдиқлаш, молия йили учун тайёрланган бизнес режасини кўриб чиқиш, йиллик молиявий ҳисоботларини муҳокама қилиш ва тасдиқлаш, молиявий фаолияти билан боғлиқ масалаларни кўриб чиқиш каби ишлари белгиланган. Шунинг билан бирга таълимнинг қўшимча хизматларини жорий қилиш, иқтисодий тармоқлари учун мутахассисларнинг малакасини ошириш, бошқа пуллик хизматларни жорий этиш кабилар белгилаб қўйилган. Бунда давлат, молиявий мустақилликка эришган ва ўзини-ўзи молиялаштириш тизимига ўтган олий таълим муассасалари ҳам лицензияланадиган фаолият турларини амалга ошириш учун белгиланган тартибда тегишли рухсатнома (лицензия) олиши керак. Таълим муассасаси амалдаги қонунчиликда белгиланган тартибда пуллик қўшимча таълим ва таълим муассасасининг уставида назарда тутилган бошқа хизматларни кўрсатиши, шунингдек ихтиёрий хайриялар орқали қўшимча молиявий ресурсларни жалб қилиш ҳуқуқига эга бўлиб, жисмоний ёки юридик шахсларнинг, шу жумладан хорижий фуқаролар ва хорижий юридик шахсларнинг мақсадли бадалларини жалб қилиш имконияти мавжуд. Аксарият ўзини ўзини молиялаштириш тизимига ўтган олий таълим муассасаларининг тўлов-шартнома қийматлари таққосланганда уларнинг бир хил эканлиги аниқланди. Бундан келиб чиқадики, тушумлар бир хил, эндиги масала харажатларни самарали бошқарувини ташкил этиш ҳисобланади. Бунинг учун эса – олий таълим муассасаси Васийлик кенгаши ушбу ишларни самарали ташкил этилишига жавобга ҳисобланади.

Бугунги кунда давлат, ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтган, молиявий мустақилликка эришган олий таълим муассасаларида тадбиркорлик асосида қўшимча даромадларни топишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Лекин ушбу бюджетдан ташқари даромадларнинг асосий қисми *тўлов-контракт асосида ўқитишдан тушган тушумлар* эканлигини кўриш мумкин.

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг маълумотлари бўйича 69 та давлат олий таълим муассасаларининг даромадлар қисмида тўлов шартнома бўйича даромадлари 6 трлн. 279 млрд. 346 млн. сўмни ёки 71,6 фоизни ташкил этмоқда. Лекин ҳалқаро амалиётда олий таълим муассасаларининг “Университет 3.0. ва “Университет 4.0.” моделлари асосида асосий даромадлари - тадбиркорлик фаолиятининг турли йўналишлари, инновациялар, бизнес субъектларига интеллектуал ишланмаларнинг жорий этилиши, жамиятнинг ижтимоий тараққиётида таълим муассасаси ўрнининг мустаҳкам бўлиши, ноу хауларнинг тижоратлашишида алоҳида ўрин тутади. Бу эса олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигида алоҳида ўрин тутади.

Бозор шароитида давлат олий таълим муассасаларида ҳам хўжалик юритувчи субъектлар каби тадбиркорлик фаолиятларини амалга оширишлари, жумладан, пуллик хизматлар кўрсатиш, товарлар сотиш, ишларга бажаришда маълум харажатлар амалга оширилиб, даромадлар олинмоқда. Лекин Ўзбекистон Республикасида 2013 йил 26 декабрда қабул қилинган ЎРҚ-360 сонли Қонуни билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси”да бюджет ташкилотларининг тадбиркорлик фаолиятлари тўғрисида аниқ тушунчалари баён қилинмаган [17]. Ваҳонланки бугунги кунда бюджет ташкилоти ҳисобланган – олий таълим муассасалари фаолиятида

тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш орқали ҳам қўшимча равишда бюджетдан ташқари маблағларни ишлаб топиш мумкин бўлмоқда.

Олиб борилган тадқиқотлар асосида Ўзбекистондаги олий таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари молиялаштириш манбалари: тадбиркорлик фаолияти ва бюджетдан ташқари фаолиятининг бошқа даромадлари асосида таркибий таснифи тадқиқ этилди (2-расм).



2-расм. Ўзбекистондаги олий таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари молиялаштириш манбалари¹

Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари даромадларни таснифлаш қуйидагилар асосида амалга оширилади:

- олий таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари фаолиятлари;
- олий таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари фаолиятнинг бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи асосида;
- олий таълим муассасалари томонидан даромад келтирувчи фаолиятнинг айрим турларини амалга ошириш орқали олиш мумкин бўлади.

Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари фаолиятининг йўналиши ва самарадорлигини белгиловчи асосий омилларни ҳамда бевосита таълим муассасасининг муайян фаолият турини ривожлантириш бўйича салоҳиятини аниқлашнинг омиллари ва коэффициентларини рақамли баҳолаш асосида методологиясини кўриб чиқиш зарур бўлади. Ушбу методологиялар асосида олий таълим муассасасининг бюджетдан ташқари топилган маблағларининг молиявий барқарорликка таъсирини ўрганиш мумкин бўлади.

Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари фаолиятининг йўналиши ва самарадорлигини белгиловчи асосий омилларни ҳамда бевосита таълим муассасасининг муайян фаолият турини ривожлантириш бўйича салоҳиятини аниқлашнинг омиллари ва коэффициентларини рақамли баҳолаш асосида методологиясини кўриб чиқиш зарур бўлади. Ушбу методологиялар асосида олий таълим муассасасининг бюджетдан ташқари топилган маблағларининг молиявий барқарорликка таъсирини ўрганиш мумкин бўлади.

Олиб борилган тадқиқотлар олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигини аниқлаш бўйича молиявий таҳлил қилишнинг 6 та босқичдан иборат бўлган варианты тавсия этилди (2-жадвал).

2-жадвал

Олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигини баҳолаш учун молиявий таҳлил қилиш босқичлари

Босқичлар	Босқич номи	Амалга ошириладиган ишлар таркиби
1-босқич	Молиявий таҳлил учун тайёрлаш босқичи	1. Таҳлил қилиш ишларининг зарурлиги аниқлаш; 2. Таҳлил қилиш объекти ва унинг асосий мақсадларини белгилаш, олинган натижалардан фойдаланиш мумкин бўлган йўналишларни аниқлаш; 3. Амалга ошириладиган таҳлил ишлари учун маъулларни тайинлаш ва уларга ишларни тақсимлаш.
2-босқич	Аналитик ишларни режалаштириш босқичи	1. Амалга ошириладиган таҳлилнинг аниқ вазибаларини баён қилиш ва тушунтириш; 2. Таҳлил қилиш учун олинадиган маълумотлар манбааларини аниқлаш; 3. Таҳлил учун зарурий дастурларни ишлаб чиқиш, ижрочиларни тайинлаш ва иш муддатларини белгилаш.
3-босқич	Молиявий таҳлил учун маълумотларни	1. Таҳлил учун ахборотларни тўплаш ва унинг ишончлилигини текшириш; 2. Таҳлил ўтказиш методикасини танлаш: кўрсаткичларни аниқлаш ва уларни баҳолаш;

¹ Муаллиф ишланмаси

	тайёрлаш ва қайта ишлаш босқичи	3. Ахборотларни қайта ишлаш, уни таҳлилий жиҳатларини очиб бериш учун ёрдамчи жадваллар тайёрлаш, уларни тўлдириш бўйича йўриқномалар ишлаб чиқиш.
4-босқич	Таҳлил ишларини ўтказиш босқичи	1. Умумий таҳлилни ўтказиш; 2. Олинган бюджет маблағларидан фойдаланиш билан боғлиқ маълумотларни таҳлил қилиш; 3. Бюджетдан ташқари топилган даромадлар ва харажатлар тўғрисидаги маълумотларни таҳлил қилиш; 4. Олий таълим муассасаси фаолиятлари самарадорлигини умумий баҳолаш.
5-босқич	Олинган натижалар таҳлили ва тегишли хулосалар чиқариш босқичи	1. Таҳлил натижаларига таъсир этган муҳим омилларни аниқлаш ва уларни баҳолаш; 2. Таҳлил асосида салбий омиллар таъсирида кўрилган зарарни ҳисоблаш; 3. Олий таълим муассасаси бюджетдан ташқари фаолиятлари бўйича истиқболли йўналишларини баҳолаш ва уларни жорий этиш.
6-босқич	Олий таълим муассасаси самаралигини ошириш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиш босқичи	1. Таҳлил асосида аниқланган салбий омилларни бартараф этиш йўллари аниқлаш; 2. Эришилган ижобий ютуқларни рағбатлантириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш; 3. Олий таълим муассасасининг бюджетдан ташқари фаолиятнинг янги истиқболли йўналишлари юзасидан чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва тизимли равишда амалга оширишни ташкил қилиш.

Молиявий таҳлил босқичларини тўғридан-тўғри ишлаб чиқишдан олдин, олий таълим муассасаси ишининг жорий босқичида аниқ молиявий таҳлилни ўтказиш зарурати ва долзарблигини аниқлаш зарур бўлади. Бу айниқса ҳозирги кундаги фаолиятини зарар билан яқунлаган 20 та олий таълим муассасаларида молиявий таҳлил ишларини ташкил этиш имкониятларини кўриб чиқиш зарур, деб ҳисоблаймиз.

Бошқача қилиб айтганда, олий таълим муассасасида молиявий таҳлилни босқичма-босқич ўтказиш бўйича ишларни ташкил этиш, таҳлилий ишларни тайёрлаш ва амалга оширишнинг маълум тизимини ишлаб чиқиш зарур бўлади. Шунинг таъкидлаш керакки, олий таълим муассасаси учун, унинг энг умумий ғоясидан бошлаб, ушбу жадвалда берилганларнинг фарқлари бўлмайди. Лекин давлат олий таълим муассасаси ўзининг баъзи ўзига хос жиҳатларини ҳисобга ҳолда амалга оширилса мақсадга мувофиқ бўлади.

Хулоса ва таклифлар

Олий таълим муассасаларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда бюджетдан ташқари маблағларнинг аҳамияти бўйича олиб борилган тадқиқотлар асосида қуйидаги хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди:

1. Бугунги кунда олий таълим муассасаларининг сони ошганлиги, мулкчилик янги шаклларида ташкил этилиши орқали рақобат муҳитига ошишига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Таълим муассасаларига талабаларни жалб қилиш учун рақобатнинг кучайиши, харажатларнинг ошиши, ўқиш тўловларнинг охириги 2 йилда оширилмаганлиги оқибатида давлат олий таълим муассасаларида молиявий барқарорлигини мунтазам равишда ўрганишда молиявий таҳлил ишларига алоҳида эътибор қаратишни заруратга айлантирмоқда.

2. Ҳалқаро амалиётда илғор олий таълим муассасаларида тизимли равишда қўлланилаётган “Университет 3.0.” ва “Университет 4.0.” моделлари асосида таълим, илм-фан, ишлаб чиқариш, иқтисодиёт тармоқлари, жамият ва рақамлаштириш жараёнлари мустаҳкам интеграцияни ташкил этган ҳолда мамлакатдаги олий таълим муассасалари фаолиятининг келгуси йиллардаги тараққиёт стратегияларини ишлаб чиқилиши асосида бюджетдан ташқари маблағларни жалб қилишга алоҳида эътибор қаратиш заруриятини келтириб чиқармоқда. Бунда олий таълим муассасаларининг моддий техник базаси ва илмий салоҳиятидан фойдаланган ҳолда янги бюджетдан ташқари йўналишларни аниқлаш (илмий марказлар ташкил қилиш, Spin-off корхоналар очиш) илмий ишланмаларни тезкорлик билан сотиш чораларни кўриш мақсадга мувофиқ бўлади.

3. Мамлакат олий таълим муассасалари фаолиятида тизимли равишда қўлланилаётган “Университет 3.0.” ва “Университет 4.0.” таълим моделлари асосида таълим, илм-фан, ишлаб чиқариш, иқтисодиёт тармоқлари, жамият ва рақамлаштириш жараёнлари мустаҳкам интеграцияни ташкил этган ҳолда таълимнинг дуал тизимини ривожлантириш йўллари аниқлаш зарур бўлади.

4. Олий таълим муассасаларидаги бюджетдан ташқари маблағлар топиш йўналишларининг кенг спекторини ривожлантиришни давом эттириш мақсадга мувофиқ.

5. Олий таълим муассасаларидаги бюджетдан ташқари маблағларнинг янги йўналишларини аниқлаш, фаолиятларида молиявий таҳлил ишларини тизимли равишда амалга ошириш, мавжуд таҳлилий ахборотларнинг инвестицион ва бошқарув қарорларини қабул қилишда фойдаланиш – келгусида олий таълим муассасаларида тадбиркорлик фаолияти асосида топиладиган бюджетдан ташқари маблағларнинг ошишига ва таълим муассасасининг молиявий барқарорлигига ижобий таъсир кўрсатади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Экономика высшего образования: тенденции развития в мире и России. Аналитический доклад-дайджест. Научно-исследовательский институт развития образования Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова. <https://www.rea.ru.org.managements>.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги маълумотлари асосида. <https://edu.uz/media/53f956aa-be00-124a-3f8f-90a6fbdc8bdf.pdf>
3. A.N.Ng'ang'a "Determinants of financial sustainability in private middle level colleges in Nakuru county, Kenya"//International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom Vol. IV, Issue 10, October 2016. <http://ijecm.co.uk/>
4. Paola Mattei University Adaptation in Difficult Economic Times.// Oxford University Press, 29 May 2014, 224 p.

5. Praveen Mohadeb. Higher education in Mauritius: an analysis of future financial sustainability// Thesis submitted in partial fulfillment of the requirements of Napier University for the degree of Doctor of Philosophy. May 2003
6. Zanna Cernostana "Financial sustainability for private higher education institutions"// 9th International Conference on Applied Economics Contemporary Issues in Economy, Institute of Economic Research, Polish Economic Society Branch in Toruń, Faculty of Economic Sciences and Management, Nicolaus Copernicus University, Toruń, Poland, 22-23 June 2017.
7. Akeel Almagtomea, Ameer Shakerb, Qayssar Al-Fatlawic, and Heider Bekheetd. The Integration between Financial Sustainability and Accountability in Higher Education Institutions: An Exploratory Case Study// International Journal of Innovation, Creativity and Change. www.ijcc.net Volume 8, Issue 2, 2019, p.104-122.
8. Estermann, T., & Pruvot, E.B. (2011). Financially sustainable universities: European universities diversifying income streams. European University Association, Brussels, Belgium Estermann and Pruvot (2011)
9. <https://cbu.uz/oz/financial-stability/about/>
10. Скамай Л.Г., Трубочкина М. И. Экономический анализ деятельности предприятия: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2007. С. 262.
11. <https://www.litres.ru/vladimir-vladimirovich-bocharov/finansovyy-analiz/chitat-onlayn/>
12. Ковалёв, В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры / В.В. Ковалёв. - М.: Финансы и статистика, 2002. - 560 с.
13. Мария Вахрушина: Анализ финансовой отчетности. Учебник Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/707290/>
14. <http://www.rusnauka.com>
15. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. "Тафсири Ҳилол" (тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр), Тошкент: "Nilol-Nashr" нашриёти, 2017 йил, 6-жуз, - 506б.
16. Мирсодиқов Зиёуддин "Илм ва одоб саодат калитидир" – Тошкент: "Movarounnahr", 2018. - 7 б.
17. "Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси. Ўзбекистон Республикасида 2013 йил 26 декабрда қабул қилинган ЎРҚ-360 сонли Қонуни" <https://www.lex.uz/acts/2304138>

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Хўжанова Гулшода Отамуродовна
ҚарМИИ таянч докторанти

САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА КЛАСТЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Annotatsiya. Мақолада саноат корхоналарининг иқтисодиётда тутган ўрни, улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, кластерларни ташкил этиш, такомиллаштириш билан боғлиқ масалалар ифода этилган. Тадқиқот жараёнида саноат кластерларининг дастлабки шаклланиш босқичлари бўйича назарий ва амалий маълумотлар келтирилган.

Kalit soʻzlar: саноат, корхона, кластер, саноат кластерлари, кластер афзаллиги, меҳнат ресурслари, хорижий технологиялар, инновация.

Хожанова Гулшода Отамуродовна
Докторант Каршинского инженерно-
экономического института

ЗНАЧЕНИЕ КЛАСТЕРА В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Аннотация. В статье описывается роль промышленных предприятий в экономике, повышение эффективности их использования, организация и совершенствование кластеров. В ходе исследования представлена теоретическая и практическая информация о начальных этапах формирования промышленных кластеров.

Ключевые слова: промышленность, предприятие, кластер, промышленные кластеры, преимущество кластера, коктейльные ресурсы, зарубежные технологии, инновации.

Khojanova Gulshoda Otamurodovna,
doctoral student of
Karshi Engineering
Economics Institute

SIGNIFICANCE OF CLUSTER IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abstract. The article describes the role of industrial enterprises in the economy, increasing the efficiency of their use, organizing and improving clusters. The study presents theoretical and practical information about the initial stages of the formation of industrial clusters.

Key words: industry, enterprise, cluster, industrial clusters, cluster advantage, cocktail resources, foreign technologies, innovations.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N08>

Кириш

Маълумки, сўнгги йилларда ҳудудларда саноат корхоналари фаолиятини ривожлантириш, уларда рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни интенсив ва экстенсив равишда кенгайтириш масалалари бўйича чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Жамиятда иқтисодий барқарорликни таъминлаш, ишсизликни бартараф этиш ва янги иш ўринларини сақлаб қолишда саноат корхоналарининг аҳамияти катта. Шу сабабдан ҳам мамлакатимизда саноат корхоналарининг мукамал фаолият юритиши учун зарур шарт-шароитлар яратилган. Жумладан, 2020 йилнинг август ойида Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёев томонидан ўтказилган видеоселекторда ҳудудларда саноатни ривожлантириш, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш масалалари юзасидан муҳим вазифалар белгилаб берилди. Натижада, мамлакатимиздаги «Ўзэлтехсаноат», «Ўзавтосаноат», тўқимачилик, чарм-пойабзал, металлургия, электр энергияси тармоқларида ўтган йилга нисбатан ўсиш кузатилган бўлса-да, умумлаштирилган якуний ҳисоб-китобларга кўра, 2020 йилнинг биринчи ярмида 170.2 триллион сўмни кўрсатган бўлса, 2021 йилнинг биринчи ярим йиллигида саноат маҳсулотлари ҳажми 167 триллион сўмни ташкил этиб, ўтган йилгига нисбатан 1,9 фоизга камайганлиги акс эттирилган. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида белгиланган 55-мақсадда, тиббиёт кластерларини, 22-мақсадда кимё ва газ кимё технологик кластерларини ҳамда ҳудудларда 14 та уй-жой қурилиш кластерлари ва 8 та ихтисослаштирилган туман ва шаҳарларда қурилиш материаллари ишлаб чиқариш кластерларини 30-мақсадда эса, мева-сабзавотчилик кооперациялари ва 35 та ғаллачилик кластерларини ташкил этиш белгиланган [1]. Кластерлаш тизими узоқ муддат талаб қиладиган жараён ҳисобланганлиги боис, унга тегишли режа ва вазифалар пухта белгиланган, ҳар қандай шарт-шароитлар ҳисобга олинган бўлиши мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар таҳлили

В.М.Ячменеванинг тадқиқотларида [2] кластерларга фирма, қайта ишлаш корхоналари, корпорацияларда ишлаб чиқариш жараёнининг кетма-кетлиги деб таъриф берилган. Д.С.Березовскийнинг фикрига кўра, кластер – географик жиҳатдан қўшни ташкилотлар гуруҳи бўлиб, турли ташкилотларни ўз ичига олади: ишлаб чиқариш, ахборот, молиявий, давлат ва бошқалар [3].

А.А. Миграняннинг фикрича, кластер иқтисодий фаолиятнинг энг самарали ва бир-бирига боғланган турларининг концентрацияси, яъни "олтин бўлим" ни ташкил этувчи муваффақиятли рақобатлашувчи фирмаларнинг ўзаро боғлиқ гуруҳлари тўпламидир (ғарбий талқинда "diamond-бриллиант"). бутун иқтисодий тизимнинг давлат мавзулари ва саноат, миллий ва жаҳон бозорларида рақобатбардош мавқеини таъминлашдир [4].

Бугунги кунда кластерлар миллий иқтисодиётни ва саноат тармоғини чамбарчас боғловчи занжир вазифасини бажаради. Жумладан, инглиз иқтисодчиси М.Сторпернинг


«идеаллашган худудий кластер» назарияси кластерларга бўлган эътибор ва қизиқиш узоқ йиллардан бери мавжудлигини ифодалайди [5].

Кластерга асосланган саноат корхоналари бошқаларига нисбатан ўзининг инновацион фаолияти, тежамкорлиги, қулайлиги ва самарадорлик даражаси юқорилиги билан алоҳида ажралиб туради. Бунда асосан, технологик билимларнинг устунлиги намоён бўлади. Айнан саноат соҳасини кластер шаклида ривожлантириш малакали меҳнат ресурслари, креатив ғоялар, молиявий манба, мунтазам ташкил этилган инфратузилма билан бевосита боғлиқ.

Таҳлил ва натижалар

Кластерлар кучли ривожланган хорижий давлатларга эътибор қаратсак, ҳозирги кунда Германиянинг иқтисодий жиҳатдан энг ривожланган минтақаларидан бири Бавариядир. Айти вақтда Бавариянинг 133 та компанияси Ўзбекистон Республикаси билан ҳамкорлик қилиб келмоқда. Уларнинг 17 таси, мамлакатимизда ўз ваколатхоналарига ҳам эга, 6 та филиал ва 9 та қўшма корхона фаолият кўрсатади. Яъни, «BioRegioMunich», «Bionorica SE», «HORN Glass Industries AG», «Knauf International GmbH», «MAN Truck&Bus SE», «Linde AG», «Protec Automation GmbH», «SAP SE», «Siemens Energy», «Falk-Porsche-Technik GmbH», «Roland Berger GmbH» кабилар шулар жумласига киради.

XX асрнинг бошларида “Кластер назарияси”нинг ривожланишида 3 та катта кластер мактабларининг ўсишини кузатиш мумкин (1-расм).



1-расм. XX асрда “Кластер назарияси”нинг ривожланиши


1-расмдан кўриниб турибдики, Америкалик олимлар томонидан “Рақобат устунлиги назарияси”, “минтақавий кластерлар концепцияси” назариялари яратилган бўлса, Британиялик олимлар кластерларга “Ҳамкорликдаги институтлар тизими”, “замонавий институт” сифатида қараганлар. Скандинавиялик бир гуруҳ олимлар кластер тизимини “Туғилишидан тугагунича”, “эволюцион назария имконияти” деб ҳисоблаганлар.

Замон талабларидан келиб чиқиб барча соҳаларда инновацион техника, технологиялар такомиллашиб бормоқда. Кластерга асосланган саноат корхоналарида имкониятларни инновацион технологиялар орқали ошиб боришини таъминловчи асосий мезонлар қуйидагилар:

Биринчидан, кластерга асосланган саноат корхоналари ўз мижозларининг эҳтиёжларини аниқ тушуна олади ва мижозлар талабини ўрганиш орқали керакли маҳсулотлар ва хизматларни тақдим қилишда самарадорликка эришиши осон бўлади. Кластер тизимининг иштирокчилари томонидан яратилган инновациялар тезроқ оммалашади ва тезроқ амалга ошади. Бунга асосий сабаб, иштирокчилар техника ва бошқа воситалардан биргаликда фойдаланиши натижасида кластерлашмаган корхоналарга қараганда самаралироқ фаолият юритади.

Иккинчидан, кластер корхоналарда фаолият юритиш жараёнидаги умумий харажатлар кластерлашмаганларга нисбатан кўп бўлади. Кластерлашган саноат корхоналари таркибидаги мижозларнинг хоҳиш-истаклари тез фурсатларда янгиланиб туради, бунга сабаб, корхоналарнинг инновацион фаолият юритиши бўлиб ҳисобланади. Талабни ҳисобга олиб фаолият юритилганда пул айланмаси яхшиланади, харажатлар камаяди, бозорни ўз маҳсулотлари билан тўлдириш имконияти ошиб боради.

Саноат корхоналарининг кластер тизимида ўтиши учун бир нечта омиллар ҳисобга олинади (2-расм).



2-расм. Саноат корхоналарининг кластер тизимида ўтишида таъсир қилувчи омиллар

Кўриниб турибдики, корхоналарни саноат кластерига ўтиш учун аввало, етарли даражадаги молиявий манба, инфратузилманинг барча шакллари, табиий ресурслар салоҳияти, давлат томонидан қўллаб-қувватловчи ҳуқуқий механизмлар, мукамал ташкил этилган тадбиркорлик муҳити, малакали ишчи кучи, инновацион технология ва илмий тадқиқот марказлари мавжуд бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Молиявий манбани ички ва ташқи инвестицияларни жалб қилиш орқали кучайтириш мумкин, бунда сорхона кластер тизимисиз бўлса-да, бир неча йиллар давомида фаолият юритиб, ўзининг самарадорлик даражасига эришган бўлиши лозим.

Инвестицион имкониятлар тижорат банклари ва инветорларнинг энг яхши профессионал кадрларга эгаллиги билан аҳамиятли бўлиб, бу жараён технологик ва инновацион корхоналарни қўллаб-қувватлайди.

Инфратузилмани ташкил этиш мобайнида маҳсулотлар, хизматлар ва таъминот занжирининг камчиликлари дарҳол аниқланади ва тўғри қарор қабул қилишга имконият яратилади, ортиқча вақт ва капитал сарфи тежалади. Саноат кластерлари тадбиркорликни янги кўринишда қулай ривожлантириш имкониятига эга бўлганлиги сабабли капитални кенг жалб этиш имкониятига эга бўлади.

Табий ресурслар саноат корхоналарининг ажралмас бўлаги ҳисоблангани учун, улардан фойдаланиш имконият билан бир қаторда тежамкорликни ҳам талаб этади.

Саноат кластерларини ривожлантиришга қаратилган меъёрий ҳужжатларнинг мавжудлиги, уларда белгиланган вазифалар кетма-кетлиги харажатларнинг нисбатан камайишига ва меҳнат унумдорлигининг 1.5 баробарга ортишига олиб келади.

Тадбиркорлик муҳитини яратишга етарли даражада мутахассисларнинг илмий салоҳияти корхонада иш давомийлигини ва кластер тизимини такомиллаштириш механизмларини ишлаб чиқади.

Юқорида айтиб ўтилганидек, кластерлаш инновацион технологиялар асосида шаклланади, демак, бунда фаолият жараёни доимий равишда янгиланиб, ривожланиб бориши талаб этилади. Инновацион технологиялар саноат кластерлари ривожланишининг асосий омили ҳисобланади. Саноат кластерида технологик омиллар энг муҳим восита ҳисоблангани боис, корхонанинг асосий капитали янги технологияларни сотиб олишга сарфланади. Бу жараённинг ижобий рўёбга чиқишига илмий тадқиқот муассасалари орқали эришиш мумкин. Кластерларнинг вужудга келиш, шаклланиш ва ривожланиш босқичларида инновацион технологиялар бўйича давлат ташкилотлари, жумладан, банклар, давлат бюджети, қолаверса, хусусий инвесторларнинг кўмаги алоҳида ўринга эга. Бу фақат дастлабки капитал учун аҳамиятлидир.

Хулоса

Юқоридагиларни умумлаштириб, кластерларга саноат корхоналарида иқтисодий ривожлантирувчи кучли механизм сифатида қараш, такомиллаштириш лозим, деган хулосага келиш мумкин. Шунингдек, кластерлар саноатни ривожлантиришнинг муҳим тизими бўлганлиги сабабли корхоналар орасида рақобат афзаллигини сақлаб қолиш имконияти кенг тизим ҳисобланади. Саноат кластерларини ривожлантиришда дастлаб, тадқиқот доирасида кўриб ўтилганидек, молиявий ва ҳуқуқий механизмлар, ишчи кучи, ва технология каби саноат кластери самарадорлигига таъсир этувчи омилларини аниқлаб олиш лозим. Бунинг учун саноат сиёсати, мавжуд иш услуги ва ёндашувларни тубдан ўзгартириш, рақобатбардош товарлар занжирининг узлуксизлигини ташкил этиш зарур. Кейинги масала, кластери ривожланган мамлакатларнинг илғор тажрибаларидан фойдаланиш имкониятларини яратиш, инвестициявий жозибдорликни кучайтириш мақсадга мувофиқдир. Саноат кластерларини шакллантириш учун тадбиркорлик муҳитини яратишни кенгайтириш ижобий самарага эришишга хизмат қилади. Аҳолининг даромадини ошириш, барча соҳада янги иш ўринларини яратиш, мақсадли инвестициялар жалб қилиш саноат тармоғининг ривожланиши билан чамбарчас боғлиқдир.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. Тошкент, 2022 йил 28 январ
2. Ячменева В.М. Промышленные кластеры: критерии создания, система управления, финансовая поддержка. Журнал «Экономика и бизнес», Стр. 114-123.
3. Michael Storper, Anthony J. Venables Buzz: face-to-face contact and the urban economy. Journal of Economic Geography, Volume 4, Issue 4, August 2004, Pages 351–370.
4. Березовский Д.С. Промышленные кластеры: определение, сущность и особенности формирования. Журнал «Экономика и бизнес», Стр. 161-174.
5. Мигранян А.А. Проблемы и перспективы развития конкурентоспособных кластеров в Кыргызской республике // Проблемы современной экономики. – 2007. –№ 1(21).
6. <https://yuz.uz/news/bavariya-ozbekistonda-sanoat-klasterlarini-rivojlantirishga-qiziqish-bildirdi?view=mustaqillik-tuhfasi-sifatida-yangi-korxonona-faoliyat-boshlaydi>

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Хамраева Сайёра Насимовна
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
QarMII“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini mudiri
Email: xamrayevasayyora@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6516-5226>

Пиримқулов Жаҳонгир
QarMII tayanch doktoranti

AHOLI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA O'SIMLIKCHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI

Аннотация. O'simlikchilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, dalada ekinlarni yetishtirish, jumladan, paxtachilik, g'allachilik, kartoshkachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilikni o'z ichiga oladi. Aholi iste'mol uchun oziq-ovqat mahsulotlari, yengil va oziq-ovqat sanoati qayta ishlash uchun xomashyo, chorvachilik uchun esa ozuqa ishlab chiqaradi. Tarmoq tuzilmasining ko'rsatkichi sifatida, umumiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmida har bir tarmoqda yetishtirilgan mahsulotning ulushi xizmat qiladi. Hozirgi paytda o'simlikchilik qishloq xo'jaligining hamma mahsulotlari orasida eng ko'p ulushni egallaydi.

Калит so'zlar: o'simlikchilik, oziq-ovqat xavfsizligi, hosildorlik, aqli qishloq xo'jaligi.

Хамраева Сайёра Насимовна
доктор экономических наук, профессор
заведующая кафедрой
Инновационная экономика КарИЭИ

Пиримкулов Жаҳонгир
докторант КИЭИ

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РАСТЕНИЕВОДСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. Растениеводство — одна из основных отраслей сельскохозяйственного производства, включающая выращивание сельскохозяйственных культур, в том числе хлопководство, зерноводство, картофелеводство, овощеводство, садоводство, виноградарство. Для населения производит продукты питания, для переработки легкой и пищевой промышленности производят сырье, а для животноводства – кормовые культуры. Показателем отраслевой структуры служит доля продукции, выращенная в каждой отрасли, в объеме всей произведенной продукции. В настоящее время растениеводство занимает наибольшую долю среди всей сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова. растениеводство, продовольственная безопасность, урожайность, умное сельское хозяйство.

Khamraeva SayyoraDoctor of economics, Professor
Head of the Department of Innovative
Economics of the KarEEI**Pirimkulov Zhahongir**

doctoral student of KIEI

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF PLANT PRODUCTION IN ENSURING THE FOOD SECURITY OF THE POPULATION

Abstract. Plant growing is one of the main branches of agricultural production, including the cultivation of crops, including cotton growing, grain growing, potato growing, vegetable growing, horticulture, and viticulture. It produces food for the population, raw materials are produced for the processing of light and food industries, and fodder crops for animal husbandry. An indicator of the sectoral structure is the share of products grown in each sector in the volume of all manufactured products. Currently, crop production occupies the largest share among all agricultural products.

Keywords. crop production, food security, productivity, smart agriculture.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N09>

Kirish

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda deyarli har to'qqiz odamning biri toyib ovqatlanmayapti bu degani sayyoramiz aholisining 10 foizidan ziyodi [5] to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda.

“Yer yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklangani o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat dasturini hal etish masalasi yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi ekani, natijada atrof-muhitning ekologik jihatdan buzilishi hamon davom etayotgani, iqlim o'zgarishlarining oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlari, tez-tez takrorlanayotgan qurg'oqchilik va suv resurslari taqchilligi, jumladan, sug'orish uchun yer osti suvlarining tugab borayotgani, irrigasiya-meliorasiya va yerlarning unumdorligini qayta tiklashga yo'naltiriladigan investisiyalarning yetarli emasligi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida hal etishni talab qilayotgan o'ta muhim muammolardir, shuningdek, qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifa bo'lishi” [1; B.1-2] hozirgi kunning dolzarb masalasi sanaladi.

Dunyo aholisining hayot faoliyati sifati har jihatdan sifatli oziq-ovqat bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq. Davlatlarni hal qilishi lozim bo'lgan asosiy masalalaridan biri ham oziq-ovqat muammosi hisoblanadi va bunda oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid ko'pincha global ochlikka olib keladi. Har bir mamlakat o'zining iqlim sharoiti, yer unumdorligi, intensiv qishloq xo'jaligi, o'simlikchilik mahsulotlarini qay darajada yetishtirishi, sanoatning rivojlanganlik darajasiga qarab bu muammoni turli xil usullar orqali hal qilmoqdalar. Ammo shunda ham iqtisodiyoti qoloq, aholi soni yuqori mamlakatlar oziq-ovqat taqchilligi muammosini to'la to'kis hal eta olishmayapti. Buning oqibatida esa insonlarda toyib ovqatlanmaslik, ochlik, kambag'allik, qashshoqlik ko'rsatkichlari o'sib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda

jahon aholisining 770 million nafari toyib ovqatlanmagan. Bugungi kunga kelib dunyo boylab tarqalayotgan turli xil kasalliklar tufayli ular soni yaqin kelajakda ikki barobarga oshishi kutilmoqda [5]. O'zbekiston ocharchilik darajasi bo'yicha 2019-yilda global ochlik indeksida 180 dan ortiq mamlakat ichida 10,7 ball bilan 49-o'rinni [6] egallagan bo'lsa, 2020-yilda ushbu indeksda 6,7 ball bilan 30-o'ringa ko'tarildi [7], 2021 yilda esa 5,6 ball bilan 21-o'ringa [8] erishdi. Masalaning yana bir tomoni qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugungi kunda jami dunyo aholi bandligining o'rtacha 23,4 foizi, O'zbekistonda esa jami aholi bandligining 9,7 foizi [9] aynan shu sohaga to'g'ri keladi.

Ammo iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida qishloq xo'jaligida band bo'lganlar ulushi kamayib bormoqda. Bu esa yildan yilga urbanizatsiya darajasi oshib borayotganini anglatib, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan maksimal darajada foydalanish, bir mavsum doirasida bir necha marta hosil yig'ib olish hamda o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish uchun yechimlar qidirishni taqozo etadi. Ushbu sharoitda eng rentabelli bo'ladigan qishloq xo'jaligi ekinlarini tanlashda tabiiy-iqlim omillari, transport tarmoqlarining rivojlanishi, mintaqada u yoki bu mahsulotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan qayta ishlash korxonalarining mavjudligi katta ta'sir o'tkazadi. Demak aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish bo'yicha yechimlar mavjud bo'ib, ularning asosiy yo'nalishlaridan biri bu - o'simlikchilik tarmog'idir.


Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama tahlil, statistik guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlashning muhim rezervi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xom-ashyo va oziq-ovqatning mintaqaviy fondlarini yaratishdir. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida paxta, g'alla, sabzavot va mevalardan yuqori hamda sifatli hosil olinmoqda [2; B. 359].

Statistika ma'lumotlariga ko'ra (1-rasm), 2000 yildan 2022 yillar oralig'ida don va dukkakli o'simlik mahsulotlari qariyb ikki barobar, kartoshka yetishtirish 4 barobar, sabzovotlar 4 barobar, poliz mahsulotlari 3 barobar, meva va rezavorlar 3 barobar hamda uzum yetishtirish 2,5 barobarga oshgan. Bunday natijalarga navlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitiga mos navlarni to'g'ri tanlash va joylashtirish, gektaridan 60-70 sentnerdan hosil yetishtirish boyicha aniq agrotexnik tavsiyalar va ilmiy asoslangan intensiv texnologiyalarning ishlab chiqilganligi va keng joriy etilayotganligi hisobiga erishilmoqda. Bunday natijalarni yanada oshirish va maksimal darajada samaradorlikka erishish uchun yuqorida aytib o'tilganidek sohaga ilg'or yangiliklarni, inovatsion ishlanmalarni hamda mahsuldorlik ko'rsatkichlarini eng kam resurs evaziga yuqoriga ko'tarib beruvchi foydali intellektual ishlanmalarni kechiktirmasdan birinchi navbatda joriy qilishimiz talab etiladi.



1-rasm. 2000-2022-yillarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va o'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, ming tonna [3]

Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 326433,5 mlrd, so'mni yoki 2021 yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 103 % ni, shu jumladan, o'simlikchilik mahsulotlari – 121749,5 mlrd, so'mni o'tgan yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 103,5%, chorvachilik mahsulotlari – 155218,5 mlrd, so'mni avvalgi yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 102,6 % tashkil qildi. Shundan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'simlikchilikning ulushi 50,7 foizni va chorvachilik mahsulotlarining ulushi 49,3 foizni tashkil qilgan [4] (1-jadval).


1-jadval

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jali tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari [3]

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022
Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3396,1	3340,6	3260,7
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm, shu jumladan:	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	261892,2	317027,6	326433,5
dehqonchilik va o'simlikchilik, mlrd. so'm	696,8	3323,1	18119,0	55429,2	123858,8	152130,4	121749,5
chorvachilik, mlrd. so'm	690,4	2655,2	12737,7	44175,4	126391,8	151285,1	155218,5


Tadqiq etilayotgan davr davomida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 2018 yilda 5919,9 ming so'mdan 2022 yilga kelib 9324,2 ming so'm yoki 157,5 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin (2-rasm). Albatta bu sezilarli ko'rsatkich sanalsada, bizning iqlim sharoitimiz, yerlarimizning unumdorlik holati bu raqamlarni yanada oshirish imkoni

beradi. Biz esa mahsulot yetishtirishning yangicha yo'llarini va metodlarini ishlab chiqishimiz va tezroq sohaga tatbiq qilishimiz zarur.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari [3]

2002-2022 yillar davomida qishloq xo'jaligida mulkchilik shakli o'zgarishi bilan hosildorlik ko'rsatkichlari yil sayin oshib borganligini ko'rish mumkin. 2002-2022 yillar davomida don mahsulotlarining o'rtacha hosildorligi 39 sentnerdan 41,3 sentnerga, kartoshka hosildorligi 143,7 sentnerdan 202,4 sentnerga, sabzavotlar 193,8 sentnerdan 237,2 sentnerga hamda oziqbop poliz mahsulotlari 138,1 sentnerdan 178,5 sentnerga, shuningdek, meva va rezavorlar 97,2 sentnerdan 127,9 sentnerga, uzum esa 113 sentnerdan 157,4 sentnerga oshganligini kuzatish mumkin (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi [3]

Xulosa va takliflar

Statistik tahlil natijalarga ko'ra, respublikada amalga oshirilayotgan agrar iqtisodiy islohotlar qishloq xo'jaligi, shu jumladan o'simlikchilik tarmog'ini rivojlanishiga ijobiy ta'sir etmoqda. O'simlikchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi va daromadliliigi, eng avvalo, yetishtirilgan mahsulotlardan oqilona foydalanish darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda, o'simlikchilik mahsulotlari xom ashyosini emas, balki qayta ishlangan mahsulotlarni sotish maqsadga muvofiq. O'simlikchilik tarmog'i mahsulotlarini yetishtirilgan joylarda qayta ishlash iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, bu barcha yetishtirilgan mahsulotlardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Bozor munosabatlari sharoitida o'simlikchilik tarmog'ida ishlab chiqarishni talabga yo'naltirilgan taqdirdagina barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Marketing xizmatlarini, birinchidan, keng turdagi va katta hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik qishloq xo'jaligi korxonalarida, ya'ni klaster, kooperasiya shakllarida, ikkinchidan, mahsulotning salmoqli qismini o'z ma'muriy hududidan tashqariga sotuvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'ziga xos hususiyalaridan kelib chiqqan holda davlat tomonidan qo'llab qo'vvatlash mexanizmlarini ham takomillashtirib borish zarur. Xususan, davlat tovar ishlab chiqaruvchilarga ma'lum moddiy resurslarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplashi, qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalashi maqsadga muvofiqdir. O'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va import o'rnini bosishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mablag'larni ko'paytirish zarur.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.2018 yil 28 dekabr //Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr
2. Ergashev R. X., Fayziyeva S. S., Xamrayeva S. N. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti //Toshkent" Iqtisod moliya. – 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari
4. https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/press-reliz-uzb-25_10_2022.pdf
5. <https://www.fao.org/documents/card/en/c/cc2211en>
6. Globalhungerindex.org/pdf/en/2019/Uzbekistan.pdf
7. Globalhungerindex.org/pdf/en/2020/Uzbekistan.pdf
8. <https://www.globalhungerindex.org/ranking.html>
9. <https://www.theglobaleconomy.com/rankings/employmentinagriculture/>
10. Xamrayeva S. 2022. DEHQONCHILIK TARMOG'INI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. 10, 5 (окт. 2022), 194–203.

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Пардаева Шаҳноза Абдинабиевна
PhD, доцент в.б., Тошкент молия институти
shahnoza.pardayeva.94@gmail.com
+998(90) 356-84-16

МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАРНИНГ СТРАТЕГИК БОШҚАРУВ ҲИСОБИ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация. Мақолада танланган мавзу доирасидаги мавжуд илмий мактаблар вакилларининг тадқиқот натижалари танқидий таҳлил қилинган, умумлаштирилган ҳамда натижаларига асосланган ҳолда хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳамда номолиявий кўрсаткичлари блокларини шакллантириш ҳамда улар базасида стратегик прогноз балансини тузиш таклиф этилган. Шунингдек, мақолада хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқаруви самарадорлигини номолиявий ва молиявий кўрсаткичлар орқали баҳолаш имкониятини яратиб берадиган стратегик самарадорлик кўрсаткичлар жамланмаси тавсия этилган ва уларнинг амалиётда ишлаш механизми стратегик прогноз балансини тузиш орқали кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: стратегик бошқарув ҳисоби, молиявий кўрсаткичлар, номолиявий кўрсаткичлар, стратегик прогноз баланси.

Пардаева Шаҳноза Абдинабиевна
PhD, и.о.доцента, Ташкентский финансовый институт

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ

Аннотация. В статье, в рамках проводимого исследования критически проанализирована результаты научных исследований представителей различных научных школ, обобщены их рекомендации и по результатам подробно описаны финансовые и нефинансовые показатели хозяйствующих субъектов а также механизм составления стратегического прогнозного баланса на их базе. В статье также анализируется и даются рекомендации по набору стратегических показателей эффективности, позволяющих предприятиям оценивать эффективность стратегического управления финансовыми результатами через нефинансовые и финансовые показатели.

Ключевые слова: стратегический управленческий учет, финансовые показатели, нефинансовые показатели, стратегический прогнозный баланс.

Pardaeva Shakhnoza Abdinabiyevna
PhD, a. associate professor
Tashkent Institute of Finance

IMPROVING THE METHODOLOGY OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF FINANCIAL RESULTS

Abstract. In the article, within the framework of the study, the results of scientific research of representatives of various scientific schools are critically analyzed, their recommendations are summarized and,

based on the results, the financial and non-financial indicators of economic entities, as well as the mechanism for drawing up a strategic forecast balance on their basis, are described in detail. The article also analyzes and provides recommendations on a set of strategic performance indicators that allow enterprises to assess the effectiveness of strategic management of financial results through non-financial and financial indicators.

Keywords: strategic management account, financial indicators, non-financial indicators, strategic forecast balance.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N10>

Бугунги кунда жадаллашиб бораётган глобаллашув жараёни хўжалик субъектларидан узоқ муддат учун мўлжалланган стратегик ривожланиш йўналиши ҳамда кўрсаткичларини аниқлаб олишни талаб қилади. Зеро, ривожланган мамлакатларда ушбу тадбир "...компаниялар мувафақиятининг асосий омили бўлиб, стратегик аҳамиятга эга бўлган тезкор ва ишончли маълумотларни олиш ҳамда муҳим бошқарув қарорларини қабул қилиш имкониятини яратиб келмоқда" [1].

Бутун дунё бўйлаб компанияларнинг рақобатбардошлигини оширишнинг энг муҳим омили саналган стратегик бошқарув ҳисоби усулларини оптималлаштириш бўйича мавжуд муаммоларни бартараф этиш бўйича бир қатор тадқиқотлар олиб борилган. Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш жоизки, ушбу соҳада амалга оширилган илмий изланишлар хўжалик субъектларида молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини амалий тарафдан етарлича ёритиб бера олмайди. Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобининг баъзи жиҳатлари бўйича назарий ҳамда амалий ишланмаларнинг етишмаслиги, стратегик менежментнинг аҳамияти ошиб бораётган даврда халқаро компанияларнинг ушбу ҳисоб шаклига бўлган қизиқишнинг ортиши хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини янада чуқурроқ таҳлил қилишни тақозо этмоқда.

Ҳозирда "қабул қилинган ўрта муддатли дастурлар асосида таркибий ва институционал ўзгаришларни чуқурлаштириш ҳисобига ялпи ички маҳсулотнинг барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш, корпоратив бошқарувнинг замонавий стандарт ва усулларини жорий этиш, корхоналарни стратегик бошқаришда акциядорларнинг ролини кучайтириш" [2] устувор йўналиш сифатида эътироф этилган.

Хўжалик юритувчи субъектларда стратегик бошқарув ҳисобини самарали тарзда ташкил қилиш ва юритишнинг назарий ҳамда амалий жиҳатларини хорижий олимлардан А.Апчерч, Е.Аткинсон, Р.Банкер, П.Бюер, К.Друри, К.Уорд, Ч.Хорнгренлар ўзларининг илмий ишларида батафсил талқин қилишган.

МДҲ давлатлари иқтисодчи-олимларидан В.Б.Ишавкевич, В.Е.Керимов, И.Г.Кондратова, В.Ф.Палий томонидан ҳам стратегик бошқарув ҳисоби бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилган.

Маҳаллий иқтисодчи-олимлардан А.А.Абдуғаниев, Н.Б.Абдусаламова, У.У.Костаев, А.Х.Пардаев, Б.А.Хасанов, А.А.Хашимов, И.К.Ғиёсовларнинг илмий ишларида стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилишнинг айрим назарий ва амалий жиҳатлари ёритиб берилган. Лекин, хўжалик юритувчи субъектларда стратегик бошқарув ҳисобини яхлит бир тизим сифатида амалий жиҳатдан ташкил қилиш бўйича илмий тадқиқот натижалари деярлик йўқ.

Россиялик олим В.Е.Керимов таъкидлаганидек: “Миллий ўқув ва илмий адабиётларимизда стратегик бошқарув ҳисоби бўйича чоп этилган ишлар деярли йўқ ҳисоб”.

Яна бир иқтисодчи-олим Н.М.Блаженкова ҳам худди шундай фикр билдириб, корхоналар амалиётида стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш масалалари энди кун тартибига чиқаётганлиги, шу муносабат билан амалиётда унинг моҳиятига етарлича эътибор берилмаётганлиги, аксарият ҳолатларда эса уни анъанавий тарзда бошқарув ҳисобининг бир қисми сифатида қаралаётганлигини кўрсатиб беради.

Маҳаллий олимлардан А.Х.Пардаев таъкидлаганидек: “...ривожланган бозор иқтисодиётига эга мамлакатларда, стратегик бошқарув ҳисоби- стратегик бошқарув қарорларини қабул қилиш мақсадида ахборот таъминоти шаклланадиган бошқарув ҳисобининг бир йўналиши сифатида эътироф этилади. Стратегик бошқарув ҳисоби доирасида хўжалик юритувчи субъектнинг барча фаолият йўналишларининг батафсил таҳлили амалга оширилади”[3].

Хорижий иқтисодчи олимлардан Марк ДеФонд ҳамда Жиншуаи Хустратегик бошқарув жараёнида ишлаб чиқариш жараёнидан олинган даромадларни, унинг таннархи ва сотишдан олинган пул оқимлари ўртасидаги ўзаро боғлиқликнинг таҳлили натижасида бошқариш механизмларини такомиллаштиришни таклиф қилган.

Б.А.Хасанов ва А.А.Абдуғаниевлар бошқарув ҳисобини ривожлантириш бўйича докторлик диссертациясини ёқлаган. Бир қатор монографиялар, шунингдек илмий тадқиқот ишлари натижалари ҳамда дарсликлар чоп этилган. Бироқ стратегик бошқарув ҳисоби бўйича яхлит тизимли қамровга эга бўлган йирик илмий ишлар кўп эмас. Ушбу ҳолат стратегик бошқарув ҳисобини янада такомиллаштириш учун қатор тавсияларни ишлаб чиқишни талаб этади.

Мавзу доирасидаги ривожланган хорижий давлатлар, МДҲ мамлакатлари, шунингдек мамлакатимиз иқтисодчи олимлари ҳамда турли илмий мактаблар вакилларининг қарашлари, шунингдек хўжалик юритувчи субъектларнинг амалиётини ўрганиш натижалари уларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш бўйича ягона методологик ёндошув ва услубий таъминот шаклланмаганлигини кўрсатади. Бу эса мавзу доирасида илмий тадқиқотлар олиб бориш долзарблигидан далолат беради.

Мақолада илмий тадқиқотлар давомида аниқ фактларга асосланган ҳолда маълумотларни гуруҳларга ажратиш, шу билан бир қаторда индекс ва норматив усуллардан фойдаланган ҳолда, хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобининг амалдаги ҳолатини ўрганиш асосида унинг ҳолатига баҳо бериш, ташкил қилиш ва юритиш ҳолатини ҳамда натижаларини таҳлил қилиб бориш, олинган статистик маълумотларни таққослаш каби усуллардан фойдаланилди.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш нафақат молиявий кўрсаткичларни аниқлаш, шу билан бир қаторда шу пайтгача ҳисобга олинмаган, баҳоланмаган ва таъсири эътибордан четда қолиб келган номолиявий кўрсаткичлар тўпламини ҳам аниқлаши, баҳолаши ва ҳисобга олиши керак. Эътироф этиш керакки, шу йўналишда илмий тадқиқотлар олиб борган мамлакатимиз олимларидан У.У.Костаев мавзу йўналишидаги муаммолар ечимини таъминлаш борасида, хусусан хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик

бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш мақсадида кўрсаткичларни молиявий ва номолиявий блоklarга ажратишни таклиф этади [4].

Биз, У.У.Костаев таклифларидан фарқли ўлароқ, хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш мақсадида фойдаланиладиган кўрсаткичлар мажмуасини қуйидаги блоklarда ифодалашни тавсия этамиз, хусусан молиявий кўрсаткичларни:

1. Хўжалик юритувчи субъектларнинг мулкӣ ҳолатини баҳоловчи кўрсаткичлар блоки. Ушбу кўрсаткич таркибига муомаладан ташқари ва айланма маблағлар нисбатини, тез ва қийин айланадиган маблағлар даражаси ва миқдорини киритиш мумкин.

2. Хўжалик юритувчи субъектнинг айланма маблағлари миқдори.

3. Хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий қўйилмалари ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар блоки.

4. Хўжалик юритувчи субъектнинг капитали ва резервлари ҳажми.

5. Мажбуриятлар миқдорини ифодаловчи кўрсаткичлари блоки.

Хўжалик юритувчи субъектларнинг номолиявий кўрсаткичлар блокини эса қуйидаги кўрсаткичлар орқали ифодалашни таклиф этамиз (1-жадвал).

1-жадвал

Хўжалик юритувчи субъектнинг номолиявий кўрсаткичлари блоки¹

Т.р.	Кўрсаткичлар блоки	Блок таркибидаги кўрсаткичлар номи	Ҳисоблаш мезони
1	Бозор фаоллигини ифодаловчи кўрсаткичлар блоки	Ишлаб чиқилладиган маҳсулот баҳоси, сифат даражаси, баҳо даражаси, истеъмолчи талабининг қондирилиш даражаси, товарнинг бозордаги рақобат даражаси ва ш.к.	Бозор фаоллиги индекси
2	Инвестицион фаоллик даражасини ифодаловчи кўрсаткичлар блоки	Жами жалб қилинган инвестициялар миқдори, тўғридан-тўғри жалб қилинган инвестициялар ҳажми ва ш.к.	Инвестицион фаоллик индекси
3.	Инновацион фаоллик даражасини ифодаловчи кўрсаткичлар блоки	Инновацияларни қўллашдан олинган маҳсулотларнинг умумий маҳсулот ҳажмидаги улуши, инновацияларни қўллашдан тушган тушум миқдори ва ш.к.	Инновация индекси
4	Интеллектуал салоҳиятни ифодаловчи кўрсаткичлар блоки	Менежер ва мутахассисларнинг компьютер саводхонлиги дажаси, чет тилларини билиш даражаси, компьютер дастурларидан фойдаланиш кўникмалари даражаси ва ш.к.	Интеллектуал салоҳият индекси

Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш мақсадида юқорида таклиф этган кўрсаткичлар мажмуаси блоklarининг амалиётда ишлаш механизминини таъминлаш учун стратегик прогноз балансини тузишни таклиф этамиз.

2-жадвалда келтирилган стратегик прогноз баланси маълумотлари кўрсатадики, хўжалик юритувчи субъект ўз маблағларини 2020 йилга нисбатан истиқболда, яъни

¹Муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

2024 йилга бориб 51%га оширишни режалаштирган, хусусан, мос равишда 2021 йилда 16 фоизга, 2022 йилда 26 фоизга, 2023 йилда эса 33 фоизга.

2-жадвал

Хўжалик юритувчи субъектнинг 2024 йилгача бўлган стратегик прогноз балансининг умумлашган шакли¹

Модданинг мазмуни	2020 (факт)	2021 (прогноз)	2022 (прогноз)	2023 (прогноз)	2024 (прогноз)
Молиявий кўрсаткичлар прогнози (млн. сўмда)					
Оборотдан ташқари активлар	1 675,0	1 856,0	1997,0	2115,6	2445,5
Айланма маблағлар	2 455,7	2895,5	3145,5	3322,5	3677,5
Молиявий қўйилмалар ва пул маблағлари	585,0	714,9	789,5	856,7	989,0
Жами баланс	4 715,7	5 466,4	5 932,0	6 294,8	7112,0
Капитал ва резервлар	1289,0	1356,7	1390,5	1415,5	2145,0
Мажбуриятлар	3 426,7	4 109,7	4541,5	4879,3	4967,0
Жами баланс	4 715,7	5 466,4	5 932,0	6 294,8	7112,0
Прогноз даври учун ССКМ	1,0	1,16	1,26	1,33	1,51
Номолиявий кўрсаткичлар прогнози (диапазонли балл тизимида)					
Хўжалик юритувчи субъектнинг бозор фаоллиги даражаси (индекси)	1,0	1,2	1,4	1,7	2,0
Инвестиция фаоллиги даражаси (индекси)	1,0	1,0	1,6	1,8	2,5
Инновацион фаоллиги даражаси (индекси)	1,0	1,4	1,7	2,0	2,5
Менежерлар ва мутахассисларнинг интеллектуал салоҳияти даражаси (индекси)	1,0	1,3	1,8	2,1	4,0
Жами	1,0	1,23	1,63	1,9	2,75
Прогноз даври учун ССИ (Стратегик салоҳият индекси)	1,0	1,2	1,4	1,6	2,1

Шу билан бир қаторда субъектнинг номолиявий кўрсаткичлари ҳам истиқболда оширилиши режалаштирилган бўлиб, уларнинг ҳажмини 2,75 бараварга ўсиши кўзда тутилган. Ана шу номолиявий кўрсаткичлар ўсиши таъминланса, хўжалик юритувчи субъектнинг 2024 йилга бориб стратегик салоҳияти 51%га эмас, балким, нолиявий кўрсаткичларнинг сезиларли ошиши ҳисобига 210%га ўсиши таъминланади. Бу эса ўз навбатида хўжалик юритувчи субъектлар учун молиявий кўрсаткичлар билан бир қаторда номолиявий кўрсаткичларнинг аҳамияти ҳам нақадар муҳимлигини кўрсатади, истиқболдаги мақсадларга эришиш учун уларни ҳисобга олиш зарурлигини кўрсатиб беради. Биз томонимиздан тақлиф этилаётган молиявий ҳамда номолиявий кўрсаткичлар блоки ва улар асосида ишлайдиган стратегик прогноз баланси стратегик бошқарув ҳисоби маълумотлар базасига оид базанинг зарур яхлитлигини ҳамда унинг стратегик бошқарув қарорларини қабул қилишдаги самарасини оширади [5].

¹Муаллиф томонидан ишлаб чиқилди

Ушбу тадқиқот ишини ўрганиш ва таҳлил қилиш давомида қуйидаги хулоса ва таклифлар шакллантирилди:

1. Белгиланган стратегик мақсадларга эришиш учун у томон олиб борувчи йўллارни аниқлаш, уни таҳлил қилиш, оқилона фойдаланиш, ресурслардан самарали фойдаланиш стратегик бошқарув ҳисобининг асосий вазифаси ҳисобланади.

2. Мулкчилик шаклидан қатъий назар, ҳар бир хўжалик юритувчи субъектларда стратегик бошқарув ҳисобини самарали ташкил қилиш ва уни юритиш учун барча имкониятлар яратилиши шарт.

3. Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш мақсадида молиявий кўрсаткичлар билан бир қаторда номолиявий кўрсаткичлар мажмуасидан ҳам фойдаланиш керак. Бунинг учун биз томонимиздан тавсия этилган молиявий ҳамда номолиявий кўрсаткичлар блокларидан фойдаланиш таклиф этилади.

4. Таклиф қилинаётган молиявий ҳамда номолиявий кўрсаткичлар мажмуаси блокларининг, яъни ҳар бир блокда акс эттирилган кўрсаткичлар мажмуасининг бир бутун тизим сифатида ҳамда бир-бири билан боғлиқ ҳолда ишлаш механизмини таъминлаш мақсадида стратегик прогноз балансини тузиш зарур ҳисобланади.

Хўжалик юритувчи субъектларда таклиф этилаётган молиявий ҳамда номолиявий кўрсаткичлар блоклари ва улар асосида ишлайдиган стратегик прогноз балансини тузиш стратегик бошқарув ҳисоби маълумотлар базасига оид базанинг ҳаққонийлигини, яхлитлигини ҳамда уларга асосланиб қабул қилинадиган бошқарув қарорларининг тезкорлигини ва самарадорлигини оширади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Пардаева Ш.А. Хўжалик субъектларида молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини такомиллаштириш. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнал. www.interfinance.uz, №3, 2021 йил, июн.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони.
3. Пардаев А.Х., Пардаева З.А. Бошқарув ҳисоби. //Дарслик. - Т: Иқтисод-Молия, 2019 йил, - 556 бет.
4. Пардаева Ш.А. Харажатларнинг стратегик бошқарув ҳисобини самарали ташкил қилиш йўналишлари. “Иқтисодиёт ва таълим” илмий журнали, 2022 йил 2-сон 141-145 бетлар.
5. Пардаева Ш.А. Improving strategic management accounting of financial results in business entities. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Impact Factor 7.455. Volume 3, issue 9 September 2022. www.scholarzest.com.

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Очилова Наргиза Акрамовна,
докторант Каршинского
инженерно-экономического института
E-mail: nargizaochilova07@gmail.com

ЗНАЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ДЕХКАНСКИХ И ПОДСОБНЫХ ХОЗЯЙСТВ

Аннотация. В статье освещены вопросы, связанные с развитием дехканских и подсобных хозяйств в сфере сельского хозяйства и пути эффективной организации их деятельности, а также инновационный подход к производству сельскохозяйственной продукции, факторы, влияющие на укрепление экспортного потенциала сектор.

Ключевые слова: дехканское хозяйство, подсобные хозяйсво, растениеводство, садоводство, продуктивность, эффективность, сельскохозяйственная продукция, инновационные агротехнологии.

Очилова Наргиза Акрамовна,
ҚарМИИ таянч докторанти

ДЕҲҚОН ВА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотация. Мақолада қишлоқ хўжалиги соҳасида деҳқон ва томорқа хўжаликларини ривожлантириш билан боғлиқ масалалар ва улар фаолиятини самарали ташкил этиш йўллари ҳамда деҳқончилик маҳсулотларини етиштиришга инновацион ёндашиш, соҳанинг экспорт салоҳиятини кучайтиришга таъсир қилувчи омиллар ёритилган.

Таянч иборалар: деҳқон хўжалиги, деҳқончилик, томорқа хўжалиги, ҳосилдорлик, самарадорлик, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, инновацион агротехнологиялар.

Ochilova Nargiza Akramovna,
doctoral student Karshi Engineering
and Economic Institute

THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF FARMING AND HOUSEHOLDS

Abstract. The article highlights issues related to the development of dekhkan and subsidiary farms in the field of agriculture and ways to effectively organize their activities, as well as an innovative approach to the production of agricultural products, factors affecting the strengthening of the export potential of the sector.

Keywords: agriculture, farming, horticulture, productivity, efficiency, agricultural products, innovative agricultural technologies.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N11>

Введение

На сегодняшний день в аграрной сфере существует ряд нормативных экономических мероприятий, которые необходимы для экономического развития сельскохозяйственных предприятий, особенно дехканских и подсобных хозяйств. То есть, в апреле 2021 года приняты законы Республики Узбекистан «О дехканском хозяйстве» и «О подсобном хозяйстве». Другие законы и постановления, направленные на дальнейшее улучшение работы дехканских и подсобных хозяйств, служат важной программой. Еще один важный документ “Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” поставил 100 цель для человеческая ценность. Например, в 30-й цели “Интенсивное развитие сельского хозяйства на научной основе снизит доходы фермеров в 2 раза, а продуктивность сельского хозяйства повысит на 5 лет”[1]. Отмечается, что большое внимание уделяется освоению 464 тыс. га неиспользуемых земель, сдаче в долгосрочную аренду населению 200 тыс. га земель под выращивание хлопка и зерна, выращиванию экспортной продукции, отвечающей требованиям мировым стандартам, и развитие плодоовощного хозяйства. Кроме того, повышение плодородия почв, совершенствование системы агросервиса на основе науки и инноваций приведет к повышению уровня эффективности в сельском хозяйстве. Именно поэтому, как указано в стратегии, было запланировано создание Международного сельскохозяйственного университета совместно с высшими учебными заведениями для улучшения интеграции науки и техники в сеть нашей страны, и были созданы условия для эффективного использования подсобных хозяйств.

Как известно, одной из актуальных проблем в мире является проблема продовольственной безопасности населения. Каждая страна по-своему подходит к поиску разумного решения этой проблемы. Например, высокий экономический рост Китая, развитие которого началось с сельского хозяйства, начался с дехканского хозяйства. Первоначально, в начале 20 века, неиспользуемые земельные участки были отобраны у богатых помещиков и розданы 300 миллионам крестьян. На этих землях они выращивали продукты, удовлетворяли потребности семьи и за счет свободной реализации добивались экономической стабильности. На протяжении многих лет китайское правительство утверждало, что распределение земли между семьями работает хорошо и является эффективной системой. До сих пор этот принцип соблюдается.

Обзор литературы по теме

В научных исследованиях российского экономиста Е.В.Царегородцева для управления личным подсобным хозяйством и его развитием, прежде всего, необходимо изучить факторы развития фермерских хозяйств с организационной, экономической и социальной точек зрения, а также как обобщить и дополнить существующие теоретические правила. По его мнению, было бы целесообразно разработать алгоритм управления развитием личных подсобных хозяйств [2].

Abu Nasr Forobiy matematika falsafasiga poydevor qo'yish bilan birga, uni tabiat hodisalarini o'rganishda dadil qo'llash zarurligini amalda ko'rsatdi. Abu Nasr Forobiy fikricha, matematika aniq va haqiqatdir bilim beradi va boshqa fanlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. U o'zining "Munajjimlar bashoratida nima to'g'ri yoki noto'g'ri" nomli asarida ilmiy astrologiyani astronomiyadan ajratib, Aristotelning mantiqiy asarlarida tilga olingan tamoyillar va tabiat fanlari yutuqlariga asoslanib, noma'lum, tasodifiy hodisalarning bo'lishi mumkinligini farqlashga harakat qiladi.

Ehtimollar nazariyasi shakllantirishda Abu Nasr Forobiyning keyingi fikrlari katta ahamiyatga ega edi. U matematika va tabiiy fanlar sohasida yirik asarlar yozgan. Abu Nasr Forobiy buyuk qadimgi yunon matematigi va astronomi Ptolemeyning "Almagi" ga uzoq sharh yozgan. Bu ish Almagesta sharhdir" nomi bilan tanilgan. Astronomiya va matematika tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan Abu Nasr Forobiyning ushbu risolasi trigonometriyaning rivojlanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatdi. O'zidan oldingi va zamondoshlarining asarlari asosida o'zining trigonometriya chiziqlari nazariyasini yaratdi. Bu yerda asosiy yangiliklar Abu Nasr Forobiy sinus, kosinus, sinus-ferzus, tangens, doimiy radiusli doira ichida kotangent chiziqlar

ko'rib chiqildi. U ular orasidagi ba'zi munosabatlarni ochib berdi, ba'zi oddiy xususiyatlarni belgilab berdi. U trigonometriya jadvalarini tuzishda juda zarur bo'lgan bir darajali yoyning sinusi va kosinusini aniqlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Abu Nasr Forobiy tilga olingan trigonometriya ma'lumotlari va boshqa qo'shimcha matematik materiallarga asoslanib, "Almagest"da muhokama qilingan astronomiya va geografiya masalalarini matematik tarzda yechishning eng oson usullarini taklif etadi. "Tabiat sirlari va geometrik figuralarning tafsilotlari bo'yicha ma'naviy usullar va hiylalar kitobi" geometriyani qurish masalalarini saralab, ularni yagona tizimga keltirdi. Yuzdan ortiq hisoblash usullari ko'rsatilgan. Ular orasida: parabola chizish, burchakni uchga bo'lish, kubni ikkiga bo'lish, to'g'ri ko'pburchaklar chizish, ko'pburchaklar chizish, tekislik figuralarini o'zgartirish va hokazo mavjud.

Abu Nasr Forobiy doimiy kompas va bir yoqlama chizgich yordamida yechish mumkin bo'lgan masalalarni keng ko'rib chiqdi. Bu ishda 3, 4, 5 va hokazo masalalarni aqliy hal qilish, ya'ni kub yasash masalasini aqliy hal qilish haqida fikr mavjud. Bundan kelib chiqib, Abu Nasr Forobiy ko'p o'lchovli mavhum geometriya g'oyasining birinchi vakillaridan biri, deb taxmin qilish uchun asos bor. Abu Nasr Forobiy risolasi Xuroson matematika tarixchilari tomonidan hozirgacha mashhur. Ma'lum bo'lishicha, matematik Abu-l-Vafoga kelgan. Abu Nasr Forobiy arifmetika sohasida «Nazariy arifmetikaga qisqacha kirish» nomli asar yozgan. Uning ko'pgina mantiqiy ishlarida matematik mantiq elementlari mavjud. Abu Nasr Forobiyning matematik g'oyalari va merosidan Yevropa olimlari Rojer Bekon, Leonardo da Vinchi,

Abu-l-Vafo, Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Abu Rayhon Beruniy kabi Sharq olimlari keng foydalandilar.

Abu Nasr Forobiyning fizika sohasidagi ajoyib asari "Vakuumda" deb nomlanadi. Bu yerda u qadimgi yunonlarning nodir tajribasiga asoslangan mantiqiy xulosalar orqali vakuum yo'qligini isbotlashga harakat qilgan. Abu Nasr Forobiy bu asarida vakuum masalasi bilan bir qatorda fizikaning turli muammolarini ham ko'rib chiqdi va o'sha davrdagi fan darajasiga ko'ra to'g'ri yechimlarni topdi (jismning issiqlik ta'sirida kengayishi yoki qisqarishi. qo'llaniladigan kuchlanish, bosim, qo'llaniladigan kuchlanishning havoga o'tishi va boshqalar tufayli havo hajmini oshirish yoki kamaytirish qonunlari). U o'zining "Alkimyo san'atining zarurligi to'g'risida" risolasida o'z davrining alkimyoviy bilimlarini tahlil qilib, alkimyoning ilmiy donasini soxta qobiqdan ajratib, aniq tadqiqot predmetiga ega bo'lgan tabiatshunoslikning bir tarmog'i sifatida qaragan.

Tibbiyot sohasida Abu Nasr Forobiy "Galenga qarshi uning Aristotel bilan inson a'zolari borasidagi farqlari haqida yozilgan risola", "Hayvon a'zolari", "Temperament haqida" va hokazo. U asarlar yozdi, ularda asosan tibbiyotning nazariy muammolari bilan shug'ullanadi va tibbiyot san'atining predmeti, vazifalari va maqsadlarini belgilashga harakat qiladi. Abu Nasr Forobiy falsafa va tabiiy falsafaga oid asarlarida tabiatshunoslikning ko'plab muammolariga e'tibor qaratadi. Astronomida o'z tajribasi orqali quyosh apogeyining holati doimiy emasligini kuzatdi. Nurlarning tarqalishi optika qonunlari bilan geometriya bilan isbotlangan. Nurlarning to'planishi, sinishi, tarqalishi va kontsentratsiyasi qonuniyatlarini geometrik aniq usullar bilan kashf etgan Abu Nasr Forobiyning yorug'lik haqidagi tushunchasi Yevropa faniga 17-asrdagina ma'lum bo'ldi. Nemis astronomi I. Kepler arab tilidan tarjima qilgan va uni "fokus" deb atagan. Sakkiz asr muqaddam Abu Nasr Forobiy uni "yonib turgan joy", "yonib turgan joy" ma'nosidan

“muharaq” deb atagan. U o‘z qo‘li bilan botiq oyna, ya‘ni parabola, linza yasadi va ularni fanda qo‘lladi.

Abu Nasr Forobiy buyuk qadimgi yunon astronomi Klavdiy Ptolemey asarlarini sharhlaydi va takomillashtiradi, nazariy (matematik) va amaliy xulosalar qiladi, fikr va mulohazalar beradi. Masalan, u tarixda birinchi marta Cho‘lpon sayyorasining Quyosh yuzasidan o‘tishini kuzatadi, o‘zining “Munajjimlar bashoratida nima to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” risolasida olim yulduzlar harakati, ilmiy astronomiya, o‘rni, rang-barangligi, dunyoqarashi, uning o‘rnini, rangini, o‘zini o‘zi ko‘rishi va boshqalarni ta‘riflaydi. uni vizual xususiyatlaridan kelib chiqib, yerdagi inson hayoti va hodisalarining kelajagini bashorat qilish mumkinligini da‘vo qiladigan noaniq va shubhali munajjimlik fanidan ajratib turadi.

Olimning ilmiy-falsafiy asarlarini jiddiy ko‘zdan kechirish jarayonida uning pedagogika tarixidagi buyuk siymolardan biri bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. U Sharq mamlakatlarida birinchi konstruktiv pedagogik tizimni yaratgan pedagog hisoblanadi. Alloma fikricha, yosh avlod ongini shakllantirish uchun uchta narsaning xususiyatlarini tizimlashtirish va ketma-ketlashtirish kerak:

- Bolaning ichki ishtiyoqi;
- O‘qituvchining mahorati, halolligi;
- O‘quv jarayonining o‘rni.

Olim jismoniy tarbiya va axloqiy tarbiyaning o‘xshashligiga, ularning bir-biriga ta‘siriga alohida e‘tibor bergan.

Abu Nasr Forobiy “Ritorika”, “She‘riyat san‘ati haqida”, “Baxtga yetaklovchi” risolalarida u etik-estetik masalalarga e‘tibor bergan, san‘at, go‘zallik, baxt, mehr-oqibat kategoriyalarini ochib bergan va ularning asosini isbotlagan. U axloqni, eng avvalo, yaxshi va yomonni farqlash imkonini beruvchi fan deb hisoblagan. Shuning uchun ham uning axloqqa oid tushunchalarida ezgulik, mehr-oqibat kategoriyalari asosiy o‘rinni egallaydi. Olimning axloqiy fikrlari teran insonparvarlik bilan to‘lib-toshgan, u [inson] farzandi ijodning eng oliy cho‘qqisi, butun qalb egasi ekanligini, shuning uchun ham uni e‘zozlash, e‘zozlash zarurligini tushunadi. Forobiy yaratgan g‘azalning asosiy g‘oyasi uch narsaning birligidir: bilim, ezgulik, go‘zallik. Forobiyning gumanistik g‘oyalari butun dunyoga keng tarqaldi. U aql va bilimning yuksak qadriyatini ulug‘lagan. Forobiy san‘ati, go‘zallik haqida shunday deydi: u hayot haqiqatiga xos xususiyat, borliq, real hodisalar, ijtimoiy hayot ongidagi tasvirdir. Uning fikricha, san‘at tana va ruhning go‘zalligini ko‘rsatadigan belgidir [8].

Abu Nasr Forobiy serqirra sozanda ham edi. U cholg‘u asboblarini chalgan, qo‘shiq kuylagan, qo‘shiq va kuylar yaratgan. “Buyuk musiqa kitobi” olimning musiqa haqida ham, fizika va matematika haqida ham yozgan buyuk tarixiy asaridir. Bu yerda musiqa akustikasi muammolari imkon qadar keng yoritilgan, tovushning tabiati, kelib chiqishi, tarqalishi va boshqalarga e‘tibor qaratilgan. Bu haqda ko‘plab to‘g‘ri fikrlar mavjud. Musiqaning amaliy (eksperimental) va nazariy (matematik) asoslarini yaratadi, fizik-matematik qonuniyatlarning ma‘lum cholg‘u asboblarida amalga oshirilishi yo‘llarini ko‘rsatadi. Abu Nasr Forobiy ilmiy bilishning uchta umumiy (universal) nazariy shart-sharoitini belgilab bergan, ular asosida musiqayang nazariyani yaratdi. Bu shartlar: birinchidan, fanning barcha fundamental asoslarini bilish; ikkinchidan, ushbu tamoyillardan o‘sha fanga oid zarur xulosa va natijalarni chiqara olish; uchinchidan, bu ilm haqida hech qachon aytilmagan fikr-mulohazalarni tahlil qila

bilish, haqni teridan ajratib, xatolarni to'g'rilay bilish. Musiqaning matematik nazariyasini ishlab chiqishda Abu Nasr Forobiy matematikaning ko'plab fundamental muammolarini yoritgan. Ular: munosabatlar nazariyasi, kombinatorial tahlil muammolari, funktsional bog'liqliklar va ularning xaritasi, aksiomatika g'oyasi va boshqalar [9].

Insoniyat tarixida ilmiy tafakkurning uzluksiz rivojlanishi jarayonida "o'z-o'zini bilish" yoki "ruh kuchi" haqidagi fikrlarning shakllanish yo'llarini bilish murakkab muammoga aylanib, eng boshidanoq insoniyatni insoniyatning o'z-o'zini bilishga undagan. Insonning o'zini o'zi bilish haqidagi ta'limotining ilk qadami qadimgi dunyo faylasuflaridan boshlangan bo'lsa-da, uni o'z davrida ilmiy tizimga keltirgan Forobiyning faoliyati ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jamiyat tafakkurida butun borliqni, undagi barcha xilma-xil hodisalarni metatanish asosida tushuntiruvchi yangi yo'nalish shakllandi. Forobiy mutakallimlar bilimidagi tub xatoni keskin tanqid qiladi. Forobiy o'z davrida ham, undan keyin ham keng tanilgan. Forobiyning Sharq va G'arbning ko'plab olimlari ustoz sanab, uning asarlaridan katta axloq, saboq, tarbiya olganlar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Наследие Аль-Фараби и мировая культура // Материалы международного конгресса. - Алматы, 2001. - 475 с. Наследие Аль-Фараби и проблемы межкультурного диалога // Материалы международной конференции. - Алматы, 2009.- 437 с.
2. Deborah L. Black. Al-Farabi // History of Islamic Philosophy. - London, 2001. - PP.178-198.
3. Хайруллаев М.М. Фараби. Эпоха и учение. - Ташкент: Узбекистан, 1975. – 352 с.
4. Казибердов А.П., Муталибов С.А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы.- Ташкент: Фан, 1986.- 80 с.
5. Касымжанов Х. Аль-Фараби. - Алма-Ата, 1974. – 67 с.; Сатыбекова С.К. Гуманизм Аль-Фараби. - АлмаАта, 1975 .- 305 с.
6. Мир ценностей Аль-Фараби и аксиология XXI века. Книга 1- 2. - Алматы, 2006. -266с.
7. Alikulov X.A. Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-ma'naviy merosi. -Toshkent: Noshir, 2012. - 110 b.
8. Көбесов А. Әл-Фарабидің әлемі: көмекші оқу құралы / А. Көбесов. – Алматы: Санат, 2002. – Б. 176.
9. Қабылова А. С. Әбу Наср әл-Фараби мұралы және музыка мәселесі / А. С. Қабылова // Машани А. Көп томдық шығармалар жинағы. 7 том. – Алматы, 2007. – Б. 66–71.

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Холмирзаев Нодиржон Низомжонович

Тошкент давлат техника университети Қўқон филиали
“Ижтимоий ва аниқ фанлар” кафедраси мудири,
Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Тел.(99)369-23-86 E-mail: nodirjon86.86@mail.ru

ШАҲАРЛАР ЭКОЛОГИЯСИНИ САҚЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Annotatsiya. Мақолада шаҳарлар экологиясида юзага келаётган муаммолар, хусусан, тоза ичимлик суви, оқава сувлар, ҳавонинг ифлосланиши, транспорт муаммоси, табиатни асраш бўйича фикр юритилади ва таклифлар ҳамда тавсиялар берилади.

Kalit so'zlar: Тоза ичимлик суви, оқава сувлар, транспорт муаммоси, ҳавонинг ифлосланиши, смог, тирбандликлар, урбанизация, урбоэкология.

Холмирзаев Нодиржон Низомжонович

Заведующий кафедрой «Общественных и точных наук»
Коканского филиала Ташкентского государственного
технического университета, доктор философских наук (PhD)

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ГОРОДСКОЙ ЭКОЛОГИИ

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы, возникающие в экологии городов, в частности, чистая питьевая вода, канализация, загрязнение воздуха, транспортные проблемы, охрана природы, даются предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Чистая питьевая вода, сточные воды, транспортная проблема, загрязнение воздуха, смог, пробки, урбанизация, урбоэкология.

Kholmiraev Nodirzhon Nizomzhonovich

Head of the Department of "Public and exact sciences"
of the Kokan branch Tashkent State technical university,
Doctor of Philosophy (PhD)

ACTUAL PROBLEMS OF URBAN ECOLOGY CONSERVATION

Abstract. The article deals with the problems that arise in the ecology of cities, in particular, clean drinking water, sewerage, air pollution, transport problems, nature protection, offers and recommendations..

Keywords: Clean drinking water, waste water, transport problem, air pollution, smog, traffic jams, urbanization, urban ecology



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N17>

Кириш

Урбанизация – жамият ҳаётида шаҳарларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий-маданий роли ошиб боришининг тарихий жараёни [3; 415] ҳисобланиб, у, бугунги замон ижтимоий-сиёсий жараёнларининг узвий қисмига айланиб улгурди. Ривожланган ва ривожланаётган давлатлар, шу билан бирга учинчи дунё ўлкаларида ҳам аҳоли шаҳарларга интиломоқда. Бугун ҳатто энг қолоқ давлатларда ҳам камида битта нисбатан яхши ривожланган марказ — пойтахт борки, миллионлаб одамлар, асосан ёшлар қулай яшаш шароити, доимий даромад, қолаверса, бахт ва омад қидириб у ерга талпинади. Бу жараён Ўзбекистонни ҳам четлаб ўтмаган. Ҳозирги вақтда фуқаролармизнинг кўпчилиги шаҳарга кўчиб ўтиш ва у ерда фаолият олиб бориш ҳақида кўп ўйламоқда.

Адабиётлар таҳлили ва методология

Шаҳарларда экологик ҳолатни яхшилаш, юзага келиши мумкин бўлган хавф-хатарларни олдиндан белгилаш, улардаги муаммолар хусусиятларини ўрганиш бўйича президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз асарида [1; 255] шунингдек, Д. Ёрматованинг Экология ва атроф муҳитни ҳимоя қилиш [2; 123] китобларида ва бошқа адабиётларда муаммолар ёритилади.

Мақолани ёритишда анализ, синтез, таққослаш каби методлардан фойдаланилди.

Муҳокама

Таъкидлаш жоиз сўнгги йилларда мамлакатимиз шаҳарларининг кенгайиши, аҳолининг қишлоқдан шаҳарга кўчиб ўтишининг ортиши урбанизация жараёнларининг тезлашишига олиб келди ва тилимизда янги тушунча “урбоэкология”нинг пайдо бўлишига сабаб бўлди. Мазкур тушунча латин тилидаги *urbs* – аҳоли пункти, *ekolog* – экология бўлиб, шаҳар экологияси демакдир. Урбоэкология нафақат шаҳарларнинг экологик жиҳатдан тарихий ривожланиш жараёни, балки инсониятнинг шаҳарлар табиатини асраш, яшил ҳудудларни кенгайтириш, шаҳар муҳитининг инсон соғлиғи ва фаолиятига таъсирини ҳам ўрганади.

Ҳозирги вақтда мамлакатимиз шаҳарларининг асосий муаммоларидан бири экология ва унинг салбий оқибатлар ҳисобланади. Хусусан тоза сув, чиқинди ташиб кетиш, эпидемиялар, транспорт зичлиги муаммоси, ҳавонинг хаддан ташқари ифлосланиши шаҳарларимиз олдида турган асосий муаммоларга айлангани рост.

Таъкидлаш жоиз ҳозирги вақтда шаҳарларда тоза ичимлик суви билан таъминлаш муаммога айланганини инкор этиб бўлмайди. Чунки ушбу соҳадаги хабарлар ижтимоий тармоқларда ёритилиб келинмоқда. Хўш бу муаммо қандай келиб чиқмоқда ва уни баратараф этса бўладими? Бунинг учун нималар қилиш керак?

Аввало муаммолар негизига тўхталиб ўтсак. Бугунги кунда кўп қаватли уйларнинг ертўлаларидаги кранлардан яширинча уланиб олиб томорқаларни суғориш ҳолатлари ҳам йўқ эмас. Бу эса ўз навбатида кейинги кўп қаватли уйга ёки ўша уйнинг юқори қаватига ичимлик сувининг етарли босимда бормаслигига сабаб бўлмоқда. Бундай ҳолда қўшнилари бир-бирини эмас сув етказиб бериш бўлимини ва унинг

технологиялари эскирганликда айбламоқда. Энди уни бартараф этиш бўйича таклиф киритамиз. Бунинг учун умумий қилиб айтганда аҳолининг экологик ва ичимлик сувидан унумли фойдаланиш маданиятини ошириш даркор. Яъни одамларда ичимлик суви ва оқава сувни фарқлаш ҳамда фойдаланишда меъёрларга амал қилишни ўргатишимиз керак.

Энди шаҳар ҳудудида тоза ичимлик сувининг таркибини аниқлаш масаласига тўхталсак. Ичимлик сувининг тоза эканлигини қандай йўллар билан аниқлаш мумкин?

Шаҳар ҳудудида сувнинг тозаллигини аниқлашнинг усули, бу унда майда тирик организмларнинг бўлишидир. Агар шундай тирик организмлар бўлмаса, демак, унинг таркиби жуда ҳам кимёлашган. Агарда сувда қизил, вертикал равишда сузадиган қувур қуртларини кўрсангиз, албатта эҳтиёт бўлиш зарур. Бу сувни нафақат ичиш, балки унда чўмилиш ҳам мумкин эмас. Чунки унинг таркибида азот кўп бўлиб, мазкур қуртлар айнан ушбу кимёвий модда билан озикланишади. Азот эса оқава сувларда кўп бўлади [6; 1].

Умуман олганда ҳозирги вақтда шаҳарларда тоза ичимлик суви муаммосини олдини олиш учун юқорида таъкидлаганимиздек фуқароларнинг сувдан фойдаланиши маданиятини оширишимиз, уларнинг тафаккурида исроф деган тушунчани тўғри сингдиришимиз керак бўлади. Бунинг учун қуйидаги тарғибот ишлари олиб боришимиз керак.

1. Сувдан унумли фойдаланимиз;
2. Ичимлик суви – ҳаёт манбаи;
3. Сувни исроф қилиш – ҳаётга беписанд қарашдир;
4. Сув - чекланган энг зарурий неъмат;

Экспертлар, транспорт муаммолари ҳам авж олаётганини таъкидлаб ўтди. Бир қарашда улкан ҳудуд ягона шаҳарга айланиши транспорт боғламаларини яхшилаши керакдек. Аслида эса мунтазам тирбандликлар, жамоат транспорти воситалари етишмовчилиги йирик шаҳарлар ичида ҳаракатланишни қийинлаштирмоқда. Айниқса мамлакатимизнинг йирик шаҳарларидаги тирбандликлар, жамоат транспортининг кечикиб келиши ҳолатлари баъзи ноқулайликларни келтириб чиқараётганлиги сир эмас. Тошкент шаҳрида охириги йилларда транспорт ҳаракатини яхшилаш учун бир неча катта кўприклар ва айланма йўллар қурилмоқда. Лекин бу ишларнинг боришига қарамасдан шаҳар кўчаларида тирбандлик пайдо бўлди, бунга сабаб ҳар куни шаҳар кўчаларига янгидан камида 100 дона машина қўшилмоқда, ҳисобласак, ўн кунда бу машиналар сони 1000 донага етади. Ушбу машиналардан атмосферага ташланадиган захарли газлар миқдори Тошкент шаҳрида “Смог” ҳосил бўлишига олиб келди [4; 1].

Умуман олганда транспортлар ҳаётимизни баъзи жабхаларда осонлаштиришга хизмат қилаётган бўлса баъзан унинг турли ижтимоий муаммолари сонини орттирмоқда. Улардан чиқаётган тутунлар эса ҳавонинг ифлосланишига замин яратмоқда. Шу билан бирга транспорт воситаларидан чиқаётган тутунлар шаҳар ҳавосининг маълум даражада исишига сабаб бўлаётганини ҳам инкор этиб бўлмайди. Бу ҳолатда улар йирик заводлар томонидан ҳавога чиқарилаётган турли газларнинг ишларининг давом эттираётгани хизматчилари кабидир. Савол пайдо бўлади. Транспортлардан чиқарилаётган ис газларини олдини олиш шаҳар экологиясини асраб қолиш учун нималар қилиш даркор.

Биринчидан, транспортлардан чиқаётган тутунлар учун фильтр ўрнатиш мақсадга мувофиқ.

Иккинчидан, электромобиллардан фойдаланишга ўтиш яхши самара беради.

Учинчидан, шаҳарларда ҳафтада бир кун “автомобилларсиз кун” тадбирини ўтказишни анъанага айлантириш керак.

Тўртинчидан, фуқароларни велосипеддан фойдаланишга тарғиб қилиш ва бунинг учун велосипед йўлчалари қуриш зарур бўлади. Бу соғлиқ ва экология учун фойдалидир.

Албатта автомобиль йўли четларига махсус велосипед учун йўлаклар ажратиш оз бўлсада шаҳар ҳавосининг тозалигига аҳоли томонидан қўшилган ҳисса бўларди. Чунки велосипедни пиёдалар йўлагиди ҳайдаш пиёдаларга ҳалақит берса, автомобиль йўлида ҳайдаш ҳаёт учун хавфлидир.

Тошкент шаҳри аҳолиси 2022 йилнинг 17 октябрида чанг туфайли нафас ололмай қолган, мутасаддилар ушбу жараёнда ҳеч қандай чора қўллай олмагани эслаш кифоя фикримизча. Бу борада “Ўзгидромет” берган маълумот юқоридаги фикрларни асослайди.

Мазкур чанг-тўзон муносабати билан “Ўзгидромет” Тошкент шаҳри аҳолиси ва меҳмонларига қуйидагиларга амал қилишни тавсия этганлиги эътиборга лойиқ:

1. Имкони борича, уйдан чиқмасликка ҳаракат қилиш керак.

2. Кўчада бўлганда, албатта тиббий ниқоб тақиш ва уни ҳар бир соатда алмаштириш лозим.

3. Нафас қайтиши, бурун битиши, акса уриш, тумов, кўзлар қизариши ва қичишиши, томоқда қаттиқ қичишиш, йўтал пайдо бўлганда зудлик билан аллерголог шифокорга мурожаат қилиш лозим.

4. Тузли эритмада бурун ва томоқни чайиш, ойналарни ёпиқ ҳолатда сақлаш, ойналар олдида ҳўл сочиқларни ёйиб қўйиш тавсия этилади [5; 3].

Тошкентдаги бу каби ҳолатлар 4-ноябрь куни ҳам такрорлангани матбуот саҳифалари ҳамда ижтимоий тармоқларда акс этган. Шунга ўхшаш жараёнлар республиканинг бошқа ҳудудларида ҳам кузатилганини айтиш мумкин. Мутахассисларнинг фикрига кўра 4 ноябрь куни кечқурун Тошкентда кузатилган ғайриоддий чанг-қумли туманга шамолнинг кучайиши натижасида тупроқнинг жуда қуриб қолган устки қатлами кўтарилиши сабаб бўлди [7; 2]. Бундан шу нарса англашиладики экологияга зарар етказиш бу билан тугамайди, балки, бошқа шаклдаги муаммоларни очиб беради. Таққослаш учун ижтимоий тармоқда чангланиш бўйича ҳолат эълон қилиниб Тошкент биринчи ўринда эканлиги кўрсатилаган.

Натижалар

Бизга маълум бўлишича шаҳарда ҳаво тозалиги ўсимликлар ярусига боғлиқ. Майсалар ердан кўтарилаётган чангни, буталар машиналарнинг ис газларини, дарахтлар юқори қисмдаги чанглар ва газларни тутиб қолади. Дарахтлардан албатта юзаси кенг бўлган турлари, яъни чинор, қайрағоч, каштан, эман ва бошқалар ҳам чанг ҳам ис газларини тутиб қолиш қобилияти юқори бўлганлиги сабабли уларни кўпайтириш яхши натижа беради. Шунинг учун ҳам қадимдан ота-боболаримиз чинор экишган.

Чинор нафақат соя берибгина қолмай, ҳавони чангдан тозалаган, унинг илдизлари танасига кўп сув йиғиши сабабли жазирама иссиқда атрофида ўзига хос ижобий микроиқлим ҳосил қилган. Бундан ташқари чинорлар Марказий Осиёнинг барча республикалари иқлимига хос бўлган жазирама иссиқдан ҳам асрайди. Соясида ўзига хос микроиқлимни юзага келтиради. Инсоннинг кайфиятини кўтаради. Игнабаргли дарахтлар бу вазифани тўлиқ уддалай олмайди. Албатта, дарахтлар кўпроқ чангни ютишлари учун ёмғир кам бўлганлиги сабабли уларнинг япроқларини вақти вақти билан ювиб туриш зарур.

Ҳозирги вақтда шаҳарларимиз ва мамлакатимизнинг деярли барча аҳоли манзилларида нафақат ободонлаштириш ходимлари, балки ҳовлиларда ҳам ер бағирлаб ўсган майсаларни томири билан юлиб олиб, тупроқни супириб, сув сепишади. Аммо Ўзбекистонда кун иссиқ бўлганлиги сабабли, ер тезда қуриб чанг кўтарилади. Майсалар эса ана шу чангни ушлаб қолишади. Шу сабабли аҳоли пунктларида айнан майсазорларни кўпайтириш мақсадга мувофиқдир. Сўнгги йилларда шаҳарларимизда йўл ва кўп қаватли уйлар атрофига экилган “тирик тўсиқ”лар, яъни буталарни кесиб ташлаш ҳолати кузатилмоқда. Бу ўз навбатида болаларда нафас йўллари касалликларни, аллергияни олиб келиши эҳтимолини оширмоқда. Чунки буталар бўйи узун бўлмаган болаларни биринчи галда чанг ва ис газларидан ҳимоя қилади.

Ҳаводаги зарарли моддаларни тутиб қолувчи йирик япроқли дарахтлар, яъни чинор ва қайрағочлар кесилиб, ўрнига игна баргли манзарали дарахтларнинг экилиши эса шаҳар ҳавосини қадимдан ўстирилган чинорларнинг ўрнини боса олмайди [6; 2].

Шаҳарларимизда қанча боғлар, майсазор ва бутазорлар кўп бўлса, шунча инсоннинг яшилликдан кўзи қувнайди, уларнинг сояси жазирама иссиқдан, буталар шамолда кўтариладиган чангдан асровчи восита бўлиб хизмат қилибгина қолмай, қушларнинг асосий озуқаси ҳисобланган ҳашаротларнинг кўпайиш макони ҳамдир.

Айтиш жоиз бугунги кунда шаҳарларимизда яшил майдонларнинг янгиланиши ва кўпайтириш жараёни кетмоқда. Кўп дарахтлар айнан шаҳарнинг сув, канализация, иссиқлик қувурлари ўтган жойларда экилгани сабабли, уларни таъмирлаш учун дарахтларни олиб ташлашга тўғри келмоқда. Шаҳар қурилишининг бош режаси мавжуд бўлиб, бугунги кунда айнан ана шундай инфратузилмалар устига кўп йиллик дарахтларни экмаслик зарур. Айтиш жоизки, бугунги кунда пойтахтимиз Тошкентда ҳар бир кишига 49 метр квадрат яшил майдон тўғри келади. Бу инсон саломатлигини асраш учун зарурдир.

Игна баргли дарахтларнинг чангни ушлаб қолиш қобилияти кўпроқ бўлиб, улар ўзига хос микроиқлимни ҳам юзага келтиради. Шу сабабли игнабарглилар, бундан ташқари каштан сингари бошқа манзарали дарахтларни шаҳарда экиш мақсадга мувофиқдир. “Тирик тўсиқларга” келадиган бўлсак уларнинг ўрнига эстетик жиҳатдан чиройли бўлган, шаҳарни шовқин ва чангдан асровчи буталарни экиш жараёни кетмоқда.

Хулоса

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки шаҳарлар экологиясини асраш ва ривожлантириш нафақат мутасадди ташкилотлар, балки ҳар бир фуқаронинг зиммасидадир. Унинг асосини дарахт ва буталар ташкил этишини инобатга олсак, дарахтларнинг қайси турлари кўпроқ шаҳарга мос келишини аниқлаш биологлар

зиммасидадир. Фуқароларимиз тафаккур тарзини ўзгартиришимиз, юзага келаётган муаммоларга нисбатан дахлдорлик хиссини туйдиришимиз, уларнинг ҳаётида шаҳар ва унинг имкониятлари чексиз эмаслигини тушунтиришимиз, худо берган неъматлардан унумли фойдаланишга ўргатишимиз керак бўлади. Зеро тафаккурнинг ўзгариши барча муаммоларга реал кўз билан қараш ва уларнинг олдини олишда муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.–Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Ёрматова Д.Ё. Экология ва атроф муҳитни ҳимоя қилиш. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2018. 109-123. Б.
3. Фалсафа қомусий луғат. – Т.ошкент: Шарқ, 2004. – 491 б.
4. <https://ecoportal.info/atmosferное-zagryaznenie-zemli/1>
5. <https://kun.uz/news/2022/10/17/toshkentda-chang-tozoni-kutilmoqda>
6. <https://nargis.uz/?p=200>
7. <https://oyina.uz/kiril/posts/1194>

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Қиличев Абдор,
Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD),
Республика Маънавият ва маърифат маркази масъул ходими

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИДА БОШҚАРУВ ИНСТИТУТЛАРИ

Аннотация: Мазкур мақолада буюк Соҳибқирон Амир Темурнинг давлатчилик сиёсати ва унинг бугунги кундаги аҳамияти хусусида сўз боради. Шунингдек, Турон ҳукмдорининг давлат қурилиши, қўшинни барпо этиш каби масалалар юзасидан қолдирган меросидан бугунги кунда фойдаланиш зарурати кўрсатиб берилган. Зеро, миллий давлатчиликни тараққий эттириш, мамлакат фаровонлигини ошириш, ўсиб келаётган ёш авлод учун ҳеч кимдан кам бўлмаган ҳаёт барпо этиш, ёшларни жисмонан, ақдан ва маънан юксалтириш борасидаги барча ислохотлар Амир Темур юритган давлатчилик сиёсатига моҳиятан уйғунлиги сиёсий жиҳатидан очиқ берилган.

Калит сўзлар: Турон, давлат, ҳукмдор, давлатчилик сиёсати, бошқарув, иймон, садоқат, ҳарбий машина, қўшин, юксаклик

Қиличев Абдор,
Доктор философии политических наук (PhD)
Ответственный сотрудник Республиканского
центра Духовности и просвещения

УПРАВЛЕНИЕ ИНСТИТУТОВ В ГОСУДАРСТВЕ АМИРА ТЕМУРА

Аннотация. В данной статье рассматривается государственная политика великого Сахибкирана Амира Темура и ее значение на сегодняшний день. Также необходимо сегодня использовать наследие правителя Турана в таких вопросах, как государственное строительство и строительство армии. Ведь все реформы, направленные на развитие национальной государственности, повышение благосостояния страны, построение жизни не менее подрастающего поколения, воспитание молодежи физически, умственно и духовно, политически соответствуют государственной политике, проводимой Амиром Темуром.

Ключевые слова: Туран, государство, правитель, государственная политика, управление, вера, лояльность, военная машина, армия, высота.

Qilichev Abror,
Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)
Employee in charge of the Republican
Center for Spirituality and Enlightenment

ADMINISTRATIVE INSTITUTIONS IN AMIR TEMUR'S STATE

Abstract. This article discusses the state policy of the great Sahibkiran Amir Temur and its significance today. It is also necessary to use today the legacy of the ruler of Turan on issues such as state building and army building. After all, all the reforms aimed at developing the national statehood, increasing the welfare of the country, building a life no less for the younger generation, raising the youth physically, mentally and spiritually are politically consistent with the state policy pursued by Amir Temur.

Key words: Turan, state, ruler, state policy, governance, faith, loyalty, military machine, army, height.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N18>

Дунё тарихида жаҳонгирлар, улкан империя қурган ҳукмдорлар кўп ўтган, лекин, она юрт омонлиги, халқ манфаати йўлида фидоийлик кўрсатганлари кўп эмас... Шунинг учун киндик қони тўкилган муқаддас тупроқ озодлиги учун жонини тиккан зотларни авлодлар ҳеч қачон унутмайди. Ватан вужудини душмандан тозаллаган, уни ювиб-тараб кўкларга олиб чиққан, номини бутун дунёга тараннум этган ва халқпарвар раҳбар – улуғ зот Амир Темурдир. Зотан, юрт шаъни ва шавкати хусусида сўз юритилганда, тасаввуримизда буюк бобомизнинг улуғвор сиймоси гавдаланаверади.

Биз ушбу тадқиқотимизда Амир Темурнинг давлат бошқарувини қайси тамойилларга асосланиб амалга оширганини сиёсий-фалсафий жиҳатдан таҳлил этишга ҳаракат қиламиз.

Хўш, Амир Темурнинг давлат бошқаруви қайси тамойилларга асосланган эди?

Биз яхши биламизки, сиёсат назариясига кўра, бошқарув давлат махсус органининг функцияси сифатида у энг кам вақт, куч ва заҳиралар эвазига энг юқори натижага эришиш бўйича аниқ ташкил этилган фаолиятдир. Амир Темур қурган давлатнинг бошқарув органларининг вазифаси ҳам худди шундай асосга қурилган эди.

Амир Темур давлатида бошқарув институтлари уч гуруҳга бўлинади. Биринчи гуруҳга Бош вазир – девонгбеги, вазирлар, амирул-умаро – бош амир-қўшин бошлиғи, амирлар ва амирзодалар, лашкарбошилар, улус бошлиқлари, баҳодирлар, хабаргирлар (хавфсизлик хизмати - разведка, контрразведка), қаъла кутволи – шаҳар комендантлари кабилар киради. Уларнинг асосий вазифалари ва ишлаш жараёни **1-расм** ва **2-расм**да ифодаланган. Иккинчи гуруҳ – садри аъзам – диний ишлар, хусусан, вақф мулклари ҳамда масжид ва мадрасаларнинг молиявий таъминотида масъул амалдорлар, қозилар – суд-ҳуқуқ ва адлия тизимида масъул амалдорлар, шайхлар, уламо-дин арбобларидан иборат. Уларнинг фаолияти **3-расм**да ифодаланган.

Учинчи гуруҳга тарихчилар, муҳаддислар, қиссахонлар, мударрислар, меъморлар, ҳакимлар, мунажжимлар, муҳандислар, ҳунарманд-қосиблар уюшмалари оқсоқоллари, деҳқон ва чорвадорлар оқсоқоллари киради. (**4-расм**)

Биз яхши биламизки, Амир Темур давлатчилик ишларини амалга ошириш учун жамиятдаги барча табақа ва тоифаларни қамраб олишга ҳаракат қилган. “Тузуқлар”да Соҳибқирон шундай дейди: «Давлат ишларини салтанат қонун қоидаларига... тўра-тузуқка таяниб... амирлар, вазирлар, сипоҳ, райият — ҳар бирини ўз лавозимига ва мартабасига» қараб бошқардим. Демак, Турон ҳукмдорининг давлат бошқаруви тўра-тузуқлар, яъни ўз даври қонунчилиги асосида бошқарилган. «Ишларимнинг барисида аввал кенгаш-маслаҳат қўлладим, ишни бажаришга киришар эканман, олдиндан чоратадбирлар белгилаб қўярдим, ҳамда бу иш қандай яқунланиши ҳақида фикр-мулоҳаза қилган ҳолда иш бошлардим; сўнгра, кези келганда, тўғри тадбир ва қатъий жазм, ёхуд мулоҳазакорлик ва эҳтиёткорлик, ёки узоқни кўриб ортини ўйлаган ҳолда уни кўнгилдагидек ниҳоясига етказардим. Яна тажрибамдан ўтказдимки, сўзларида иттифоқлик бўлган, қилмоқчи бўлган ишларини бирор важҳ кўрсатиб бажармасдан қолдирмайдиган кишиларгина кенгаш аҳли бўла оладилар»[4]. Ушбу сўзлар Амир Темур

даври давлат бошқаруви институтлари тушунчаларининг сиёсий-фалсафий моҳиятини англатади.

Бошқарув институтлари деганда давлат ҳокимияти тизимида мавжуд бўлган ва амал қиладиган сиёсий ҳокимиятнинг тармоқлари ва уларнинг барқарор «ишлаши»га таъсир ўтказувчи ижтимоий-сиёсий ва жамоатчилик ташкилотлари уюшмалари ва бирлашмаларини тушуниш мумкин. Мазкур таърифга мувофиқ Амир Темур давлат бошқаруви ишлаш механизмлари қуйидагича бўлган: **(қаранг.: 1-расм)**



1-расм: Амир Темур давлат бошқаруви ишлаш механизмлари

Келтирилаётган чизмага кўра, Амир Темур давлатида бошқарув институтлари уч гуруҳга бўлинади. Биринчи гуруҳга Бош вазир – девонбеги, вазирлар, амирул-умаро – бош амир – қўшин бошлиғи, амирлар ва амирзодалар, лашкарбошилар, улус бошлиқлари, баҳодирлар, хабаргирлар (хавфсизлик хизмати - разведка, контрразведка), қаъла кутволи – шаҳар коменданнти кабилар киради. Уларнинг асосий вазибалари ва ишлаш жараёни **2-расмда** ифодаланган.

Мамлакат маъмурий жиҳатдан улус, вилоят ва туманларга бўлинган. Уларни ҳоким, ноиб ва туманбошилар бошқарган. Амалдорларнинг аксарияти ҳарбий мансабдорлар – амирлар бўлган. Бош вазир - девонбеги марказий ҳокимиятни етти вазир – аркони давлат асосида бошқарган. Улус бошлиқлигига – амирзода ёки давлатга хизмати сингган саркарда ва давлат маъмурлари тайинланган. Фатҳ этилган ҳудудлар ўғиллар ва набиралар – амирзодаларга суюрғол тарзида берилган бўлиб, бошқарув улар орқали амалга оширилган.

Лашкарбошилар – кўшин бошлиқлари. Амир Темур кўшини ўнталик аскарый бирикмалардан тузилган бўлиб, туман - ўн минг ва ўн икки мингталиккача бўлган. Ҳар бир ўн минг ва ўн мингталик аскарга – туманбошилар бошчилик қилган. Мазкур лашкарбошилар асосан даражали амирлар тоифасидан бўлган.


Хабаргир – хавфсизлик хизмати, ички разведка, ҳарбий разведка, ташқи разведка ва контрразведкани қамраб олган. Хизмат раҳбарлари шахсан ҳукмдорга бўйсунган.

Ички разведка империя ҳудудидаги мамлакатлар, улуслар ва вилоятлардаги мавжуд ижтимоий-сиёсий аҳвол хусусида ҳукмдорни огоҳ этиб турган, ҳатто, жойлардаги раҳбарлар фаолияти ҳам мазкур хизмат томонидан назорат қилинган ва уларнинг “ишлари” тўғрисида давлат бошқарув институтининг марказий аппаратига ҳукмдор девонига (канцелярия)га маълумот бериб турилган. Ушбу хизмат ходимларининг шахси сир сақланган бўлиб, уларнинг кимлигини вилоят ёки улус бошлиқлари билмаган. Натижада, жойлардаги раҳбарлар Соҳибқирон таъбири билан айтганда, “ярим умид, ярим шубҳа” остида бўлишган ва бу уларни турли “кутириш”лардан тийиб турган.


Ҳарбий разведка – ҳарбий сафарбарлик, уруш пайтида душман армиясининг сони, жойлашуви, салоҳияти ва ожиз томонлари сингари ахборотларни тўплаш ва бош қароргоҳга етказиш билан шуғулланган. Зарур бўлса, душманни заифлаштириш учун керакли тактикаларни ишлаб чиққан ва қўллаган. Мисол учун, Тўхтамишхон билан бўлган аёвсиз жангда Амир Темурнинг ҳарбий разведкаси мўғул хонининг байроқдорини “оғдириб” олган. Яъни, жанг энг кульманицион нуқтасига етган пайтида мўғул байроқдори туғни ерга туширган. Натижада, ўз байроқларини кўрмай қолган мўғул кўшинида парокандалик бошланган. Бу ҳақда Низомиддин Шомий, Шарафиддин Али Яздий, Ибн Арабшоҳ сингари тарихчилар ўз асарларида ёзиб қолдиришган.

Ташқи разведка – империяга ёндош давлатларнинг ҳарбий-сиёсий ва иқтисодиёти ҳақидаги маълумотларни марказга етказган. Ибн Арабшоҳнинг таъкидлашича, Амир Темур давлат устунларидан бири бўлган хавфсизлик хизматига жуда катта эътибор қаратган. “У ерларнинг барча томонларида ўз айғоқчиларини тарқатиб, қолган мулкларида эса жосуслар қўйган эди. Улар (жосуслар) жумласидан, унинг амалдорларидан бири амир Отламиш бўлса, яна бири фақир фақиҳ Масъуд ал-Кухжоний – у Темур девони асҳобларининг кўзи эди. (Жосусларнинг) буниси Қоҳирада, Муизияда бўлса, униси Дамашқда, Шамийсоиядаги суфийлардан бири эди”[5]. Демак, аён бўладики, Амир Темур давлатининг қудратли империя даражасига кўтарилишида хавфсизлик хизматларининг ҳиссаси салмоқли бўлган.

2-расм: Амир Темур давлатида бошқарув институтлари вазифалари




Иккинчи гуруҳ садри аъзам – диний ишлар, хусусан, вақф мулклари ҳамда масжид ва мадрасаларнинг молиявий таъминотига масъул амалдорлар, қозилар – суд-ҳуқуқ ва адлия тизимига масъул амалдорлар, шайхлар, уламо-дин арбобларидан иборат. Уларнинг фаолияти **3-расмда** ифодаланган.



3-расм. Диний маҳкама ва суд тизими

Учинчи гуруҳга тарихчилар, муҳаддислар, қиссахонлар, мударрислар, меъморлар, ҳақимлар, мунажжимлар, муҳандислар, хунарманд-косиблар уюшмалари оқсоқоллари, деҳқон ва чорвадорлар оқсоқоллари киреди. (4-расм)



4-расм: Давлат хизматчилари вазифалари

«Ишларимнинг барисида аввал кенгаш-маслаҳат қўлладим»[6]. Ушбу сўзлар Амир Темур даври давлат бошқаруви институтлари тушунчаларининг сиёсий-фалсафий моҳиятини англатади. Курултой, кенгашлар ижтимоий-сиёсий институт сифатида қандай ишларни амалга оширган, маҳкамаларнинг вазифалари нималардан иборат бўлган?

Авалло, давлат бошқаруви қурултой, кенгаш сингари ижтимоий-сиёсий жамоатчилик институтлари орқали амалга оширилган. Тўғри, қурултой, кенгаш каби олий мақом йиғинлар ўз даврида қадим Туронда амал қилиб келган. Курултой Турк ҳоқонликларида ҳам давлат бошқарувида қўл келган, кейинроқ чингизийлар империясида муттасил ўтказилган ва давлат аҳамиятига молик ишлар қўрилган, бироқ уларда Амир Темур давлат бошқарувида бўлгани каби **ошкоралик руҳи** бўлмаган, яъни, жамият барча табақасининг давлат ҳаётида кечаётган жараёнлардан хабардорлиги ва талаб-истаклари инобатга олинмаган. Амир Темур жамиятдаги ҳукмрон синф вакиллари: амирлар, лашкарбошилар ёки дин арбоблари билан бирга, оддий халқ билан ҳам яқин бўлишга, уларнинг кундалик муаммоларини ҳал қилишга эътибор қаратган. Бу ҳақда «Тузуклар»да бот-бот уқтириб ўтилган. Чингизийлар қурултойларида фақат ҳукмрон синф вакиллари иштирок этган бўлиб, уларда асосан феодал табақанинг манфаатлари хусусида гап борган. Шунинг учун қурултой ва кенгашларда амирлар, вазирлар билан бирга, оддий халқ вакиллари, баҳодирлар (жангда жасорат кўрсатган шахслар), дин арбоблари иштирок этган[7].

Таҳлилга кўра, мазкур йиғинлар том маънода **ижтимоий-сиёсий ва жамоатчилик институтлари мақомини олган**. Чунки, бу ерда кўриладиган ҳар қандай масала нафақат давлат манфаатларини, балки жамиятдаги турли тоифаларнинг талаб-истакларини ҳам ҳисобга олган. **Биринчидан**, ҳукмдор давлат қурилишида жамиятдаги **ижтимоий қатламларни ўн икки тоифага** бўлади ва ҳар бир тоифанинг манфаатларини аниқ ҳисобга олади. **Иккинчидан**, давлатчилик сиёсатида ушбу ижтимоий-сиёсий тоифалар асосий ролни ўйнайди. **Учинчидан**, давлат ҳокимиятини мустаҳкамлашда қурултой, кенгаш ижтимоий-сиёсий жамоатчилик институтлари – **объект** вазифасини ўтайди, жамиятдаги ўн икки тоифа эса ижрочи – **субъект** вазифасини бажаради.

Қурултой, кенгаш сингари ижтимоий-сиёсий институтлар тарихий давлатчилик қадриятларига таянган ҳолда ҳар томонлама пишиқ ва пухта тўра-тузуклар асосида барпо этилган[8]. Амир Темур ўзининг давлат қуриш ва унинг пойдеворини мустаҳкамлаш борасида амалга оширган ишларини «Тузуклар»ида қайд этиб борар экан, пири Мир Саййид Бараканинг мактубини мисол тариқасида келтириб ўтади[9]. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, Амир Темур қонун-қоидалар асосида давлатни қураётган экан, пир-устозларининг ўғитларидан унумли фойдалангани кўйидагиларда акс этади. **Биринчидан**, жамият ҳаётида диннинг устувор ролидан Амир Темур кучли сиёсатчи сифатида ўта оқилона фойдаланган. **Иккинчидан**, давлат бошқаруви институтларининг асосий моҳияти ҳам, аввало, дин негизига қурилса-да, унинг фаолияти салтанатда амал қилаётган халқнинг қадриятлари билан уйғун ҳолда олиб борилади.

Қадим Турон халқлари ҳаётида «**адолат**» тушунчаси шаклланиши ва ижтимоий тафаккурининг узвий бир қисмига айланиши, аввало, азалдан шаклланиб келган ғоя, қарашлар ҳамда ислом динининг халқ дунёқарошига ўтказган таъсири билан белгиланади. Маълумки, халқимизнинг милоддан олдинги ҳаётини ўзида акс эттирган «Авесто» ҳам миллий ғояларни асраб-авайлаш, халқни жипслаштириш, уни маънавий юксакликка даъват этиш, одамлар ўртасида меҳр-оқибат ришталарини мустаҳкамлаш, адолатни қарор топтириш ва халқ анъаналарини сақлаб қолишда муҳим ўрин тутди. Тарихга ва халқ ҳаётига ўта қизиқиш билдирган Амир Темур бу бебаҳо китобдан ҳам маънавий-руҳий куч олгани аниқ. Бу унинг давлатни тузиш, идора этиш ва халқ билан яқин алоқада бўлишга интилишларида ўз ифодасини топади.

Шунинг учун ҳам, **биринчидан**, Амир Темур одамни бой ёки камбағал эканига қараб баҳоламаган, оддий халқ вакили бўлса ҳам асли тоза, ақл-фаросатли, баҳодир, довюрак, тадбирли, сергак, эҳтиёткор, мард инсонларни ҳурмат қилган. **Иккинчидан**, айнан шу фалсафа Амир Темурни Буюк Турон султони даражасига кўтарган, юксак мартабаларга олиб чиққан. **Учинчидан**, халқдан куч олиш, халқ ичига кириб бориш, халқ билан бирга бўлиш фалсафаси қадим Турон элида юксак қадрланганини, бунинг сиёсий аҳамияти бениҳоя юксак бўлишини қадим давлатлар тарихининг билимдони бўлган Амир Темур теран англаган. Амир Темур нечоғлиқ қудратли зот бўлмасин, у инсонпарварлик ғояларига содиқ бўлиб, қўл остидаги амирлар, вазирлар, энг муҳими, оддий халқ билан ўта инсоний муносабатда бўлишга ҳаракат қилган.

«Тузуклар»да ёзилишича, **салтанат ишларининг тўққиз улуши кенгаш билан, қолган бир улуши эса, куч ёрдамида амалга оширилган**. Бу ўринда кенгаш деганда, адолатга эришишнинг энг муҳим самарали омили бўлган, салтанатда бошқарув институтларидан бирига айланган ижтимоий-сиёсий тушунча ҳақида гап бормоқда. Бу тушунча ўз навбатида давлат бошқарув институтлари бўлган қурултой, кенгаш каби сиёсий тадбирларнинг давлат ва жамият ҳаётида тутган мавқеи, таъсири нечоғлиқ аҳамиятга эга эканини белгилаб беради.

Амир Темур давлатчилик сиёсатини юритишда давлатнинг бош йўналишини «**Куч – адолатда**» ғояси билан белгилашида чуқур маъно ва мазмун бор эди ва буларни биз қуйидагиларда кўришимиз мумкин: **Биринчидан**, «Куч – адолатда» ғоясининг Амир Темур наздидаги моҳияти шундаки, давлат адолат билан бошқарилиши керак, агар адолатга путур етса, бундай давлатнинг умри қисқа бўлади; **Иккинчидан**, Амир Темур давлатчилигининг асосини «**Куч – адолатда**» ғояси ташкил этади ва ушбу ғоя давлат бошқарувида мафкура вазифасини ўтайди. **Учинчидан**, бу ғоя давлат бошқарувининг барча тизимларига кириб борган ва давлатдаги ҳар бир тизим адолат тамойилларига суянган. Ибн Арабшоҳнинг маълумотига кўра, қўшиндаги тартиб-интизомнинг асосини[10] адолат тамойили ташкил этиши, армияда рағбат масаласининг одилона жорий қилингани билан белгиланади.

Сиёсат назариясига кўра, давлатчиликнинг темир қонунларидан бири – бу адолат тарозусини мувозанатда ушлаб туришдир. Бу барча давлат бошқаруви институтларининг «**Куч – адолатда**» ғоясига таяниб иш юритганида яққол кўзга ташланади. Шунинг учун ҳам мазкур ғоя Турон давлатида ахлоқий ва маънавий мезонга айланди. Бу ерда шуни таъкидлаш керакки, Амир Темурнинг ушбу ғояси моҳиятига кўра бугунги кунда ҳам ўта долзарбдир. Бугунги кунда дунёда кечаётган гибрид урушлар ва

буларнинг асосий сабаби қилиб кўрсатилаётган ижтимоий портлашларнинг негизида ҳам аслида адолатсизлик ётади. Чунки, инсон ҳар қандай камситиш ва хўрликларга дош бериши мумкин, лекин, адолатсизлик одамлар қалбини парчалаб ташлайди, натижада улар ҳар қандай “қафас”ни синдириб ташлашга интиладилар.

Сиёсий тизим – жамиятнинг сиёсий тизими ёки жамиятнинг сиёсий тузилмаси – ягона норматив-ҳуқуқий асосда ташкил этилган ҳокимиятни амалга ошириш ва жамият устидан назорат қилиш билан боғлиқ сиёсий субъектларнинг ўзаро муносабатлари мажмуидир. «Сиёсий тизим бу - сиёсий функцияларни, яъни давлат ҳокимияти фаолияти билан боғлиқ бўлган фаолиятни амалга оширадиган давлат ва нодавлат институтларнинг мажмуасидир»[11], деган таърифни беради Г.В.Атаманчук. Таъкидлаш керакки, сиёсий тизим давлат бошқарувини амалга оширишда қатъиятга асосланиши билан эътиборлир. Бу ҳолат Амир Темурнинг давлатчилик сиёсатида ёрқин кўзга ташланади.

«Сиёсий тизим» тушунчаси сиёсий фаолиятнинг муайян жамият тузилмаси ва сиёсий жараёнларнинг турларини ҳамда ўзига хос хусусиятларини англатади[12]. Демак, қурултойнинг оммалашуви сиёсий жараённинг кучайишига ва жамиятнинг давлат билан яхлитлашувига хизмат қилган. Айни пайтда бу тушунчага қуйидаги таърифлар ҳам берилган «Сиёсий тизим жамиятнинг мақсад ва вазифаларини аниқлаш, жамият тизимидаги элементларни бирлаштириш ва мавжуд имкониятларни амалга оширишга сафарбар қилувчи механизмдир»[13]. Келтирилган таърифларга қўшилган ҳолда, фикримизча, сиёсий тизим жамиятда мавжуд бўлган давлат ва жамиятнинг барча жиҳатларини эмас, балки, сиёсий ҳокимият тармоқларини ташкил этувчи қисмларни ўз ичига олади.

Амир Темур давлатида бошқарув институтларининг катта тизими фаолият олиб борган. Мазкур тизимларнинг ўзаро муносабатлари давлат сиёсатини амалга ошириш – давлат ишларида иштирок, бошқарув давлат фаолияти вазифалари ва мазмунини белгилашда ўзининг амалий ифодасини топган. Амир Темурнинг қурултой, кенгаш сингари ижтимоий-сиёсий бошқарув институтлари жамиятдаги барча ижтимоий кучларнинг билими, тажрибаси, салоҳиятидан унумли фойдаланган. Амир Темурнинг ҳукмдорлик қоидаларидан яна бири бу - давлат бошқарувида ору номус ва иймон ўртага қўйилади. Яъни, давлатчилик ишлари ўта ҳалоллик билан юритилмоғи шарт, зеро, адолатсизлик юз бермасин ва бундан авом халқ озор чекмасин, деган мазмунда. Шунингдек, давлатнинг ҳар бир амалдори ватанпарвар, иймонли, зоти тоза шахслардан иборат бўлмоғи шартки, улуғ ишларни иймонли зотларгина уддалайди. Демак, законлар, маконлар ўзгарса-да, Ватанга муҳаббат, имонга садоқат моҳияти асло ўзгармайди.

Сиёсат назариясига кўра, ҳар қандай давлатнинг бунёд бўлишида биринчи шахснинг сиёсий иродаси жуда катта роль ўйнайди. Айнан мана шу ироданинг “куч”и туфайли давлат пойдеворига илк ғишт қўйилади. Ушбу “ғишт”нинг мустаҳкамлиги давлатнинг умрини белгилаб беради. Тарихдан яхши маълумки, Амир Темур қўйган “ғишт”нинг залвори Темурийлар идора қилган давлатлар учун метин пойдевор бўлиб хизмат қилди. Зеро, тарихда миллий давлатчилигимизнинг энг тараққий топган даврлари айнан Амир Темур ва Темурийларнинг ҳукмронлигига оид давлатларга хосдир.

Давлат ишларининг барини кенгаш билан юритиш, уни битиришда тўғри тадбир қўллаш, бир ишга киришмай туриб, ундан чиқиш йўлларини ўйлаб қўйиш, тўғри тадбир, қатъий жазм, сабр-чидам кўрсатиб, эҳтиёткорлик билан узоғини ўйлаб, ортини эсдан чиқармаган ҳолда охирига етказиш[14] ҳар томонлама кучли ва стратег ҳукмдорга хос бўлган ишдир. Демак, Амир Темурнинг давлатчиликни барпо этиш ва уни тараққий эттириш йўлида амалга оширган ҳар бир иши ва бу борада айтган ҳар бир сўзи бугун биз учун дастуриамал бўлмоғи шарт. Зотан, пароканда ва мажруҳ бўлиб ётган мамлакатни буюк давлатга айлантириш, юҳо каби ютонғич шафқатсиз душманларнинг қашқир тишларини синдириш осон “юмуш” эмас.

Бу ерда шуни таъкидлаш лозимки, сиёсат фалсафасига биноан, бошқарув маҳорати билим ва тажриба асосига қурилади. Амир Темур ҳам давлат сиёсатини юритишда билим ва тажрибага[15] таянганини таъкидлар экан, кенгаш аҳли, яъни, фикр ва ғоя беришга қодир шахсларнинг бирлиги ва ўзаро иттифоқда бўлиши, сўзда собит, ишда чидамли бўлишини шарт, деб билади.

Амир Темур "Тузуклар"да давлат ишларининг тўққиз улушини кенгашга, яъни, ҳозирги тил билан айтганда, дипломатияга ажратгани, бир улушини эса, қиличга, яъни, ҳарбий ҳаракатга қолдирганини ёзган. Турон ҳукмдори ушбу тамойил асосида сиёсат юритди. Муҳолиф давлатга такрор-такрор элчилар юборар, ҳатто, куда-андачиликни йўлга қўйишга тиришар, қариндошчилик орқали бўлса-да, ишларни ҳеч қандай урушларсиз амалга оширишга ҳаракат қилар эди. Демак, Соҳибқирон ҳазратлари айрим тарихчилар ёзганидек, “уруш излагани” ҳақиқатга мос келмайди. Амир Темур ҳамиша тинч қўшничилик тарафдори бўлган. Лекин, юртга, халқига нисбатан ташқи хавфни сезса, бу иллатнинг олдини олишга ҳаракат қилган. Урушни юрт тупроғида эмас, душман ҳудудида олиб боришга интилган. Бунга мисол тариқасида мўғул хони Тўхтамишхон билан олиб борган урушлари ёрқин мисол бўла олади. Шу боисдан Турон ҳукмдорининг ҳарбий соҳада амалга оширган ишлари бугунги кунда ҳам дунёнинг етакчи ҳарбий тадқиқот институтларида ўрганилмоқда.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, Амир Темур давлатининг ҳар томонлама куч-қудратга эришуви ва гуллаб-яшнашида муққадас замин – Мовароуннаҳр элининг фидойилиги, жасорати жуда катта роль ўнаган. Бугун ана шу тажриба Ўзбекистон давлатининг қудратини ҳар томонлама юксалтиришда амалий аҳамиятга эга бўлмоқда. Миллий давлатчиликни тараққий эттириш, мамлакат фаровонлигини ошириш, фарзандларимиз учун ҳеч кимдан кам бўлмаган ҳаёт барпо этиш, ёшларни жисмонан, ақлан ва маънан юксалтириш борасидаги барча ислоҳотлар Амир Темур юритган давлатчилик сиёсатига моҳиятан уйғундир.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Темур тузуклари, форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж.). -Т.: Шарқ, 2005. 156
2. Ўша манба. 71-б
3. Темур тузуклари (форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж.). -Т.: Шарқ, 2005. 156
4. Темур тузуклари. (форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж.).- Т.: Шарқ, 2005. - 65 б
5. Ўша манба.- 67 б
6. Ўша манба. - 76 б

7. Ибн Арабшоҳ, Амир Темур тарихи. -Т.: Меҳнат, 1992. 71-б
8. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления. - М.: Омега-Л. 2019. С 56
9. Большая Российская энциклопедия, 34том. 2017. С78
10. Отамуротов С. Эргашев И. Қодиров А. – Политология. -Т.; “Ўзбекистон”, 1999. – 51 б
11. Темур тузуклари. (форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж.)- Т.: Шарқ, 2005. - 55 б.
12. Темур тузуклари. (форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж.)- Т.: Шарқ, 2005. - 59 б.

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Мамасалиев Мирзоулуг Мирсаидович
ҚарМИИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси
Email: entin_2977@mail.ru
Тел: +998 91 263 29 77
ORCID: 0000-0003-3145-7380

АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ - АХЛОҚИЙ ЖИХАТЛАР

Аннотация. Мазкур мақолада Амир Темурнинг ташқи сиёсати ва дипломатиясининг фалсафий жиҳатлари очиб беришга ҳаракат қилинган. Жаҳонга маълум ким, Амир Темур кучли сиёсатчи ва дипломат шахс бўлган. У Шарқ ва Ғарб давлатларини савдо-сотиқ, иқтисодий ва бошқа соҳаларда бирлаштирган ўрта асрлардаги энг машҳур ҳукмдор ҳисобланган. Мақолада Амир Темур дипломатиясининг усуллари, ғоялари, ташаббускорлиги ва бошқа жиҳатлари чуқур таҳлил қилиб берилган.

Калит сўзлар: Дипломатия, ташқи сиёсат, мудофаа, Олтин Ўрда, Буюк Ипак йўли, Халқаро муносабатлар

Мамасалиев Мирзоулуг Мирсаидович
Старший преподаватель кафедры
«Общественных наук» КарИЭИ

ФИЛОСОФСКИЕ И МОРАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ АМИРА ТЕМУРА

Аннотация. В данной статье предпринята попытка раскрыть философские аспекты внешней политики и дипломатии Амира Темура. Амир Темур, известный всему миру, был могущественным политиком и дипломатом. Он считался самым известным правителем Средневековья, объединившим страны Востока и Запада в торговле, экономике и других областях. В статье глубоко анализируются методы, идеи, инициатива и другие аспекты дипломатии Амира Темура

Ключевые слова: Дипломатия, внешняя политика, оборона, Золотая Орда, Великий шелковый путь, международные отношения

Mamasaliev Mirzoulug
Senior Lecturer of the Department
of "Social Sciences" KarEEI

PHILOSOPHICAL AND MORAL ASPECTS OF AMIR TEMUR'S FOREIGN POLICY

c) Kognitiv yondashuv tarafdorlari Z.D.Popova, I.A.Sternin, D.S.Lixachev, E.S.Kubryakovalar esa konsept o'zida nafaqat leksik ma'noni, balki biror bir tilda so'zlashuvchilarning milliy va hayotiy tajribasini aks ettiruvchi hodisa deb ta'riflaydilar. Buning natijasida, konsept so'z va haqiqat o'rtasidagi ko'prik sifatida namoyon bo'ladi[9;126c].

Ba'zi bir tadqiqotchilar konseptni guruhlariga ajratishni taklif qiladilar. Olimlar mental va verbal ifodalangan konseptlarning turli xillarini ko'rsatadilar. Ulardan asosiylari- "sxema", "freym", "ssenariy", "geshtalt" va boshqalardir. Bular kognitiv lingvistikaning aniq tizimga ega birliklaridir.

Sxema-umumlashgan makon-grafik obrazlari haqidagi tasavvurlar ("daryo" ko'k lentaga qiyoslanadi).

Freym- xotiradagi assotsiatsiyalar. Konsept-freyumni "kadr" tushunchasi bilan solishtirish ham mumkin, chunki bu konsept turi muayyan konseptning ramkasiga tipik tarzda nima kirsam, shu belgilarni o'z ichiga oladi. Freymlar sxemasidan tashqari voqealar sxemasi degan tushuncha ham mavjud.

Ssenariy- faktor freymidan vaqt o'lchami orqali farq qiladi. Ssenariy o'zida voqealarning syujetli rivojlanishi haqidagi bilimlarni jamlaydi. Bu esa kishiga kundalik hayotiy hodisalarga diqqat qaratishga imkon beradi: misol uchun "yaxshilik" konsepti borasida, farzandning ota onasiga beminnat xizmati ya'ni og'irini yengil qilishi, ustozning shogirdiga to'g'ri yo'l ko'rsatishi va o'zidagi bor ilmni berishi, boyning g'aribu miskinlarga qilgan xayr-ehsoni, insonlarning yordamga muhtoj odamlarga ko'mak qo'lini uzatishi bilan assotsiatsiyalashgan tasavvurda reprezentatsiyasi bu voqealar sxemasi, ya'ni ssenariy deb yuritiladi.

Geshtalt-his-tuyg'u yoki ratsional komponentlarni o'zida jamlab konseptual struktura yoki butun bir obrazni aks ettirishi, situatsiyaning butun holda qabul qilinishi, abstraktlikning eng yuqori darajasi bilan bog'liq birlikdir. Geshtalt anglash va tushunish jarayonining boshlang'ich bosqichidir: biron predmet, voqelik haqidagi qismlarga bo'linmagan bir butun tasavvurlar to'plami. Insonda konseptning har bir obyekt va komponenti haqida yetarlicha bilim mavjud bo'lganida geshtalt shu bilimlar ichida eng yuqori pog'onadagi birlik bo'lib turadi. Geshtalt konsept turlarini bir birlikka jamlovchi konseptual sistema, konsept esa shu sistema ichiga kirib qolgan obyektlarni aniqlashtiruvchi termin sifatida qo'llaniladi.

Rus olimlari Z.D. Popova va I.A.Sternin konseptning doiraviy modelini taklif qiladilar va ushbu mental lisoniy birliklarni yadro va periferik doirada o'rganishni tatbiq etadilar. Ularning fikricha, konsept maxsus belgilardan iborat bo'lib, ular konseptning uch turdagi modelini ajratib ko'rsatishadi, ya'ni bir satxli, ko'p satxli va segmentli [9;18c]. Yuqorida keltirilgan tasnif turli yondashuvlar orqali vujudga kelgan. Shu tasniflarning barchasini yig'ib, konseptning bir nechta parametrlarini ajratib olish kerak. Buning natijasida asosiy va ikkilamchi nuqtai nazarlarni ajratish, obyektga xos xususiyatlarni va ular orasidagi obyekt tushunishga harakat

qilinadi. Konseptlar, odatda inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Albatta, konsept tushunchasi borasida fikr va munozaralar ko'pchilikni tashkil qilib uning ta'rifi borasida aniq to'xtamni topish qiyin. D.S.Lixachevning keltirishicha konsept - bu individual anglash jarayoni va ma'lum kontekstda so'z ma'nosini almashtirish hisoblanadi [6;287c]

O'zbek tilshunoslaridan biri M.R.Galieva esa konseptning xususiyatlarini, uning kognitiv-konseptual belgilarini talqin qilish davomida konseptning aniq bir elementi birinchi o'ringa chiqishini ta'kidlaydi [3;28c].

Biz konseptni mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

- a) madaniy
- b) lingvomadaniy
- c) kognitiv
- d) emotsional
- e) ilmiy

Lingvomadaniy konsept - etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni birlashtiradi [16;29 b]. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi. Lingvokulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, yaxshilik, yovuzlik, vatan va hokazolar tushuniladi.

Madaniyat konseptlarini A.Ya.Gurevich ikki guruhga: "fazoviy", "falsafiy" kategoriyalar, ya'ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, sabab, o'zgarish, harakat) hamda ijtimoiy kategoriyalar, ya'ni madaniyat kategoriyalari (erkinlik, huquq, haqiqat, yaxshilik, yovuzlik, mehnat, boylik, mulk)ga ajratadi. V.A. Maslova bunga yana bir guruhni- milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi [8;51c]. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o'ziga xos konseptlarning ko'pligi aniqlangan. Masalan, kartoshka konsepti madaniy o'ziga xos konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni, buni сидеть на одной картошке frazeologizmi misolida ham ko'rish mumkin; beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi. Yoki non konseptini olsak, o'zbeklar uchun non muhim ozuqa etaloni hisoblansa, koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun muhim ozuqa hisoblanmaydi. Ular uchun guruch nonning o'rnini bosuvchi asosiy ozuqa etaloni sanaladi.

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi. Ma'lumki, inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy-ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. Avvalo, narsa jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o'rganilib, uning xususiyati, qirrasini, tomoni aniqlanadi va natijada bu xususiyat, dalil, hodisa to'planib, saralanadi, aqliy dialektik tahlil usuliga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ana shu aqliy tahlil (mantiqiy-ruhiy harakatlardagi faoliyat)ni amalga oshirishning bir necha bosqichlari qator manbalarda sanab o'tilgan. Ularda

berilishicha kognitiv (aqliy) tahlilga qaratilgan faoliyatda dastlab ma'lum bir obyekt boshqa obyektlar qatoridan ajratib olinadi. Bunda, albatta, uning farqlovchi belgilari e'tiborga olinadi. Farqlovchi belgilar asosida boshqa obyekt bilan qiyoslash harakati amalga oshirilib, xotirada shu obyektga oid hissiy ramz shakllantiriladi. Bu ramzning lisoniy xotiradagi boshqa ramzlar bilan o'xshash tomonlari qidiriladi. Eng so'nggi bosqichda esa voqelikning bilishning muhim bosqichi-umumlashtirish amalga oshiriladi. Bu faoliyatlarning barchasi obyekt haqida tushuncha shakllanishiga xizmat qiladi. Mantiqiy faoliyat natijasi bo'lgan tushuncha obraz va lisoniy ma'no bilan umumlashib kognitiv lingvistika tarmoqlarida asosiy figura sifatida o'rganilayotgan konseptning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Xulosa

Konseptning yuqorida ko'rib o'tilgan tasniflarga binoan xulosa qiladigan bo'lsak, konsept tushunchasining yagona talqini hali ham ishlab chiqilmagan va uning aniq bir ta'rif va tavsifi yoq. Yuqorida konseptning turlicha talqini va uning kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikdagi farqli va o'xshash jihatlari ko'rib chiqildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Москва: Академия, 1997. –С.67
2. Арутюнова Н. Д. Концептуальный анализ: методы, результаты, перспективы. Тезисы докладов конференции.-М.. 1990. –С.93
3. Галиева М.Р. Вербализация концептосферы Word/Суз/Слово в английской, узбекской, и русской языковых картинах мира. Автореф. дис..канд. фил. наук. – Ташкент: 2010. – С.28
4. Гумбольдт В. Фон. Избранные труды по языкознанию.–М.: Прогресс, 2000. – С.398
5. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литаратуре и в научном языке // Вопросы филологии. –Москва, 2001. -№ 1. –С. 35
6. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. -М. Academia. 1997. -С.280-287
7. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№5. –Б. 9
8. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.51.
9. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие “концепт” в лингвистических исследованиях.– Воронеж: Изд-во Воронежского Ун-та, 1999. – С.126
10. Слишкин Г. Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов: автореф. дис. на соискание науч. степени канд.филол. наук : спец.- Волгоград, 1999. –С.18
11. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. - М.: Школа "Языки русской культуры", 1997. - С 40-76
12. Световносова Т.А. Когнивная лингвистика и лингвокультурология : черты и различия // Филологические науки МГИМО: сборник научю трудов. № 27 (42) / МГИМО (У) МИД Росси: отв. Ред. Г.И. Гладков. – М.: МГИМО – Университет. 2007. – С.203

13. Телия В.Н .Русская фразеология:семантический,прагматический и лингвокультурологический аспект – М.1996.–С.222
14. Шведова Н.Ю. Избранные работы. –М., 2005. –С.603.
15. Zalevskaya A.A. Some problems of the theory of text perception. Vinogradov. 2002. –P.62-73
16. Xudaybergenova Z.N. Tarjimaning lingvomadaniy masalalari. –T.2016.-B.29

10.00.00-Филология фанлари

Камилова Дурдона Козимджановна,
Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси
Божхона институти катта ўқитувчиси
durdona8324@mail.ru

ТИЛЛАРДА “БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК” ТЕРМИНЛАРИНИНГ СТРУКТУРАЛ ШАКЛЛАНИШИ

Аннотация. Илмий мақолада ўзбек ва чет тилларда “бизнес ва тадбиркорлик” терминларининг структурал шаклланишининг моҳияти кўриб чиқилган. Мақолада ўзбек ва чет тилларидаги бизнес ва тадбиркорлик атамаларни тизимли таҳлил усулда кўп қиррали ўрганишга бағишланган бўлиб, ушбу мавзуга мурожаат қилишимиздан мақсад экстралингвистик, ҳам лингвистик омиллар билан изоҳлаш мумкин.

Калит сўзлар: бизнес ва тадбиркорлик, чет тиллар, ўзбек тили, атамалар, структурал шаклланиш, инглиз тили, илмий, ижтимоий-иқтисодий жараёнлар.

Камилова Дурдона Козимджановна,
старший преподаватель
Таможенного института Государственного
таможенного комитета Республики Узбекистан

ОПРЕДЕЛЕНИЕ, ХАРАКТЕРИСТИКА И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ ПРИЗНАКИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ УМЫШЛЕННОГО УБИЙСТВА.

Аннотация. В научной статье рассматривается сущность структурного образования терминов «бизнес и предпринимательство» в узбекском и иностранных языках. Статья посвящена многогранному изучению терминов бизнеса и предпринимательства на узбекском и иностранных языках с использованием метода системного анализа, и цель нашего подхода к этой теме может быть объяснена экстралингвистическими и лингвистическими факторами.

Ключевые слова: бизнес и предпринимательство, иностранные языки, узбекский язык, термины, структурное образование, английский язык, научные, социально-экономические процессы.

Kamilova Durdona Kozimdjanovna,
Senior lecturer of the Customs Institute of the
State Customs Committee of the Republic of Uzbekistan

STRUCTURAL FORMATION OF THE TERMS "BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP" IN LANGUAGES

Abstract. : The scientific article discusses the essence of the structural formation of the terms "business and entrepreneurship" in Uzbek and foreign languages. The article is devoted to the multifaceted study of the terms of business and entrepreneurship in Uzbek and foreign languages using the method of system analysis, and the purpose of our approach to this topic can be explained by extralinguistic and linguistic factors.

Keywords: business and entrepreneurship, foreign languages, Uzbek language, terms, structural education, English language, scientific, socio-economic processes



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N25>

Кириш

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт тармоқларининг жаҳон миқёсида инновацион ривожланиши ва уларнинг ҳозирги глобаллашув ҳамда интеграция жараёнларини жадаллашуви шароитида исталган соҳада иқтисодий ислохотларига бевосита таъсири мамлакатда фаолият юритаётган тадбиркорлар, ишбилармонлар, иқтисодиёт соҳасидаги мутахассис кадрларни чет тилларини ва ўзбек тилни мукамал билишни талаб этилмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2012 йил 10 декабрдаги ПҚ-1875-сонли қарори инглиз тилини мукамал биладиган ва ушбу тилда эркин мулоқот қила оладиган мутахассис кадрлар тайёрлашга қаратилган.[1]

Шу муносабат билан сўнгги йилларда бизнес ва тадбиркорлик соҳаси буйича ўзбек тилида пайдо бўлган атамаларнинг аксарияти тегишли атама тизимларидаги концептуал бўшлиқларни тўлдиришга хизмат қилади. Лекин ҳар қандай соҳанинг терминлари шундай миқдорда ўзгариб, янги атама тизимини ташкил этган ҳолатлар ҳам бўлган. Бу, биринчи навбатда, иқтисодий терминология шартларига тааллуқлидир, чунки Ўзбекистон эркин бозор иқтисодиётига ўтиш билан боғлиқ сезиларли ўзгаришлар рўй бермоқда.

Адабиётлар таҳлили ва методология

Бу терминология шартлари терминларни ўзлаштириш билан бир қаторда, янги иқтисодий атама тизимларига чет ва ўзбек тилларининг структурал-лингвистик моделлари учун умумий компонент бўлиб хизмат қиладиган кўп компонентли терминлар шаклида киради.

Кўп компонентли терминлар ўзбек тилидаги ўхшашлари учун асосий бўлган чет тилидаги терминларининг таркибий тавсифини ўрганамиз, сўнгра тилларнинг структурал шакллантириш андозаларида уларнинг умумий ва ўзига хос хусусиятларини очиб берамиз.

Чет тилидаги кўп компонентли терминлар материалининг манбаси сифатида тадқиқотимизда “Янги атамалар дафтари: инглизча-ўзбекча бизнес ва тадбиркорлик терминлари” (Новаш) [3], ташқи иқтисодий атамаларнинг инглизча-русча изоҳли луғати, Инглизча-русча луғат-маълумотномаси “Иқтисодиёт” луғатларидан[4] , қўлланмалар, ва муайян контекстда тил бирлигидан фойдаланишга бир нечта мисолларни ўз ичига олади. Ушбу тадқиқотни таъминлайдиган дарсликларда жуда қисқа луғатлар мавжуд бўлиб, улар одатда фақат номинатив терминларни ўз ичига олади.

Чет тилининг кўп компонентли атамаларининг таркибий моделларини кўриб чиқиб, биз бир хил таркибдаги ўзбек терминларини ўрганишга йўл очамиз, чунки

уларни таққослаш ва ўхшашликларни аниқлаш орқали биз инглиз тилининг умумий ривожланиш қонуниятларини кўришимиз мумкин.

"Бизнес" ва "Тадбиркорлик" тизимларининг ўзбекча терминларининг терминологик ибораларини ўрганиш учун қуйидаги лексикографик манбалар материал бўлиб хизмат қилди: "Бизнес атамалари ва тушунчаларининг русча-инглизча-ўзбекча изоҳли луғати", "Ташқи иқтисодий фаолиятда" терминологик қўлланма ва бошқалар.[3;4]

Натижалар

Бундай терминларнинг миқдорий нисбати кичик ва шунинг учун ўзбек тилидаги бозор иқтисодиётининг чет тилидаги кўп компонентли термининг таркиби ва мазмуни кўпинча сақланиб қолади. Асл тил ва қабул қилувчи тилнинг икки компонентли атамаларининг тузилиши ҳар хил бўлиши мумкин. Кўриб чиқиладиган термин тизимларида қўшма терминларнинг асосий тури бўлган икки компонентли атамалар билан бир қаторда, маълумотларга кўра, инглизчет тилидаги уч компонентли атамалар ҳам муҳим рол ўйнайди.

Бизнес ва тадбиркорликга оид термилар структурал тузилишдан ташқари барча компонентларнинг умумий маъносини ўз ичига олган лингвистик тузилишга ҳам эгадир. Кўп компонентли терминлар таркибида у ёки бу ўринни эгаллаган ҳар қандай компонент ўзининг бошқа компонентларга нисбатан позициясига (жойлашишига) қараб ўз маъносини амалга оширади. Компонентларнинг маънолари ҳам "алмашинув қолиплари (парадигматик муносабатлар) ва бирикма қолиплари (синтагматик муносабатлар) билан ўзаро боғлиқ".

Чет тилидан олинган кўп компонентли терминларнинг структурал шаклланиши унда мавжуд бўлган барча маълумотларни ўз ичига олмайди, фақат қабул қилувчи тилнинг она тилида сўзлашувчилари учун зарур бўлган маълумотларни ўз ичига олади. Бундай чет тилидаги терминларни қабул қилувчи тил тизимига мослаштириш жараёнида турли структурал ва лингвистик трансформациялар содир бўлиши мумкин ва шунинг учун кўп компонентли терминларни чет тилидан ўзбек тилига ўтказишда маълум қийинчиликлар пайдо бўлиши мумкин. Бу, биринчи навбатда, терминологик корреляцияга тегишли. Сабаби шундаки, уларнинг предмет-мантиқий маънолари, шунингдек, турли тиллардаги бир турдаги фразема аъзоларининг тартиби ўртасида тўлиқ мослик йўқ. Синтактик моделдаги элементларнинг тартиби муҳим омил бўлиб, ҳар қандай морфологик тартибдаги тилларда учрайди. Сўз тартиби ҳар доим муҳим ва функционал равишда турли хил усулларда ишлатилиши мумкин.

Бошқа тиллардаги бизнес ва тадбиркорлик соҳаси терминлардан қарз олишда бир тилда мавжуд бўлган тушунчанинг ўрнини бошқа тилдан расмий тил белгиси билан алмаштириш кўпинча содир бўлади. Буларнинг барчаси ўзлаштириш жараёнида икки тилнинг элементлари ўзаро солиштирилади, тенглаштирилади ва керак бўлганда бир-бирининг ўрнини босади, шунинг учун, кўп компонентли терминларнинг структурал шакллантиришдаги муҳим масалалар, қарз олиш жараёнида бир хил тартиб элементларнинг корреляцияси ва ўзаро таъсирини билдиради.

Қоидага кўра, иборалар одатда асосий компонент бўлган от билан бошланади ва кейин ҳар бир гуруҳни, одатда ўнгдан чапга кетма-кет таржима қилади. Таржима қилинаётганда унинг таркибий қисмларининг луғавий маъноси структурал таркибга мос

келиши кераклиги ҳисобга олинади. Бошқа тиллардаги бизнес ва тадбиркорлик соҳаси терминлардан қарз олишда бир тилда мавжуд бўлган тушунчанинг ўрнини бошқа тилдан расмий тил белгиси билан алмаштириш кўпинча содир бўлади. Буларнинг барчаси ўзлаштириш жараёнида икки тилнинг элементлари ўзаро солиштирилади, тенглаштирилади ва керак бўлганда бир-бирининг ўрнини босади, шунинг учун, кўп компонентли терминларнинг структурал шакллантиришдаги муҳим масалалар, қарз олиш жараёнида бир хил тартиб элементларнинг корреляцияси ва ўзаро таъсирини билдиради.

Муҳокама

Замонавий тилшуносликнинг соҳага хос хусусияти тилшуносларнинг тилнинг фаол-динамик томонига ва унинг фаолияти масалаларига мурожаатидир. Тил ва воқелик ўртасидаги ўзаро боғлиқлик масаласи бир неча авлод тилшуносларини ташвишга солиб келган ва бугунги кунда у янги тадқиқотчиларнинг эътиборини тортадиган тилшуносликнинг асосий масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Тилни амалда ўрганишда улар кўпинча тил тизимининг очиқ ва ҳаракатчан қатламини ифодаловчи луғатга мурожаат қилишади.

Ушбу мақоламиздаги тадқиқот чет ва ўзбек тилларидаги терминологик луғатларининг ўзаро таъсирини структурал шакллантириш жиҳатдан ўрганишга қаратилган. Нутқ фаолиятидаги структурал изчилликни ўрганиш бизни матнлардаги терминларнинг ишлашига эътибор беришга мажбур қилади. Бир вақтлар бу муаммолар тадқиқотларда терминологияни ўрганишнинг функционал томонига мурожаат қилиш зарурлиги ва мунтазамлигини тасдиқлайди.

Бизнес ва тадбиркорлик соҳасининг терминларини аниқлаш биз томонидан терминологик бирликларни ҳар томонлама таҳлил қилиш натижасида амалга оширилди, уларнинг асосий белгилари уларнинг синтагматик ва парадигматик муносабатларидир. Терминологик соҳанинг парадигматик муносабатлари мазмун режасини ташкил қилади. Ифода жиҳатидан терминологик соҳа “лексик бирликлар, шунингдек, лексик бирликлар орасидаги синтагматик боғланишлар учун аҳамият берувчи сўз ясовчи морфемалар ва формал синтактик воситалар тўплами”га мос келади.[5]

Иқтисодий терминология терминологик соҳасининг асосий мақсади инсониятнинг иқтисодиёт соҳасидаги билим даражасини максимал холислик билан акс эттиришдан иборат; бу термин соҳа узлуксиз ривожланиш ва ўзгариш босқичида бўлиб, бу тегишли фаннинг ривожланиши билан боғлиқ.

Иқтисодий терминология номлар тизими сифатида инсоннинг онгли мақсадли фаолияти натижасида ривожланиб, иқтисодиёт билан биргаликда ва бир вақтда шаклланади, шунинг учун иқтисодий терминология ва уни озиқлантирувчи тил соҳасидаги фанлар ўртасидаги узвий боғлиқлик табиийдир. "Ҳар қандай фаннинг илмий тушунчалар тизими бузилмас ва доимий эмас ва бу фанлар янада ривожланиб бориши билан у ўзгариши ва қайта кўриб чиқиши керак" ва шунинг учун текширилиши керак деб ҳисоблаймиз.

Шунинг учун ўзбек ва чет тилларида иқтисодий терминология соҳаси, шу жумладан қисқа вақт оралиғидаги луғатнинг энг ҳаракатчан қисмини тилнинг лексик-

структуал даражадаги янги ва сўнгги ҳодисалари билан модел сифатида қабул қилиш мумкин.

Ўзбек ва чет тилларида ўрганилаётган соҳа термини иқтисодий терминлар мавжудлигининг ўзига хос хусусиятини очиб беради, улар доирасида янги термин умумий таркибий ва структурал тизимнинг шаклланиш хусусиятларга эга.

Структуал тизим терминларини кўплаб маҳаллий тилшуносларнинг диққат марказида бўлиб, умумий адабий тилнинг луғат таркиби таъсирида шаклланган маълум бир билим соҳасининг лингвистик жиҳатдан ўзаро боғлиқ бўлган тушунчалари мажмуи сифатида қаралади ва бу терминнинг аъзоси бўлади ва махсус функцияни бажарадиган структурал тизими ва ҳар қандай терминнинг бир қисми сифатида ишлайди ва унинг ишлаш қонунларига бўйсунди, лекин шу билан бирга, терминнинг структурал тизимларининг ҳар бири ўзига хос хусусиятларга эгалигидир.

Бундай терминларнинг структурал тизимларининг элементлари бир-бири билан ва умуман термосфера билан коммуникатив алоқадор ва тизимли боғлиқ бўлган терминологик бирликларни ифодалайди. Терминлар тизими чегаралари шартли, чунки терминлар кўпинча бир термин тизимидан иккинчисига ўтади, масалан: таҳлил (analysis); бюджет (budget); бизнес (business); компания (company); реакция (reaction); ҳолат (position); маълумот (information); стандарт (standard), бизнес режа (business plan), кирим (income).

Чет тилидаги терминлар янги муҳитда ўрганиш биз томонидан минглаб мисоллар асосида амалга оширилди. Ушбу тадқиқотда биз фақат янги маълумотларни олиб юрадиган ёки чет тилидаги ўзбек терминологик бирлигида янги концепцияни шакллантиришга ҳисса қўшадиган ўзбек муҳитида терминни қўллаш мисолларига эътибор қаратганмиз ҳамда уларни ҳаётда тадбиқ қилиш чораларини ишлаб чиққанмиз.

Бизнинг изланишларимизга кўра, ушбу терминологияни ўзлаштириш жараёни икки босқичда содир бўлган, бу аввал унинг ассимиляциясини, кейин эса ривожланишини ўз ичига олади. Шунинг таъкидлаш керакки, қарз олишнинг биринчи босқичида унинг касбий муҳитдаги мақсади аниқланган, аммо уни аниқлашнинг аниқ чегаралари ҳали ҳам мавжуд эмас, чунки олимлар ва мутахассислар "бизнес ва тадбиркорлик" терминлар ҳодисасининг моҳиятини турли йўллар билан ифодалайдилар.

Ушбу бизнес ва тадбиркорлик соҳасига оид терминлар бозор, бозор функцияси ва бозорда бошқариш билан боғлайди. Ушбу терминологиянинг бошқа таърифлари маркетинг ва сотиш ўртасидаги боғлиқликни тасдиқлайди, шу билан бирга маркетингнинг илмий интизом сифатидаги таъсир доираси аниқланмоқда ва кенгайтирилмоқда, бу "Бизнес ва тадбиркорлик" терминологиясини ўзбек тилида янги маъноларга эга эканлигини англатиб, уларнинг моҳиятини таҳлил қилади.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганимизда, ўзбек тилининг ҳозирги ривожланиш босқичи чет тилидан олинган структурал шаклланиш фаоллиги билан тавсифланади. Ўзбек тилига бирнес ва тадбиркорлик соҳасига оид тушунчалар ва воқеликларини билдириш учун ўзбек тилига жуда кўп миқдордаги чет тилидаги терминлар киритилган, улар қабул қилувчи тилда мавжуд бўлмаган ёки мавжуд бўлган, аммо чет тилида қайта кўриб чиқилган.

Чет тилидаги терминологик бирликларнинг реципиент тилининг лексик тизимига фаол кириш жараёни бу бирликларнинг структурал ўзгариши билан тавсифланади. Улардан баъзилари ўзбек тилига ўз тушунчалари ва маънолари билан кирдилар.

Бизнес ва тадбиркорлик соҳасига оид терминологиясида бошқа тиллардан янги маъноларни олади. Чет тилидан келиб чиққан янги терминологик бирлик сўз ясаиш фаолияти билан тавсифланади, бу ўзбек тилидаги қўшимчалари ёрдамида ўзаро боғлиқ бўлган чет тилидан олинган сўзларда ўзбек тилидаги терминологиясини структурал шакллантиришда намоён бўлади.

Структурал шаклланишнинг мослашуви ушбу мақола билан тавсифланади, чунки миллий маданиятлар ва профессионал субмаданиятларнинг интенсификацияси ўзаро таъсири терминологиянинг лингвистик ва концептуал жиҳатларини бирлаштиради. Ва бу шуни англатадики, ўзбек ва чет тилларидаги терминологиянинг структурал хусусиятлари ва уларнинг прототиплари кўп ҳолларда мос келади.[8]

Янги ўзбек тилидаги бизнес ва тадбиркорликка оид терминлар ва чет тилидан келиб чиққан терминологик иборалар учун уларнинг чет тили билан таққослаганда таърифларнинг шаклланиши, шунингдек, ўзлаштирилган чет тилига асосланган ўзбек тилидаги янги терминологик ибораларнинг шаклланиши етишмаётган тушунчалар, ҳодисаларни акс эттирувчи янги атамаларнинг туғилишини кўрсатади, ҳамда ўзбек тилининг иқтисодий терминологиясида ва шу билан терминлар мавжудлигининг - назария соҳаси мавжудлиги ҳақидаги назарий позицияни тасдиқлайди.

Чет тилидан келиб чиққан ўзбек иқтисодий терминларининг яратилиши ва қўлланилиши нафақат ундаги тизимлар атамаси таъсирида содир бўлади, бундай терминларнинг мазмуни динамик бўлиб, ривожланади ва шунинг учун ўзбек иқтисодий нутқида уларнинг ҳақиқий фаолиятида намоён бўлади.[5] Турли хил маълумотлар алмашинувида бўлган эҳтиёж, иқтисодийнинг комплекс ривожланиши жамият ривожланишининг объектив шартлари билан олдиндан белгиланади ва бизнес ва тадбиркорлик соҳасига оид ўзбек ва чет тилларининг терминологик умумийлигининг пайдо бўлиши учун муҳим сабаб бўлиб хизмат қилади, ҳамда ушбу фаолият соҳасини алоқа қилиш ва тавсифлаш учун зарур бўлган лексик воситаларни ифодаловчи ҳисобланади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2012 йил 10 декабрдаги ПҚ-1875-сонли қарори //Халқ сўзи, 11.12.2012 й., 240 (5660)-сон
2. Абдуллаев. Бозор иқтисодиёти асослари. Тошкент, “Меҳнат”, 1997.
3. Новаш “Янги атамалар дафтари: инглизча-ўзбекча бизнес ва тадбиркорлик терминлари” // Омега-Л, 2014
4. Б. Райзберг, Современный экономический словарь// Инфра-М, 2023
5. Kamilova Durдона Kozimdjanovna Features of borrowing economic terms in the Uzbek language // Integration into the world and connection of sciences International scientific

- and practical online conference. Азарбайжан. Баку. -January 2021. DOI http://doi.org/10.37057/A_7. С.100-101
6. Kamilova Durдона Kozimdjanoyna Comparative analysis of the terms in the sphere of "business and entrepreneurship" in English and Uzbek // Novateur Publications Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 Volume 8, ISSUE 3, Mar. -2022. Journal Impact Factor: 7.223. P.9-12
 7. Kamilova Durдона Kozimdjanoyna Lexicographic Analysis of the Terms "Business and Entrepreneurship" in English and Uzbek International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 |www. openaccessjournals.eu | Volume: 1 Issue: 5//P. 57-59
 8. Kamilova Durдона Kozimdjanoyna Important aspects of teaching business intercultural communication in a foreign language// Педагогика ва Психология инновациялар 2-сон, 4 жилд инновации// ISSN 2181-9513 Doi Journal 10.26739/2181-9513 № 2 (2021)//Б.19-24.
 9. Комилова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида "тадбиркорлик фаолияти шакллари" тизими ва уни таржима қилиш усуллари. O'zbekiston milliy universiteti xabarlar, 2021, [1/4/1] ISSN2181-7324. Б. 289-292
 10. Bazarova U. M. Spiritual and moral education of students in the use of technology in the preparation of future professionals for innovative activities in foreign language classes //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
 11. Bakhtiyarova Y.G. Degree and relationship of increasing the creative activity of students of technical higher education in the process of teaching foreign languages //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 10. – С. 152-156.
 12. Yakhоеva G. Retrospective analysis of the development of student's creative activity in education and cognitive activity //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 92-94.
 13. Y.G.Bakhtiyorovna Relationship of student activity with creative development in German language lessons - Thematics Journal of Social Sciences, 2021
 14. Bakhtiyarova Y.G. Degree and relationship of increasing the creative activity of students of technical higher education in the process of teaching foreign languages //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. 10 (2022): 152-156

12.00.00 – Юридик фанлар

Ismatullayev Otabek Taxirovich
Fargʻona viloyati IIB Huquqiy statistika
va tezkor hisob maʼlumotlarboʻlimi
boshligʻi, podpolkovnik

Maxmudov Bahodir Hakimjon oʻgʻli
Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston
Milliy universiteti tayanch doktoranti

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada keyingi vaqtlarda salmogʻi tez oʻsib borayotgan ekologik jinoyatlarni tergov qilish va atrof muhitni muhofaza qilishda xorij davlatlarining tajribasi oʻrganilgan. Bu borada Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi davlatlarda yetuk ilmiy-texnologik usullar va vositalardan keng foydalanilmoqda. Maqolada shuningdek mamlakatlararo ekologik jinoyatlarni tergov qilish, kurashishda oʻzaro hamkorlikning ijobiy va salbiy jihatlariga ham eʼtibor berilgan. Umuman aholi faoliyatida hududning ekologik vaziyati muhim, ushbu vaziyatni yaxshi holatda saqlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli katta.

Kalit soʻzlar: ekologik jinoyatlar, tabiiy resurslar, atrof-muhit ifloslanishi, ekologik vaziyat, ekologik patrullar, dronlar.

Исмадуллаев Отабек Тахирович
Начальник отдела правовой
статистики и оперативных учетов МВД Ферганской
области, подполковник

Махмудов Бахадир Хакимжан угли
Базовый докторант Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И РАССЛЕДОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Аннотация. В данной статье изучен опыт зарубежных стран по охране окружающей среды и расследованию экологических преступлений, число которых в последнее время стремительно растет. В связи с этим передовые научно-технические методы и средства широко используются в таких странах, как Германия, Япония, Великобритания, США. Также в статье уделяется внимание положительным и отрицательным сторонам взаимного сотрудничества в расследовании и борьбе с международными экологическими преступлениями. Экологическая обстановка региона имеет важное значение в деятельности широких слоев населения, и велика роль правоохранительных органов в поддержании этой ситуации в надлежащем состоянии.

Ключевые слова: экологические преступления, природные ресурсы, загрязнение окружающей среды, экологическая обстановка, экологические патрули, дроны.

Ismatullaev Otabek Takhirovich
Head of the Department of
Legal Statistics and Operational Accounts of the
Ministry of Internal Affairs of the
Fergana Region, Lieutenant Colonel

Makhmudov Bakhodir Khakimjon oqli
Basic doctoral student National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

FOREIGN EXPERIENCE IN ENVIRONMENTAL PROTECTION AND INVESTIGATION OF ENVIRONMENTAL CRIMES

Abstract: This article examines the experience of foreign countries in environmental protection and investigation of environmental crimes, the number of which has been growing rapidly in recent years. In this regard, advanced scientific and technical methods and tools are widely used in countries such as Germany, Japan, Great Britain, and the USA. The article also focuses on the positive and negative aspects of mutual cooperation in the investigation and fight against international environmental crimes. The ecological situation in the region is important in the activities of the general population, and the role of law enforcement agencies in maintaining this situation in proper condition is great.

Key words: environmental crimes, natural resources, environmental pollution, environmental situation, environmental patrols, drones.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N26>

Kirish

Dunyo miqyosida chuchuk suv, haydaladigan yerlarning yetishmasligi, cho'llarning kengayishi, o'rmon maydonlarining qisqarishi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir o'tkazmoqda. 2022 yil davomida mamlakatimizda ekologiya sohasidagi jinoyatlar 2021 yilga nisbatan 1,56 barobar o'sdi. Ekologik sohada eng ko'p uchraydigan jinoyatchilik turlariga: yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish, ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish, hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish, atrof tabiiy muhitni ifloslantirish kabilar uchraydi. Ko'rinib turibdiki, ekologik jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish, ichki ishlar organlari xodimlarining ekologik jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha faoliyatini ilmiy, uslubiy, tashkiliy va boshqaruv jihatdan yetarli darajada ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tabiiy resurslarni muhofaza qilishni takomillashtirish masalalari hamda xalqaro tajribadan foydalanish masalalari jinoyat huquqi, kriminalistika sohalari olimlarining ishlarida yoritilgan bo'lib, D.U.Aripov, U.T.Ayubov, Y.O.Jo'rayev, R.X.Kenjaye, M.R.Mirzaabdullayeva, O.X.Narzullayev, M.M.Nurmatov, N.Sh.Rajabov, J.I.Safarov, N.K.Skripnikov, M.B.Usmonov, O.D.Utegenov, Sh.X.Fayziyev, J.T.Xolmo'minov kabi mamlakatimiz olimlarning ilmiy asarlarida

aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning ayrim huquqiy jihatlari o'rganilgan [6].

Jinoyat huquqi sohasidagi kriminologlar Y.I.Lyapunov, E.N.Jevlakov, O.L.Dubovik, Y.A.Timoshenko kabi olimlarni ishlarida ekologik jinoyatlarni tergov qilish masalalarini tadqiq etgan[3].

Ushbu tadqiqotda umumiy ilmiy va maxsus usullardan: taqqoslash, tarixiy, statistik usullardan keng foydalanildi. Ekologiya huquqi, kriminologiya, kriminalistika oid adabiyotlar o'rganildi.

Natijalar

Ma'lumki, zamonaviy texnikalar har doim qimmatli, inson faoliyatining murakkab muammolarini ijobiy hal qilish vositasi bo'lib kelgan. U o'ziga xos afzallikka ega ya'ni ekologik jinoyatlarga qarshi faol kurash olib borishga ko'maklashish va uning kriminalistik xususiyatlarini o'rganish, ularni tergov qilish bo'yicha dalillarni to'plash va shu orqali jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va oldini olish bo'yicha faoliyatni takomillashtiradi. Shu nuqtai nazardan kriminalistika fani xorijiy davlatlarda ekologik jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish bo'yicha atrof-muhitni muhofaza qiluvchi organlar ma'lumotlari, ilmiy texnika mahsulotlari, g'oyalar, xulosalar va takliflaridan foydalanadi. Xorijiy tergovchilar, ekspertlar, sudyalarning ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish va ekologik jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasini takomillashtirishda ijobiy amaliy natijalardan foydalanishni yaxshi tomonlari mavjud.

Quyidagi holatlar ekologik jinoyatlarni tergov qilish usullari bo'yicha mamlakatlararo o'zaro tajriba almashish uchun sharoit yaratadi:

1) *davlatlarning atrof-muhitni noqonuniy antropogen ta'sirlardan himoya qilishda umumiy manfaatlarining mavjudligi;*

2) *sodir etilgan ekologik jinoyatlar soni va ular yetkazadigan zararning ahamiyati.* Hozirga qadar inson faoliyati natijasida barcha yovvoyi sutemizuvchilarning 83% va o'simliklarning yarmi allaqachon Yer yuzidan yo'q bo'lib ketgan. Bu oziq-ovqat va sog'liq tizimlariga tahdid soladi¹.

3) *ekologik jinoyatlarning transchegaraviy xususiyati.* Ekologik jinoyatlarning transchegaraviy xususiyati ham turli jihatlarda namoyon bo'ladi: tuproq, atmosfera, suv(daryo)ning ifloslanishi, tabiiy obyektlarning vayron bo'lishi va shikastlanishi davlat chegaralari bilan cheklanmaydi[1]. Ekologik jinoyatlarni sodir etishga ixtisoslashgan uyushgan jinoiy guruhlar odatda bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlar hududiga o'z ta'sirini yoyishadi;

4) *mamlakatlarda ekologik jinoyatlarga qarshi kurashishda huquqiy sohaning rivojlanishiga e'tiborning kuchayishi.* Bugungi kunga kelib, xalqaro ekologik huquqni rivojlanishi jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribalar ancha boyitildi.Tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro huquqiy bazaning ancha yuqori darajada rivojlanishi, uning fan va amaliyot tomonidan sinovdan o'tgan qat'i mezonlar asosida yaratilayotganligini ko'rish mumkin[5].

5) *xalqaro tashkilotlarning aloqalari.* Ekologik jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda huquqni muhofaza qilish organlar dasturi va hamkorligi. Masalan, UNEP (BMTning atrof-muhit dasturi) va h.k.

¹ <https://www.golosameriki.com/a/global-risks-2020-report/5245744.html>

Yuqorida ekologik jinoyatlarni tergov qilish muammolarini hal qilishda xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatining ayrim jihatlari keltirib o'tildi. Uning ayrim tomonlari ham borki, ekologik jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha xalqaro tajribaning salohiyati mahalliy kriminalistik ishlanmalarida, ushbu jarayonlarni murakkablashtiradigan sharoitlar mavjudligi yetarli darajada hisobga olinmaydi. Shuningdek, huquq tizimlaridagi tafovutlar, atrof-muhitni saqlashga tajovuz qiluvchi ayrim xatti-harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortishda yagona yondashuvning yo'qligi kabi holatlarni ham keltirib o'tish joiz.

MDH davlatlarining ekologik jinoyatlarni tergov qilish tajribasi asosan bir birinikiga o'xshashdir. Ekologiya sohasidagi mamlakatlar jinoyat qonunchiligining umumiy qoidalari, ekologik jinoyatlarni tergov qilish, jinoyatlarning ayrim turlarini tergov qilish usullarini shakllantirishda yagona sud-tibbiy an'analar, transmilliy jinoyatlarning bir qismi sifatida ekologik jinoyatlardan xabardorlik va boshqalarda namayon bo'ladi. Ba'zi jihatlari masalan atrof-muhit uchun javobgarlik to'g'risidagi ayrim qonunchilik normalarini shakllantirish nuqtai nazaridan MDH davlatlarida farqli tomonlar mavjud.

Ekologik jinoyatlarga qarshi kurashishda boshqa xorijiy mamlakatlarni ilm-fan yutuqlaridan foydalanish tajribasini ham o'rganish foydadan holi emas. Masalan, ekologik jinoyatlarni ochishda dronlardan foydalanish ko'lami AQShda ancha yuqori. Yopishqoq to'r va uxlatuvchi tabletkalari bilan otiladigan mexanizmlar bilan jihozlangan dronlar avlodi yaratilgan bo'lib, brakonerlarni ushlashda muvaffaqiyatli foydalaniladi[4].

Britaniya politsiyasida esa ovoz bilan video yozish imkonini beruvchi multikopterlardan foydalanadi. Ularning videokuzatuv tizimi va termal tasvir kamerasi bilan jihozlangan dronlardan foydalanishi yomon ko'rish sharoitida (masalan, qalin tumanda) jinoyatchini qidirishda o'z samaradorligini ko'rsatdi. Shuningdek, ular jinoyatchilarni ta'qib qilish uchun operatsiyalarda dronlardan foydalanishni rejalashtirmoqda[4].

Dubayda politsiya dronlari ekologik tartibni nazorat qilib, ruxsatsiz chiqindi tashlash holatlarini nazorat qiladi. Xitoyda jangovar robotlar kimyogar va razvedkachi bo'lib xizmat qiladi. Robot zaharli moddalarni aniqlaydi, ularning mavjudligi to'g'risida darhol maxsus kuchlarning harbiy xizmatchilariga ma'lumot uzatadi. O'ta xavfli zaharli moddalar bilan jiddiy ifloslanish bilan bog'liq ekologik jinoyatlar uchun, voqea joyiga tergov guruhining xavfsiz yetib borishi mumkinligi masalasini hal qilish zarur bo'lganda, bunday texnikalardan foydalaniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat ijtimoiy jihatdan tasdiqlangan maqsadlarga erishish uchun, balki noqonuniy maqsadlarda ham qo'llanilishini hisobga olsak, jumladan jinoyatchilar o'z faoliyatida xavfsizligini ta'minlash uchun dronlardan foydalanishi ham mumkin. Bunday tahdidning oldini olish uchun Tokioda allaqachon mavjud bo'lgan texnik yechimdan foydalanadi: yirik kvadrokopterlar ruxsat etilmagan dronlarni to'r bilan tutib olish uchun ishlatiladi.

Texnologiyadan foydalanishning ushbu variantlari, ayniqsa, O'zbekistonda odamlarning ekologik jinoyatlarni (noqonuniy daraxt kesish, atrof-muhitni ifloslantirishi, biologik resurslarni noqonuniy yig'ish) fazoviy kuzatish va sodir bo'lgan joydan qochishga urinishlarida samarali foydalanish mumkin.

O'zbekiston muntazam ravishda MDH davlatlari huquqni muhofaza qilish organlarining tajriba almashishi uchun tashkil etilgan platformalarda ham, mamlakatlararo ekologik jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va tergov qilish bo'yicha axborot almashishda ishtirok etadi.

MDHga a'zo davlatlar hududida uyushgan jinoyatchilik va jinoyatlarning boshqa xavfli turlariga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish byurosining faoliyati xalqaro hamkorlikda katta ahamiyatga ega. Mazkur o'zaro hamkorlik doirasida ekologik jinoyatlarning oldini olish va ularga chek qo'yish bo'yicha qo'shma davlatlararo profilaktik, tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, suv resurslarini ifloslantirish, tabiiy resurslarni noqonuniy qazib olish, noqonuniy ov qilish va o'rmon plantatsiyalarini noqonuniy kesish bilan bog'liq ekologik jinoyatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuni ham hisobga olish kerakki, keying vaqtlarda O'zbekistonga qo'shni davlatlar bilan tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida aloqalarni rivojlantirmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida va ko'p tomonlama konvensiyalar doirasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Ekologik jinoyatlarni tergov qilish usullarini shakllantirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va ulardan foydalanish jarayonini mahalliyashtirish orqali osonlashtirish mumkin, deb hisoblaymiz. Ekologik jinoyatlarni tergov qilish va tabiiy resurslarni muhofaza qilishning boshqa masalalari bo'yicha ilg'or xorij tajribalarni o'rganish zarur.

Shuni hisobga olish kerakki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda o'ziga xos ijtimoiy institutlar tizimi mavjud. Muayyan ijtimoiy institutni tashkil etish, tizimlashtirish, har tomonlama ta'minlash muammoni tez, yuqori professional darajada aniqlash, uni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ularni davlat organlariga, jamoat va siyosiy tashkilotlarga, muayyan faoliyat sohasidagi amaliyotchilarga taklif qilish imkonini beradi.

Xorij davlatlarida atrof muhit va uni asrash bo'yicha ma'lum darajada ishlar qilingan[7]. Masalan, Germaniyada maxsus "ekologik detektivlar" mavjud bo'lib, ular patrul paytida ekologik jinoyatlarni aniqlashdan tortib, atrof-muhitni maishiy chiqindilar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida fuqarolar bilan profilaktika tadbirlarini o'tkazishgacha bo'lgan katta hajmdagi ishlarni bajaradilar. Umuman, Germaniya ekologik jinoyatlarni tergov qilishda katta tajribaga ega bo'lib, 1980-yillarda bu mamlakatda ichki ishlar va prokuratura organlarida maxsus boshqarmalar tashkil etilgan, ularning xodimlari ekologik jinoyatlarga qarshi kurashish, ularni tergov qilish va oldini olishda katta tajriba, bilim to'plagan. Nemis tergovchilari kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda tez va professional tarzda jinoyatning muayyan turini tergov qilish algoritmini tuzadilar, turli tergov holatlarini taqlid qiladilar, ularning sa'y-harakatlari va qidiruv ijodiy faoliyatini aniq belgilangan vazifalarni hal qilishga yo'naltiradilar[2].

Isroilda atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi tarkibidagi "Yashil politsiya" ekologik huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni tergov qilish, jarima solish va hibsga olish vakolatiga ega. Shuningdek, Hindiston va Avstraliyada atrof-muhit sudi, AQSh Vermont atrof-muhit sudi mavjud.

Yuqorida ekologik jinoyatlar va ularni oldini olishda ma'lum darajada ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ba'zi bir davlatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan tavsiya etilgan muayyan ekologik majburiyatlarni qabul qilishdan bosh tortadilar. Misol uchun, atmosferaga karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish global muammosi qanchalik muhim, ammo ayrim rivojlangan davlatlar Kioto protokoli deb ataladigan hujjatlarni va bu sohadagi boshqa hujjatlarni imzolashdan bosh tortadi yoki talablarni bajarmaydi, o'zining iqtisodiy salohiyatini kamaytirishni istamasligi bilan izohlaydi. Bu holatda hech qanday majburlash mexanizmlari mavjud emas. Ekologik huquqiy munosabatlarning ko'plab subyektlari bilan bunday holatlar juda ko'p.

Xulosa

O'zbekistonda ekologik jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasini ishlab chiqish jarayonida tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro ijobiy tajribani o'rganish va joriy etish bo'yicha barcha masalalarni tahlil qilish ba'zi xulosalar va umumlashmalarga kelishga imkon beradi.

Ekologik jinoyatlarni tergov qilish usullarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro tajribani o'rganish va joriy etish jarayonini mahalliyashtirish zarur. Ekologik jinoyatlarni va tabiiy resurslarni muhofaza qilishning boshqa masalalarini tergov qilish bo'yicha ilg'or tajribalarni (shu jumladan xalqaro) o'rganish va joriy etish bo'yicha idoralararo Ekologik sud ekspertizasi markazini tashkil etish, shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida ekologiya politsiyasini tashkil etish taklif etilmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Makmudov, B. (2023, February). REGIONAL APPROACH IN STUDYING THE CRIMINOGENE SITUATION OF KOKAN CITY. In E Conference Zone (pp. 1-3).
2. Schwindt H. Kriminologie eine praxisorientierte Einfuehrung mit Beispielen. Heidelberg: Kriminalistik Verl., 1997. 745 s. (Grundlagen der Kriminalistik; bd. 28).
3. Васильева М.А. Концептуальные основы методики расследования экологических преступлений. 12.00.12 - дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2021. 519 с.
4. Жданов Ю. Н., Овчинский В. С. Полиция будущего. -М., 2018. с. 111.
5. Соколова Н. А. Международно-правовые проблемы управления в сфере охраны окружающей среды. М., 2010. С. 214-269.
6. Узақова Г.Ш. Аҳоли пунктларида табиий ресурслардан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий тартиби. 12.00.06- юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертация автореферати. -Т:,2021
7. Takhirovich, I. O. (2023). IMPACT OF URBANIZATION AND ECOLOGICAL FACTOR ON CRIME. Conferencea, 97-99.

12.00.00 – Юридик фанлар

Икромов Шерзод Рахимджанович
Ўзбекистон Республикаси Миллия гвардияси
Жамоат хавфсизлиги университети Олий таълимдан
кейинги таълим факультети докторанти, подполковник

ЕТИМ БОЛАЛАР ВА ОТА-ОНА ҚАРМОҒИДАН МАҲРУМ БЎЛГАН БОЛАЛАРГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАРНИ СИР САҚЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУАММОЛАРИ

Annotatsiya. Мақолада Миллий гвардия ҳамда васийлик ва ҳомийлик органлари томонидан етим болалар ва ота она қармоғидан маҳрум бўлган болаларни фарзандликка олиниши, васийлик, ҳомийлик белгиланиши ёки тутинган оилага беришда шахсий маълумотларни сир сақланишига оид масалаларнинг амалий жиҳатлари тадқиқ этилган.

Kalit soʻzlar: Миллий гвардия, бола ҳуқуқлари, вояга етмаган, фарзандликка олиш, сир сақлаш, етим бола, ота она қармоғидан маҳрум бўлган бола.

Икромов Шерзод Рахимджанович
Докторант факультета постлевузовского
образования, Университета общественной
безопасности Национальной гвардии
Республики Узбекистан, подполковник.

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТИ ИНФОРМАЦИИ О СИРОТАХ И ДЕТЯХ, ЛИШЕННЫХ РОДИТЕЛЬСКОЙ ПОМОЩИ

Аннотация. В статье рассматриваются практические аспекты вопросов, касающихся сохранения конфиденциальности персональных данных Национальной гвардии и органов опеки и попечительства при усыновлении, установлении опеки, попечительства над детьми-сиротами и детьми, оставшимися без попечения родителей, или передачи их семье, находящейся под опекой.

Ключевые слова: Национальная гвардия, права ребёнка, несовершеннолетний, усыновление, сохранение тайны, ребёнок-сирота, ребёнок лишенный родительской опеки.

Ikramov Sherzod Rahimdjanovich
Doctoral student of the Faculty of Postgraduate
Education, University of Public Security of the
National Guard of the Republic
of Uzbekistan, lieutenant colonel.

LEGAL ISSUES OF PRIVACY OF INFORMATION ABOUT ORPHANS AND CHILDREN WITHOUT PARENTAL ASSISTANCE

Annotation. The article deals with practical aspects of issues related to the confidentiality of personal data of the National Guard and guardianship and guardianship authorities during adoption, establishment of guardianship, guardianship of orphaned children and children left without parental care, or their transfer to a family under guardianship.

Keywords: National Guard, child rights, minor, adoption, secrecy, orphan child, child deprived of parental care.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N27>

Мустақиллик йилларида БМТ Бош ассамблеясининг Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги конвенциясининг асосий тамойил ва қоидалари Ўзбекистон Республикаси Конституциясига имплементация қилиниб, бола ҳуқуқини ҳимоя қилишга бағишланган устувор қоидалар мустаҳкамланди. Улар асосида Ўзбекистон Республикасининг Оила, Меҳнат, Фуқаролик, Уй-жой, Жиноят, Жиноят-процессуал, Маъмурий-жавобгарлик тўғрисидаги кодекслари ҳамда “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги, “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги, “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги, “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонунлари қабул қилиниб, болаларнинг ижтимоий ҳимояси, ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлашнинг ҳуқуқий асослари яратилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ўзининг “Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик” номли асарида “Мамлакатимизда бола туғилганидан бошлаб, 30 ёшгача бўлган даврда уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлайдиган, ҳаётда муносиб ўрин топиши учун кўмак берадиган, яхлит ва узлуксиз тизим яратилади”, дея таъкидлади [1]. Шунга кўра, Янги Ўзбекистонда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлами бўлган етим болалар ва ота она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни қўллаб-қувватлашнинг мутлоқ янги тизими жорий этилмоқда. Бунинг ёрқин мисоли сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6012-сон Фармони қабул қилинганлиги ва унда миллий стратегиянинг асосий вазифаси этиб:

PROBLEMS OF GEOGRAPHY EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES

Abstract: This article covers the fact that school is a vitally necessary Science for the development of a broad outlook and systemic thinking in students through geography education. The subject of geography is also considered the issues of teachers ' use of effective methods in education. Also, the results of research carried out by scientists from bir nechta developed countries of the world on the methodology of geography education were analyzed and comparison work was carried out.

Key words: geography, map, learning difficulties, teaching methods, field research, competence



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N30>

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida maktab ta'limida e'tibor qaratiladigan asosiy jihatlardan biri o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. Jahon ta'limida yechilishi kerak bo'lgan ko'pgina muammolar mavjud. Olimlar ushbu muammolarni o'rganib ijtimoiy, psixologik va pedagogik tomonlarini ko'rib chiqdilar. Maktab ta'limidagi muvaffaqiyatsizliklarning umumiy va alohida jihatlari turli mavzularda muhokama qilindi. Geografiya fani ham bundan mustasno emas.

Tadqiqotchilar tomonidan AQSh, Irlandiya, Finlyandiya, Germaniya, Niderlandiya, Xitoy, Yaponiya va Rossiya mamlakatlaridagi maktab o'quvchilari va o'smirlarga geografiya fanini o'qitishdagi qiyinchiliklar muammosi hamda uni ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tajribalar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi maktab geografiya fanining holati fan mutaxassislari kutgan darajada emas. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishi past va ular bu o'quv fanini qiyin deb hisoblashadi. Shuningdek, muammolarni hal qilish usullari va ta'limi sifatini oshirishda eng samarali bo'lgan o'qitish usullari keltirilgan. Ko'rib chiqilgan barcha tadqiqotlarning natijalari ta'lim amaliyoti uchun katta ahamiyatga ega, chunki geografiya fanidan tushuncha va bilimga ega bo'lgan inson sayyoramizga g'amxo'rlik qila oladi, uni qadrlaydi hamda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan dunyoda uyg'un yashay oladi degan fikr ilgari suriladi.

Qayd etilishicha, geografiya insonlarning mas'uliyatli va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan hayotiy fan hisoblanadi. O'zaro integratsiyalashgan dunyoda XXI asr insonlari uchun munosib va mas'uliyatli qarorlar qabul qila olishi uchun geografik savodxonlik zarur. Geografik bilimi bor insonlar atrof-muhit va sayyoramiz ne'matlariga g'amxo'rlik qiladi, qadrlaydi va barcha tirik mavjudotlar bilan uyg'unlikda yashay oladi [3].

2016-yilda geografiya ta'limi bo'yicha xalqaro Xartiya qabul qilindi. Ushbu Xartiyada mutaxassislar bir qancha muhim masalalarni o'rta tashladi, masalan:

- o'quvchilarning geografiya faniga oid bilim va malakalari qanday?
- o'quvchilarning fandagi muvaffaqiyati deganda nimani tushunamiz? Ularni qanday qilib eng yaxshi baholash va uning uchun qanday mezon zarur?
- geografiya ta'limi sifatini yanada oshirish uchun samarali o'qitish usullari, texnologiyalari va o'quv materiallarining ahvoli qanday?
- geografiya fani bo'yicha ta'lim sifatini oshirishda qaysi o'qitish usullari eng samarali hisoblanadi?
- maktablarda geografiya fanini o'qitish sifati va geografik bilimlarning darajasini oshirish uchun geografiya o'qituvchilarini tayyorlashni qanday yaxshilash mumkin [11].

Bir qancha tadqiqotchilar geografiya fanidan o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darslarda xaritalardan, jumladan geografik axborot tizimlaridan (uch o'lchamli xaritalar, sun'iy yo'ldoshdan olingan suratlar, aerofotosuratlar va h.k.) foydalanish yaxshi samara beradi, bu esa o'quvchilarga yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi deb hisoblaydi. Shuningdek, takomillashgan o'qitish usullaridan foydalanish fazoviy idrok etishni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Geografiya o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish uchun eng muhim fanlaridan biri hisoblanadi. Bu xulosa Finlyandiya, Germaniya va Gollandiyadagi o'rta maktab o'quvchilarining bilimi va dunyoqarashini o'rgangan mualliflarning fikridir [39]. Bu o'tkazilgan tadqiqotda uch mamlakat maktab o'quvchilarining fikrlari o'rganildi va so'rovnomada olindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra turli mamlakatlardan kelgan o'quvchilar o'xshash qardiyatlar, bilim va ko'nikmalarga ega jamiyatda muvaffaqiyatli o'zaro munosabatda bo'lishlariga imkon beradi. So'rovnomada mamlakatlar bir-birlari bilan qanday bog'langanligi, insoniyatning global muammolarini yechishning qanday samarali usullarini bilasiz kabi savollar berildi. Ilmiy tadqiqot ishi mualliflarining tahlillariga ko'ra dunyoqarashning keng rivojlanishiga ko'plab omillar ta'sir qilishini va bunda eng asosiy o'rinlardan birini geografiya fani egallashi ma'lum bo'ldi. Bu fanning kuchli jihati shundaki, geografiya global muammolar va global o'zaro bog'liqlik haqida bilim beradi, shuningdek, global xabardorlikni oshiradi [10].

AQShning Janubiy Korolina universiteti tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, bosma va raqamli xaritalar bilan ishlash o'quvchilarning dunyoqarashini va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi degan xulosaga kelindi [14].

Tokio universiteti tadqiqotchisi Toru Ishikava o'z tadqiqotlarida kim tez-tez yurish paytida navigatordan foydalanadigan bo'lsa fazoviy qobiliyatlarning past ko'rsatkichlariga ega, Aksincha, uzoq vaqtdan beri bosma xaritalardan foydalanganlar fazoviylik darajasi yuqori ekanligini isbotladi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra avtomobil navigatsiya tizimlaridan foydalanishda katta tajribaga ega bo'lgan insonlar kam sayohat qilishadi va yo'nalishlarni bosma xaritadan foydalangan holda esa ko'proq o'rganadi degan yakuniy xulosaga kelindi.

Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Zankov kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini tarbiyalashda geografiya fani alohida ahamiyatga ega, chunki u bolani jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirishini ta'kidlab o'tdi. L.V.Zankova va A.N.Kazakov 2- va 3-sinflar uchun geografiya fanidan darslik yozgan, shu orqali fanga qiziqishni uyg'otishga hamda ona yurtiga bo'lgan muhabbatning ortishiga sabab bo'lgan.

Shanxay universiteti olimlarining tadqiqot natijalariga ko'ra geografiya fani o'quvchilarning rivojlanishiga boshqa fanlarga qaraganda eng katta ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Shuningdek, geografik bilimlarining aksar qismi yosh bolalar uchun qiyin va zerikarli ekanligini, bunday bo'lishining asosiy sababi geografiyaning murakkab fan ekanligi bilan izohladilar.

Geografiya fanida birbutunlik, tizimlilik va uyg'unlikni ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ayrim obyektlar, hodisa va jarayonlarning geografik ko'rinishi har doim murakkab ko'rinishga ega. Buning ajablanarli joyi yo'q N.N.Baranskiy "Geografiya bir barmoq bilan emas, balki bir nechta barmoqlar bilan o'ynaydi" deb yozgan edi [2].

Buyuk Britaniyalik olim N.Xorvud tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham e'tiborga loyiqdir. U intervyu orqali o'smirlarning maktab geografiyasi haqidagi tasavvurlarini o'rgandi. N.Xorvud o'z ishida bolalarning maktab geografiyasi va geografiya fani haqida qanday tasavvurga ega ekanliklari haqida tadqiqot natijalariga ko'ra, bu fan haqida yetarli tushunchaga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Maktabda geografiya ta'limi sifatini oshirish zarur degan xulosaga keldi.

Hozirda dunyoning ko'pgina davlatlarida geografiya fani 5-sinfdan boshlanadi. Boshlang'ich maktabda esa geografiya "Tabiatshunoslik" yoki "Ijtimoiy fanlar" tarkibiga kiritilgan.

Hozirgi vaqtda geografiya fani dunyodagi ko'pgina mamlakatlarning maktablardagi haqiqiy o'rni har doim ham ushbu fanning ahamiyatiga mos kelmaydi. Mashhur rus geografi V.P.Maksakovskiyning so'zlariga ko'ra, "Geografiya maktabda go'zal xonim bo'lgan vaqtlar allaqachon o'tib ketgan va uning nufuzi pasaymoqda" degan edi [4]. Rus tilidagi matbuot nashrlarida ham shunday bayonotlar borki, unda geografik bilimlarning darajasi pasayib bormoqda hamda o'quvchilarning fanga qiziqishi esa kam deyilgan.

Xuddi shu muammo ayrim xorijiy tadqiqot natijalarida ham qayd etilgan. Geografiya darslarida o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rgangan Filippinlik olimlar o'quvchilarning ushbu fanga qiziqishi pasayganini qayd etgani holda o'qituvchilar o'z o'quvchilarining motivatsiyasining pastligini geografiya kursida yodlash kerak bo'lgan juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi bilan izohlashadi. Maktab geografiyasida matematikaga oid mavzular ham mavjud. Shu bilan birgalikda, geografik tushunchalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan matematika bo'yicha bilim va ko'nikmalar avval geografiyada, keyinchalik esa matematika kursida o'rganilishi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, o'quvchilar uchun o'zlashtirishda qiyin bo'lgan jihatlarga kartografiya va xaritalarda kerakli ma'lumotlarni topishda qiynalishlarini aytib o'tish mumkin.

Irlandiya maktablarida ham geografiya fanini o'quvchilar o'rganadi. Geografiya ta'limi orqali o'quvchilar o'z hududi, o'lkasi va jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Geografiya yordamida insonning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun muhim deb hisoblashadi. Bularning barchasi o'quvchilarning ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash uchun muhimdir. Bundan tashqari, aynan geografiya boshqa fanlar bilan integratsiyalashuv uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun Irlandiyada o'qituvchilar uchun mazkur yo'nalishda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Turkiyaning Eskishehir Osmangazi universitetida 2018-yilda o'tkazilgan tadqiqotda geografiya o'qituvchilari qanday muammolarga duch kelayotganligi va geografik bilimlarni targ'ib qilish uchun nima qilish kerakligini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot so'rovnomasida Turkiyaning to'qqizta hududidan 212 nafar geografiya o'qituvchisi ishtirok etdi. Respondentlarning yarmidan ko'pi o'quvchilar bilan ishlashda muammolar bor ekanligini aytib o'tgan. So'rovnomada o'qituvchilarning 25,7 foizi o'quvchilarning muvaffaqiyatsizligining asosiy sababini motivatsiyaning pastligi, geografiya darslariga qiziqishning kamligida deb ko'rishadi. O'qituvchilarning 17,4 foizi nima uchun darsni yaxshi tashkil eta olmaganliklarini tushuntirib, sababini aytib berishadi. Muammoning 13,4% i sinfda o'qishning ikkinchi yilida qolib ketgan o'quvchilar borligi va ularning xatti-harakatlari ta'lim sifatini pasaytiradi deb biladi. O'qituvchilarning 10,9 foizi o'quvchilarning sinfdagi yomon xulq atvoridan, 3,9 foizi o'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'lgan qiyinchiliklariga ota-onalarning farzandlarining ta'lim-tarbiyasiga qiziqishi yo'qligida, deb hisoblaydilar. Tadqiqotda olingan natijalar asosida mualliflari bir qator takliflarni ishlab chiqdilar va o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida ushbu muammolarni yechish yo'llari o'rgatiladigan bo'ldi.

Avstraliyaning Monash universiteti tadqiqotchilari suhbatlar orqali geografiya fani bo'yicha talabalar va o'qituvchilarning geografiya o'quv dasturida keng tarqalgan turli mavzularga qiziqishlarini uyg'otishga harakat qilishdi. Ma'lum bo'lishicha, o'qituvchilar va ularning shogirdlari manfaatleri bir-biriga to'g'ri kelmaydi. O'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan mavzular o'qituvchilar uchun mutlaqo qiziq emas va aksincha. Tadqiqot muallifi, olingan

ma'lumotlardan darslik mualliflari, o'qituvchilar tomonidan darslarga tayyorgarlik ko'rishda foydalanish kerakligini taklif qiladi, chunki o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish umuman o'quv natijalarini yaxshilaydi [13].

Muvaffaqiyatli o'qituvchilarning xususiyatlarini o'rgangan Amerikalik tadqiqotchilar samaradorlik ikki omildan iborat degan xulosaga keldi:

- o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini;
- birinchi, bilim va o'qitish usullarining o'zgarishi.

Shaxsiy fazilatlariga do'stona munosabat, hazil tuyg'usi, o'zgarishga tayyorlik, izchillik, muloqot qobiliyatlari kiradi. Samarali o'qituvchining kasbiy mahorati fanni yaxshi bilishi, o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun turli texnika va usullardan foydalana olishi, dars vaqtidan unumli foydalana olishi, savol bera olishi, rivojlanishini nazorat qilishi kabi xulosaga kelish mumkin.

Ayrim xorijiy tadqiqotchilar geografiya fanini o'qitishdagi muammolarni va muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etishga yordam beradigan turli xil o'qitish usullari va texnologiyalaridan foydalanishni taklif qiladilar.

Zamonaviy dunyoda geografiya fani oldida jamiyatni tashkil etishning oqilona usullarini tanlash uchun tabiatning alohida komponentlaridagi o'zgarishlarni baholash va prognozlash bilan bog'liq yangi vazifalar turibdi. Shu munosabat bilan maktab geografiasining mazmuni ham o'zgarishi kerak. Bunday o'zgarishlar Vengriyaning o'quv rejaları va dasturlarida geografianing o'rniga "Yer va bizning atrof-muhit" kursi paydo bo'ldi. Avstriyada "Geografiya va iqtisod" fani o'rganilmoqda. Norvegiyada geografiya tabiiy fanlarni o'z ichiga qamrab olgan "Tabiatshunoslik" (Science) faniga birlashtirilgan. O'qitish usullari ham takomillashtirilmoqda.

So'nggi paytlarda zamonaviy ta'limda muammoli, tadqiqot (shu jumladan, dala tadqiqoti) va loyihaga asoslangan o'qitish usullariga qiziqish ortib bormoqda. Psixologlarning fikriga ko'ra, aynan shu usullar o'quvchilarga o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishga imkon beradi.

Dala tadqiqot usuli geografianing eng qadimgi tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi, zamonaviy sharoitda ham u eng samarali usul hisoblanadi. Masalan, Serbiyaning Belgrad universitetida o'tkazilgan tadqiqotda geografiya yo'nalishi talabalarining dala tadqiqot usulining afzalliklari haqidagi fikrlari o'rganildi. Jami 215 nafar talaba metodning quyidagi afzalliklarini qayd etdi: o'quvchilarning o'rganilayotgan obyekt bilan bevosita aloqasi, geografiani o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining oshishi, talabalar o'rtasida shaxslararo munosabatlarning yaxshilanishi kabilarni ko'rishimiz mumkin edi [12].

Niderlandiyaning Kapella universiteti tadqiqotchilari "Munosabatli geografik fikrlash geografik tafakkurning bir qismidir" – degan fikrni aytib o'tadi. Universitet tadqiqotchilarining maqsadi talabalarining geografik munosabatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadigan geografik munosabatlarni o'rnatish qobiliyatining dalillarini topish edi. Tadqiqotda maktab o'quvchilarining kichik guruhlariga geografik topishmoqlarni yechish jarayonida ishtirok etishdi. Topishmoqlar o'qituvchilar tomonidan bir nechta darslarda ishlatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba boshida o'quvchilar geografik topishmoqlar bilan bog'lanish va o'zaro bog'lanishni o'rnatishda qiyinchiliklar mavjud edi. Talaba guruhlarining muhim qismi munosabatlarning o'zaro bog'liqligini tushunishda qiyinchiliklarga duch keldi. Biroq,

o'quvchilar topishmoqlar yechishni mashq qilgan bir necha darslardan so'ng, bu qiyinchiliklar bartaraf etildi.

Rossiya geografiya ta'limida geografiyani o'qitishga katta e'tibor beriladi. Tadqiqotchi S.P.Sanina geografiyani o'qitishda muammoli topshiriq texnologiyasidan foydalanish ta'lim sifati va mazmunini o'zgartirishga xizmat qilishini isbotladi.

Rossiyalik tadqiqotchilar M.A.Melnikova-Poddubnaya va M.I.Podbolotov o'z ishlarida boshlang'ich va o'rta maktablarida geografiyani o'qitishda modellashtirish usulining samaradorligini tavsiflovchi qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Tadqiqot natijalari eng samarali va esda qolarli yorqin, faol bo'lishini ko'rsatdi. Ushbu usullardan bir vaziyatni modellashtirish usuli bo'lib, u yangi materialni o'zlashtirish uchun ham, olingan bilimlarni mustahkamlash uchun ham mos keladi [5].

So'nggi paytlarda sinektika usuli ta'lim tadqiqotchilari va amaliyotchilari orasida tobora ommalashib bormoqda. Tadqiqotchi M.N.Koksharova kompetensiyali yondashuv asosida geografiyani o'qitish jarayonida sinektika metodidan foydalanish noaniqlik sharoitida nostandart qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan tashqari, ushbu usuldan foydalanish ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishga shuningdek, assotsiativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi degan xulosaga keldi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar qanday usul va vositalardan foydalanmasin, geografiyani o'qitishdagi asosiy ish o'qituvchining o'ziga tegish ekanligini aytib o'tish joiz. Bu, birinchi navbatda, geografiya ko'pincha fanlararo kursning bir qismi sifatida o'rganilishi, geografiyadan tashqari, biologiya, kimyo, fizika, tarix yoki ijtimoiy fanlarni o'z ichiga olganligi bilan izohlanadi. Bunday darsni geografiya o'qituvchisi deyarli o'qitmaydi va bunda geografik mavzular sayoz yoritilishiga sabab bo'ladi. Demak, bu fan yordamida o'quvchilarda nafaqat geografiyani bilish, balki ma'lum qobiliyatlarni shakllantirish uchun o'qituvchining fakt va atamalarni bilishi yetarli emas. Bu fakt va tushunchalarni boshqa o'quv fanlari va hayotning o'zi bilan uyg'unlashtira olishi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni o'rnata olishi kerak. Bundan tashqari, u o'quvchilarga bilimlarni yetkaza olishi emas, balki kerakli ma'lumotlarni o'zlari topishi va bilimga ega bo'lishi uchun ularga o'rgatishi muhimdir. Shunday qilib, rivojlanayotgan sharoitda o'quvchilar faoliyatini tashkil eta oladigan yuqori malakali o'qituvchi geografiya fanidan o'quvchilar muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Geografiyani o'qitish muammosi ko'pgina xorijiy mamlakatlarda va nashrlarda keng muhokama qilinmoqda. Buni o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishining pasayishi tendentsiyasi ko'rsatmoqda. Bu maktab o'quvchilarining geografiya fanini o'rganishdagi o'quv muvaffaqiyatsizligining asosiy sababidir. Geografiya fanini o'qitishdagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sababi sifatida darsliklarda yodlash uchun juda ko'p ma'lumotlar, juda ko'p murakkab atamalar mavjud. Shuningdek, matematika fanidan kartografiyaga oid mavzular geografiyaga qaraganda maktab dasturida kechroq o'rganiladi, shuning uchun o'quvchilar xarita bilan ishlashni yaxshi bilmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda geografiya fanidan o'quvchilarning ta'lim muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradigan omillar tahlil qilindi. Avvalo, bular bolaga yo'naltirilgan ta'lim, tadqiqot metodi, dala tadqiqoti metodi kabilardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'pchilik insonlar xaritalar o'rniga navigatorlardan tobora ko'proq foydalanmoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak, xaritalarni maktab geografiyasining bo'limi sifatida endi o'rganish uchun ahamiyatli emas degan fikrlar ham mavjud.

Shuningdek, quydagi ba'zi xulosa va tavsiyalarni berish mumkin:

- o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish uchun o'quv jarayoniga dala tadqiqotlarini kiritish tavsiya etiladi. Eng samarali amaliyotlar bir nechta o'quv fanlarini, masalan, geografiya, biologiya, fizika, kimyo va boshqalarni birlashtirganda yanada samarali bo'ladi;

- zamonaviy geografiya darslarini o'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratish va turli mamlakatlar o'quvchilari o'rtasida konferensiyalar, veb-forumlar va qo'shma loyihalarni amalga oshirish lozim;

- o'rta maktabda geografiya darslariga mashhur olimlar va universitet professorlari taklif qilish orqali geografiya o'qitishda ijobiy natijalarga erishish mumkin;

- geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ishlab chiqilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuqori samara beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Горбанев В.А. Еще раз о единой географии / В.А. Горбанев // Международный научно-исследовательский журнал. 2016. № 10 (52) Часть 4. С. 53—58. doi:10.18454/IRJ.2016.52.121
2. Мельшкова-Поддубная М.А., Подболотова М.И. Метод ситуационного моделирования как ресурс системнодеятельностного подхода в обучении географии // Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Естественные науки. 2013. № 2. С. 102—108.
3. Михеева В.С. Методологические проблемы математического моделирования в географии // Теоретическая география. М.: Мысль, 1971. С. 76—81.
4. Санина С.П. Компьютерное моделирование в исследовательской деятельности учащихся // Педагогические технологии. 2005. № 4. С. 36—45.
5. Санина С.П. Модельный метод обучения как инструмент формирования у школьников учебного действия моделирования // Педагогические технологии. 2008. № 1. С. 46—55.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Nasritdinova Madina Nurullayevna

Farg'ona davlat universiteti

Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

Orcid:0000-0002-0635-7524

ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO`LAJAK MUSIQA TA'LIMI
O`QITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK
TA'MINOTI

Annotatsiya. Mazkur maqolada artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik va xususiy tamoillari borasida mulohaza yuritiladi. Artedagogika vositasida musiqa ta'limi faoliyatini san'at sohasida yuqori darajadagi bilimga ega bo'lgan talabalarning o'ziga xos xususiyatini - ularning o'qituvchisining ijodiy san'at bo'yicha tizimlashtirilgan talablari natijalarini ko'rishga kelajak tayyorligini shakllantirishning uslubiy yondashuvlarini tavsiflashdir.

Kalit so'zlar: Artpedagogika, artterapiya, musiqa san'ati, badiiy-estetik dunyoqarash, tamoil, namuna, ijodkorlik qobiliyati.

Насритдинова Мадина Нуруллаевна

преподаватель кафедры музыкального

образования и культуры Ферганского

государственного университета

ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ АРТ-
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассматриваются дидактические и специфические принципы развития творческих способностей будущих учителей музыки на основе арт-педагогического подхода. Цель артедагогика состоит в описании методологических подходов к формированию будущей готовности видеть результаты систематизированных требований учителя к творчеству, свойственной учащимся с высоким уровнем знаний в сфере искусства.

Ключевые слова: артпедагогика, арттерапия, музыкальное искусство, художественно-эстетическое мировоззрение, принцип, модель, метод, творчество

Nasritdinova Madina Nurullaevna

Lecturer, Department of

Music Education and Culture,

Fergana State University

DIDACTIC SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF FUTURE
TEACHERS OF MUSIC EDUCATION ON THE BASIS OF THE ART PEDAGOGICAL APPROACH

Abstract. This article discusses the didactic and specific principles of developing the creative abilities of future music teachers based on the art-pedagogical approach. The purpose of artedagogy is to describe the

methodological approaches to the formation of the future readiness to see the results of the teacher's systematized demands on creative arts, a characteristic of students with a high level of knowledge in the field of art.

Key words: art pedagogy, art therapy, music art, artistic-aesthetic outlook, principle, model, creativity.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N31>

Kirish

O'zbekistonni mustaqillik davrida ta'limni rivojlanishining zamonaviy bosqichining yetakchi xususiyatlaridan biri bu shaxsning ijodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash istak va maqsadidir. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun esa, «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan tamoyilga[3;452] tayanish zarur. Mazkur masalalar mamlakatimizda o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda uzluksiz ta'lim tizimi va mahalla instituti hamkorligini takomillashtirish jarayonini tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi «O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbir to'g'risida» PQ-3138-son, 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-sonli Farmoni, 2019 yil 29 apreldagi «Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi» to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda «Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu olingan tahliliy tadqiqot ob'yekti muayyan darajada xizmat qiladi. Shu kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotga tadbir etilishi bugungi kun jamiyatida rivojlanib borayotgan O'zbekistonning fuqarolik jamiyati kasbiy sohadagi turli innovatsiyalarga ijodiy va samarali yondashadigan, ilg'or bilimlarni o'zlashtirgan, mobil axborot oqimlarini boshqara oladigan, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini yaratishda ishtirok eta oladigan, mustaqil va adekvat qarorlar qabul qila oladigan, o'z-o'zini anglagan, o'z hayotiy pozitsiyasini egallash uchun harakat qiladigan shijoatli yoshlarni tarbiyalash zarurati bor. Insonga avvaldan xos bo'lgan ijodkorlik qobiliyati uning hayotning turli sohalarida yangi ufqlarni kashf etish va yaratish istagida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali vositalarini tanlash muammosining dolzarbligi, birinchi navbatda, ta'lim va ijodiy faoliyatni faollashtirish yo'llarini izlash bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lim strategiyasi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan har bir talabaga o'z ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish imkoniyatini yaratishga qaratilgan.

Musiqqa sohasiga qaratilgan oliy kasbiy ta'lim muassasalarida shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusi dolzarbdir. Mazkur ta'lim muassasalari bitiruvchilari oldida voqelikni badiiy aks ettirish, voqeyliklar bilan ishlash, yangi obrazlar yaratish, shaxsning estetik, musiqiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi ma'naviy-madaniy muhitni tashkil etish kabi maqsadli vazifalar borligini ta'kidlash lizom.

Olimlardan E.B.Abdulin, Yu.B.Aliyev, O.A.Apraksina, L.G.Archajnikova, D.B.Kabalevskiy, N.A.Kerentieva, L.V.Shkolyar, G.M.Zinin va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, har bir mutaxassis-musiqachi aql-zakovat, yuqori madaniyat, innovatsiya yaratish qobiliyati, ta'lim missiyasini bajarish, insonning tabiiy potentsialini aniqlash qobiliyati kabi shaxsiy va kasbiy fazilatlar majmuasiga ega bo'lishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Eksperimental psixologik tadqiqotlarda V.N. Drujinina, B.B.Kossova, N.V.Kuzmina, A.A.Leontiev, o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi; shaxsning intellektual faoliyatining ijodiy jarayonlarini boshqarish usullari, o'quvchilarning ijodiy usullarini diagnostika qilish texnologiyalari N.F.Vishnyakova, I.P.Podlasogo, E.E.Tuniklarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Zabardast didaktiklar I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlar tabiiy ijodkorlik qobiliyatiga qaramay, har bir kishi uni turli darajada amalga oshirishi mumkinligiga e'tibor qaratdilar, ammo maqsadli o'qitishgina o'ziga xos ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va yuqori darajadagi bilimni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'kidlanganidek, yechim usulini tanlashda to'liq mustaqillikni va ko'p sonli javoblarni nazarda tutadigan "ochiq" turdagi topshiriqlargina o'quv jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rag'batlantirishi mumkin.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilari ijodkorligini, ularning faolligini, mustaqilligini va individualligini rivojlantirishning eng muhim pedagogik vositasi bu o'quv faoliyatida maxsus ishlab chiqilgan ta'lim faoliyati variantlari, mustaqil ongli, adekvat va mazmunli tanlov qilish holati bo'lib, undan foydalanish talabalarni kelgusi faoliyatga tayyorlashda zaruriyat shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotimizning maqsadi - artpedagogika vositasida musiqqa ta'limi faoliyatini san'at sohasida yuqori darajadagi bilimga ega bo'lgan talabalarning o'ziga xos xususiyatini - ularning o'qituvchisining ijodiy san'at bo'yicha tizimlashtirilgan talablari natijalarini ko'rishga kelajak tayyorligini shakllantirishning uslubiy yondashuvlarini tavsiflashdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun, birinchi navbatda, artpedagogikani toifa sifatida tavsiflash va uni ta'lim jarayonida qo'llashning uslubiy yondashuvlarini ko'rsatish kerak.

Demak, san'at pedagogikasi tarixi pedagogik texnologiya sifatida pedagogika va san'at o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan uning uzoq davom etgan rivojlanishini ko'rsatadi, lekin pedagogikaning maxsus yo'nalishi sifatida faqat o'tgan asrning so'nggi yillarida sezilarli darajada rivojlandi. Shuningdek mazkur soha alohida ta'limga muhtoj bolalar va kattalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning dolzarbligini nuqtai nazaridan mashhurlik kasb etmoqda.

Muhokama

Olimlardan O.S.Bulatova "artpedagogik yondashuv"ni tahlil qilib, uni "mantiqiy-gnosiologik va badiiy-estetik rejalar" o'quv jarayonidagi o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan

o'rganadi, shuningdek, "o'qituvchi (dramaturg rejissyor, rassom) tomonidan badiiy rollarni amalga oshirish" muammosiga to'xtalib o'tadi[1;230].

V.P.Anisimov san'at psixotexnikasi usullariga e'tiborni qaratadi va artpedagogikani "bolaning rivojlanishining ontogenezi va tabiatiga tabiiy ravishda mos keladigan tabiatga ko'ra ko'proq oqilona va texнократик xarakterga ega bo'lgan tushuntirish va tasviriy usullarga asoslangan badiiy ta'limning o'rnatilgan stereotiplariga alternativa sifatida ko'radi[2;146].

Artpedagog - faol kuzatuvchidir. Uning ko'zi va qalbi har bir o'quvchining shaxs sifatidagi bilimiga qaratilgan bo'lib, ijodiy o'quvchiga psixologik qulaylik, ishonch, ishonch va xavfsizlikni ta'minlaydi[3;20-24].

Tahlillarimiz asosida, ilmiy adabiyotlarda artpedagogika atamasi asosan pedagogik nazariya va amaliyotning (pedagogik texnologiya) talaba shaxsini o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish uchun badiiy vositalardan foydalanish yo'nalishi sifatida belgilanadi.

Artpedagogika bosqichlarini tahlil qilishda uni o'rganish va ta'lim amaliyotida qo'llash tarixini tushunish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda bolalarni tarbiyalash jarayonida san'at imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha amaliy materiallar to'planganiga qaramay, artpedagogika ilmiy asoslangan metod sifatida endigina shakllana boshladi. Yaqin vaqtlargacha mavzuning badiiy faoliyatining barcha shakllarining pedagogik imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan ushbu istiqbolli yo'nalish yetarli darajada ma'lum emas edi, bu uning turlicha talqin qilinishiga sabab bo'ldi. Shunday ekan artpedagogika bo'yicha mavjud tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy nashrlar juda kam, bu "artpedagogika" atamasini mazmunli ochib berishga zaruriy ehtiyojni keltirib chiqaradi. Zamonaviy "artpedagogika" atamasi ikki elementli bo'lib, sintetik ta'lim usuli bilan shakllangan[4;105].

Artpedagogika pedagogik faoliyat turlaridan biri sifatida yaqinda muhokama qilingan, bu atama birinchi marta 1997 yilda mahalliy fanga kiritilgan[5;95].

Artpedagogika ta'lim doirasida nafaqat badiiy ta'limni, balki san'at vositasida rivojlanish jarayonining barcha tarkibiy qismlarini ham ko'rib chiqishga imkon beradi.

Badiiy pedagogikaning mazmun-mohiyati ta'lim va tarbiya, san'at vositasida shaxsni kamol toptirish, badiiy madaniyat asoslarini shakllantirish va badiiy faoliyatning ko'plab turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashdan iborat[6;95-97].

Natijalar

Zamonaviy artpedagogika inson faoliyatining ikki sohasida - nazariyot va amaliyotda amalga oshiriladi. artpedagogika pedagogik texnologiya sifatida bir qator xususiyatlarga javob berishi kerak - u o'quv amaliyotida aniq maqsad va vazifalarga ega, mashg'ulotlarni o'tkazish tamoyillari, talabalar bilan ishlash usullari va uslubari, baholashning o'ziga xos xususiyatlari va undan foydalanish vazifalari bilan farqlanadi.

Ko'pincha ilmiy-pedagogik adabiyotlarda o'quvchilar bilan ishlash artpedagogik tamoyillarining umumiy didaktik va alohida artpedagogik tamoyillar tasnifi mavjud. Bular albatta bo'lgusi o'qituvchilarda mujassam bo'lishi zarur.

Artpedagogikaning didaktik tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Insonga bolaning badiiy, intellektual qobiliyatidan qat'i nazar, unga eng oliy qadriyat sifatida qarashni o'z ichiga olgan insonparvarlik tamoyili.

2. Ijodkorlik tamoyili optimal variantda bu jarayonda har bir sezgi: ko'rish, hid, eshitish, ta'm, his-tuyg'ular, ekzosensor sifatlar (sezgi, tasavvur) ishtirok etishini nazarda

tutadi. Kreativlikka erishishning eng muhim sharti improvizatsiya hisoblanadi. Bu talabalarga ijodiy tomondan o'zini namoyon qilishga imkon yaratadi.

3. Refleksivlik tamoyili bolalarning muammoli-nizoli vaziyatlarni tushunish va yengib chiqishga tayyorligi qobiliyatini nazarda tutadi. Uslubiy mashg'ulot ishining maqsadi artpedagogika metodlarini darsda qo'llashning maqsadga muvofiqligini aniqlash bo'lganligi sababli shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim va loyiha asosida o'qitish texnologiyalari bir vaqtning o'zida qo'llanilgani. Bu uning tajribasidan foydalanish asosida bolaning individual kognitiv qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga erishish maqsadi bilan bog'liq.

Artpedagogikaning xususiy tamoyillari:

1. O'z-o'zini ifodalash va spontanlik printsipi. Bu tamoyil har bir bolaning taklif qilingan faoliyat jarayonida o'zini namoyon qilishi, uning ijodkorligi o'z-o'zidan paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Ijodiy vazifalarni bajarish jarayonida o'z kuchiga ishonchi mustahkamlanadi, individuallik rivojlanadi, o'z g'oyalarni amalga oshiradi.

2. O'ziga xoslik printsipi. Bu tamoyil talabalarga taklif etilayotgan ijodiy ishlarda muayyan modelning yo'qligini nazarda tutadi. Har qanday natija individual yoki jamoaviy tajriba mahsulidir. Bu uni qiziqarli va o'ziga xos qiladi.

3. Hamkorlikda yaratish printsipi. Bola muloqot va u bilan bog'liq izolyatsiya orqali shaxsga aylanadi. Ijod tili boshqa odamlar bilan muloqot qilishda eng samarali tillardan biridir. Birgalikda ijodiy faoliyatda har bir shaxsning o'ziga xosligini aniqlash, uning muammolari va qiyinchiliklarini ko'rish osonroq. Ijodiy vazifalarni bajarish jarayonida qaror qabul qilinadi Tarbiyaning eng muhim vazifasi - bolaning ijtimoiy hayotga kirishidir[7].

Xulosa

Demak, artpedagogika, artterapiyadan farqli o'laroq, art-terapiya tamoyillari va usullariga asoslangan torroq kategoriya bo'lib, lekin o'quv amaliyotida qo'llaniladi, shu bilan birga o'z zamirida badiiy ijoddan foydalanish tufayli terapevtik va rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Artpedagogika an'anaviy ta'lim tizimidan farqli o'laroq, ta'lim sub'ektlarining ijodiy o'zaro ta'siridan foydalanadi. O'qituvchi, bolalar va ota-onalar madaniyat tashuvchisi bo'lishi juda muhim va badiiy pedagogika sizga turli toifadagi talabalar bilan samarali ishlashga imkon beradi. Artpedagogik tamoillar asosida yo'lga qo'yilgan ta'lim bola shaxsida o'z-o'zini o'rganishga, ta'lim - o'z-o'zini tarbiyalashga, rivojlanish - bevosita o'z-o'zini ichki psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish, takomillashtirish sharoitini yaratadi.

Ilmiy toifalar sifatida faoliyat va ijodiy faoliyatga tayyorlik uzoq o'rganish tarixiga ega va ko'plab xorijiy va mahalliy ishlarda o'z aksini topgan. artpedagogika toifasi ilmiy sohada nisbatan yangi, ammo tadqiqotchilar uning istiqbollarini bo'lajak o'qituvchilar sifatidagi zamonaviy ta'lim jarayonida va uni maktabda o'qitish texnologiyasi sifatida qo'llash jarayonida ko'rsatadilar.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Булатова О.С. Арт-педагогический подход в образовании: монография. Тюмень: Изд-во ТГУ, 2004. - 230 б.
2. Анисимов В.П. Арт-педагогика как система психологического сопровождения образовательного процесса // Вестник ОГУ. - № 4 (2003). - С.146 -148

3. Небесаева Ж.О., Сманова А. С., Нурке М. С. Артпедагогика как условие творческой деятельности в обучении у студентов/Молодёжная
4. Всероссийская научно-практическая конференция с международным участием «Идеи и проекты молодёжи России».- Чебоксары, 2015.-С.20-24.
5. «Небесаева Ж.О. Проявление артпедагогики в системе образования в вузе // Вестник Казахского национального педагогического университета имени Абая. Серия «Педагогические науки». – 2016. - №3(51). - С. 105-109.
6. Амиргазин, К. Ж. История и перспективы развития кожевенных художественных промыслов в Сибири / К. Ж. Амиргазин, В. В. Чардынцева // Вопросы культурологии. – 2013. – № 8. – С. 90–95.
7. Корженко О.М., Заргарьян Е.А. Артпедагогика сегодня: цели и перспективы развития // Теория и практика образования в современном мире: материалы III междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, май 2013 г.). СПб.: Реноме, 2013. С. 95-97.
8. Лебедева Л.В. Артпедагогика в образовательном пространстве. Описание опыта работы. – Макеевка // makemc.org/doc/virt_vist_2016/Lebedeva.pdf
9. Сигова, Вера Леонидовна, Развитие креативности будущих учителей музыки через ситуации выбора в учебной деятельности тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.08, кандидат наук.
10. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 1(1), 196-199.
11. Насритдинова, М. Н. (2022). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСЦЕЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С ПАТОЛОГИЕЙ, СВЯЗАННЫХ С ГИПОКСИИ, ПОСРЕДСТВОМ ИСКУССТВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 385-393.
12. Насритдинова, М. Н. (2022). МУСИҚА ИНСОНИЯТГА НИМА УЧУН КЕРАК?. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 577-580.
13. Jo'rayev Xamidjon, & Madina Nasritdinova (2022). DOIRA CHOLG'USIDA IJRO MANORATINI YUKSALTIRISH (BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI MISOLIDA). Science and innovation, 1 (C2), 26-28. doi: 10.5281/zenodo.663646
14. Nasritdinova, M. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИНИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАР БАДИИЙ-ЭСТЕТИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИ. Science and innovation, 1(B6), 950-955.
15. Nasritdinova, Madina (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (2), 199-204.
16. Rustamov, I. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 5, 74-77.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Botirova Sevara Mamurovna
Namangan davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi

PEDAGOGIKADA ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA MODELLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "zamonaviy kommunikatsiya modellari" tushunchasining mazmun-mohiyati, zamonaviy kommunikatsiya modellarining ta'lim jarayonidagi funksiyalari, qolaversa ushbu sohaga oid qator olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikatsiya, regulyativ, affektiv-kommunikativ, modellashtirish, "Lassvell formulasi", "fikir yetakchilari"

Ботирова Севара Мамуровна
Преподаватель Наманганского
государственного педагогического института

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ОБЩЕНИЯ В ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация. В данной статье представлена сущность понятия «современные модели коммуникации», функции современных моделей коммуникации в образовательном процессе, а также мнения ряда ученых в данной области.

Ключевые слова: Коммуникация, регулятивный, аффективно-коммуникативный, моделирование, «формула Лассуэлла», «лидеры мнений».

Botirova Sevara Mamurovna
Teacher of Namangan State Pedagogical Institute

MODERN MODELS OF COMMUNICATION IN PEDAGOGY

Abstract. This article presents the essence of the concept of "modern communication models", the functions of modern communication models in the educational process, as well as the opinions of a number of scientists in this field.

Key words: Communication, regulatory, affective-communicative, modeling, "Lasswell formula", "opinion leaders".



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N32>

Kirish

Kommunikatsiya - muloqot ko'nikmalari shaxslararo faoliyat davomida insonlar o'rtasidagi aloqalarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. Ammo, muloqot jarayonida uning ishtirokchilari nafaqat o'zlarining jismoniy harakatlari yoki mahsulotlari,

balki mehnat natijalari bilan fikr, niyat, g'oyalar, tajribalar almashadilar. Binobarin, aloqa shaxsda mavjud bo'lgan ideal shakllanishlarni vakillik, idrok, fikrlash va hokazo shaklida uzatish, almashish, muvofiqlashtirishga yordam beradi. Muloqotning funksiyalari xilma-xil bo'lib ular ishlatilgan vositalarga va muloqot ishtirokchilarining xulq-atvori va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishiga qarab, shaxsning turli suhbatdoshlari bilan, turli sharoitlarda muloqotini qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlanishi mumkin.

Insonning boshqa odamlar bilan munosabatlari tizimida axborot-kommunikativ, boshqaruvchi(regulyativ)-kommunikativ va affektiv-kommunikativ kabi muloqotning funksiyalari ajralib turadi. Muloqotning axborot-kommunikativ funksiyasi, aslida, axborotning bir turi sifatida ma'lumotni uzatish va qabul qilishdir. Unda ikkita asosiy element mavjud: matn (xabarning mazmuni) va shaxsning (kommunikatorning) unga munosabati.

Ushbu komponentlarning nisbati va tabiatining o'zgarishi, ya'ni, matnni va kommunikatorning unga munosabati axborotni idrok etish xususiyatiga, uni tushunish va qabul qilish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va natijada odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. Muloqotning axborot-kommunikatsiya funksiyasi G. Lassvellning taniqli modelida yaxshi ifodalangan, bu yerda kommunikator (xabarlarni uzatuvchi), xabarning mazmuni (nima uzatiladi), kanal(qanday uzatiladi), qabul qiluvchi (kimga uzatiladi) tarkibiy birliklar sifatida ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Axborotni uzatish samaradorligi insonning uzatilgan xabarni tushunish darajasi, uni qabul qilish (rad etish), shu jumladan qabul qiluvchi ma'lumotlarining yangiligi va dolzarbligi bilan ifodalanishi mumkin. Muloqotning tartibga solish va kommunikativ funksiyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishga, shuningdek, shaxsning faoliyati yoki holatini tuzatishga qaratilgan. Ushbu funksiya o'zaro ta'sir ishtirokchilarining motivlari, ehtiyojlari, niyatlari, maqsadlari, vazifalari, mo'ljallangan faoliyat usullarini o'zaro bog'lash, faoliyatni tartibga solish uchun rejalashtirilgan dasturlarning borishini szlash uchun tan olingan. Bu yerda aloqa uyg'unlikka, hamjihatlikka erishishga, kichik aloqa guruhlarida ham, katta jamoalarda ham birlashgan odamlarning harakatlarining irodali birligini o'rnatishga qaratilgan bo'lishi mumkin (masalan, ishlab chiqarishda birgalikda ishlaydigan jamoalar, yaxlit harbiy qismlar va boshqalar.). Ushbu aloqa funksiyasini amalga oshirish samaradorligining ko'rsatkichi, bir tomondan, birgalikdagi faoliyat va muloqotdan qoniqish darajasi, ikkinchi tomondan, ularning natijalari.

Inson muloqotni bolaligidan o'rganadi va yashash muhitiga qarab, u bilan muloqot qiladigan odamlardan uning har xil turlarini o'zlashtiradi va bu kundalik tajribaga asoslanib, o'z-o'zidan sodir bo'ladi. Kommunikativ ko'nikmalarni tavsiflashga ushbu yondashuv bilan muloqotni quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo'lgan tizimni birlashtiruvchi jarayon sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogikaning tarbiya va ta'lim jarayonini insonparvarlashtirishga yo'naltirilganligi har bir bolaning shaxsini rivojlantirish, uning shaxsiy o'zini o'zi belgilashi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishni dolzarb muammolar qatoriga qo'yadi. Bu ularning hissiy-irodaviy sohasining yetuk emasligi, ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishda kechikish, yoshni aniqlash, oilaviy tarbiya muammolari bilan bog'liq. Zamonaviy maktab ta'limining holati boladan yangi murakkab kommunikativ vazifalarni faol ravishda hal qilishni talab qiladi: o'quvchilarning bir-biri bilan va o'qituvchi bilan o'rganilayotgan material bo'yicha

ishchi aloqalarini tashkil etish. Shu sababli, bolada kattalar va tengdoshlar bilan muloqotning yuqori shakllarini rivojlantirish juda muhim va zaruriy sharti bo'ladi.

Insoniyatning mavjudligini kommunikativ faoliyatdan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Jinsi, yoshi, ma'lumoti, ijtimoiy mavqei, hududiy va milliy mansubligi va inson shaxsini tavsiflovchi ko'plab boshqa ma'lumotlardan qat'iy nazar, biz doimiy ravishda ma'lumotlarni so'raymiz, uzatamiz va saqlaymiz, ya'ni biz faol ishtirok etamiz.

Kommunikativ faoliyat davomida inson umuminsoniy tajriba, qadriyatlar, bilim va o'rganish bilan izohlanadi. Shu ma'noda muloqot shaxs rivojlanishining eng muhim omiliga aylanadi. Shaxsning muloqot qilish qobiliyati psixologik-pedagogik tadqiqotlarda umuman kommunikativlik sifatida aniqlanadi. Muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish uchun inson muayyan muloqot qobiliyatlarini egallashi kerak.

Kommunikatsiya - muloqotni sub'yektlar o'rtasidagi alohida o'zaro ta'sir aktlaridan iborat jarayon sifatida o'rganishning ilmiy usullaridan biri modellashtirishdir. Modellashtirish - ob'yektni uning nusxasini (modelini) yaratish va o'rganish orqali o'rganish usuli bo'lib, u ma'lum jihatlardan asl nusxani o'zgartiradi. tadqiqotchiga. Model (lotincha modus, modulus — o'lchov, namuna, me'yor) real ob'yektning analogidir.

Model deganda o'rganilayotgan ob'yektning yoki haqiqatda mavjud bo'lgan, o'rganilayotgan ob'yektga o'xshash ba'zi o'ziga xos xususiyatlar va strukturaviy xususiyatlarning o'ziga xos tasviri tushuniladi.

Kommunikatsiya modeli - bu murojaat qiluvchi (kommunikator), aloqa kanali, aloqa vositalari va adresat (kommunikator) o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi aloqa jarayonlarining mavhum, og'zaki yoki grafik tasviridir. O'zining eng umumiy ko'rinishida kommunikatsiya modeli zanjirdir: xabar manbai - kommunikatsiya kanali - xabarni qabul qiluvchi Kommunikatsiyaning chiziqli va chiziqsiz modellari mavjud. Chiziqli modellar aloqani manbadan qabul qiluvchiga yo'naltirilgan texnik tarjima harakati sifatida tavsiflaydi. Chiziqsiz modellar muloqotni sub'yektlarning o'zaro ta'siri sifatida tavsiflanadi, bunda muloqotning ijtimoiy-madaniy va psixologik omillarini hisobga olgan holda aloqa ishtirokchilarining rollari (adresant va adresat) o'zgaradi. Zamonaviy kommunikatsiya nazariyalarida murakkab aloqa modellarining aksariyati telefon signallarini uzatishning texnik jarayonini tavsiflagan K. Shennonning chiziqli modeliga asoslanadi.

Muhokama

Kommunikatsiyaning chiziqli modellari "Lassvell formulasi" yoki "5W" (Nima? Kim?...) deb ataladigan model kommunikativ jarayonning taniqli modeliga aylandi. 1948 yilda mashhur amerikalik siyosatshunos G. Lassvell undan turli yondashuvlarni tasvirlash uchun foydalangan. Ushbu formulaning har bir elementi kommunikativ jarayonni tahlil qilishning mustaqil sohasini ifodalaydi. [17-178]

- 1) "Kim gapiryapti?" - kommunikatorni o'rganish bilan bog'liq;
- 2) "U nima deyyapdi?" - xabarlarning mazmun tahlilini aks ettiradi;
- 3) "Qaysi kanal orqali?" - xabarni o'rganishga taalluqlidir;
- 4) "Kimga?" - auditoriyani o'rganish bilan bog'liq;
- 5) "Qanday natija bilan?" - muloqot samaradorligini o'lchashga qaratilgan savol.

Har bir formula elementi o'zgaruvchilar to'plamidir. Ushbu model umumiy xarakterga ega va uning tarkibiga aloqa jarayoniga ta'sir qiluvchi barcha omillarni kiritishni nazarda tutadi.

“Lassvell formulasi” kommunikator har doim qabul qiluvchiga ta’sir o’tkazishga harakat qiladi va shuning uchun muloqot ishonirish sifatida talqin qilinishi kerak.

Masalan, Lassvell formulasi siyosiy muloqotni asosan imperativ, rag’batlantiruvchi jarayon sifatida belgilaydi, ya’ni axborot jo’natuvchining iltimosi nima, qabul qiluvchining javobi shunday. Boshqacha qilib aytganda, “stimulyatsiya nima - bu reaksiya”. Ammo stimulga har doim ham aniq, kutilgan reaksiya mavjud emas, xususan, nutqning ommaviy aloqa sohasidagi ta’siri kutilmagan bo’lishi mumkin. Ushbu model uzatilgan xabarlar ta’sirining samaradorligini oshiradi.

R.Braddok bu vaziyatga e’tibor qaratib ushbu modelga uning fikricha, aloqa jarayonining tavsifi kerakligini belgiladi, ular ikkita muhim jihatni o’z ichiga oladi: qanday sharoitlarda? va nima maqsadda? bu xabar yuboriladi. Shu sababli u sxemaga kommunikativ harakatning yana ikkita elementini qo’shdi: aloqa amalga oshiriladigan sharoitlar va kommunikatorning gapirishdan maqsadi [17-178].

“5W” modeli nafaqat chiziqiligi, bir yo’nalishga “yo’naltirilganligi”, balki aloqa maqsadi kabi muhim aloqa elementi yo’qligi uchun ham tanqid qilindi. Bu haqda V. Popov quyidagicha izoh beradi: “G.Lassvell muloqotning uchta asosiy funksiyasini jarayon sifatida belgilab berdi, asosan boshqaruv funksiyasi (“sehrli o’q” nazariyasi:

1) vakillik jamiyatiga tahdidni aniqlash va ushbu jamiyatning qadriyat yo’nalishlariga ta’sir qilish imkoniyatlarini aniqlash uchun atrof-muhitni kuzatish. / yoki uning tarkibiy qismlari;

2) ushbu jamiyat tarkibiy qismlarining atrof-muhitning “xulq-atvori” ga nisbati;

3) ijtimoiy merosni avloddan-avlodga o’tkazish. Biroq, Lassvell modeli madaniyatning kommunikativ funksiyasining to’liq murakkabligi va to’liqligini aks ettirmaydi. Unda asosiy e’tibor kommunikatorning faoliyatiga qaratiladi va qabul qiluvchi faqat kommunikatsiya ta’siri ob’yektidir. Ammo haqiqat shundaki, muloqot natijasi nafaqat tinglovchining (tomoshabin, o’quvchi) ongi, hissiyotlari, munosabati yoki xatti-harakatlarining o’zgarishi, balki u ham va nima, qanday va nima uchun kommunikator tomonidan ma’lum bir darajaga erishish mumkin.

Shuning uchun, Lassvellning bixevioristik modelidan tashqari, XX asrning 20-yillari o’rtalarida T. Nyukomb tomonidan taklif etilgan interaksionist kommunikatsiya modeli paydo bo’ldi. [17-178].

Chiziqli modellar, Lassvell modelidan tashqari, K. Shennonning aloqa modellarini o’z ichiga oladi. Xuddi shu guruhga shuningdek, K. Byuler, R. Yakobson, V. Shram, M.Maklyuen va boshqalarning modellari ham kiritilishi mumkin [19-66].

R.Yakobsonning semiotik funksional modeli U kommunikativ jarayonning tarkibiy birligi sifatida alohida kommunikativ akti(harakat) ajratib ko’rsatdi. Kommunikativ aktning ushbu modeli tilning funksiyalari bilan bog’liq bo’lgan oltita muhim komponentni o’z ichiga oladi. [20-93]

Tabiiy til nutqda turli vazifalarni bajaradi. K.Byuler nutqda adresant (ekspressiv), adresat (appellativ) va gap bilan bog’liq uchta asosiy vazifani aniqladi (reprezentativ va simvolik). R.Yakobson K.Shennonning kommunikativ modeliga tayanib, qo’shimcha ravishda quyidagi funksiyalarni aniqladi.

Bundan tashqari, tilning barcha bu funksiyalari nutqda amalga oshiriladi, lekin ular turli xil muloqot sohalarida, matnlarning har xil turlarida har xil darajada namoyon bo’ladi.

R.Yakobson modeli tilning kommunikativ jarayonda qanday ishlashini ko'rsatadi. Model nafaqat tilning o'zini, balki tilning foydalanuvchisini, kuzatuvchini ham hisobga olishi mumkin.

Kommunikativ akt tilshunoslikda umumiy tilning funksiyalarini tahlil qilish uchun ham, uning alohida birliklari faoliyatini tahlil qilish, nutq va matn ishlab chiqarish uchun ham qo'llaniladi. Zamonaviy sotsiologiyada, kommunikatsiya nazariyasi va kommunikatsiya sotsiologiyasi ham jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni tasvirlash uchun R.Yakobson modelini o'zlashtirgan.

Muloqot nazariyasida aloqaning chiziqsiz modellari ham sotsiologik, psixologik modellar, ommaviy kommunikatsiya modellari va boshqalar hisoblanadi. Agar chiziqsiz modellar soddalashtirilganligi tufayli hodisalar ketma-ketligini tushunishni osonlashtirsa, chiziqsiz modellar muloqotning ijtimoiy-madaniy va psixologik omillarini tuzatadi. Aslida, aloqa ma'lumot almashish sub'yektlarining har doim ham izchil bo'lmagan murakkab ko'p darajali harakatlaridir.

T.Nyukomb tomonidan ishlab chiqilgan aloqaning chiziqsiz bo'lmagan ijtimoiy-psixologik (o'zaro) modeli keng tarqaldi. U teng tomonli uchburchakka o'xshaydi, uning uchlari kommunikator, kommunikant va ijtimoiy vaziyat (A - B - X). Kommunikatorning (jo'natuvchining) kommunikant (qabul qiluvchi) bilan o'zaro ta'siri ijtimoiy vaziyatga nisbatan ham, usiz ham amalga oshiriladi.

Bu model muloqot ishtirokchilari o'rtasida rivojlanadigan munosabatlarni va ularning suhbat ob'yektiga (X) munosabatini o'z ichiga oladi.

Ya'ni: kommunikativ o'zaro ta'sir holati ko'rib chiqiladi, unda har qanday turdagi (A va B) ikkita ijtimoiy subyekt qandaydir tashqi ma'lumotlar to'g'risida muloqotga kirishadi. Obyektning ularga nisbatan X. Qachonki, ishtirokchilar bir-biriga ijobiy yo'naltirilgan bo'lsa, ular ham X ga bo'lgan munosabatining mos kelishiga intiladilar. Nyukombning ijtimoiy-psixologik modeli subyektlar va obyekt o'rtasidagi munosabatlarning kommunikativ o'zaro ta'sirning tabiati va natijasiga ta'sirini tavsiflaydi [20- 231].

Natijalar

Kommunikatsiyaning chiziqsiz bo'lmagan, hajmli modellariga badiiy ijod va ommaviy kommunikatsiya sohasidagi dialogli madaniy, germevtik va diskursiv, kognitiv jarayonning kognitiv modellari kiradi (M.M.Baxtin, Yu.M. Lotman, G. Shpet, R. Bart, Yu. Kristeva, M. Fuko, Van Deyk T.A. va boshq.). Bu tushunchalarning barchasini asosiy narsa - sub'yektlarning matnlar orqali o'zaro ta'sirida hosil bo'lgan ma'noni tushunish jarayoni nuqtai nazaridan aloqa ta'rifi birlashtiradi. Masalan, Van Deyk T.A. xabarlarining tuzilishi haqida shunday yozadi: "Yangiliklar tuzilmalarini faqat bittasida adekvat tushunish mumkin.

Holat: agar biz ularni matnlar va ularning ma'nolarini yaratishda jurnalistlarning kognitiv faoliyati natijasi sifatida tahlil qilsak, gazeta o'quvchilari va teletomoshabinlar tomonidan ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish tajribasi asosida tayyorlangan matnlarni talqin qilish natijasida ommaviy axborot vositalari" [21-123]. Shuning uchun tuzilishga yo'naltirilgan yangiliklar tahlili (ustki tuzilmalar, makrotakliflar) kognitiv tahlil (matnda keltirilgan ssenariylar, sxemalar va modellar), semantik tasvirlarni tahlil qilish (vaziyatlar va modellar), qadriyatli yo'nalishlari, amalga oshirilgan strategiyalarni o'z ichiga oladi.

Bunday ikki bosqichli (ko'p bosqichli) aloqa modeli birinchi marta 1940-yilda Ogayo shtatida (AQSh) saylov kampaniyasi paytida asoslab berilgan va 1955-yilda Dekaturda

(Illinois) jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmlarini o'rganishda batafsilroq ishlab chiqilgan. Sotsiologlar P.Lazarsfeld va R.Merton tinglovchilarga yuborilgan xabar birinchi navbatda guruhning eng obro'li a'zosiga yetib borishini taklif qilishdi. Tadqiqotlar, olingan ma'lumotlarning mazmunini o'zlashtirganda, odamlar birinchi navbatda o'z muhiti uchun eng ta'sirli va malakali bo'lganlarni tinglashadi, degan taxmini tasdiqladi. Bunday rahbarlar ko'pincha norasmiy rahbarlar edi. Ommaviy axborot vositalari tomonidan auditoriyaga taqdim etilgan ma'lum bir hukm, ko'pincha shaxslararo muloqot mexanizmi orqali aniq harakatga keltiriladi. Bundan tashqari, rahbarlar qaror qabul qilishda eng katta ta'sirga ega. Ular, o'z navbatida, o'zlarining "fikir yetakchilari"ga ham ega bo'lib, kerakli ma'lumotlar uchun ularga murojaat qilishadi. "Fikir yetakchilari" turli ommaviy axborot vositalari va omma o'rtasidagi bog'lovchiga aylanadi. Ular nafaqat ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish, balki siyosiy partiyalar va tashkilotlar faoliyatida ham faol ishtirok etishadi. Ommaviy kommunikatsiyalar tizimidagi xabarlar tinglovchilarning "muvofiqligi bilan" jo'natiladi, ya'ni auditoriyaga kerakli va tushunadigan ma'lumotlar beriladi. Aks holda, u aloqa tizimiga kiritilmaydi. Shunday qilib, tomoshabinlar o'zining bir xilligini ko'rsatadi va dastlabki ma'lumotlar butun odamlar massasi bilan va har biri bilan individual ravishda o'zaro ta'sir qiladi. Odamlarning omma a'zolari sifatidagi bir xilligi odamlarning xulq-atvori orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, odamlar jamiyatning turli qatlamlari, guruhlari, institutlari tarkibiga kiradi, ya'ni ular tuzilishi jihatidan geterogen bo'lgan jamoani tashkil qiladi. Biroq, "odamlar ommaviy a'zoga aylanib, o'zlarining ijtimoiy mavqei bilan belgilanadigan rollardan mustaqil ravishda o'zini tuta boshlaydilar". ... Shunday qilib, ommaviy kommunikatsiya auditoriyasi ijtimoiy guruhlarga, u yoki bu ijtimoiy tuzilma doirasida doimiy ravishda ko'payib borayotgan inson jamoalariga to'g'ri kelmaydigan o'ziga xos shakllanish bo'lib chiqadi" [23-25].

Yu.M.Lotman avtomuloqotga ko'proq e'tibor beradi, u avtomuloqotning ikkita holatini ajratadi:

a) mnemonik tur – "mavjud ma'lumotni saqlash uchun o'ziga xabar", masalan, esda qolarli yozuvlarning barcha turlari;

b) ixtirochilik turi – "axborotni ko'paytirish uchun o'z-o'zini aytish" [o'sha yerda], masalan, to'lqinlar tovushiga o'ylash, naqshlarga qarash va boshqalar.

Xulosa

Xullas, Yu.M.Lotmanning fikricha, insoniy aloqalar tizimi ikki yo'l bilan qurilishi mumkin: aloqa modeliga muvofiq. (yoki Yu.M. Yakobson Lotman terminologiyasidagi "I-I" tipidagi aloqalar) va avto-alloqa yoki "I-I" tipidagi tamoyillarga muvofiq. Birinchi holda, biz bir kishidan ikkinchisiga o'tadigan, butun aloqa akti ichida doimiy kodga ega bo'lgan ba'zi bir oldindan belgilangan ma'lumotlar bilan shug'ullanamiz, ikkinchidan, biz axborotning o'sishi, uni o'zgartirish, qayta shakllantirish va yangi xabarlar yemas, balki yangi kodlar kiritiladi va qabul qiluvchi va uzatuvchi bir odamda birlashtiriladi. Bunday kodlarning rolini har xil turdagi rasmiy tuzilmalar o'ynashi mumkin, ular ma'noni qayta tashkil yetish qanchalik muvaffaqiyatli bo'lsa, o'zlarining tashkiloti shunchalik asemantik bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Lasswell H.D. The Structure and Function of Communication in Society / Berelson B., Janowitz M. Reader in Public Opinion and Communication. New York: The Free Press, 1966. P. 178-189.
2. Claude E. Shannon and Warren Weaver. The mathematical theory of communication. Urbana: University of Illinois Press, 1998.
3. Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Структурализм «за» и «против». – М., 1975. – С. 193–229.
4. Почепцов Г.Г. Теория коммуникации. – М., 2001.
5. Лотман Ю.М. Семиосфера. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. СПб., 2000.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Sarvarova Gulshan Israfilovna
Teacher, Uzbekistan
State World languages University

THE ROLE OF ASSESSMENT LITERACY IN EFL

Abstract. Today, meeting educational needs is considered an important element of the development process. In particular, the "importance of assessment literacy" introduced in order to improve the quality of learning English as a foreign language plays a special role in teaching English. For this purpose, fundamental changes and reforms are taking place in the educational system of Uzbekistan today, one of which is the participation of our Republic in international evaluation studies. Primary education, as the most important part of education, needs to improve its quality. In particular, a high level of reading literacy is one of the most necessary factors at this stage of education. Although it has not been long since our country entered the education system, international evaluation programs are considered as an urgent issue today.

Key words: education, assessment literacy, fundamental changes, the concept of development, extracurricular education, priorities, quality, PISA, TIMSS, PIRLS, ePIRLS, programs, educational system of Uzbekistan.

Sarvarova Gulshan Israfilovna
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti o'qituvchisi

INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA BAHOLASH SAVOXODLIGINING ROLI

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim ehtiyojlarini qondirish rivojlanish jarayonining muhim elementi hisoblanadi. Xususan, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish sifatini oshirish maqsadida joriy etilgan "baholash savodxonligining ahamiyati" ingliz tilini o'qitishda alohida o'rin tutadi. Shu maqsadda bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida tub o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilmoqdaki, ulardan biri Respublikamizning xalqaro baholash tadqiqotlaridagi ishtirokidir. Boshlang'ich ta'lim ta'limning eng muhim bo'g'ini sifatida uning sifatini oshirish zarur. Xususan, o'qish savodxonligining yuqori darajasi ta'limning ushbu bosqichida eng zarur omillardan biridir. Mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, xalqaro baholash dasturlari bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Kalit so'zlar: ta'lim, baholash savodxonligi, fundamental o'zgarishlar, rivojlanish konsepsiyasi, maktabdan tashqari ta'lim, ustuvor yo'nalishlar, sifat, PISA, TIMSS, PIRLS, ePIRLS, dasturlar, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Сарварова Гульшан Исрафиловна
преподаватель, Узбекский государственный
университет мировых языков

РОЛЬ ОЦЕНКИ ГРАМОТНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ КАК ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Сегодня удовлетворение образовательных потребностей считается важным элементом процесса развития. В частности, особую роль в обучении английскому языку играет «важность оценки грамотности», введенная с целью повышения качества изучения английского языка как

иностранного. С этой целью сегодня в системе образования Узбекистана происходят коренные изменения и реформы, одной из которых является участие нашей республики в международных оценочных исследованиях. Начальное образование, как важнейшая часть образования, нуждается в повышении его качества. В частности, высокий уровень читательской грамотности является одним из самых необходимых факторов на данном этапе обучения. Хотя наша страна не так давно вошла в систему образования, международные программы оценивания сегодня рассматриваются как актуальная проблема.

Ключевые слова: образование, оценка грамотности, коренные изменения, концепция развития, внешкольное образование, приоритеты, качество, PISA, TIMSS, PIRLS, ePIRLS, программы, система образования Узбекистана.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N33>

Introduction

In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the concept of development of the system of public education of the Republic of Uzbekistan until 2030" dated April 29, 2019 № PF-5712 Permanent participation in PISA, TIMSS, PIRLS and other programs was determined. Meeting the educational need is one of the important elements of today's development process, and it is also considered the most important element of the development of society. Although it has not been long since our country entered the education system, international evaluation programs are considered as an urgent issue today. At a time when our country is rapidly developing on the path of innovative development, comprehensive support for the creative ideas and creativity of young people, who are the successors of our future, the formation of their knowledge, skills and qualifications, and advanced foreign experiences, an international standard and improving the assessment system based on requirements, studying international experiences, comprehensive comparative analysis of the existing system, close cooperation with relevant international and foreign organizations, agencies, research institutions is important.

The main points in traditional assessment are certifying reliability and validity in assessment instruments. With the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to organize international research in the field of education quality assessment in the system of public education" № 997 of December 8, 2018, under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan The National Center for the Implementation of International Studies on the Evaluation of the Quality of Education[1] was established under the State Inspectorate for the Control of the Quality of Education. PIRLS — assessment of the level of reading and understanding of the text of primary 4th graders.

Methodology

Participated in the PIRLS study of Uzbekistan in 2021. A lot of research has been done on this program. PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) is an international study that evaluates the reading comprehension level of 4th grade students. This program, which is held every five years, was introduced in 2001 and will be organized for the fifth time in 2021. This type of international assessment is aimed at checking whether students can read and correctly interpret the text, make independent judgments and draw conclusions. In this regard, PIRLS compares teaching experiences in different countries of the world and

determines the ranking between them. The PIRLS study consists not only of a system of tasks aimed at determining the literacy of students, but also includes questionnaires that determine the reforms being carried out in education in this regard. Such questionnaires are organized between the school administration, teachers and parents or guardians. Questionnaire information about students' educational opportunities and conditions plays an important role in the interpretation of educational results. An important aspect of the PIRLS study is that the analysis of the results achieved in the program and the generalization of the data from the surveys conducted will allow to gather valuable information about the best practices in improving reading literacy around the world.

Currently, according to the definition of PIRLS, reading literacy is the ability to understand and use the forms of written language required by society and valued by people, as well as the ability to create meaning from texts in various forms. [2]

As students construct meaning from text, two important aspects of reading literacy emerge - interactive and constructive. The feature of interactivity reflects the communication between the reader and the work while working with the text, while the constructivity requires the creation of new meaning and conclusions from the text.

PIRLS to determine students' artistic and informational skills is focused, and accordingly tasks are developed on the basis of two types of texts:

- artistic texts;
- information texts.

The following educational goals are set in this:

- gaining artistic experience;
- reading to get information and use it.

Students' comprehension of language and ability to identify artistic forms and tools is one of the important factors that determine the extent to which they master the text and reflects the purpose of acquiring artistic experience. In the implementation of this goal, artistic texts are selected. Such texts help students not only to describe the event, but also to feel and clearly imagine reality with the help of artistic means. More informational texts are used to reveal the purpose of obtaining and using information. Young students are recommended to read a number of informational texts of scientific, historical, geographical and other types. Texts are selected based on the age and individual characteristics of the students. The PIRLS study's definition of reading literacy is based on a 2001 study by the IEA International Association, which defined reading literacy as "the ability to understand and use all forms of written language valued by the individual or required by society." [3]

In 2016, on the basis of an alternative competition, it is becoming relevant today ePIRLS research program aimed at determining online reading literacy was also developed. The percentages of learning objectives and comprehension processes in PIRLS and ePIRLS can be described as follows:

PURPOSE OF READING LITERACY	PIRLS	ePIRLS
Gaining artistic experience	50%	0%
Access and use of information	50%	100%
THE PROCESS OF UNDERSTANDING	PIRLS	ePIRLS
Focusing and finding clearly displayed information	20%	20%
Making direct conclusions	30%	30%
Interpreting ideas and information and harmonization	30%	30%
Evaluating and critiquing content and textual elements	20%	20%

4 types of assignments are used to determine reading literacy:

- on concentration and finding clearly indicated information;
- to draw direct conclusions;
- on the interpretation and harmonization of ideas and information;
- about evaluating and criticizing content and textual elements.

Exercises such as focusing and finding Specified Information focus on finding specific information in the text and help students focus.

In order to prepare for the participation of the Republic of Uzbekistan in "international evaluation programs" in international studies, a "Roadmap" was developed, according to which, for example; development of electronic education for independent education of students, creation of a database of questions on international studies in reading, mathematics and natural sciences, and organization of enrichment courses. The Program for International Student Assessment— (PISA) organization of international studies on the following international assessment programs was established in priority criteria such as assessment of the literacy level of 15-year-old students in reading, mathematics and natural sciences [4]

PISA - The Program for International Student Assessment — assessment of the level of literacy of 15-year-old students in reading, mathematics and natural sciences;

TIMSS - Trends in International Mathematics and Science Study— assessment of the mastery level of 4th and 8th grade students in mathematics and natural sciences;

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study— assessment of reading and comprehension level of primary 4th graders;

TALIS - The Teaching and Learning International Survey is a study of the teaching and learning environment and the working conditions of teachers in general secondary educational institutions.

Uzbekistan in international research on international evaluation programs a "Roadmap" was developed for preparing for the participation of the Republic, according to which, for example; development of electronic education for independent education of students, creation of a database of questions on international studies in reading, mathematics and natural sciences, and organization of enrichment courses.

Conclusion

The role of Assessment Literacy is very important when learning English as a foreign language. At a time when our country is rapidly developing on the path of innovative development, comprehensive support for the creative ideas and creativity of young people, who are the successors of our future, the formation of their knowledge, skills and qualifications, and

advanced foreign experiences, an international standard and improving the assessment system based on requirements, studying international experiences, comprehensive comparative analysis of the existing system, close cooperation with relevant international and foreign organizations, agencies, research institutions is important. A "Road map" was developed to prepare for the participation of the Republic of Uzbekistan in international studies on international evaluation programs. Therefore, in our country, regular participation in evaluation exams corresponding to foreign standards has been established. These are projects such as PIRLS, PISA, TIMSS, which are currently operating. Since the main point of the traditional assessment is to confirm the reliability and validity of the assessment tools, the activities of each examining organization were strengthened by the relevant legislation.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. "Management system of public education" of the President of the Republic of Uzbekistan on additional measures for improvement" № PF-5538 Decree of September 5, 2018.
2. Implementation of international studies on the assessment of the quality of education is national center. Study of primary school students in international studies literacy assessment. Primary school teachers, Methodists and industry methodical guide for specialists. "Sharq" publishing-printing joint-stock company. Tashkent – 2019.
3. Ina VS Mullis and Mikhail O. Martin. PIRLS -2021 population coverage area. National Center for International Research on Educational Quality Assessment printing department. Tashkent-2021.
4. The quality of education under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan control inspection international studies on the assessment of the quality of education national implementation center. Workbook for preparing for PIRLS international study on determining reading literacy of 4th graders.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Хамидова Зайнура Рамазановна
Тошкент Ориентал унивеситети

**УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ
БАҲОЛАШДА КОНЦЕПТУАЛ ЁНДАШУВЛАР**

Аннотация. Ушбу мақолада умумтаълим мактаб директорларининг бошқарув самарадорлигини баҳолашга доир бир қатор илмий-назарий, концептуал ёндашувлар таҳлил этилган. Ҳар бир олимнинг назарий қарашлари, ютуқлари ва камчиликлари бугунги кун талабларига мос келиши ҳамда ушбу концептуал ёндашувларнинг назарий аҳамияти илмий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: таълим, директор, бошқарув, самарадорлик, психология, педагогика, шахсий муносабатлар, методология.

Хамидова Зайнура Рамазановна
Ориентал университет в Ташкенте

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация. В данной статье анализируется ряд научно-теоретических, концептуальных подходов к оценке управленческой эффективности директоров средних школ. Анализируются достижения и недостатки теоретических взглядов, их соответствие требованиям сегодняшнего дня, а также теоретическая значимость этих концептуальных подходов.

Ключевые слова: образование, директор, менеджмент, эффективность, психология, педагогика, личные отношения, методология.

Khamidova Zaynura Ramazonovna
Tashkent Oriental University

**CONCEPTUAL APPROACHES TO ASSESSING THE MANAGEMENT ACTIVITIES OF
SCHOOL PRINCIPALS IN GENERAL SECONDARY EDUCATION**

Annotation. This article analyzes a number of scientific-theoretical, conceptual approaches to assessing the management of secondary school principals. Scientifically analyzed the achievements and shortcomings of each scientist's theoretical views, their correspondence to the requirements of contemporary issues, as well as the theoretical significance of these conceptual approaches.

Keywords: education, director, management, efficiency, psychology, pedagogy, personal relationships, methodology



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N34>

Кириш

Таълим муассасасининг фаолиятидаги самарадорлик, биринчи навбатда, жамоадаги шахслараро муносабатлар, вазифаларни қанчалик тўғри ташкил этилгани ёки этилмаганлигига боғлиқ. Бошқача айтганда, ишнинг қандай ташкил этилиши раҳбарлик, бошқарувчиликнинг ташкил этилиши даражасига қараб белгиланади. Ҳар бир раҳбар педагогик тизимни бошқарар экан, энг аввало, ундаги муаммолар ва бу тизимдаги аъзоларнинг педагогик-психологик хусусиятларини билиш қобилиятига эга бўлиши керак. Мактаб директорлари бошқарув фаолиятида таълим муассасасида барча жараёнларни тартибга солиб туриш учун бошқарув функцияларини мазмун ва моҳиятини билишлари зарур. Мамлакатимизда таълим тизими ҳамда унинг самарадорлигини ошириш борасида кенг кўламли ишларнинг амалга оширилаётгани таълим соҳасига эътиборнинг кучайиши бу албатта жамиятнинг таянчи ҳисобланган соҳани юксалиши келажакнинг барқарор бўлишига олиб келади. Мамлакатимизда 2023 йилнинг “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили” деб номланиши таълимни юксалтириш борасидаги ислохотларнинг амалий натижаларини кўрсатиб беради. Қаердаки таълимга эътибор берилса, ўша жамиятда ривожланиш, юксалиш бўлади. “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонида ҳам таълим муассасаларини бошқарув фаолиятини юксалтириш фуқароларга сифатли таълим бериш борасида ислохотларни кучайтириш ва шу билан бирга таълим муассасаларида ўқувчиларнинг умуминсоний ва миллий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, шунингдек, уларда коммуникатив кўникмаларни шакллантириш, танқидий ва креатив фикрлаш, жамоа бўлиб ишлаш, тадқиқотчилик каби кўникмаларни шакллантиришга йўналтирилган дастурлари амалиётга киритилди[1]. Бу эса албатта таълим муассасалари раҳбарларининг бошқарув фаолиятига янгича ёндашув ва замон талабларига жавоб берадиган креатив фикрлайдиган шахс бўлишини талаб қилади. Бу эса изланувчилар зиммасига бир неча йиллардан буён илмий таҳлил этилган бир қатор олимларнинг тадқиқотларини ўзлаштириш ва таҳлил қилиш мажбуриятини юклайди.

Адабиётлар таҳлили ва методология

Мамлакатимизда амалга оширилаётган таълим тизимидаги ислохотлар тизимини бошқариш механизмларини ўзгартириш, такомиллаштиришни, яъни бошқарувнинг маъмурий буйруқбозлик методларидан воз кечиб, ижтимоий-иқтисодий, замонавий талабларга мос келадиган, демократик тамойилларга асосланган бошқарув тизимини шакллантиришни тақозо этмоқда. Бу бугунги куннинг энг асосий талабларидан бири бўлиб, нафақат бошқарув муаммолари, балки субъектларнинг бошқарув фаолиятини ташкил этиш ва уларни шакллантириш замирида, энг аввало, бошқарув тизимининг турли бўғини раҳбарларининг бошқарув фаолиятини такомиллаштиришнинг йўл-йўриқларини аниқлаш, янги шароитларга мувофиқлаштириш ва амалиётга жорий этиш вазифаларини белгилайди.

Шундан келиб чиқиб, таълим тизимини ривожлантириш йўналишида амалга оширилаётган ислохотлар барча таълим муассасаларида таълим жараёнини илмий

асосда ташкил этиш ва бошқаришда фан-техника ютуқларига асосланган бошқарувнинг энг самарали, инновацион методларидан фойдаланишни, бошқарув йўналишида билим, кўникма ва малакаларни, янги шахсий ва касбий сифатларни талаб қилади.

"Таълимни ижтимоий тизим сифатида бошқариш" концептуал ва терминологик луғати самарадорликни белгилайди. Самарадорлик ўлчови ўқитиш самарадорлиги "эришилган ҳақиқий натижаларнинг таълим дастурида кўзда тутилган мақсадларга мос келиш ўлчовидир". Бошқарув тизимининг самарадорлиги ҳақиқатда эришилган натижаларнинг мактабни инновацион янгилаш дастурида кўзда тутилган онгли равишда белгиланган мақсадларга мос келиш ўлчови сифатида белгиланиши мумкин. Махсус ишлаш кўрсаткичлари турли соҳаларга хос фаолиятдир. Инновацион фаолиятнинг хилма-хиллиги туфайли таълим тизимида ишлаш кўрсаткичларининг ягона тўпламини жорий этиш мумкин эмас. Шунга қарамай, самарадорликни баҳолаш учун бундай кўрсаткичларни ишлаб чиқиш бошқарув фаолияти зарур, бу баҳолаш вазиятда сифатли ориентация учун жуда муҳим [4;183-с.].

Мавжуд бошқарув тизимининг самарадорлигини баҳолашда турли хил параметрларга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади.

Р.И. Третьяков [3;128-с.] самарадорлигини аниқлаш мактаб ишидан давлат-жамоат экспертизасининг (ёки ўзини ўзи бошқаришнинг) асосий объекти менежерларнинг бошқарув фаолияти бўлиши керак деб таъкидлайди. Бошқарув фаолиятининг энг муҳим босқичлари ва мактаб раҳбарларининг кўникмалари синчковлик билан ўрганилади - мактаб ичидаги бошқарувни ахборот билан таъминлаш, педагогик таҳлил, режалаштириш, ташкилий фаолият, мактаб ичидаги назорат, тартибга солиш (яъни менежерларнинг кўникмалари баҳоланади. Бошқарув жараёнининг бутун функционал таркибини амалга ошириш). Ҳар бир функция учун батафсил менежерларнинг самарали ишлаши кўрсаткичлари таклиф этилади, улардан бошқарув жараёнини текширишда фойдаланиш мумкин.

Н. В. Горбунова [2;45-с.] бошқарув фаолиятини бошқача баҳолашни таклиф этади. Мактабда бошқарув фаолияти самарадорлигининг кўрсаткичларидан бири сифатида у ўқув жараёнида инновацияларнинг самарадорлигини оширишни таклиф қилади.

М.Шарифхўжаев ва Ё.Абдуллаевларнинг фикрига кўра, бошқарув самарадорлиги ўз табиати билан мураккаб жараён. Уни фақат бир ёки икки кўрсаткич билан ифодалаб бўлмайди [5; 702-б.].

Бошқарув фаолияти самарадорлигини раҳбарнинг ўзи томонидан баҳоланиши ва натижалар асосида ўз устида ишлаш, ривожлантириш режаларини тузиш имкониятига эга бўлади. Виржиния штати Уильяма ва Мария коллежи профессори Джеймс Х.Стронг ўз тадқиқотларида умумтаълим мактаб директорларини баҳолашда ўзининг қарашлари ва фикр-мулоҳазаларини берган.

Мухокама

Умумтаълим мактабларида директорлар фаолияти самарадорлигини барча олимлар ўз қарашларидан келиб чиқиб таҳлил этган. Масалан: В.Н.Горбунова самарадорликни оширувчи мезонлар сифатида қуйидагиларни таклиф этган.

- белгиланган мақсадга эришиш;
- янги турдаги таълим муассасасини бошқариш модели ва нормативнинг нисбати;
- бошқарув тизимининг ўқитувчи касбий маҳоратига таъсири даражаси;

- қулайлик даражаси.

Ҳар бир мезон учун таҳлил қилинган аспектлар ва мумкин бўлган ҳисоблагичлар (даражалар, хусусиятлар) кўриб чиқилади. Ушбу мезонлар, муаллифнинг фикрига кўра, умумий назарияга мос келади, бошқарув ва умумий таълим муассасасининг ўзига хос хусусиятларини ифодалайди.

М.М. Поташник эса даставвал мактаб ичидаги бошқарувни таъминлаш орқали самарадорликка эришиш мумкинлигини таъкидлайди.

Ўзбек олимлари М.Шарифхўжаев ва Ё.Абдуллаевларнинг қарашлариди эса самарадорликни бир ёки икки мезонлар билан белгилаб бўлмайди, аксинча кўпроқ мезонларга эътибор берилиши кераклигини таъкидлаган ва улар иккита гуруҳга бўлиниши таъкидланган.

Биринчи гуруҳга бошқариш тизими фаолиятини тавсифловчи миқдорий кўрсаткичлар киради:

- бошқарувдаги жонли меҳнатнинг тежалишини тавсифловчи кўрсаткичлар;
- бошқарув учун сарфланган молиявий ресурсларнинг тежалишини тавсифловчи кўрсаткичлар;
- бошқариш учун сарфланадиган вақтни тежалишини тавсифловчи кўрсаткичлар.

Иккинчи гуруҳга бошқарувнинг ижтимоий самарадорлигини тавсифловчи сифат кўрсаткичлари киради:

- бошқаришнинг илмий-техник даражасини ифодаловчи кўрсаткичлар;
- бошқарув аппарати ходимларининг малакаси даражасини тавсифловчи кўрсаткичлар;
- қабул қилинган қарорлар самарадорлигини тавсифловчи кўрсаткичлар;
- бошқарув жараёнидаги ахборотларнинг ишончлилиги ва тўлиқлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;
- бошқариш маданиятини тавсифловчи кўрсаткичлар;
- коммуникациянинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;
- бошқарув аппаратидаги меҳнат шароитини тавсифловчи кўрсаткичлар ва бошқалар.

Америкалик профессор Джеймс Х.Стронг ўз тадқиқотларида умумтаълим мактаб директорлари фаолиятини баҳолашда қуйидаги мезонларга эътибор қаратиш кераклигини таъкидлаган.

- етакчилик;
- мактабдаги шарт-шароитлар;
- инсон ресурсларини бошқариш;
- ташкиллаштиришни бошқариш;
- алоқа ва ижтимоий муносабатлар;
- касбий маҳорат каби мезонлар.

Натижалар

Ушбу мақолада биз бир қатор олимларнинг мактаб директорларининг фаолияти самарадорлигини баҳолашда эътибор берилиши керак бўлган мезонлар ҳақида тўхталиб ўтдик. Бир қатор кузатишлар ҳамда бугунги кунда тараққиётнинг замонавийлашгани кўплаб мамлакатларда модернизация жараёнларининг

кузатилганини инобатга олган ҳолда мактаб директорлари фаолиятида аввало замонавий раҳбар сифатида ўзларини ҳис қилишлари унинг талабларига жавоб бера оладиган демократик раҳбарлик унсурларига мос бўлиши керак.

Улар ўз фаолиятларида инсонпарварлик, ҳодимлар билан демократик алоқа ўрнатиши, қарорлар қабул қилишда ҳодимларнинг фикр ва мулоҳазаларига ҳам эътибор бериш керак.

Ҳар бир раҳбар ўз ходимлари билан жамоавийликни таъминлаган бўлиши зарур. Ўқувчиларнинг олдида ўқитувчининг камчилигини айтмаслиги, ўқувчилар олдида ўқитувчининг кадр-қимматини камситмаслиги зарур.

Қарор қабул қилишда объектив ва креатив қобилиятга эга бўлиши зарур. Шу билан бирга ўзининг бошқарув механизмига, ўз режалари ҳамда стретгиясиги бўлиши лозимдир. Ҳар бир жараёндан ўзининг фикр ва мулоҳазалари бўлиши билан биргаликда кенг тафаккурли ўз касбининг етук мутахассиси бўлиши даркордир.

Энг аввало раҳбарлик лавозимида олинишида таниш-билиш, уруғ-аймоқчилик яъни коррупцияга йўл қўйилмасдан, ҳаққоний талабларга жавоб берадиган етук кадрларни танлаб олиш мақсадга мувофиқ.

Хулоса

Таълим муассасалари ва уларнинг фаолиятини ўрганишга оид назарий-методологик ёндашувларнинг ўрганилиши ва аҳамиятини ўрганиб таҳлил қилдик. Таълим муассасаларининг раҳбарларининг фаолиятини баҳолашда унинг самарадорлигини аниқлаш зарур. Самара кўрсаткичлари раҳбарларнинг фаолиятини кўрсатиб беради. Умумтаълим мактаб директорларининг фаолиятини баҳолашда бир қатор хорижий ўзбек олимларининг фикр ва мулоҳазаларини таҳлил қилдик.

Умумий ўрта таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш ва раҳбар ҳодимларнинг фаолиятини мувофиқлаштиришда юқорида билдирган фикр ва мулоҳазаларимиз муҳим аҳамият касб этади. Улар асосида бошқарув фаолиятини илмий асосда ташкил этиш, таълим тарбия жараёни иштирокчилари ҳамда барча ходимларнинг фаолиятини мотивлаштириш, ташаббусларни рағбатлантириш, турли педагогик лойихаларни ишлаб чиқиш ва таҳлил қилиш учун зарурий шарт шароитларни яратиш, таълим эҳтиёжларидан келиб чиқиб натижаларнинг самарадорлигини таҳлил қилишни ҳамкорликда ташкил этишни назарда тутди. Шу билан бирга мактаб директорларининг ўз фаолиятини ташкиллаштиришда оқилона услуб ва бошқарувда тарбиявий муносабатларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиш каби бир қатор талабларни белгилайди.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони
2. Н. В. Горбуновой. Внутришкольное управление: теория и опыт педагогических и управленческих инноваций [Текст] / под ред.— М., 1995. С. 45

3. Третьяков, П. И. Практика управления современной школой [Текст] / П. И. Третьяков. — М., 2005 С.128.
4. Управление развитием школы [Текст] / под ред. М. М. Поташника, В. С. Лазарева. — М., 1995. С.183.
5. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент: Дарслик. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2001. - 702 б

13.00.00 – Педагогика фанлари

Jumayev Sohijjon Botirboyevich
Navoiy davlat pedagogika instituti

**O'QUV-MASHG'ULOT GURUHLARIDA SHUG'ULLANUVCHI 11 YOSHLI
KURASHCHILARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGI DINAMIKASI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada yakkakurash sport turiga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabida oquv mashg'ulot guruxlarida shug'ullanuvchi 11 yoshli kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat darajalari tezkorlik, kuch, tezkor-kuch, egiluvchanlik, chidamlilik sifat ko'rsatkichlari qanday shakllanib kelayotgani keltirilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy yuklamalar, jismoniy sifatlar tezkorlik, kuch, tezkor-kuch, egiluvchanlik, chidamlilik jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari

Джумаев Сохибжон Батирбоевич
Навоийский государственный
педагогический институт

**ДИНАМИКА ОБЩЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ 11-ЛЕТНИХ БОРЦОВ,
ЗАНИМАЮЩИХСЯ В ТРЕНИРОВОЧНЫХ ГРУППАХ**

Аннотация. В данной статье рассказывается о том, как у 11-летних борцов, занимающихся в детско-юношеской спортивной школе, специализирующейся на единоборствах, формируются качественные показатели общей физической подготовленности, уровня физических качеств-быстрота, сила, быстрота-сила, гибкость, выносливость.

Ключевые слова: физические нагрузки, Физические качества быстрота, сила, быстрота-сила, гибкость, выносливость показатели физического развития.

Jumaev Sohijjon Botirboyevich
Navoi State Pedagogical Institute

**DYNAMICS OF GENERAL PHYSICAL FITNESS OF 11-YEAR-OLD WRESTLERS
ENGAGED IN TRAINING GROUPS**

Annotation. This article presents how the quality indicators of general physical fitness, physical quality levels of 11-year-old wrestlers engaged in training groups in a children's and youth sports school specializing in martial arts are formed.

Keywords: physical loads, physical qualities speed, strength, speed-strength, flexibility, endurance indicators of physical development



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N35>

Kirish

Respublikamizda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, jumladan olimpiya zaxiralar kollejlari, sport klublari va sport tayyorgarlik markazlari, maktablarda faoliyat yurutuvchi jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shularni inobatga olgan holda yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni yangi fundamental ilmiy-amaliy isbotlangan vositalar yordamida shakllantirish hamda takomillashtirish lozim. Yurtboshimiz yaratib bergan imkoniyatlar va shart sharoitlardan foydalanib ta'lim sifatini oshirish, jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan talabni yanada targ'ib etib, yoshlarimizni jismonan baquvvat, aqlan yetuk qilib tarbiyalash eng asosiy maqsadlarimizdan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Kurash sport turi bilan shug'ullanib kelayotgan yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajalari va tog'ri talqin etilgan vazifalar yuksak natijalarni qo'lga kiritishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Berilgan keng imkoniyatlardan foydalanib kurash sport turi bilan mashg'ulotlar olib borayotgan 11 yoshli sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari qay darajada shakllanib kelayotganligini aniqlash uchun mazkur tatqiqot amaliyoti olib borildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy tadqiqot jarayonida ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlar, matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Navoiy viloyati, Navoiy shahar 1-sonli sport maktabida o'quv mashg'ulot guruhlarida shug'ulanuvchi yosh kurashchilarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'tkazildi. Tajribalarimizda 11 yoshli kurashchilar ishtirok etishdi.

Natijalar va muhokama

Hozirgi kunda kurash sport turi bo'yicha ko'plab yuqori malakali murabbiylarning yosh sportchilar bilan olib borayotgan mashg'ulot jarayonlari yuqori natijalarni qayt etib mamlakatimiz sharafini yanada yuksaklarga ko'tarishgan bo'lsa, ko'plab olimlarimiz ham ushbu sport turi bo'yicha o'z izlanishlari bilan yoshlarning mashg'ulot jarayonlarida sportchilarga berilayotgan jismoniy yuklamalarning tog'ri taqsimlanishi va yosh sportchilarning xato kamchiliklarini aniqlab ularni bartaraf etishga ko'maklashmoqda.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik darajalarninig shakllanib borish ko'rsatkichlari har bir belgilangan nazorat sinovlari orqali aniqlab olindi.

11 yoshli kurashchi bollarning mashg'ulot davomida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi qay darajada yahshi shakllanib kelayotganini aniqlash uchun amaliy nazorat sinovlari olindi. Dastlab tanlab olingan amaliy nazorat sinovi 60 m masofaga yugurish orqali bajarilib unda yosh kurashchi bollarning tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Nazorat guruhi kurashchilari tajribadan avval 10.1 ± 1.4 soniyani tashkil etgan bo'lsa, tajriba so'ngiga kelib ularning natijalari 9.9 ± 1.6 soniyaga yahshilangani ma'lum bo'ldi. Variatsiya ko'ffisienti esa yil boshida ($V=13.9\%$)ni tashkil qildi, yil ohiriga kelib ($V=16.2\%$) ga teng deb topildi. Tajriba oldi va tajribadan keyingi natijalar o'rtasidagi farqi 0.2 soniyani tashkil qildi. Biroq olingan natijalarni taqqoslanganda statistik ishonchli farqlar mavjud emas ($P>0.05$).

Tajriba guruhi yosh kurashchilar tamonidan qayt etilgan tajribadan avvalgi va tajriba so'ngidagi ko'rsatkichlar (10.2 ± 1.3 ; 9.6 ± 1.5) o'rtasidagi statistik farqlar 0.6 soniyaga teng deb topildi. Ushbu ko'rsatkichlar tajriba guruhida variatsiya ko'ffisienti ($V=12.7\%$) dan ($V=15.6\%$) ga yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat guruhining tajribadan oldingi tezkorlik ko'rsatkichlar orasida (10.2 ± 1.3 ; 10.1 ± 1.4 ;) o'rtasidagi statistik farqlar kuzatilmadi ($P < 0.05$). Yil so'ngiga kelib tajriba va nazorat guruhining ko'rsatkichlari (9.6 ± 1.5 ; 9.9 ± 1.6) orasidagi statistik farqlar ishonchli ($P < 0.05$) ga tengligi aniqlandi.

1000 m masofaga yugurish bo'yicha o'tkazilgan amaliy nazorat sinovlari tajriba guruhida yil boshida ko'rsatgan natijalari $5.46.0 \pm 0.49$ daqiqa vaqtda yugurib o'tishdi variatsiya ko'ffisienti ($V=8.7\%$) ni tashkil qildi. Yil ohiriga kelib bu ko'rsatkich $4.29.0 \pm 0.32$ daqiqada bosib o'tishga erishildi. Variatsiya ko'ffisienti ($V=7.4\%$) ga yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Ular o'rtasidagi statistik farqlar 0.25% ga teng deb topildi. Nazorat guruhlarida o'tkazilgan amaliy sinov mashqi orqali chidamlilik jismoniy sifat ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Olingan tajribada yosh kurashchi bollarning yil boshida ko'rsatgan natijalari $4.55.0 \pm 0.31$ daqiqa oralig'ida bosib o'tdi, ($V=6.8\%$) yil ohiriga kelib ushbu ko'rsatkich $4.18.0 \pm 0.16$ daqiqada masofani bosib o'tishdi. Variatsiya ko'ffisienti ($V=3.8\%$). Statistik farqlar ishonchliligi mavjud ($t=2.26$, $P < 0.05$).

11 yoshli kurashchi bollarning umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda yordamchi vosita sifatida harakatli o'yinlarni qo'llanilish shiddati va hajmi meyorlarini ishlab chiqib, mashg'ulot jarayoniga tatbiq etish samaradorligi yuqori bo'lishining tatqiqot ishimizning farazida keltirib o'tganmiz.

Bizning nuqtaiy nazarimizda ilgari surilgan ilmiy farazimizning qanchalik haqiqatga yaqinligi tajriba guruhida shug'ullanuvchi kurashchilarning jismoniy sifatlari nazorat guruhida shug'ullanuvchi tengdoshlari natijalariga nisbatan solishtirilganda o'sish darajasining foizlarida katta farqlar aniqlanganligi o'z isbotini topmoqda.

11 yoshli kurashchi bollarning umumiy jismoniy rivojlantirishda harakatli qo'llanilish shiddati, hajmi va meyorlanib mashg'ulot jarayoniga tatbiq etilgandan so'ngi olingan natijalar xulosasi ijobiy bo'ldi. Endi bizni ilmiy yangiligimiz bo'lgan harakatli o'yinlarning qo'llanilish shiddati, hajmi meyorlarini ishlab chiqish boshlang'ich tayyorgalik bosqichi mashg'ulot jarayoniga tatbiq etib samaradorligini aniqlashdan iborat edi.

Tajriba guruhi bosqichlari mokkisimon 4×10 metr masofaga yugurish testi bo'yicha qayt etgan ko'rsatkichlari yil boshida 7.3 ± 1.1 soniya natija qayt etishgan bo'lsa variatsiya ko'ffisienti 15.1% ga teng bo'lgan, yil ohiriga kelib 6.7 ± 0.78 soniya variatsiya ko'ffisienti esa 11.6% ni tashkil qilib yil so'ngiga kelib ijobiy tarafga o'zgarganini ko'rish mumkin. Statistik farqlar ishonchliligi ($P < 0.05$) ga teng deb topildi. Nazorat guruhi yil boshida ko'rsatgan natijalari 7.2 ± 1.3 soniyani qayt etishgan bo'lsa variatsiya ko'ffisienti ($V=17.3\%$). Yil ohiriga kelib yosh kurashchi bollarning ko'rsatkichlari ma'lum miqdorda o'sish kuzatildi. (7.2 ± 1.9) variatsiya ko'ffisienti ($V=15.1\%$) natija bilan yakunlashdi. Nazorat guruhi yil boshida va yil ohiridagi statistik farqlar ishonchliligi ($t=1.23$) ($P > 0.05$) ga teng.

Tezkorlik jismoniy sifatini tajriba va nazorat guruhlarida shug'ullanuvchi kurashchilarning rivojlanish farqini aniqlash maqsadida yil so'ngida olingan natijalar tahliliga ko'ra nazorat guruhi kurashchilari qayt etgan natijaga ko'ra tajriba guruhida shug'ullanuvchi kurashchilar tomonidan qayt etilgan natijalar yahshi ekanligi aniqlandi.

Yosh kurashchi bollarning kuch jismoniy sifatini aniqlash bo'yicha qo'yilgan vazifaga ko'ra turnikda tortilish mashqi tanlab olindi. Natijalarning o'rtacha qiymati tajriba guruhi kurashchilarda yil boshida 3.8 ± 1.5 marta natija ko'rsatgan bo'lsa variatsiya koeffisienti ($V=39.5\%$) ni tashkil etdi, yil ohiriga kelib ushbu ko'rsatkich 7.4 ± 2.32 marta tortilishgan bo'lsa variatsiya koeffisienti ($V=31.5\%$) ga yahshilandi. Ushbu olingan tajriba guruhi yil boshiga nisbatan yil ohirida ko'rsatgan natijasida 2 marotabaga o'siganligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhi kurashchi bollarning yil boshida ko'rsatgan natijasi 3.9 ± 1.4 marta tortilishgan bo'lsa, yil ohirida ushbu ko'rsatkich quyidagi natijaga o'rgardi. ($V=39.5\%$) ($V=31.5\%$) Tajriba guruhi kurashchilardan olingan natijalar nazorat guruhi kurashchilari ko'rsatgan natijalari nisbatan yaxshi ekanligi aniqlandi. Statistik jihatdan farqlar ishonchliligi ($P < 0.05$) ga teng bo'ldi.

Jismoniy sifat bo'lmish "kuch" deganda kurashchining raqib qarshiligini yengib o'tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko'rsatish qobiliyati tushuniladi. Kuchning quyidagi turlarini ajratish qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchan, kuch chidamliligi.

Umumiy kuch - bu kurashchining maxsus harakatlariga taalluqli bo'lmagan holda sportchi tomonidan namoyon qilinadigan kuch. Maxsus kuch musobaqa harakatlariga mos bo'lgan maxsus harakatlarda sportchi tomonidan namoyon bo'ladi.

Mutlaq kuch sportchining juda katta xususiyatiga ega harakatlarida namoyon bo'ladigan kuch imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Kurashda u kuch yordamida yakkama yakkama olishish uchun muhim ahamiyatga ega (N.A.Tasatanov, 2017 168-b).

Kuch jismoniy sifatini o'zgarishlarini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhi kurashchilarning orasida farqlar borasida ma'lumotlarni bilish bo'yicha tekshirish o'tkazilganda tajriba guruhi kurashchilarning natijalari ($t=2.88$) ga teng ($P < 0.05$).

Turgan joyda uzunlikka sakrash tajriba guruhi kurashchilarda yil boshida ko'rsatgan natijalari 1.58 ± 0.59 sm masofaga sakrashdi variatsiya koeffisienti ($V=37.3\%$) ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich yil so'ngiga kelib 1.84 ± 0.48 sm masofaga sakrab ijobiy natija ko'rsatishdi, variatsiya koeffisienti ($V=26.1\%$) natija bilan yakunlashdi. Statistik farqlar ishonchliligi ($t=3.38$) ga teng ($P < 0.005$). Nazorat guruhi yosh kurashchi bollarning ko'rsatgichlari yil boshida 1.61 ± 0.51 sm masofaga sakrashgan bo'lsa, yil so'ngiga kelib 1.73 ± 0.38 sm masofaga sakrashdi. Ushbu natilarda yil so'ngiga kelib 12 sm masofaga o'sganligi aniqlandi. Variatsiya koeffisienti yil boshida ($V=31.7\%$) tashkil qilgan bo'lsa, yil so'ngida ushbu ko'rsatkich ($V=21.9\%$) ga teng bo'ldi.

Tezkor-kuch sifatiga doir adabiyotlar tahlilidan olingan malumotlarga nisbatan amaliyotda bo'layotdan o'zgarishlarning bir biriga solishtirish maqsadida o'tkazilgan tekshirishlarda misol tariqasida oladigan bo'lsak 11 yoshli kurashchi bollarning natijalarini ushbu yoshdagi kurashchilarning tajriba gurihiga qaraganda nazorat guruhi kurashchilarning ko'rsatgan natijalari past ekanligi aniqlandi.

Egiluvchanlik - bu kurashchining katta amplitudada harakatlarini amalga oshirish qobiliyatidir. Egiluvchanlik bo'g'imlardagi harakatchanlik bilan aniqlanadi. U o'z navbatida, bir qator omillarga bog'liq: bo'g'im sumkalarining tuzilishi paylar, mushaklar cho'ziluvchanligi va ularning cho'zilish qobiliyatlarini, Bir nechta egiluvchanlik turlari mavjud.

Faol egiluvchanlik — bu shaxsiy mushak kuchlanishlari hisobiga harakatlarni katta amplitudada bajarish qobiliyatidir.

Sust egiluvchanlik - bu tashqi kuchlar: og'irliklar, raqib harakatlari hisobiga harakatlarini katta amplitudada bajarish qobiliyatidir. Sust egiluvchanlik hajmi faol egiluvchanlikning tegishli ko'rsatkichlaridan yuqori.

1-жадвал.

Tajriba va nazorat guruhlarida shug'ullanuvchi 11 yoshli kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (n=64)

ТТ /p	Nazorat mashqlari	Guruhlar	Tajriba boshida		Tajriba ohirida		Farqi	t	P
			X±α	V%	X±α	V%			
1.	60 m masofaga yugurish(soniya)	TG	<u>10.2±1.3</u>	<u>12.7</u>	<u>9.6±1.5</u>	<u>15.6</u>	<u>0.6</u>	<u>2.55</u>	<u><0.05</u>
		NG	10.1±1.4	13.9	9.9±1.6	16.2	0.2	0.46	>0.05
2.	1000 m masofaga yugurish (daqiq)	TG	<u>4.55.0±0.31</u>	<u>6.8</u>	<u>4.18.0±0.16</u>	<u>3.8</u>	<u>0.37</u>	<u>2.26</u>	<u><0.05</u>
		NG	5.46.0±0.49	8.7	4.29.0±0.32	7.4	0.17	1.69	>0.05
3.	Mokki tarzda yugurish 3x10 m (soniya)	TG	<u>7.3±1.1</u>	<u>15.1</u>	<u>6.7±0.78</u>	<u>11.6</u>	<u>0.6</u>	<u>2.41</u>	<u><0.05</u>
		NG	7.2±1.3	18.1	7.0±1.92	27.4	0.2	1.23	>0.05
4.	Turnikda tortilish (marta)	TG	<u>3.8±1.5</u>	<u>39.5</u>	<u>7.4±2.32</u>	<u>31.5</u>	<u>3.6</u>	<u>2.88</u>	<u><0.05</u>
		NG	3.9±1.4	35.9	4.5±2.15	47.8	0.6	1.63	>0.05
5.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	TG	<u>1.58±0.59</u>	<u>37.3</u>	<u>1.84±0.48</u>	<u>26.1</u>	<u>0.26</u>	<u>3.38</u>	<u><0.005</u>
		NG	1.61±0.51	31.7	1.73±0.38	21.9	0.12	1.59	>0.05
6.	Oldinga egilish (sm)	TG	<u>8.9±2.6</u>	<u>29.2</u>	<u>14.5±2.4</u>	<u>16.6</u>	<u>5.6</u>	<u>3.17</u>	<u><0.005</u>
		NG	9.2±2.9	31.5	11.4±2.8	24.6	2.2	1.51	>0.05

Dinamik egiluvchanlik — dinamik xususiyatlarga ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir. Statik egiluvchanlik - statik egiluvchanlikka ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Umumiy egiluvchanlik — turli yo'nalishlarda eng yirik bo'g'imlarda katta amplituda bilan harakatlarini bajarish qobiliyatidir (N.A.Tasatanov, 2017 178-b).

Egiluvchanlik sifatini aniqlashda tik turgan holda oldinga egilish nazorat testidan foydalanib quydagi natijalarni aniqlashga erishdik. Tajriba guruhi kurashchilarda yil boshida ko'rsatgan natijalari 8.9±2.6 sm ni tashkil etgan bo'lsa variatsiya koeffisienti (V=29.2%) ga teng bo'ldi. Yil ohiriga kelib kurashchi bollarning ko'rsatgan natijalari 14.5 sm ga yahshilangan variatsiya koeffisienti (V=16.6%) ni tashkil qildi. 11 yoshli kurashchi bollarning egiluvchanlik jismoniy sifat darajalarini aniqlash uchun nazorat guruhi kurashchilaridan ham tajriba olindi. Yil boshida ko'rsatgan natijalari 9.2±2.9 sm ga teng bo'ldi. Variatsiya koeffisienti esa (V=31.5%) tashkil qildi. Yil ohiriga kelib ushbu ko'rsatgich 11±2.8 sm (V=24.6%) bilan yakunlashdi. Yuqorida tajriba va nazorat guruhi kurashchilari tomonidan qayt etilgan natijalarning tahlili xulosasiga shunday fikrlarni aytish zaruriyati tug'ilmoqda. Unga ko'ra tajriba va nazorat guruhida yil boshidagi ko'rsatgichlarda deyarli farq yo'qligi aniqlandi. Yil so'ngida esa tajriba

va nazorat guruhi kurashchi bollarning ko'rsatgan natijalarida 3.4 sm ga yaxshilanganligini ko'rish mumkun.

Yuqorida o'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar taxlili anketa so'rovnamasi, suxbat, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash usularidan foydalangan xolda o'tkazilgan ilmiy izlanishlarimizdan olingan natijalar xulosalariga tayangan xolda yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda xarakatli o'yinlarning qo'lanilish shiddati hajmi va meyorlari aniqlab tatbiq etishning samaradorligini aniqlash maqsadida 11 yoshli kurashchi bollarda pedagogik tajriba o'tkazildi.

Xulosa

Yakkakurashchilarda jismoniy sifatlarini rivojlantirish muomolari bo'yicha ilmiy va o'quv-metodik adabiyotlarini tahlil qilish orqali, oxirgi vaqtlarda sport soxasidagi mutaxassislarning etibori umumiy va maxsus tayyorgarlikning eng samarali vositalari va metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib ular sportchi organizimining funksional tizimlariga oshirilgan talablarni qo'yadi, ularning imkoniyatlari musobaqa foaliyatining muvofiqiyatligini belgilaydi.

Olib borilgan ilmiy tatqiqotlar va ilmiy izlanishlar yosh kurashchilarning jismoniy sifatleri rivojlantirishda turli xil vositalardan, jumladan harakatli oyinlardan samarali foydalanish katta samara berishi asoslab berilgan va bu yonalishni yanaqa chuqurroq o'rganish va uni ilmiy asoslab beradi. Jismoniy tarbiya nazariyasining asoschilaridan biri P.F Lesgaft bolalar o'z harakatlarini boshqarib borishga o'rganishlarda va ularda bundey mahoratni rivojlantirib borishda harakatli o'yinlarning muntazam ravishda o'tkazib turilishi yahshi yordam beradi, deb ko'rsatildi.

Yani o'yinlar ularni katta tezlik, chaqonlik va epchilik ko'rastib aniq maqsadni ko'zlagan holda harakat qilishga o'rgatadi. Bunda ular qoidalarni bajarishga, o'z-ozini boshqarishga, o'rtoqchilikni qadrlashga ham o'rgatib boradilar. Jismoniy sifatlarining rivojlanganlik darajasini ifodalovchi test mashqlari natijalariga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida yil boshida ko'rsatgan natilari bir-biridan deyarli farq qildi.

Jismoniy sifat ko'rsatkichlari jumladan: kuch, tezkorlik, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi sifatlar 11 yoshli kurashchilarda yetarli darajada rivojlanganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek tajriba va nazorat guruxlarini jismoniy holatlari yahshi darajada ekanligi aniqlandi.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4881-son Qarori lex.uz
2. Abdullaev Sh.A.-Erkin kurash. Toshkent, axborot press 2017y.
3. Adbulhaqov M.R.- Borotsya chtoby pobejdat.Sport v tvoey jizni. – M.: 1990g. S.144.
4. Aliev I.B. – Kurash bilan shug'ullanuvchi talabalarning mashg'ulot yuklamalari. Toshkent – 2012y.

5. Bobomurodov F.I. Kurashchilarning morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga differensial yondashuv. Ped.f.b.f.d (PhD). diss. avtoreferati.
6. Kerimov F.A. – Yunon–Rum Kurashi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, axborot meros. 2017y.
7. Nurshin J.M. – O‘zbek milliy kurashi. Toshkent. 1993y.17-B.
8. Tastanov N.A. –Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati.T.:2017y.
9. Taymurodov A.R. - Kurash. Monografiya 2007y.78-B.
10. Yusupov K.T. – Milliy kurash qoidalari. Monografiya. Toshkent -1992y.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Tursunova Mukhabbat Ikromovna
Tashkent State Pedagogical
University, PhD student

THE POWER OF PERSONALIZATION: UNLOCKING SUCCESS WITH AN INDIVIDUAL STRATEGY FOR ENGLISH TEACHERS

Abstract. Teaching English can be a challenging task, especially when it comes to addressing the individual learning needs of students. In this article, it is explored that the benefits of personalization in teaching English and provide practical tips and strategies for creating an effective individualized approach in the classroom. By implementing these strategies, teachers can create a supportive and personalized learning environment that helps students achieve their language goals.

Key words: English teaching, individual strategy, learning styles, personalization, classroom engagement, student motivation, language goals, effective teaching, tailored teaching, supportive learning environment.

Tursunova Muxabbat Ikromovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
tayanch doktorant

INDIVIDUALLASHTIRISH KUCHI: INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI UCHUN INDIVIDUAL STRATEGIYA BILAN MUVAFFAQIYATLARGA ERISHISH

Annotatsiya: Ingliz tilini o'rgatish, ayniqsa, talabalarning individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishda qiyin vazifa bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda individuallashtirishning afzalliklari ko'rib chiqiladi va sinfda samarali individual yondashuvni yaratish uchun amaliy maslahatlar va strategiyalar taqdim etiladi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga til maqsadlariga erishishda yordam beradigan qo'llab-quvvatlovchi va shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar: Ingliz tilini o'qitish, individual strategiya, o'rganish uslublari, individuallashtirish, sinfdagi faollik, talabalar motivatsiyasi, til maqsadlari, samarali o'qitish, moslashtirilgan o'qitish, qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhiti

Турсунова Мухаббат Икромовна
Ташкентский государственный
педагогический университет,
базовый докторант

СИЛА ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ: ДОСТИЖЕНИЕ УСПЕХА С ПОМОЩЬЮ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ СТРАТЕГИИ ДЛЯ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Преподавание английского языка может быть сложной задачей, особенно когда речь идет об удовлетворении индивидуальных потребностей учащихся в обучении. В этой статье исследуются преимущества персонализации в обучении английскому языку и приводятся практические советы и

стратегии для создания эффективного индивидуального подхода в классе. Применяя эти стратегии, учителя могут создать благоприятную и персонализированную учебную среду, которая поможет учащимся достичь своих языковых целей.

Ключевые слова: преподавание английского языка, индивидуальная стратегия, стили обучения, персонализация, вовлеченность в класс, мотивация учащихся, языковые цели, эффективное обучение, индивидуальное обучение, благоприятная среда обучения.



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N36>

Introduction

As an English teacher, one of the greatest challenges you face is how to engage and challenge every student in your classroom. You have likely found that no two students are the same when it comes to their learning styles, preferences, and abilities. However, there is a solution to this challenge: adopting an individual strategy approach that considers the unique needs of each student. By tailoring your teaching to meet the individual needs of your students, you can increase their motivation and engagement, and ultimately help them achieve their goals in the subject. In today's diverse and dynamic educational landscape, English teachers face the challenge of accommodating students with varying needs and learning styles. One teaching approach that has gained prominence in recent years is personalized instruction, which tailors teaching strategies to meet the unique needs, goals, and preferences of each student. This article explores the power of personalization in English language teaching, highlighting its benefits in enhancing academic outcomes, motivation, and engagement. We also discuss effective strategies for implementing personalized instruction and how technology can support this approach. By leveraging the power of personalization, English teachers can unlock success for each individual student, creating a more engaging, supportive, and effective learning environment.

Literature analysis

Several studies have investigated the effectiveness of personalized instruction in English language teaching. One study by Hwang and colleagues (2016) found that personalized instruction led to significant improvements in students' English proficiency, motivation, and self-regulated learning.[1; 175] Another study by Cavanaugh and colleagues (2017) examined the impact of personalized learning on English language learners and found that personalized instruction led to higher academic achievement and better language proficiency outcomes. [2;26]

A review of literature by Hock and Lee (2019) highlighted the importance of considering individual differences in learners when designing language learning activities. The authors emphasized that personalization can improve motivation and engagement by making the learning process more relevant and meaningful to each student.

Technology-based approaches to personalization have also been investigated. A study by Ke and Xie (2020) examined the effectiveness of adaptive learning platforms in personalized English language teaching. The authors found that adaptive platforms led to better learning outcomes and increased motivation among students. [3; 226]

Furthermore, research has shown that personalization can improve teacher-student relationships. A study by Klassen and colleagues (2013) found that when teachers personalize

their instruction, they build a stronger rapport with their students, which can lead to greater student engagement and achievement. [4; 681]

The literature suggests that personalized instruction can lead to significant improvements in English language teaching outcomes, including proficiency, motivation, and engagement. Effective implementation of personalized instruction requires an understanding of each student's needs, learning style, and goals, and can be supported by technology-based approaches. Personalization can also enhance teacher-student relationships, creating a more supportive and engaging learning environment.

Methods

There are several methods that can be used in this article to support the argument that personalization is a powerful tool for English teachers. Some of these methods include:

Providing case studies or examples of teachers who have successfully implemented personalized teaching strategies in their classrooms. These examples can demonstrate the benefits of personalization and provide practical tips and strategies for other teachers to follow.

Conducting surveys or interviews with students and teachers to gather data on the effectiveness of personalized learning in improving motivation, engagement, and learning outcomes. This data can be used to support the argument that personalization is an effective teaching approach.

Reviewing relevant academic research on personalized learning and its impact on student motivation, engagement, and learning outcomes. This research can be used to support the argument that personalization is an evidence-based teaching approach.

Providing practical tips and strategies for English teachers to implement personalized learning in their classrooms. These tips and strategies can be based on best practices in teaching and can be tailored to the specific needs of English language learners.

By using a combination of these methods, the article can provide a well-rounded and evidence-based argument for the power of personalization in teaching English.

Results

The results of this article would be to show the power of personalization in unlocking success for English language learners. The article would aim to demonstrate that adopting an individual strategy approach that considers the unique needs of each student can increase their motivation and engagement, and ultimately help them achieve their language goals. The article would also provide practical tips and strategies for English teachers to implement personalized learning in their classrooms, based on best practices in teaching and tailored to the specific needs of English language learners.

The article would aim to provide a well-rounded and evidence-based argument for the effectiveness of personalization in teaching English, drawing on academic research, case studies, surveys, and interviews. By presenting this evidence, the article would aim to persuade English teachers to adopt a personalized teaching approach in their classrooms, and to provide them with the tools and strategies they need to do so effectively. Ultimately, the results of this article would be to improve the learning outcomes and success of English language learners through the power of personalization.

Discussion

As English teachers, our primary goal is to equip our students with the skills they need to communicate effectively in the language. However, each student comes to us with unique

strengths, weaknesses, learning styles, and motivations. Therefore, employing a one-size-fits-all approach to teaching English is not always effective. Instead, personalization of teaching strategies is key to unlocking success for each individual student. [5; 104]

Personalized teaching refers to a tailored approach that is customized to meet the needs, goals, and preferences of each student. When teachers personalize their teaching strategies, they create a more engaging and supportive learning environment that can foster better academic outcomes, higher motivation, and greater self-confidence in their students.

The power of personalization lies in its ability to create an individualized learning experience that caters to the specific needs of each student. Personalized instruction takes into account each student's learning style, aptitude, and pace of learning. For example, some students learn best through visual aids, while others prefer hands-on activities. Some students may need more time to process new information, while others may grasp concepts quickly. By catering to these individual differences, teachers can create a more effective learning experience. [6; 102]

Personalization also enhances the relationship between teacher and student, building trust and respect. By taking the time to get to know each student and their unique needs, teachers can establish a more meaningful connection with their students. [7.] This connection can create a safe and supportive learning environment, where students are more likely to ask questions, express their concerns, and engage in classroom discussions.

In addition to improving academic outcomes, personalization can also have a positive impact on student motivation and engagement. When students feel like their teachers care about their individual needs and goals, they are more likely to be motivated to learn. Personalization can also help students to see the relevance and importance of what they are learning, making it more meaningful and engaging. [8; 202]

Implementing personalized instruction requires careful planning and preparation. Teachers need to assess each student's individual needs and learning style to determine the best approach. [9] This can involve pre-assessments, observations, and discussions with students to understand their goals and preferences. Teachers can then use this information to design activities and lessons that are tailored to each student's needs.

One effective strategy for personalization is differentiation. This involves varying the content, process, and product of learning to meet the needs of different learners. For example, teachers can offer different reading materials at different levels of difficulty, provide audio or visual aids to support learning, and offer different assessment options to allow students to demonstrate their understanding in different ways.

Technology can also play a significant role in personalization, with online platforms offering adaptive learning algorithms that can adjust to the individual needs of each student. Such platforms can provide personalized feedback, suggest activities, and track progress, allowing teachers to monitor student performance and adjust instruction as necessary. [10;205]

To sum up, personalization is a powerful tool for English teachers to unlock success for their students. By taking a tailored approach to teaching, teachers can create a more engaging and supportive learning environment that caters to the individual needs of each student. Personalization can enhance academic outcomes, motivation, and engagement, while also building trust and respect between teacher and student. With careful planning and preparation,

teachers can implement effective personalized instruction strategies that help their students achieve their goals and reach their full potential.

In this article, the discussion could focus on the benefits and challenges of implementing a personalized teaching approach in the English language classroom. Some possible discussion points could include:

The benefits of personalization: The discussion could explore the ways in which personalization can improve student motivation, engagement, and learning outcomes. It could also examine how personalization can help teachers meet the diverse needs of English language learners, and create a supportive and inclusive learning environment.

The challenges of personalization: The discussion could also explore the challenges that teachers may face when implementing personalized learning strategies. These challenges could include managing diverse learning needs, finding appropriate resources, and managing time and workload.

Best practices for implementing personalization: The discussion could also provide practical tips and strategies for English teachers to implement personalized learning effectively in their classrooms. This could include strategies for managing diverse learning needs, using technology to support personalization, and adapting lesson plans to meet individual student needs.

Evidence-based research on personalized learning: The discussion could also examine the academic research on personalized learning and its impact on student motivation, engagement, and learning outcomes. This could include a review of studies that have shown the effectiveness of personalized learning, as well as an exploration of the theories of learning and teaching that underpin the concept of personalization.

By exploring these discussion points, the article could provide a comprehensive analysis of the benefits and challenges of personalized learning, and equip English teachers with the tools and strategies they need to implement this approach effectively in their classrooms.

Conclusion

In conclusion, the power of personalization can unlock success for English language learners by creating a supportive and engaging learning environment that meets the unique needs of each student. Personalization can improve student motivation, engagement, and learning outcomes, and help teachers create a more inclusive and diverse classroom. English teachers can implement personalized learning effectively by following best practices in teaching, using technology to support personalization, and adapting lesson plans to meet individual student needs. They can also draw on academic research and evidence-based practices to inform their teaching strategies and ensure that they are meeting the diverse needs of English language learners. Overall, adopting a personalized teaching approach can lead to improved learning outcomes and success for English language learners. By providing practical tips and strategies for English teachers to implement personalized learning in their classrooms, this article aims to equip teachers with the tools they need to create a supportive and engaging learning environment that meets the diverse needs of their students.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Hwang, G. J., Lai, C. L., & Wang, S. Y. (2016). Seamless flipped learning: A mobile technology-enhanced flipped classroom with effective learning strategies. *Journal of Computers in Education*, 3(2), p 187.
2. Cavanaugh, C., Barbour, M. K., & Clark, T. (2017). The impact of personalized learning on student performance in an eighth-grade English classroom. *Journal of Educational Research and Practice*, 7(1), p 39.
2. Hock, M., & Lee, S. (2019). Personalization in language learning: A systematic review. *Language Teaching Research*, 23(2), p 255.
3. Klassen, R. M., Perry, N. E., & Frenzel, A. C. (2013). Teachers' relatedness with students: An underemphasized component of teachers' basic psychological needs. *Journal of Educational Psychology*, 105(3), p 693.
4. Chiu, M. M., & Khoo, L. (2005). Effects of a Personalized Learning Environment on Student Engagement and Motivation. *Educational Technology Research and Development*, 53(1), p 104. <https://doi.org/10.1007/BF02504651>
5. Dornyei, Z., & Ushioda, E. (2011). *Teaching and Researching Motivation* (2nd ed.). Routledge. p 240.
6. National Council of Teachers of English. (2016). NCTE Position Statement on the Role of English Teachers in Educating English Language Learners (ELLs). <https://www2.ncte.org/statement/role-of-english-teachers-in-educating-english-language-learners/>
7. Tomlinson, C. A. (2014). *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners* (2nd ed.), p 304.
8. U.S. Department of Education, Office of English Language Acquisition. (2016). *English Learner Toolkit*. <https://www2.ed.gov/about/offices/list/oela/english-learner-toolkit/index.html>
9. Ke, X., & Xie, Y. (2020). Exploring the effects of adaptive learning on English language teaching: A case study in a Chinese university. *Educational Technology Research and Development*, 68(6), p 2868.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Samadova Sarvinoz Samad qizi
Buxoro davlat universiteti
dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

BAG'RIKENGLIK TARBIYASI – DAVR TALABI

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, ularda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishda ta'lim tarbiya tizimining o'rni katta ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Key words: bag'rikenglik, yoshlar, tarbiya, bag'rikenglik pedagogikasi, globallashuv jarayoni, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik

Самадова Сарвиноза Самад кизи
доцент Бухарского
государственного университета

ВОСПИТАНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация: В данной статье рассуждаются о воспитании молодёжи в процессе глобализации в духе толерантности, об огромной роли системы воспитания в формировании культуры толерантности у них.

Ключевые слова: толерантность, молодежь, воспитание, педагогика толерантности, процесс глобализации, межнациональное согласие, религиозная толерантность.

Samadova Sarvinoz Samad qizi
Associate professor of Bukhara State University

EDUCATION OF TOLERANCE IS THE REQUIREMENT OF THE TIME

Annotation. In this article, it is analyzed that in the process of globalization, the role of the educational system in educating young people in the spirit of tolerance and forming a culture of tolerance in them is great.

Key words: tolerance, youth, education, pedagogy of tolerance, globalization process, interethnic harmony, religious tolerance..



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N37>

Kirish

Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy integratsiya, globallashuv jarayonida xalqlar, millatlar, davlatlar o'rtasida tinchlik va barqarorlikni taminlashda millatlararo hamda dinlararo bag'rikenglik g'oyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimi yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashning muhim omili sifatida e'tirof etilib, rivojlangan davlatlarda ta'lim jarayonini baynalmilallashtirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyatlararo

munosabatlarda bag'rikeng, kreativ va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga ustuvorlik berilgan.

Dunyoning AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarining ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'limning globallashuvi jarayonida yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan bilim va ko'nikmalar majmuini shakllantirish, ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishning innovatsion texnologiyalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlari yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlarida "Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash"[1.1] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bag'rikenglik tarbiyasi, yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash dunyo miqyosida dolzarb masaladir. Xorijlik olimlardan B.Readonning "Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam" asarida, S.Mendusning "Tolerantlik" nomli asarlarida bag'rikenglik tushunchasining nazariy asoslari, mazmuni, bu xususiyatni tarkib toptirishning huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy qirralari, bag'rikenglik va zamonaviy jamiyat ziddiyatlari masalalari o'rganilgan.

Rus olimlari A.M.Baybakov "Kichik guruhlarida o'zaro tasirga kirishish sharoitida bag'rikenglik tarbiyasi", R.R.Valitova "Bag'rikenglik axloq muammosi sifatida", D.V.Zinovev "Bo'lg'usi pedagogning pedagogik mahoratini ijtimoiy bag'rikenglikni shakllantirish asosida oshirishda", I.V.Krutova "Gumanitar fanlarni o'qitishda katta sinf o'quvchilarida bag'rikenglikka munosabatni shakllantirish ijtimoiy qadriyat sifatida", P.F.Komogorov "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining shaxslararo munosabatlarida bag'rikenglikni shakllantirish", O.B.Skryabina "Yuqori sinf o'quvchilarida kommunikativ bag'rikenglik shakllanishining pedagogik shart-sharoitlari", G.Soldatova "Bag'rikenglikning amaliy psixologiyasi tahlili" mavzularida bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

O'zbek olimlaridan E.G.Karimova "O'zbek tolerantligining etnoregional xususiyatlarini sotsiologik o'rganish", Z.M.Husniddinov "O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash omillari va muammolari", D.Alimova "Jadidchilik va diniy bag'rikenglik", G.Aripova "Oilada tolerantlik tafakkurini shakllantirish" mavzularida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bag'rikenglik tushunchasini asosan falsafiy, sotsiologik, psixologik nuqtai nazardan tadqiq qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, analiz, sintez, so'rovnoma, monitoring kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash mexanizmlarining asoslanganligi, interfaol metod, shakl va vositalarni qo'llashga doir

tavsiyalar ishlab chiqilganligi, ularni tajriba-sinovdan o'tkazilganligi, diagnostik mezonlar va ko'rsatkichlarining aniqlashtirilganligi, talaba yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish izchilligining taklif etilgan mezonlarga mosligi ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar

Bag'rikenglik o'zbek xalqining eng oliyanob fazilatlaridan biridir. Ushbu tushuncha keng ma'noni anglatib, uni turli xil talqin qilish mumkin.

Bag'rikenglik - o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatlilik, g'amxo'rlik, saxiylik kabi ma'naviy fazilatlarni ifodalovchi tushuncha.

Bag'rikenglik o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, muomala va munosabatda kamsitish va tahqirlashga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, mahalla-ko'yda bunga rioya etishni anglatadi. [4.35]

Ushbu tushuncha keng dunyoqarash, samimiy munosabat, hur fikr, vijdon va e'tiqod asosida vujudga keladi. U faqat ma'naviy burchgina emas, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir.

Xalqimizga azaldan xos bo'lgan xislat-bag'rikenglik o'z-o'zidan qisqa fursatda paydo bo'lgan emas, u biz uchun an'anaviydir. Tarixga nazar tashlasak, hozirgi O'zbekiston hududi insonlarda ilk diniy tasavvurlar va aqidalar paydo bo'lgan eng qadimgi o'lkalardan biridir.

Insoniy fazilat an'analari qadimdanoq aynan Sharq xalqlariga xos xususiyat bo'lib, u hozirgi davrgacha avlodlar tomonidan saqlanib, davom etib kelmoqda. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, buyuk davlat arboblari Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida bag'rikenglik o'z-o'zini anglash, murosa bilan yashash, o'zaro hurmat, sabr-toqat, qanoat, shukr, kechirimlilik, chidamlilik, bir-birini qadrlash, xolislik, sahovatli bo'lish, rahmdillik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar va o'z asarlarida bu haqida kengroq yoritib beradilar.


Insoniyat uchun eng katta boylik tinchlikdir, tinchlikning manbai esa ahillik va hamjihatlikdir. O'zaro totuvlik va do'stlik, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari barqaror go'shadagina inson emin-erkin yashaydi, har qanday orzusiga erishadi. Shu jihatdan qaraganda, bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy yutug'imiz, Yurtboshimiz uqtirganidek, avvalo, Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik va hamjihatlik, do'stlik va birdamlik muhitidir. Bunday bebaho ne'matlarning qadriga etish hamda turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgan Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, kimligimizdan qat'i nazar, barchamizning muqaddas burchimizdir.

Bu haqda, fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi".[2.295]

Taniqli ma'rifatparvar adib, pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan pedagog olim Abdulla Avloniy bag'rikenglik bo'lmasa, qanday oqibatlar kelib chiqishi haqida gapirar ekan, jumladan shunday deydi: "Qaysi bir millatning orasida birlik ko'tarilib, nifoq va adovat hukm surgan bo'lsa, ul qavmning inqiroz dunyosiga yuzlanganligi tarix sahifalaridan ma'lumdur". Avloniy bu so'zlari bilan bag'rikenglik davlat va jamiyat rivoji uchun nechog'liq ahamiyatli ekanligini isbotlagan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayoni ko'p jihatdan talabalarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash asosida o'zini-o'zi tashkillashtirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi namoyon etish qobiliyatiga ega fuqaroni tarbiyalashga bog'liqdir. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida talaba yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish ijtimoiy buyurtma va malaka talablari natijalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan, hayotiy zarur, shaxslilik xususiyatlarini namoyon etish asosida ta'lim oluvchi va butun jamoa uchun zarur ijtimoiy qadriyatlarga yo'nalganlikka ega amaliy faoliyatni tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik jarayon degan xulosaga kelindi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda axloqiy, irodaviy sifatlar, emotsional xislatlarning namoyon bo'lishi va ko'rinishlari ham tadqiq etildi (1-rasm).



1-rasm. Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash komponentlari

Tadqiqot jarayonida yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash nafaqat pedagogik muammo, balki muhim ijtimoiy ahamiyat ham kasb etishi haqidagi xulosaga kelindi.

Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga doir kompetensiyaning muhim komponenti bo'lgan ko'nikmalarni rejalashtirish, individual va jamoa ishini uyg'unlashtirish, motiv hosil qilish, guruh faollari bilan ishlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va hisobga olish, o'zini-o'zi nazorat qilish, jamoa a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlash

va o'z vaqtida ularning funksiyalarini maqbullashtirish kabi muhim jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

“Bag'rikenglik pedagogikasi” degan tushuncha endilikda tez-tez ishlatilmoqda. Bu tushuncha bag'rikenglik makonini, muloqot va muomala madaniyatini shakllantirishni bildiradi. Bunda odamlar bir-birining ko'nglini tushunib, tashvishlariga hamdard bo'ladi, bir-biriga o'zaro hamnafaslik tuyg'usi bilan yashaydi.

Bag'rikenglik faoliyati deganda umumiy maqsadga erishish uchun ta'lim oluvchilar guruhini uyushtirishga yo'naltirilgan o'zaro aloqador harakatlar tizimi tushuniladi.

Bag'rikenglikni shakllantirish maqsadida pedagogika sohasida quyidagi sharoitlarni yaratish zarur:

- ta'lim muassasasida yagona bag'rikenglik muhitini yaratish;
- o'quvchilar va pedagoglarning birgalikdagi hamkorligi orqali teng huquqli muloqotga tayyorligidan iborat bag'rikenglik xislatlarini shakllantirish;
- faol ta'lim usullarining turli shakllaridan foydalanish;
- pedagoglar va o'quvchilarning muomaladagi (kommunikativ) bag'rikenglik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- pedagog xodimlarning psixologik pedagogika sohasidagi bilimdonligini oshirish dasturini ro'yobga chiqarish;
- bag'rikenglik muammosiga oid ma'lumotlilik saviyasini ko'tarish maqsadida o'quvchilarga dars berish saviyasini oshirish.[3; 69]

Bag'rikenglik sifatleri, o'z navbatida, bir qator qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir. Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda germeneytik tarbiya texnologiyalaridan foydalanish, ularning ichki kechinmalari, xotiralari, tasavvurlari va orzu-maqsadlarini faollashtirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mazkur holatda talabalarning verbal ijod namunalari pedagog tomonidan bag'rikenglik sifatlariga ega shaxsning qadriyatlar tizimi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Germaneytik yondashuv asosida talaba yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ularning hayot ma'nosini anglashi, individuallikning to'liq namoyon bo'lishini hisobga olish lozim, degan xulosaga kelindi.

Xulosa va takliflar

Hozirgi davrda jamiyatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotning jadallashishi ta'lim oluvchilarning bilimlarini muntazam oshirib borish va chuqurlashtirish, ularni fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini jadal egallash, hayot va faoliyatning barcha jabhalarida, jumladan, boshqaruv sohasida muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan yuqori raqobatbardoshlikka ega mutaxassis sifatida tayyorlashni taqozo etishiga asoslangan holda yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish lozim.

Bag'rikenglikni rivojlantirish uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan va yaxlit tizimni o'zida namoyon etishi lozim. Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash uzluksiz bag'rikenglikka doir kompetensiya elementlarining takomillashib borishiga va ta'lim turlari o'rtasida aloqadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda doimiy barqarorlik kuzatilmasligi, bu esa tarbiyaviy vaziyatlarni modellashtirish, tarbiya jarayoni sub'yektlarining his-tuyg'ulari, motivlari, munosabatlari mo'tadilligini ta'minlash strategiyalariga tayanish lozimligini ko'rsatdi.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Barkamol shaxsni ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga doir o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish;

Bag'rikenglik tarbiyasini olib borishda shu sohaga doir tarbiyaviy ishlarning xususiyati hamda yoshlar tabiatidan kelib chiqqan holda an'anaviy metodlar bilan birga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan ham foydalanish;

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, talabalar bilan milliy – madaniy markazlarga tashrif buyurib boshqa millat vakillarining madaniyati, urf-odat va an'alarini, qadriyatlarini o'rganish bo'yicha ta'lim muassasalarida “madaniyat haftaliklari” yoki “madaniyat oyliklari” tashkil qilish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3907-son qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz”. –T: “O'zbekiston”, 2017 y.
3. Belolyeva G.V., Shmeleva G.M. “Tolerantnost v pedagogike”. M., 2002 y.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.; “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi”. 2013 y.
5. Samadova S. S. K. THE SIGNIFICANCE OF THE HERITAGE OF ANCESTORS IN UPBRINGING OF HARMONIOUS GENERATION //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3. – С. 181-187.
6. Samadova S. ISSUES OF FORGIVENESS IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF GREAT SCIENTISTS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 19. – №. 19.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Ismailova Guzal Fayzullayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
ismailovaguzal545@gmail.com

PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURTI CHET TILI YO'NALISHI TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA TIZIMLI YONDASHUVLAR

Аннотасија. Ushbu ilmiy maqolada pedagogika oliy o'quv yurti chet tili yo'nalishi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda tizimli yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, oliy ta'limda mustaqil ishlarini tashkil etish tizimli yondashuvlari orqali, o'quv jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini samarali rejalashtirish va tashkil etish ushbu maqsadga erishishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ishlarni tashkil etish, chet tili, tizimli yondashuv, dasturiy-metodik ta'minlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter dasturlari, ta'limning interaktiv shakllari.

Исмаилова Гузаль Файзуллаевна
Навоийский государственный
педагогический институт преподаватель
кафедры английского языка и литературы

СИСТЕМНЫЕ ПОДХОДЫ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ИНОЯЗЫЧНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация. В данной научной статье были рассмотрены системные подходы к организации самостоятельной работы студентов-иностранцев педагогического вуза. А также эффективное планирование и организация самостоятельной работы студентов в ходе образовательного процесса за счет системных подходов к организации самостоятельной работы в службах высшего образования для достижения поставленной цели.

Ключевые слова: организация самостоятельной работы, иностранный язык, системный подход, программно-методическое обеспечение, информационно-коммуникационные технологии, программы для ЭВМ, интерактивные формы обучения.

Ismailova Guzal Fayzullayevna
Navoi State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of
English Language and Literature

SYSTEMATIC APPROACHES IN ORGANIZING THE INDEPENDENT WORK OF STUDENTS OF FOREIGN LANGUAGES OF THE PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION

Annotation. In this scientific article, systematic approaches to the organization of independent work of foreign language students of the higher educational institution of pedagogy were considered. Also, effective planning and organization of students' independent work during the educational process through systematic approaches to organizing independent work in higher education serve to achieve this goal.

Keywords: organization of independent work, foreign language, systematic approach, software-methodical provision, information and communication technologies, computer programs, interactive forms of education



<https://doi.org/10.47390/A1342V3I4Y2023N38>

Kirish

Chet tilini o'qitish metodikasi va o'qitish talabalarining mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etish muammosi bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi kunda ish beruvchilarning oliy ta'lim bitiruvchilariga qo'yayotgan talablari ularning tanqidiy va tahliliy fikrlash, o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sharoitlarga tez moslashish, bilimlarni mustaqil egallashga tayyor bo'lish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati bilan bevosita mosligidadir.

Oliy ta'lim muassasa talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish uchun qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida talabalarining mustaqil ishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan ta'lim muhitini yaratish uchun eng samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Talabaning chet tilini o'rganishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001yil 16 avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-son qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomasi bo'yicha mustaqil amaliy bilimi shaxsiy muhim va kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni olish, chet tilidagi maxsus adabiyotlar va manbalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatini anglatadi[1;2;]. Ushbu maqsadga erishishga "Chet tili" fanining asosiy ta'lim dasturi mazmunining tegishli mazmuni, jumladan, o'quv jarayonini rejalashtirishning yaxlit tuzilmasining tarkibiy qismi bo'lgan talabalarining mustaqil ishlari ham yordam beradi. Talabalarining mustaqil ishlarining rolini oshirish O'zbekiston oliy ta'limini modernizatsiya qilishning dolzarb omillaridan biridir. Oliy ta'limda ta'lim standarti talabalariga muvofiq, "Chet tili" fanining doirasida mustaqil ish tufayli fanni, shu jumladan chet tilini o'rganish uchun til kompensatsiya qoniqarli darajada emas. Shu munosabat bilan, mustaqil ish talabalarining bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki kognitiv motivatsiyasini, o'z-o'zini rivojlantirishga, o'z-o'zini takomillashtirishga intilishlarini faollashtiradi.

Tadqiqotimiz natijasida "mustaqil ish" talabalar bilmini mustaqil ravishda olish va uni sifat jihatidan o'zlashtirish, bilimlarni o'zlashtirishda natijalarni tahlil qilish va ko'nikmalarni rivojlantirish talabalarining mustaqil ishi bilan ta'minlanadi deb hisobladik. [2].

Ilmiy izlanishimiz davomida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish samaradorligini oshiradigan bir qator tizimli yondashuvlar aniqlandi:

- chet tilini o'rganishda talabalarining mustaqil ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- onlayn hamda offlayn ta'lim elementlari bilan kompyuter testidan foydalanish;
- talabalarining o'quv va kasbiy faoliyatdagi o'z-o'zini rivojlantirishga, o'z-o'zini takomillashtirishga tayyorligi;

- talabalarga ma'lumotni qayta ishlash va o'zgartirish usullarini o'rgatish (tanqidiy fikrlash, izohlash, umumlashtirish, eslatma olish, reja tizish va boshqalar);
- o'quv faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini o'rgatish;
- mustaqil ish uchun tabaqalashtirilgan ko'p bosqichli vazifalar majmuasini yaratish (reproduktiv, samarali, proektiv, ijodiy);
- talabalarning mustaqil ishlarini baholash tizimini ishlab chiqish;
- eslatmalar, ko'rsatmalar, algoritmlar, bajarish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish uchun mashqlar va javoblarini o'z ichiga olgan topshiriqlar bilan talabalarning mustaqil ishini tashkil etish maqsadida dasturiy va uslubiy yordamni ishlab chiqish, shuningdek ushbu ma'lumotnomaning natijaviyligini nazorat qilish;
- oraliq nazorat va yakuniy nazorat uchun jadvallar bo'yicha chet tilidan talabalarga uzoq muddatli topshiriqlarni bajarishda o'qituvchi tomonidan maslahat yordamini tashkil etish. [4]

Talabalarning mustaqil ishi mazmuni, topshiriqlarning mazmuni va o'qituvchining ishtiroki darajasiga qarab har xil xarakterga egaligi aniqlandi:

- 1) o'qituvchi topshiriqning bajarish uslubi va xarakterini ko'rsatganda;
- 2) o'qituvchi ko'rsatgan bajarish uslubi talaba tomonidan takrorlanganda;
- 3) vazifa to'liq talabalarga yuklanadi: ular mustaqil ravishda materialni tahlil qilish jihatini tanlashadi;
- 4) mustaqil izlanish, ma'lumotni tanlash, baholash hamda uni essey, referat, konferentsiya ma'ruzasi, chet tilidagi maqola, kitob tarjimasini bo'yicha ijodiy izlanishlar yozish uchun o'zgartirish.

Mustaqil ta'lim usulining asosiy maqsadi talabalarga turli fan sohalaridagi bilimlarni birlashtirishni talab qiladigan amaliy masalalar yoki muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini berishdir. Agar biz pedagogik texnologiya sifatida ushbu usuli haqida gapiradigan bo'lsak, unda bu texnologiya ijodiy xarakterga ega bo'lgan tadqiqot, izlanish, muammoli usullar majmuasini nazarda tutadi.

Natijalar

O'zbekiston pedagogika oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari chet tilida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning bir qator samarali shakllari va tashkiliy vositalarini ajratib ko'rsatishadi, masalan: taqdimotlar, o'quv dialoglari va matnlar, loyihalar, portfoliolar, esseylar, tanqidiy fikrlash texnikasi, axborot va aloqa texnologiyalar, interaktiv kompyuter o'quv dasturlari, Internet, bloglar, test, dasturiy ta'minot va uslubiy yordam.

"Chet til" fanidan mustaqil ish dasturi har bir universitet tomonidan alohida ishlab chiqiladi va ta'lim standartining milliy-mintaqaviy va universitet yo'nalishini ifodalaydi. "Chet til" fanidan talabalarning mustaqil ishi dasturi auditoriya ishlarini to'ldirishga mo'ljallangan.

"Chet tili" fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun dasturiy ta'minot va uslubiy yordamni loyihalashda chet tili o'qituvchilari tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlovchi moslashuvchan va zamonaviy shakllardan foydalanadilar. O'zgaruvchanlik o'quv rejasini ishlab chiqishni, ta'lim jarayoni sub'ektlarining lingvistik va kasbiy manfaatlarini hisobga olgan holda dasturiy va uslubiy ta'minot shakllari va vositalarini tanlashda ustuvorliklarni belgilashni o'z ichiga oladi.[5]

Uchinchi renessans nomi ta'lim standartilari bilan bo'g'liqligi, ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil ishi yangi sifat kasb etadi: haqiqiy o'quv ishlaridan va chet tili nafaqat lingvistik, balki kasbiy bilimlarni ham egallash vositasi sifatida ishlaydi.

Bu yo`nalish talabalarning mustaqil ishlarini bajarishidagi rivojlantirish, tasavvur va qiziqishlarini rivojlantiradi. Mustaqil vazifalarni tayyorlash jarayonida talabalarning ijodiy va intellektual salohiyati ochib beriladi. Loyiha usuli tadqiqot ishlarini olib borish, jamoada ishlash, muhokamani olib borish, muammolarni hal qilishga o`rgatadi. Zamonaviy jamiyatdagi hayot talabalardan o`z fikrlarini rivojlantirish, takomillashtirish tajribasini dalillar zanjirini hosil qilish, o`z fikrlarini aniq va ishonchli ifodalash kabi muhim kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi. Mustaqil ishlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi talabalarga savollar berish va hal qilinishi kerak bo`lgan muammoni tushunishni o`z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash individual mustaqil xususiyatga ega bo`lib, har kim o`z g`oyalarini yaratadi, boshqalardan mustaqil ravishda o`z baholari va e`tiqodlarini shakllantiradi, muammoning o`zi yechimini topadi va uni oqilona, asosli va ishonchli dalillar bilan tasdiqlaydi.

Muhokama

